




NAMANGAN  
DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

ISSN: 2992-9008

UDK: 37

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL



2024-YIL 1-SON



**Bosh muharrir:** Namangan davlat pedagogika instituti rektori **B.E.Xusanov**  
**Mas’ul muharrir:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **M.R.Qodirxonov**

**Mas’ul muharrir o'rinnbosari:** Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i **J.A.Yuldashev**

## **T A H R I R   H A Y ’ A T I**

**Aniq va tabbiy fanlar:** akad. **K.Tojibayev**, akad. **A.To'rayev**, k.f.d., prof. **Sh.Abdullayev**, f-m.f.d., dots. **R.Xakimov**, b.f.d., dots. **A.Batashov**, f-m.f.n., dots., **T.Abdullayev**, p.f.n., dots. **M.Eshnazarova**.

**Texnika fanlari:** t.f.d., prof. **A.Umarov**, PhD. **Sh.Xudoyqulov**, PhD. **Abdunazarov**.

**Ijtimoiy gumanitar fanlar:** s.f.d., prof. **T.Fayzullayev**, tar.f.d, prof. **A.Rasulov**. f.f.d., prof. **M.Ismoilov**, i.f.d., dots. **N.Sotivoldiyev**, t.f.n., dots. **A.Isoqboyev**, f.f.n., dots. **O.Mamatov**, t.f.n., dots. **Z.Haydarov**, PhD. **J.Yuldashev**, PhD. **A.Abdullayev**.

**Pedagogika fanlari:** p.f.d., prof. **U.Inoyatov**, p.f.d., prof. **B.Xodjayev**, p.f.d., prof. **SH.J.Yusupova**, p.f.d., prof. **O'M.Asqarova**. p.f.d., prof., **M.Y.Sobirova**, p.f.n., dots., **Sh.Ubaydullayev**, p.f.n., dots. **G.Nafasov**, PhD. **M.Asranboyeva**, PhD. **B.J.Urinov**.

**Filologiya fanlari:** fil.f.d., prof. **N.Uluqov**, fil.f.d., prof. **H.Usanova**, p.f.n., dots. **S.Misirov**, PhD.,dots. **P.Lutfullayev**, PhD., dots. **M.Yakubbayev**

**Texnik muharrir: R.Tursunov**

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

**Pochta indeksi:** 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

**Email:** [Info@namspi.uz](mailto:Info@namspi.uz)

“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 1-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 12-fevral 2024-yildagi 2-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 02). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



## **I. TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI:**

### **UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FIZIKA O'QITISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

*Baratov Jo‘raqo‘zi Shukurjon o‘g‘li,*

*Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filiali katta (PhD) o‘qituvchisi.*

*[Tel:+99891-698-16-15 baratovjoragozi@gmail.com](mailto:Tel:+99891-698-16-15 baratovjoragozi@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola umumiy o’rta ta’lim o’quvchilarining bilim, malaka va ko’nikmalarining rivojlanishi uchun muhim o’rin egallaydi, shu asnosida uzluksiz ta’limda nostandard topshiriqlarni qo’llash o’quvchilarining fanga bo’lgan qiziqishini orttiradi shunigdek matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarning bog’likni taminlash uchun hizmat qiladi. O’quvchilarining bilim darajasini rivojlantirish, ulardagi fikrlash doirasini kengaytirish, fanlararo bog’liqlikni aks ettirish, fanga bo’lgan qiziqishni orttirish hamda kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muhim o’rin tutadi. Bog’liqlikni rivojlantirishda masala, test va nostandard topshiriqlarni ko’rib chiqish orgali talabalarda fanning metodik sistemasi takomillashtiriladi.

**Kalit so‘zlar:** mavzularga oid nostandard topshiriqlar, fanlarga oid reproduktiv, produktiv va ijodiy topshiriqlar, jadval va rasmlar, xulosa chiqarish, yozilgan javoblarni izohlash, topilgan javoblar ustida tahsil va xulosa qilish, hamda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish.

**Абстрактный.** В трех статьях показано, что общее среднее образование играет важную роль в развитии знаний, умений и видения учащихся, а использование нестандартных заданий в непрерывном образовании увеличивает опыт учащихся в области естественных наук, например математики. связь физики, химии, биологии и других наук. Важное значение имеет образовательное развитие студентов, развитие их мышления, приобретение ресурсов для науки, совершенствование профессиональной подготовки. Путем рассмотрения задач, тестов и

нестандартных заданий при развитии зависимости у студентов совершенствуется методическая система науки.

**Ключевые слова:** нестандартные задания по предметам, репродуктивные, продуктивные и творческие задания по предметам, таблицам и картинкам, коррекция, постановка, интерпретация ответов, анализ и постановка по найденным ответам, корректировка сочувственной подготовленности.

**Abstract.** Three articles show that general secondary education plays an important role in the development of students' knowledge, skills, and vision, while the use of non-standard tasks in continuing education increases students' experience in science, such as mathematics. , serves to ensure the connection of physics, chemistry, biology and other sciences. Educational development of students, development of their thinking, acquisition of resources for science, and improvement of professional training are important. By considering problems, tests and non-standard tasks in the development of dependence, the methodological system of science is improved in students.

**Key words:** non-standard tasks related to subjects, reproductive, productive and creative tasks related to subjects, tables and pictures, correction, production, interpretation of answers, analysis and productions on the answers found, adjustment of sympathetic preparedness.

### **Adabiyotlar tahlili**

“Topshiriq” va “Muammoli topshiriq” tushunchalari umumiy jihatlarga ega. Masalan, L.M.Fridman muammoli topshiriq tushunchasini dastlabki tushuncha va bu muammoni yechish uchun dastlabki qadam deb hisoblaydi [1,2].

**O‘rganishi kerak:** tajribadan foydali biror narsani chiqarib olish; o‘z bilimlari orasidagi o‘zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblashtirish; o‘zining shaxsiy o‘rganish usullarini tashkil qilish (o‘rnatish) hamda muammolarni yecha olish.

**Izlash:** mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanish; turli ma’lumotlar bazasini izlash; tevarak-atrofni o‘rganish (surishtirish); ekspertdan maslahat olish; zaruriy

ma’lumotlar olish; hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

**O’ylash:** o’tgan va hozirgi voqealar orasidagi o’zaro bog’liqlikni topmoq; jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy èndashmoq; murakkablik va o’ziga bo’lgan ishonch yo’qolishiga qarshi turmoq; bahslashuvlarda o’z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazariga ega bo’lmoq; o’qiyottgan va ishlaètgan joydagi siyosiy va iqtisodiy muhitning muhimligini anglash; salomatlik, iste’mol qilish, tasviriy san’at va adabiy asarlarni baholay bilish.

**Hamkorlik qilish:** guruhda ishlash va hamkorlik qila olish; qarorlar qabul qilish, anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish; kelisha olish; shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

**Ishga kirishish:** loyihada qatnashish; javobgarlikni olish; guruhgaga èki jamoaga kirish hamda o’z hissasini qo’shish; hamkor ekanligini isbotlash; o’z ishini tashkil qila bilish; hisoblash va modellashtirish asboblaridan foydalana bilish.

**Ko’nikish:** yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish; tez o’zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash; yangi echimlarni topa bilish.

**Matematika-o’quvchilarning matematikada arifmetik savodxonligini shakllantirish (1-jadvaldan foydalaning).**

$$1. \quad \text{Hisoblang: } 2 + \frac{81}{64} \cdot \left( 7 + \frac{1}{9} \right) =$$

**Yechim:**

$$2 + \frac{81}{64} \cdot \left( 7 + \frac{1}{9} \right) = 2 + \frac{81}{64} \cdot \frac{(7 \cdot 9 + 1)}{9} = 2 + \frac{81}{64} \cdot \frac{(63 + 1)}{9} = 2 + \frac{81}{64} \cdot \frac{64}{9} = 2 + 9 = 11$$

**1-jadval**

	<b>Savol:</b>	<b>Javoblar (+) (-)</b>
	Misol to’g’ri yechilganmi?	
	Yechishga harakat qildingizmi?	
	Menga qiziq emas	
	Juda ham sodda	

	Oldindan bilardim	
--	-------------------	--


Fizika-o’quvchilar masalalarini yechishda arifmetik amallarning o’rnini juda ham ahamiyatga ega, shu bois mavzulararo bog’likni nostonstandart topshiriqlar asosida shakllantiramiz.

Ba’zi nazariy ma’umotlar: temperatura bu-moddaning isitiganlik darajasini aniqlovchi makroskopik parameter, uch hil birlikda o’lchanadi ( $^{\circ}\text{C}$ -gradus, K-kelvin, F-farangeyt). Temperaturani kelvinda ifdalash formulasi-  $T = (t + 273,15)\text{K}$ ,

$$\text{Farangeyt shkalasi- } F = \left( \frac{9}{5}t + 32 \right)^0\text{F}; t = \frac{5}{9}(F - 32)^0\text{C}$$

1. K, L, M jismlarning temperaturasi mos ravishda  $150\text{ K}$ ,  $27\text{ }^{\circ}\text{C}$ ,  $54\text{ }^{\circ}\text{C}$ .

Bunga asosan, ushbu jismlarning temperaturasini ko’rsatuvchi grafik qaysi biri bo’lishi mumkin? ( $T_K = 150\text{ K}$ ,  $T_L = 273 + 27 = 300\text{ K}$ ,  $T_M = 273 + 54 = 327\text{ K}$ )



1-rasm.

**Kimyo** fanidan massaning saqlanis qonuni o’rganib chiqadigan bo’lsak. Tabiatdagi har qanday o’zgarishlar izsiz yo’qolmaydi.

Kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan moddalarning ummumiyligi massasi reaksiya mahsulotlarining umumiy massasiga teng. Massanening saqlanish qonuni

**M.V.Lomonosov** og’zi payvandlangan kolba retortada tajriba olib borib, bu hodisani izohlashga harakat qilgan.

**A.Lavuazyening** izlanishlari ham yopiq idishda olib borilgan tajribalarda umumiy massa o’zgarmasligini kuzatgan va bu o’ziga xos yangilik ekanligini tushunib yetgan.

1. Hisoblang:

$\frac{CaCO_3}{100} = \frac{CaO}{56} + \frac{CO_2 \uparrow}{28}$  ushbu reaksiyada oxaktoshning parchalanishi aks etgan. Agar  $\frac{CaCO_3}{m_1 = 50\text{ g}} = \frac{CaO}{m_2 = 28} + \frac{CO_2}{m_3 = ?}$  ni toping.

2. Ijodiy fikirlashga asoslangan yani 2-rasmida ko’rsatilgan ma’lumotlar tenglik to’gri qo’llanilganmi? (javobingizni izohlang)

M.V.Lomonosov og’zi payvandlangan kolba retortada tajriba olib borib, bu hodisani izohlashga harakat qilgan

### A.Lavuazyening

izlanishlari ham yopiq idishda olib borilgan tajribalarda umumiylashtirish o’zgarmasligini kuzatgan va bu o’ziga xos yangilik ekanligini tushunib yetgan.

### 2-rasm.

**Matematika-fizika-kimyo** fanlarining o’zaro bo’gliqligini quyadani matnni o’qish davomida noodatiy topshiriqlarga duch keladilar bunday topshirilarni bajarish uchun ijodiy qobilyatlarning rivojlanishiga o’z hissani qo’shami. Nostandard topshiriqlar o’quvchi va o’qituvchilarning ish faolyatlarida hamda kelgusida katta ahamiyatga ega bo’lib ta’lim sifati rivojlanishi uchun imkon yaratib beradi.

**Topshiriq.** Yil boshida akademik Mitislav Vsevolodovich raisligida Keldishning so’zlariga ko’ra, yig’ilish bo’lib o’tdi, unda odamning parvozi masalasi allaqachon muhokama qilingani aniq edi, to’g’ridan-to’g’ri: “A uchishi kerak? (raketa massasi)” “Bunday narsa uchun”, dedi u keyin Sergey Pavlovich Korolev, - uchuvchilar eng yaxshilari o’qitiladi: **B** ularning yoshi bo’lishi kerak, Parvozdan ko’p emas, balandligi **C** cm dan oshmasligi kerak, massasi **D** kg gacha. Komissiyaga ko’proq **E** nomzodlar taklif qilindi, lekin faqat bir nechatasi orqali olishga muvaffaq bo’ldi. Mashg’ulotlar davomida guruh tuzildi **F** kishilardan iborat. Parvozga tayyorlash guruhini tashkil qilgandan so’ng, Sergey Pavlovich Korolev kosmonavtlarni tayyorlashga ko’proq e’tibor bera boshladi, Shaharcha Zvezdniyiga keldi, simulyatorlarni ko’zdan kechirdi, kosmonavtlar bilan suhbatlashdi. Va bir yil

ichida kelajak Kosmonavtlar imtihon topshirishdi. Ular orasida Yuriy Alekseevich Gagarin ham bor edi.

A	B	C	D	F	E
$2 \cdot (1000 - 20,5)$	$-4,4 \cdot 9 + 69,6$	$-7 \cdot (-10)^3 + 6,83 \cdot (-10)^3$	$\frac{-7 \cdot 3}{-0,3}$	$\sqrt{9 \cdot 10^6}$	$\frac{(2^3)^2 \cdot 3}{2^5}$

Keling, matnda nima borligini o’qib chiqaylik!

**Savol:** Qaysi matematik bilimlarni foydali deb topdingiz?.

Fizika o‘qituvchisi: 1960-yil 12-aprelda kosmik asr boshlandi va hozirgacha davom etmoqda. Keling, ikkinchi vazifani bajaramiz. Bu matn bilan ishlash va kichik-laboratoriya ishdir. Sizning stolingizda raketa modeli va uning tavsifi. Bu raketalarining haqiqiy balandligi aniqlash kerak.

### XULOSA

Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim məktəb o’quvchilarini o’qitishda nostenart topshiriqlardan foydalalanish ularda fanlarga bo’lgan qiziqshini ortirib faqat fizikani emas balki matematika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarning mavzu va mavzulararo bog’likni shakllantirish uchun juda qulay ham o’rganilgan bilimlarni qayta taklrorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR

1. Fridman L. M. Logiko-psixologicheskiy analiz školnyx uchebnyx zadach / L. M. Fridman. – M.: Pedagogika, 1977. – 146 s.
2. Fridman L.M. Kak nauchitsya reshat zadachi: Posobie dlya uchaspixsy / L . M. Fridman, S. I. Turetskiy. – M.: Prosveshenie, 1984. – 130 s.
- 2) Elkin V. I. Soobrazilki – stranichka dlya samyx malenkix. – Tekst : elektronnyy // Zanimatelnaya fizika v voprosax i otvetax : [sayt]. — URL: <http://elkin52.narod.ru/zadichi/soobras.htm> (data obrazeniya: 12.12.2022).
- 3) Kazakov A. N., YAkushhev A. O. Logika-1. Paradoksologiya. –Ijevsk : Udmurtskiy un-t, 1999. – 316 c.

- 4) Lange V.N. Fizicheskie paradoksy i sofizmy: Posobie dlya uchashixsya. – M.: Prosve-šenie, 1978. – 178 s.
- 5) Nizamov I. M. Zadachi s texnicheskim soderjaniem: Posobie dlya uchashixsya. — 2-e izd. – Moskva : Prosvešenie, 1980. –96 c.
- 6) Prostaya nauka Psixrometr svoimi rukami - fizicheskie opyty / Prostaya nauka [Elektronnyy resurs] // Youtube : [sayt]. — URL: <https://www.youtube.com/watch?v=2aF-QUsHLGw> (data obraženiya: 30.11.2022).
- 7) Baratov J. Sh. Umumiy o’rta ta’lim maktab o‘quvchilarida “Temperatura” tushunchasini nostonart topshiriqlar asosida shakllantirish. // Fizika, matematika va informatika – Toshkent, 2022. -№ 2. –B. 74-82. (13.00.00, № 2).
- 8) Baratov J. Sh. Bug’lanish va kondensatsiya, atmosferadagi hodisalar. // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi – Namangan, 2022. - № 10. -B. 437-442. (13.00.00, № 30).
- 9) Djoraev M., Samatov G.B., Xujanov E.B. Uzluksiz ta’lim tizimida fizika o’qitishni statistik metod asosida takomillashtirish. – T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2017 y. – 288 b.
- 10) Xujanov E.B., Baratov J. Molekulyar fizika va termodinamika asoslariidan nostonart darslarni musobaqa shaklida tashkillashtirish metodikasi / Fan va jamiyat – Nukus, 2021 – № 1 (2-seriya).
- 11) Baratov J. UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA FIZIKA O’QITISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 25-11-2023. –P 53-60.
- 12) Baratov Jo’raqo’zi Shukurjon o’g’li. BO’LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI./ Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – T.: № S/5 (3)-2023. 272-277-b.
- 13) Baratov Jo’raqo’zi Shukurjon o’g’li, THE USE OF NON-STANDARD TASKS IN TEACHING PHYSICS IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION. **British Journal of Global Ecology and Sustainable Development** Volume-23, December, 2023 ISSN (E): 2754-9291.



## **INFORMATIKA VA AXBORAT TEXNOLOGIYALARI BO‘YICHA ELEKTRON ENSIKLOPEDIYA YARATISH**

***Eshnazaroav Marg‘ubaxon Yunusaliyevna***

*NamDU dotsenti, p.f.n.*

***Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna***

*NamDU, Amaliy matematika mutaxasisligi magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha elektron o‘quv qo’llanmalar yaratish texnologiyasi, dunyo aholisining internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi haqidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** internet, ijtimoiy tarmoq, mobil ilova, informatika va axborot texnologiyalari, elektron o‘quv qo’llanmalar, elektron ta’lim resurslari.

Ayni vaqtida, ta’lim jarayonida o‘qitishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llash ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayonlar o‘quvchini berilgan o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirishi va ular mazmun-mohiyatini uzoq vaqt esda saqlab qolishiga, bilim-ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari ko‘p sabablarga ko‘ra favqulodda noodatiy fan hisoblanadi. Chunki bu fanni o‘qitishda o‘quv dasturidagi eng yangi, eng istiqbolli, eng dinamik va boshqa o‘ta qiziq va yangi texnologiya hamda materiallardan foydalanish kerak. Shuningdek, dars uchun o‘qituvchi va o‘quvchi ixtiyorida bo‘lgan kompyuter texnologiyalari imkoniyatlariidan unumli foydalanish uchun fanning o‘quv qo’llanmalari ham g‘ayrioddiy bo‘lishi kerak. Informatika va axborot texnologiyalari darslarini olib borish jarayonida oddiy darsliklar bilan bir qatorda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘z ixtiyoridagi yorqin va rang-barang taqdimotlardan foydalanishlari, o‘quvchilarga hissiy ta’sir o’tkazish, ularni qiziqtirish, tasavvurlarini uyg‘otish uchun mo‘ljallangan slayd-filmlargacha ega bo‘lish zarurati mavjud. Sinfda taqdimot materiallari va slayd filmlaridan foydalanishda

kompyuter imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish, o’rganish motivatsiyasini rivojlantirish hamda an’anaviy vositalarni unutish imkonini beradi. Ushbu jarayon ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi uchun o‘quv jarayonini ijodiy-kreativ muhitga aylantiradi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda perezentatsiya va slaydlarni yaratishda eng keng tarqalgan dastur Power Point hisoblanadi. Mazkur dastur matnli hujjatlar, jadvallar, grafik ma’lumotlar, illyustratsiyalarni kerakli shaklda taqdim etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Dasturning asosiy xususiyatlari mavjud ma’lumotlar va ishlab chiqilgan hujjatlarni namoyish etishni nazarda tutadi.

Birinchisi, “pedagogik texnologiyalar”, “axborot texnologiyalari”, “elektron ensiklopediya”, “elektron ensiklopediyaga asoslangan metodik o‘qitish tizimi” tushunchalarining mazmunini oydinlashtirish va aniqlashtirish hamda ikkinchisining uslubiy imkoniyatlari va ularning istiqbollarini belgilash. foydalanish.

Ikkinchisi – o‘quv jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini sintez qilishning instrumental asosi sifatida “Informatika” elektron ensiklopediyasini yaratish bo‘yicha loyihalash faoliyatining nazariy modelini ishlab chiqish;

Uchinchisi – nazariy modelni “Informatika elektron entsiklopediyasi” kompyuter dasturi ko‘rinishida amalga oshirish va informatika o‘qitishning metodik tizimini modernizatsiya qilish uchun uning didaktik imkoniyatlarini empirik aniqlash;

To‘rtinchisi – “Informatika elektron entsiklopediyasi” yangi vositasining fundamental yaroqlilagini aniqlash maqsadida informatika kursi bo‘yicha o‘quv jarayoni mazmuni loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha pedagogik eksperiment tashkil etish va o’tkazish.

Beshinchidan, “Informatika” kursidagi real o‘quv jarayoni parametrlarini “Informatika” elektron ensiklopediyasi asosida yaratilgan loyihaning o‘xshash parametrlari bilan solishtirish.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi juda tezlik bilan rivojlanib bormoqda, undan foydalanuvchilar soni ham shunga mos juda tez oshib bormoqda. Dunyo aholisi 2022 yil yanvar holatiga ko‘ra, 7,91 milliard kishini tashkil etgan va

yillik o’sish 1% ni tashkil qiladi. Dunyo aholisining yarmidan ko’pi (57%) shaharlarda yashaydi. Bugungi kunda dunyo aholisining uchdan ikki qismidan ko’prog’i (67,1%) mobil telefonlardan foydalanadi, 2022-yil boshiga kelib mobil foydalanuvchilar soni 5,31 milliard kishiga yetdi. O’tgan yil boshidan buyon o’sish 95 million foydalanuvchini tashkil etdi [4].

2022 yil boshida, yanvar oyida dunyo bo’ylab internetdan foydalanuvchilar soni 4,95 milliard kishiga yetgan, bu dunyo aholisining 62,5 foizi internetdan foydalanadi, degani. Shuningdek, yil boshida dunyo bo’ylab 4,62 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor edi, bu butun dunyo aholisining 58,4 foizini tashkil etadi. Oxirgi 12 oy ichida global ijtimoiy tarmoq auditoriyasi 10 foizdan ko’proqqa oshdi, 2021-yilda ijtimoiy tarmoqlarga 424 million yangi foydalanuvchi qo’shildi. Bundan ko’rinib turibdiki, fanlar bo'yicha, xususan, Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha elektron o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ularni Internet tarmog'iga web-saytlar yaratish orqali joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarga kanallar, guruhlar, bloklar, alohida sahifalar yaratish orqali joylashtirish, mobil ilovalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekistan Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmonining to’rtinchi Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bandida “... umumiy o’rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo’lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish; ta’lim muassasalarini qurish, ularni kompyuter texnikasi va o’quv-metodik qo’llanmalar bilan jihozlash orqali moddiy-texnika bazasini mustahkamlash” kabi dolzarb masalalar keltirib o’tilgan.

O’zbekistan Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni orqali davlatimiz tomonidan ta’limga axborot texnologiyalarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish bo'yicha katta e'tibor qaratilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalar orqali dars jarayonini olib borish o'quvchilarning bilim olish darajasini oshishiga xizmat qiladi.

O’quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ya’ni elektron o’quv adabiyotlar yaratish bu boradagi muhim ishlardir. Bugungi kunda elektron o’quv adabiyotlarini yaratish uchun oddiy algoritmik dasturlash tilidan tortib turli

pedagogik dasturiy vositalar qo’llanilmoqda. Bunday dasturlar yordamida va Internet texnologiyalaridan foydalanib fanlar bo‘yicha, shu jumladan, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha elektron o‘quv qo’llanma yaratish mumkin. Shu kunga qadar mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha multimediali o‘quv qo’llanmalar, elektron ta’lim resurslari yaratilgan, shuningdek, ularning Internet versiyalar ham yaratilib, internet tarmog‘iga ([www.edarslik.uz](http://www.edarslik.uz) saytiga) joylashtirilgan.

Elektron o‘quv qo’llanmalar, elektron ta’lim resurslari quyidagi bo‘limlardan tashkil topgan: dastur tavsifi; mavzu mazmunini tanlash; mashg‘ulotni namoyish etish qobig‘i; amaliy topshiriqlar; grafik animatsiya; ovoz berish fayllari; matnli fayllar; nazorat dasturi (test dasturi). Ushbu elektron o‘quv qo’llanma bir qator imkoniyatlarga ega: o‘quvchilar dasturning menyusi yordamida ixtiyoriy dars mavzusini tanlash va boshqa mavzuga tez o’tish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Иванова А.Ю. Практическое моделирование. Компьютерный эксперимент. Методические указания для преподавателя: Учеб. пособие. - Томск: Том. гос. ун-т систем управления и радиоэлектроники, 2005.
2. Балакина В.П. Использование программы Power Point в работе учителя информатики. Материалы XIX международной конференции «Применение новых технологий в образовании» 26 -27 июня 2008г.
3. Мария Агранович. Личность в Сети: Электронные образовательные ресурсы помогают школьникам найти себя. Российская газета - Спецвыпуск № 223(5599). <https://rg.ru/2011/10/06/asmolov.html>
4. Z.R. Durdimurotovna Rasulova. Elektron ta'lim resuruslaridan foydalanib o'quv jarayonlarini takomillashtirish ."Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842      October      2021      /      Volume      2      Issue      10,      449-458, <https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-ta-lim-resuruslaridan-foydalanib-o-quv-jarayonlarini-takomillashtirish/viewer>



## **BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Axadova Shaxnoza Odiljonovna**

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang’ich sinflarda nutq madaniyatini rivojlantirish haqida

**Kalit so’zlar:** Maktab, nutq, ijodkolik, madaniyat, ma’rifat, sog’lom oila, ijodkor pedagog, tarbiya, kreativlik, madaniy me’ros.

Qadimdan o’zbek xalqi nafaqat ilm-fan, ta’lim –tarbiyaga katta e’tibor berib kelgan balki madaniy katta me’rosga ham egadir. Bola tarbiyasida esa mehnatsevarlik, odob-axloq bilan birgalikda nutq madaniyati ham rivojlantirilgan.

Bolaning ilk dunyoviy bilimlari egallanadigan boshlang’ich sind o’quvchilarida pedagogik va psixologik tomondan nutq madaniyatining rivoji ham talab qilinadi. Darhaqiqat, shunday ekan boshlang’ich sinfdan erkin fikrlaydigan nutq madaniyatiga ega bo’lgan o’quvchilar yetkazilishi kerak. Chunki Notiqlik aslida katta mahorat va tajribaning mahsuli sanaladi. Bejizga, Abdulla Avloniy “Agar so’z aql va hikmatga muvofiq bo’lib, o’ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurg’on bo’lmasa, asalarilar orasidan g’o’ng’illab faqat bosh og’rig’idan boshqa narsa emasdir. Boshimizga keladurg’on qattiq kulfatlarning ko’pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “ Ko’p o’yla, oz so’zla ”- demishlar” demaganlar. Ayniqsa, bu kabi tushunchalarni boshlang’ich sinfdan o’quvchi ongiga singdirib borish kerak. Bejizga, O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich : Ilm-fansiz, ma’rifatsiz davlatning kelajagi yo’q deb ta’kidlamaydilar , ilm-fan esa shubhasiz, avvalo, madaniyatdan, odob-axloqdan boshlanadi. Bolalarda nutq o’stirishning o’ziga xos xususiyatlaridan biri nafaqat ravon nutqni shakllantirish balki, nutq madaniyatini ham rivojlantish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.Ravon nutqni rivojlantirish asosan ikki yo’nalishda shakllantiriladi. Birinchisi mashg’ulott jarayonida va ikkinchisi esa mehnat jarayonida egallahshadi. Boshlang’ich sind nutqining madaniyati uning axloqi, odobi,xulqi va barcha

fazilatlari bilan belgilangan holda rivojlanadi. Bu esa madaniy, aqliy, siyosiy kabi bilimlar zamirida tarkib topib boradi. Nutq madaniyatni esa, avvalombor, oila tarbiyasidan boshlanadi. Odobning boshi – salom deyilgani kabi bola ilk bilimlarini oiladan oladi. Maktab hayotida esa albatta, bilimli va madaniyatli o’qituvchi – rivojlantiruvchisidir. Bunda pedagogning ijodkorligi, tashabbuskorligi kata rol o’ynaydi. Har bir gapiro yetgan nutqida, xalqimizning boy madaniy me’rosidan foydalanib o’quvchilarning ham nutq madaniyatini boyitib boradi. Bu jarayonda bola o’z nutqini erkin bayon qilishga hamda tilimizning so’zga boy lug’atlaridan to’g’ri foydalanishga asos bo’la oladi. Bu kabi masalalarga Alisher Navoi ham til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb bejizga ta’kidlamagan. Qolaversa, tilshuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo’lib chiqsa – tilning ofatidur degan hikmatlari bejizga emas. Ko’plab olimlarimiz ham bu xusuxda ko’p izlanishlar olib borishgan. K.D.Ushinskiy ona tilini birlamchi o’qitishning uchta asosiy maqsadlarini rivojlantirgan:

- So’z imkoniyatlarinin rivojlantirish;
- Bolalarni “ona tilining boylilarini egallash”ga jalg qilish;
- Til qonunlarini ya’ni grammatikasini o’rganish.

Bu uch masala ketma-ketlikda emas balki birgalikda o’rgatiladi. Shundagina bola boshlang’ich sinfdan nutq rivojlanish darajasiga olib chiqiladi. Qolaversa, nutqni rivojlantirish va madaniy me’roslarga boy bo’lishida o’zbek xalq maqollarining o’rni beqiyosdir. Misol sifatida oladigan bo’lsak, “Aytar so’zni ayt, aytmas so’zdan qayt”, “Avvalo o’yla keyin so’yla”, “Boshingga qilich kelsa ham rost gapir” kabi maqollarni dars jarayonlarida ishlatish ham bola nuitqi madaniyatini o’sishiga olib keladi. Bundan tashqari nutq madaniyatining asosi o’zbek xalq ertaklari ham hisoblanadi. Qissadan hissa chiqarib olish va ma’no- mohiyatini tushunish ham katta madaniyatni rivojlantiradigan manbaalardan biridir. Yanada bolalar nutq madaniyatining rivojlanish pog’onasida Sharq yozma adabiyotlarida “pandnoma”, “nasihatnoma”, “axloq kitoblari” singari asarlар bolalar adabiyotining namularidir. Bolalar adabiyotiga kirib kelgan Alisher Navoiyning “Hayrat ulabror”, “Mantiq ut-tayr” va “Mahbub ul-qulb asarlari”, Gulhaniyning “Zarbulmasal asarlari ham yaxshi insoniy fazilatlar ruhiyatini tarbiyalashda xizmat qilib keladi. BU kabi ulkan madaniy me’rosimizni esa nafaqatbo’qib, yod olib,

qauyta aytib berib balki o’ion shaklida ham o’rgansa bo’ladi. Misol tariqasida shuni aytish mumkin, ya’ni bir o’quvchi maqolning boshini aytsa qolgani davom ettiradi. Yoki o’quvchi shu she’rni yod olib qo’shiq qilib kuylab aytib beradi. Xalq ertaklarini esa dars jarayonlarida vaqtga mo’ljallab sahna ko’rinishi kabi ijobiy tomonlama ijodkorlik qilish , shubhasiz, kreativ o’qituvchiga bo’liq bo’lgan jarayondir.

Bugungi kunda jamiyatning asosiy negizi bo’lmish oilaga ko’p narsa bog’liq. Bola trabiysi nafaqat o’qituvchining balk iota –onaning ham zimmasiga yuklatilgan. Jamiyatni rivojlantiradigan esa – sog’lom oila muhitidir. Shunday ekan, har taraflama qo’llab –quvvatlangan jamiyat a’zolarining kichik qatlami bo’lmish boshlang’ich sinf o’quvchilari har tomondan qo’llab – quvvatlab turiladigan bugungi hayotimizda eng dolzarb muammolarimizning yechimi bo’lsa ajab emas! Shundagina boshlang’ich sinf o’quvchilari madaniy boy me’rosimizdan foydalangan holda madaniy bot me’rosimizga ega bo’lishadi.

Jamiyat a’zolarini ona tilining maxsus shaklida (madaniy shaklida) gapiraoli shga o’rgatishni ko’zda tutadi. Tilning bunday shakli ma’lum bir milliy tilda gaplashuvchi ijtimoiy guruhlarning barchasi uchun mushtarak bo’lgan til - adabiy tildir. Shu tufayli nutq madaniyati uchun kurash bu kishilarning o’zaro har qanday fikr almashishini madaniylashtirish (masalan, sheva yoki lahjalarda gaplashishi) uchun kurash emas, balki butun millat a’zolari uchun yagona bo’lgan adabiy tilda to’g’ri fikr almashish uchun kurashdan iboratdir. Tilshunos G. Vinokur nutq madaniyati haqida fikr yuritar ekan, muammo «barcha, umum uchun tegishli» chora ekanini ta’kidlagan. Tilshunos M.G. Ferman yozadi: «Kishining nutq madaniyatiuning umumiymadaniyli gi darajasining oshishi bilan bevosita aloqadordir.

Chunki u o’zining xilmaxil fikr vamushohadalarini nutqi orqali ifodalaydi. Nutq madaniya-tining pastligi, bir tomondan kamchilikni, ikkinchi tomondan esa, uning o’z fikrini savodli va tushunarli shaklda izhor qila olishga o’rganmaganligini ko’rsatadi». I. N. Serkovnitskiy fikricha, nutq madaniyati shaxsning madaniy kamolatining tarkibiy qismidir. Nutqxalq erishgan madaniyat darajasini o’zida ifoda etadi.

Har bir kishining nutqi uning madaniylik darajasini ko’rsatuvchi yorqin va ishonchli dalilidir». Adabiy tilning turli madaniy va kommunikativ

vositalar orqali (radio, , teatr, kino, matbuo, lektsiyalar) lahjaviy nutq va so‘zlashuv tiliga o‘tkaza-yotgan ta’siri tufayli yuzaga kelgan o‘zgarishlarda, ikkinchidan, qo‘yilayotgan nuqson va kamchiliklarga (masalan, matbuot tili, radio, televidenie tili, qo‘shiqlar tili va boshqalardagi) munosabati hamda bu nuqsonlarni salbiy baholashida yorqin dalili ko‘rinmoqda. Bolalar esa sinchkov bo’ladi va bu kamchiliklarni darhol sezsa boshlashadi .

Bolani nutqini va odobini rivojlantirish uning tajribasini, bilimlarini, qobiliyatini va madaniyatining asosi bo‘lgan kattalar bilan aloqasi tufayli xalqimizning ko‘p yillik tajribasini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Buni faqat insonlar bilan muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Til - hayotimizda ajralmas qism bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bajarilishi shart bo‘lgan vazifa sifatida qaraymiz. So‘zlashuv o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o’tirmaymiz. Boshlang‘ich sinfda nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o‘rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi bilimlarni ochadi. Bundan tashqari, bolalar psixologiyasi - shaxsda ma ’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi. Shunday ekan, bola psixologiyasi nutq madaniyati bilan bog’liq bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Bolalarning nutqini o‘rganishning eng qulay usuli, shubhasiz, suhbat metodi hisoblanadi. Shuningdek, bolalarning tevarak-atrofda mavjud bo‘lgan narsalami kuzatish va ularni tahlil etish, ular haqida sayrlarda uyushtirilgan savol-javoblar ham muhimdir. Shu bilan birga, bolalarning bog‘lanishli nutqini o‘rganishda ulaming tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

- Bolaning nutqi til qonunlariga to‘g‘ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o‘zining ijodiy faolligida rivojlanadi.
- Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o‘simgiliklar olami, suv osti dunyosi) to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi.
- Tilni o‘rganish, uning grammatik tuzilishiga e’tibor berib so‘zlashish, bolalarda erkin nutq yuritishi, savollar berishi, boshqalardan eshitgan fikrlaridan xulosalar chiqarish, narsa va

hodisalar o’rtasidagi uzviylikni turli ko’rinishlarini anglab yetishga olib keladi. – Boshlang’ich sinflarda soglom, tabiiy muhit yaratish, ulaming to’g’ri muomalaga kirishishi, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoyining yuqori bo’lishiga sabab bo’ladi. - Bolalarni narsalar haqida erkin gap tuza olishi , ularning o’xshash va farqli tomonlairini tushunishga oid lug’atlarini to’g’ri va madaniyat , nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologikasini takomillashtirish va nihoyat savod o’rgatishga tayyorlash mu him ahamiyat kasb etadi va sozsiz bu har ikkila tomonga uzviy bog’liq sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini boirgalikda barpo etamiz.-T, O’zbekiston, 2017.-B.14
2. F. R . Qodirov. R.M Qodirova . Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent-2006
3. Suyumov A, Kichkintoylar adabiyoti, T, 1962
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq” . - Toshkent 2008.
5. Siddiq Mo’min. “ So’zlashishb san’ati”- Farg’ona 1997
6. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O’zbeki^on Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.
7. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O’zbeki^on Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

## **TASVIRIY SAN’AT MASHG’ULOTLARIDA AN’ANAVIY TA’LIM SHAKLI VA USTOZ-SHOGIRD TIZIMINING AHAMIYATI**

***Oktyabrov Mohirjon Adhamjon o‘g‘li***

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti o‘qituvchisi*  
*oktyabrov.mohirjon1995@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada an’anaviy ta’lim shaklining san’atshunoslik, musiqa va boshqa ko’plab amaliy fanlar uchun afzallik tomonlari yoritib berilgan. Maqolada xususan tasviriy san’at darslarida an’anaviy ta’lim shakli bilan ustoz

shogirt tizimining birligida olib borilishi, yangi yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni sifatli, raqobatdosh va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida so‘z olib borilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Ta’lim, tasviriy san’at, musiqa, model, an’anaviy ta’lim, masofaviy ta’lim, texnologiya, modernizatsiya, innovatsion, ustoz-shogirt, o‘qituvchi, dars, pedagog, ijod, to‘garak.*

**Annotation:** This article highlights the advantages of the traditional form of education for art studies, music and many other applied sciences. In the article, in particular, the traditional form of education and the teacher-apprentice system are carried out together in fine arts classes, and the importance of quality, competitive and achievement of the goals set for the newly developing young personnel the word was taken.

**Keywords:** Education, visual arts, music, model, traditional education, distance education, technology, modernization, innovative, teacher, student, teacher, lesson, pedagogue, creativity, circle.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan - milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz. Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning istedodi va qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishga etibor berishga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini taminlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo‘lmadi. Unda alohida bo‘lim davlatning yoshlar siyosatini takomillashtirishga bag‘ishlangan. U O‘zbekistonning 10 million fuqarosi yoki mamlakat aholisining

31 foizini tashkil etuvchi yoshlarga nisbatan davlat siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalarni qamrab oladi.O’zbekiston Prezidentining davlatning rivojlanish istiqbollari haqidagi strategiyasida prinsipial yondashuvini ifodalaydi. Shavkat Mirziyoyev asosiy etiborni yoshlarga qaratmoqda.

Yoshlarning oliy o’quv yurlarida tahsil olib,turli iqtisosliklarni, jumladan, san’at soxasini chuqur o‘rganish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Ana shunday sharoitda o‘qib ulg‘aygan yoshlar, avlodlar uchquni paydo bo‘ldi. Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o’quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o’quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo‘ladigan mutaxassislar taylorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu borada an’anaviy ta’lim shakli va metodlarini yanada boyitish muxim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim metodlari-o’quvchi va o‘qituvchining muayyan maqsadga qaratilgan, bиргалидаги фаoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan metodlar yig‘indisini ifodalaydi.

An’anaviy ta’lim shakli - muayyan muddatga mo’ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustaxkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir.

O’quv materiali yangi va ancha murakkab bo‘lganda, an’anaviy dars - ko‘p hollarda ta’lim jarayoning birdan-bir modeli bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki an’anaviy darsda ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi. Shu bois, an’anaviy darsni “Markazda o‘qituvchi turgan o‘qitish modeli” deb ham atashadi. An’anaviy darsning asosiy maqsadi - dars mavzusining asosiy mazmunini, tushuncha va faktlarini o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Dars - oldin o‘zlashtirilgan bilimlar bilan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar o‘rtasida aloqa o‘rnatalishidan boshlanadi. Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uyga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

An’anaviy dars o’tish modelida ko’proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy ta’lim shakli oliy o’quv yurtlarida hususan tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida amaliy mashg‘ulotlar asosiy o'rinda turgani sababli ularda naturadan qarab rasm chizishning samaradorligi keng ekanligi uchun ananaviy ta’lim shakli muhim axamiyat kasb etadi. Bu borada 2019-yil butun dunyo miqyosida Covid-19 kasalligi tarqalishi davrida O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini an’anaviy ta’lim shaklidan masofaviy ta’lim shakliga o’tkazilishi oliy ta’limda san’atshunoslik, Musiqa va boshqa ko’plab amaliy yo‘nalishlar talabalarining o’zlashtirish ko’rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko’rsatgani, an’anaviy ta’lim shakli muhim ekanligini ma’lum qiladi. Bu borada oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi axborot xizmati rahbari Farhod Babashevning 2020-yil sentiyabr oyida bergen itervyusida "Men hamma ham an’anaviy ta’lim shakli samarali ekanini bilishini, lekin bu shaklga o’tish uchun maxsus komissiya qarori inobatga olinishini, masofaviy ta’lim ikkinchi semestrga qadar ham davom etishini, ikkinchi semestr esa fevralda boshlanishini aytgandim" degan so‘zlari an’anaviy ta’lim shaklining samarali ekanligiga yana bir isbot bo‘la oladi.

Odatda, an’anaviy dars berishni - passiv dars berish metodi sifatida qaraladi. Lekin darsda talabalarning faol yoki passivligi darsni qanday o’tishga va uni rejalashtirishga bog’liq. An’anaviy darsning samaradorligini oshirish va darsda talabalarning faolligini oshirish uchun yangi materialni mayda-mayda bo’laklarga bo’lib o’tish tavsiya etiladi. Shuningdek, talabalarning bu materialni qanday o’zlashtirib borayotganliklarini nazorat qilib borish va turli xil mashq va topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o’qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, xususan qalamtasvir darslarida geometrik shakllardan foydalanib dars samaradorligini oshirish metodlaridan foydalanish, rang-barang baholash metodlaridan foydalanish, ta’lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Oliy ta’limda tasviriy san’at o’quv jarayonini tashkil etishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o’quv uslubiy majmualar sifatini

taminlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o‘qituvchilarining kompyuter va Internetdan foydalanish bo‘yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta’limning axborot resurs va zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan taminotini yanada rivojlantirish; tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish oliy ta’lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo‘nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqorida fikrlardan ko‘rinib turibdiki oliy ta’lim tizimini xususan, tasviriy san’at ta’lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern — yangilangan, zamonaviy, tezkor o‘sish) o‘quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Pedagogik jarayonda to‘plangan tajribalar asosida ko‘plab usul va texnologiyalarni qo’llashga to‘g‘ri keladi, ushbu metodlardan biri ustoz-shogird ananasi asosida ishslash mustaqil ta’lim, dars mashg‘ulotlarida foydalanishni tashkil etadi.

Dars mashg‘ulotlarida ustoz bilan birligida ishslash mashg‘ulotlari talabalar ijodiy fikrlashlari va faoliyatlarining rivojlanishlari uchun samarali imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy ustaxona pedagog uchun talabalardagi tabiiy qobiliyatlarni amalga oshirish va uni har xil ijodiy faoliyatlarda qo’llashga yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni cheksiz qo’llash imkoniyatini yaratadi.

#### Bu texnologiyalar

- shaxsiyatga mo‘ljallangan;
- talabaga har tomonlama hurmat va muhabbat bilan yondoshish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash asosiga qurilgan
  - yakkama-yakka ta’lim texnologiyasi;
  - talabalar bilan birga maqsadni belgilab olish, ular bilan birga ijod qilish, ularga do‘s’t sifatida qarash, ularning qiziqishlariga, ijobjiy hissiyotlarining hamohangligini yaratishga qaratilgan
    - pedagogik hamkorlik texnologiyasini;
    - ijodkorlik imkoniyatlarning rivojlanishi darajasidagi
    - tabaqlashtirilgan ta’lim; muammoli holatlarni yaratish va talabalar uning yechimini mustaqil ravishda topishlarini faollashtirishga qaratilgan
      - muammoli ta’lim; talabaning shaxsiyatini tarbiyalash, uning ilmiy tadqiqot, ijodiy faoliyati qobiliyatlari imkoniyatini loyihalashtirish usuli bo‘yicha xususiy

texnologiyani qo’llash kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni misol qilish mumkin.

Dars mashg‘ulotlarida ustoz shogirt tizimiga asoslangan usul; quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi.

- talabaning ta’lim jarayonida va hayotiy faoliyatida olgan bilim, ko’nikma va mahoratlarini takomillashtirish;

- mustaqil ijodiy izlanish ko’nikmalarini rivojlantirish; - tasviriy san’atning barcha tur va janrlariga qiziqishlarini oshirish, har xil materiallar texnikalarni o’zlashtirish xohishlarini rivojlantirish; - olgan bilimlarini amalda kundalik hayotda qo’llash, shaxsiyatini va atrof borliq haqidagi fikrlarini tubdan o’zgartirish;

- inson hayoti tabiat, san’at, kundalik turmush bilan uyg‘unligini idrok etish haqidagi ma’naviy savodxonligini oshirish; -ustozsiz faqatgina ko’chirma ishlariga tayanib qolmaslik to’g’ridan-to’g’ri oldingizga qo'yilgan haqiqiy modellar yordamida chizishda to’g’ridan-to’g’ri metodlarni o’rganish;- milliy qadriyatlarni va urf odatlarni sevish, hurmat qilish hissini tarbiyalash; - jamiyatdagi o’z o’rnini topishda, o’z ijodiy mehnat mahsullarining jamiyatga nechog‘lik kerakligini his qilish, o’tmishdagi ajdodlarimiz merosiga hurmat nazari bilan qarash va kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash.

Dars mashg‘ulotlarida nimani amalga oshirish kerakligini asosan shogirdning o’zi tanlaydi, ustoz faqat uning ishidagi xatolarini tuzatib, qanday tasvirlash vositalaridan foydalanish mumkinligi haqida maslahatlar beradi. Ustoz va shogirdning birgalikdagi harakati asosida ijodiy faoliyat yaratiladi.

Shogird tasviriy san’atning qaysi turi yoki janrida ishni boshlashni xohlasa, ustoz yordamida o’zining faoliyatini rejalashtiradi: eskizlar bajaradi, ishslash uchun material tanlaydi, ish joyini tayyorlaydi keyin o’ylagan rejasini amalga oshirishga kirishadi. Ijodiy ustaxonadagi har bir shogird - bu o’z asarini tomoshabinlar hukmiga qo'yishga tayyorlanayotgan rassom.

Ustoz shogirt tizimida asosiy e’tibor har bir talabaning hohishi va qiziqishlari asosida har bir talaba shaxsiy xususiyatini hisobga olib tuziladi. Ammo pedagog nafaqat talabaning shu paytgacha o’zlashtirgan bilimlari, ko’nikma va malakalarini hisobga olishi, balki o’sish nuqtasini ham belgilab borishi, kelgusidagi kamolotga erishish imkoniyatlari, estetik va badiiy didni o’stirish; badiiy fikr

doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; ularning yangi tajribalarni egallahshlarida yordamlashishi, yangi texnologiyalar va texnikalar bilan tanishtirib borishlari kerak bo`ladi. Ijodiy ustaxonada mashg`ulotda qatnashayotgan talabalarning o`zi ham doimo yangi texnologiyalarni izlashadi, yangi tajribani o`zlashtirishga, atrofdagilar bilan o`rtoqlashishga harakat qilishadi. Mashg`ulotlar jarayonida ijodiy ustaxona usulidagi ishslash metodikasining psixologik jihatlariga etibor berish juda muhim.

Sir emaski tasviriy san`at bilan endi shug`ullanishni boshlagan talabalar o`ziga ishonmaslik, o`z ishini past baholash, “men yaxshi chiza olmayman”, “chiroyli chiqara olmasamchi?”, “hech kimga yoqmasachi?”, “men umuman hech narsani eplay olmayman” kabi cho`chish hissi yuqori bo`ladi. To`garakdagi mashg`ulotlar jarayonida asta-sekin bu cho`chish hissi yo`qolib boradi, chunki tasviriy san`at mashg`ulotlarida bajargan ishlariga har doim ball qo`yib borilmaydi, tugallash uchun vaqtlar chegaralanmaydi. Oxirgi natijaga esa albatta erishiladi, ishni qaysi paytda to`xtatishni (ishini ko`rgazmaga qo`yadimi, konkursga jo`natadimi yoki biron kishiga sovg`a qilishiga qarab) talabaning o`zi hal qiladi.

**Xulosa:** Ijodkorda qobiliyat tug`ma bo`ladimi yoki doimiy mehnat qobiliyatni shakllantiradimi? Biz bilamizki, qobiliyatsiz bola bo`lmaydi, uning o`ziga xos qobiliyatini mohir pedagog – ustoz ocha bilishi kerak. Bolaning qobiliyati ikkiga: tug`ma (biologik, jismoniy va ba`zi ruhiy xususiyatlar) va keyin erishiladigan qobiliyatga bo`linadi. Savolimizga yillar mobaynida surunkasiga 6-8 soatlab shug`ullangan sozanda-xonandalar, raqqos-raqqosalar, musavvir, kompozitorlar, olim-olimlar, yozuvchi-shoirlar, barcha ijodkor ahlining javobi bitta – insonning yutuqlari ostida 1 foiz tug`ma qobiliyat, qolgan 99 foizida esa mashaqqatli mehnat yotadi. Bugungi kunda yurtimizdagi har bir bolajonni san`atning bir-ikki turini 3-4 yoshidan boshlab o`zlashtirishi, ilm olishi, o`smirlilik davridan boshlab hunar o`rganishi, axloqiy qonunqoidalarni egallahshi, hayoti, mehnat faoliyati davomida yaratuvchilik bilan shug`ullanishi uchun biz kattalar, ota-onalar, soha olimlari, mutaxassislar va o`qituvchi – ustozlar ma’sulmiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zME.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

2. Boymetov B. “Qalamtasvir”. Darslik 1 - qism. Toshkent, 2006.
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g“risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997.
4. Oktyabrov Mohirjon “TASVIRIY SAN`AT MASHG`ULOTLARINING O`ZIGA XOSLIGI” O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 15-son 20.01.2023 479-484-bet.
5. Oktyabrov Mohirjon .”QAYSI BIRI YAXSHIROQ: NATURADANMI YOKI FOTOSURATDANMI?”. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 101-103, 2023.107-109page.

#### **INTERNET RESURSLARI:**

6. <http://www.ghenadiesontu.com>
7. <https://www.joshuanava.biz>
8. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)
9. [www.Ziyo-Net.Uz](http://www.Ziyo-Net.Uz).

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING RIVOJLANISHIDA O`YINNING ROLI VA TA`LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI**

#### ***Abduvosiyeva Mahmuda***

*Namangan davlat pedagogika instituti maktabgacha va boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasi maktabgacha ta`lim yo`nalishi stajyor o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim yoshidagi bolaning rivojlanishida o`yinning roli, o`yin faoliyatining ta`lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati, o`yinning bola shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantirishdagi yordam beruvchi kuchi va bolaning motorikasini takomillashtirishdagi ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** O`yin, o`yinli faoliyat, bola shaxsiyati, rivojlantiruvchi muhit, ijodiy rivojlanish, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, ijtimoiy ko`nikmalar.

**Annotation:** This article talks about the role of the game in the development of the child of preschool age, the importance of the game activity in the process of education and upbringing, the role of the game in the development of the child's personality, its cognitive, social-emotional, creative and physical aspects, and its importance in improving the motor skills of the child.

**Keywords:** game, playful activity, child's personality, developmental environment, creative development, social emotional development, social skills.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли игры в развитии ребенка дошкольного возраста, значении игровой деятельности в процессе обучения и воспитания, роли игры в развитии личности ребенка, ее познавательных, социальных-эмоциональный, творческий и физический аспекты и их значение в совершенствовании моторики ребенка.

**Ключевые слова:** игра, игровая деятельность, личность ребенка, среда развития, творческое развитие, социальное-эмоциональное развитие, социальные навыки.

O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi maktabgacha ta`lim sifatiga alohida e`tibor qaratadi. Bola rivojlanishi va tarbiyasida faoliyatning muhim turi hisoblangan o`yin katta ahamiyatga ega. U maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyati, axloqiy-irodaviy fazilatlarini shakllantirishda samarali usuldir. O`yin orqali ta`lim berishda atrof-olamga ta`sir etish extiyoji ro`yobga chiqadi.

O`yin inson o`zligining namoyon bo`lishi, uning takomillashuv usulidir. O`yin kattalar hayotida muayyan o`rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta`lim bilan uzviy aloqada bo`lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo`ladi. Bola shug`ullanadigan ko`pchilik jiddiy ishlar o`yin shaklida bo`ladi. O`yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o`playdi. O`yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo`ladi.

O`yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san`atshunos olimlar diqqatini o`ziga tortib kelgan bo`lib, jamiyat hayotida

mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o`z o`yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan o`sha davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o`yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Maktabgacha bolalik- shaxs rivojlanishining qisqa, ammo muhim davri. Bu yillar davomida bola atrofidagi hayot haqida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma`lum munosabat shakllana boshlaydi, to`g`ri xatti-harakat ko`nikmasi va odatlari rivojlanadi, o`z harakteri paydo bo`ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshda bola shaxsini, uning axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi, o`yinda dunyoga ta`sir ko`rsatish zaruriyati amalga oshadi. Bola ruhiyatida sezilarli o`zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Mashxur pedagog A.S. Makarenko bolalar o`yinlarining rolini ta`riflab, bola hayotida o`yinni huddi kattalarning ish faoliyati, xizmatining ahamiyati bilan tenglashtiradi. Bola o`yinda qanday bo`lsa, ishda ham ko`p jihatdan u shunday bo`ladi deb hisoblaydi.

O`yin insonning butun umri davomida unga hamroh bo`lib, sehr-jodu, taqlidiy hatti-xarakat, sport, san`at va ayniqsa, uning ijrochilik shakllari bilan tutashib ketadi. O`yin jismoniy mashq va kelajakdagi hayotiy vaziyatlarga psixologik tayyorgarlik vositasidir.

O`yin malakani egallah, faoliyatni modellashtirish bo`lib, uning o`ziga xos xususiyati xulq-atvor qoidalari tizimining mavjudligidir. O`yin-bu bolalar uchun eng qulay faoliyat turi, atrof-muhitdan olingan taassurotlarni “qayta ishlash” usuli. O`yinda bolaning tafakkuri va tasavvurining xususiyatlari, uning xis-hayajonlari, faolligi va muloqotga bo`lgan ehtiyojining rivojlanishi yaqqol namoyon bo`ladi.

Bola uchun o`yin- o`zini ko`rsatish va namoyon qilish yo`li. O`yinda bola o`zi istagan qahramonga aylanadi: mehribon sehrgar, jasur jangchi, uchuvchi-fazogir, sayyoh... O`yinda bola o`zi xohlagan joyda bo`ladi: oyda, dengiz tubida, maktabda. O`yin bolaga vaqtini bir lahzaga to`xtatish, uni qaytarish va yana ko`p marotaba takrorlash imkonini beradi. Xar bir bolaning o`z dunyosi bor. Lekin u tengdoshlari qatoriga kirib kelganida o`zi uchun boshqa bolalar dunyosini “kashf” etadi. Bu juda qiziqarli va maroqli jarayondir, ammo boshqa insonni tushunish va dunyosini qabul qilish, ichki olamni ochish bola uchun juda murakkab.

O`yinda bola shaxsining barcha qirralari ochiladi, ruhiyatida yangi, yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o`tishga tayyorlaydigan sezilarli o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu bilan psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o`yinning ulkan tarbiyaviy imkoniyatlari yuqoriligini aytishadi.

“Ilk qadam” davlat o`quv dasturining II bobiga “Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari” deb nomlangan. Ushbu bobda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`lim va tarbiya jarayonining tamoyillari haqida eng asosiy fikrlar keltirilgan bo`lib xususan o`yin orqali ta`lim olish va rivojlanish haqida quyidagi fikrlar aytib o`tilgan: “O`yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta`lim berishda muhim yondashuvdir. O`yin quvonch keltiradi va bolalarni rag`batlantiradi, ularga yangi ko`nikma va bilimlarni o`rganishga, o`zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. Maktabgacha ta`lim bolaning o`yin huquqini tan oladi, o`yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta`lim olishi va farovonligiga ko`maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan olinadi.”

Davlat o`quv dasturida bolaning o`yin o`ynash huquqi tan olinadi, o`yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta`lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi

O`yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O`yin orqali ta`lim olish bolalarni ta`lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O`yin- bu bolani o`zini va atrofdagi dunyoni o`rganishga undashning tabiiy usuli. O`yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O`yin bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o`zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko`nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

O`yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta`lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xató qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va eng muhimi, o`yin ta`lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O`yin har xil bo`lishi mumkin-bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to`laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to`liq ishtirokisiz- pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko`rsatmalari yordamida

amalga oshiriladi. Erkin o`yining ahamiyatini tushunish va e`tirof etish bilan birga, uyushgan o`yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak.

Ta`lim va tarbiya jarayoni o`yin o`ynash imkoniyatini ta`minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o`yin o`ynash imkoniyatiga hissa qo`shishi kerak. O`yin uchun sharoit yaratish, ya`ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo`llab-quvvatlovchi resurslar va o`yinchoqlar bilan ta`minlash juda muhimdir.

O`yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va o`qitishda katta salohiyatga ega. Lekin bu xususiyatlarni u pedagogik jarayon doirasida qo`llanilganida namoyon qilishi mumkin. Bolaning umumiy shakllanishi va o`yin faoliyatining rivojlanishi bilan uning mustaqilligi oshadi, shu bilan birga o`yinni boshqarishda pedagogning roli ortadi. Pedagog mazmunni o`rgatish uchun rejalahtirgan xarakatlardan bolaning o`tishi o`yin emas. Bolalar xarakatlarni erkin boshlay olmaydi va ko`pincha pedagoglar rejalahtirgan faoliyat turlari yakuniy maxsulotga ega. Biz tarbiyachi sifatida bu faoliyat turlari orqali bolalarga ma`lum mazmunni o`rgatishimiz lozim bo`lsa-da, bolalar erkin o`yin faoliyatida ishtirok etishi uchun ham kun davomida ko`p vaqt ajratishimiz kerak. Bu vaqt mobaynida bolalarga o`yin uchun vaqt berish lozim, bunda kattalarning aralashmasligi yoki o`yinchilarning biri sifatida ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Ko`nikma va bilimlar o`yin orqali qiziqarli va interfaol usullarda o`rgatilganda bolalar qiziqish bilan ishtirok etadi, ma`lumotlarni tushunadilar va eslab qoladilar. Yosh bolalar uchun o`rganish va o`ynash qarama-qarshi faoliyat emas, balki aslida o`zaro bog`liq jarayon. Bolalar o`yinni targ`ib qilishda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar muhim rol o`ynaydi. Bunda ular kuzatuvchi, rejissor, o`yin ishtirokchilarini rag`batlantiradigan vositachilar sifatida qatnashishi mumkin. Bolalar o`yiniga qachon aralashish va qachon aralashmaslik kerakligini bilish ham muhimdir.

O`yin umumiy tarbiyaviy vazifalarni xal etishga mo`ljallagan. Ular orasida bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirish vazifalari ustuvor xisoblanadi. Bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida o`yin kundalik hayotda va umuman pedagogik jarayonda o`ziga xos o`ringa ega. Pedagog bolalarning qiziqishini uyg`otish, faolligini oshirish, ijobiylarini uyg`otish uchun qanday kundalik jarayonlarni o`yin shaklida qo`llash mumkinligi haqida o`ylab ko`rish

kerak. Bolalar hayotining shakli sifatida o`yinning muhim ahamiyati uning xar hil faoliyat turlariga singishidir: mehnat, kundalik jarayonlar va h.k.

O`yinning ta`lim-tarbiyaviy imkoniyatlari boshqa biron-bir faoliyat turi bilan uyg`unlikda bog`liq bo`lsa, ortib boradi. O`yinni mehnat, ko`rgazmali va konstruktiv faoliyat bilan bog`lash maqsadga muvofiq. O`yin davomida yangi o`yinchoqni yasash, atributlarni boshqacha bezashga ehtiyoj paydo bo`ladi. Kattalar yordamida bolalar shikastlangan o`yinchoqni tuzatishlari mumkin.

Pedagog bolalarning hayoti va faoliyatini o`yin shaklida tashkil etib, faollik va tashabbuskorlikni izchil rivojlantiradi, o`yinda o`z-o`zini tashkil etish ko`nikmalarini shakllantiradi.

Bolalar o`yinlarida ularning bilimi va tafakkurini boyitish uchun qachon va qanday ishtirok etishni tushunish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali pedagogning nishonasi sanaladi. O`yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o`z o`yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga, mehnatiga bo`lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O`yin bolada ko`pincha mehnat qilish xohishini uyg`otadi, o`yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O`yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo`lgan texnikaga qiziqish paydo bo`ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o`yinchoqlar bilan o`ynaydilar. Bolalar o`yining o`ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, hartakatlarini, ularning ish jarayonidagi o`zaro munosabatlarini aks ettiradi. O`yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o`rmon, metro, temir yo`l vagoni bo`lishi mumkin.

O`zbekistonda maktabgacha ta`lim mazmunini yangilash pedagogning bolalar bilan shaxsga yo`naltirilgan hamkorlikka o`tishini va pedagogik jarayonni individuallashtirilishini ta`minlaydigan o`zgaruvchanligini ko`zda tutadi. Kundalik amaliyotda pedagogik improvizasiya keng joriy etilgan bo`lib, bu pedagoglarga xar bir aniq vaziyatda bola bilan o`zaro aloqada bo`lib, o`z shakl, usul va o`qitish metodlarini tanlash imkonini beradi. Bugungi kunda maktabgacha ta`lim tashkilotiga emas, balki maktabgacha ta`lim tashkiloti bolalarga moslashishi, xar

bir bolaning moyilligi, qobiliyati, ruhiy va jismoniy salomatligidan kelib chiqib, u uchun zarur imkoniyatlarni yaratishga intilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhi honasida rivojlantirish markazlarini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida o`yin faoliyatini yetakchi rolini inobatga olish kerak. Bu esa, o`z navbatida, xar bir bolaning hissiy farovonligini ta`minlaydi, unda ijobjiy tuyg`ularni shakllantiradi, dunyoga, insonlarga, o`ziga to`g`ri munosabatda bo`lish, turli hamkorlik shakllariga kirishish ko`nikmalarini rivojlantiradi-bu esa maktabgacha ta`limning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy maqsadi nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o`yin faoliyati orqali mustaqil bo`lish ko`nikmalarini shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bola kattalar bilan bevosita muloqotida o`zining ijtimoiy tajribasi va atrof-olam to`g`risidagi tasavvurlari tizimini shakllantiradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi butun o`quv faoliyati bevosita o`yin orqali amalga oshiriladi. Bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelganida o`z xohishiga ko`ra rivojlantirish markazini tanlashi va unda o`ynashi mumkin. Yuqorida aytib o`tilganidek, guruh pedagogi mavzuli reja asosida rivojlantirish markazlarida materiallar, qo`llanmalar, turli o`yinlarni tanlab oladi. Masalan, oyning mavzusi “O`zbekiston-Vatanim manim” bo`lsa pedagog ushbu mavzuga oid turli suratlar, didaktik o`yinlar va qo`llanmalarni rivojlantirish markazlarida oldindan tanlab oladi va joylashtiradi. Bolalarning o`yin faoliyatini tashkil etish jarayonida pedagog o`yinni o`tkazish talablariga rioya qilishi tavsiya etiladi.

Bolalar bilan o`ynashda pedagogda ikkita strategiya bo`lishi mumkin:

-pedagog o`yinni oldindan o`ylangan syujetning umumiy yo`nalishi va tayyorlangan predmetni o`yin materiallari asosida mustaqil tashkil etishi yoki o`zi o`ynayotgan bolalarga qo`shilishi mumkin;

-pedagog o`yinda bolalar bilan teng asosda ishtirok etadi hamda o`yin mazmuni va jarayoniga boshqa o`ynayotganlar foydalanayotgan usullar bilan ta`sir qilishi mumkin.



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:**

- 1.Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “Ilk qadam” Davlat o`uv dasturi. Toshkent-2022.
- 2.Qodirova F.R., Toshpo`latova Sh., A`zamova M., Kayumova N.M., Maktabgacha pedagogika. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent-2019.
- 3.Qodirova F.R., Tashpulatova Sh.K. Bolalar bog`chasida metodik ishlar. Darslik T.: Voris, 2012.
4. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U. T., Ismailova M.A., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A “O`yin orqali ta`lim olish”. Metodik qo`llanma. Toshkent-2020.

## **СНИЖЕНИЕ И ПОТЕРЯ ИНТЕРЕСА К УЧЕБЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

***Toishmatova Madinaxon Kodirovna***

*Студентка Наманганского государственного педагогического института,  
факультет методики преподавания социальных и гуманитарных наук,  
направление иностранный язык и литература, английский язык*

*mtosmatova123@gmail.com +998936406051*

**Аннотация:** Интерес к учебной деятельности - это центральная часть образовательного процесса ученика, основанная на его опыте обучения в учебных учреждениях. В образовании мотивация помогает детям и подросткам сосредоточить свое внимание на важных целях и результатах. При этом они с меньшей вероятностью будут отвлекаться на потенциальные раздражители и, следовательно, смогут удерживать свое внимание в течение более длительного времени. Мотивированные учащиеся ориентированы на достижение целей. Они проявляют инициативу, стойкость, любознательность, ценят и уважают свою работу. Они охотно организуют свой собственный учебный процесс. В этой статье рассматривается проблема низкой мотивации в современном образовании и пути решения

проблем, связанных с мотивацией учащихся в учебных заведениях. Также анализируется влияние мышления и подсознания на развитие мотивации.

**Ключевые слова:** Учебный интерес, мотивация, учебная мотивация, цели, проблемы, мышление, подсознание, ученики школ, развитие, современное образование.

### **Введение:**

Учебный интерес — это своеобразие эмоционально-познавательное отношение к изучаемым в школе учебным дисциплинам. Учебный интерес проявляется в стремлении глубже и основательнее изучать тот или иной предмет, приобретать знания и умения.

Мотивация отражает что-то уникальное в каждом из нас и позволяет нам достичь таких ценных результатов, как повышение производительности, улучшение благосостояния, личностный рост или чувство цели. Мотивация — это путь к изменению нашего образа мышления, чувств и поведения.

Это уникальная вещь, которой каждый хочет достичь в современном мире. Сегодня многие люди делают все возможное, получают удовольствие от работы и достигают своих целей с помощью мотивации. Однако не все одновременно мотивированы, и в современных образовательных учреждениях мотивация участников образовательного процесса, как выяснилось, находится на очень низком уровне. Однако на это имеются веские причины и решения.

Мотивация — это способ быстрого достижения цели, основанный на психофизиологическом процессе, который направляет поведение человека, способствует его активности и работоспособности. Она представляет совокупность мотивов. Мотивация является одним из факторов, определяющих уникальность человека. Каждый индивид определяет свой набор ценностей. Для кого-то это деньги, для другого впечатления, для третьего — умение преодолевать препятствия. Ф. Достоевский писал «Жизнь задыхается без цели». Немотивированный человек, который ни к чему не стремится, мало чего может достигнуть в жизни. И, наоборот, если поставлена цель, можно достичь высоких результатов.

Впервые слово «мотивация» употребил А. Шопенгауэр в статье «Четыре принципа достаточной причины» в 1900-1910 годах. Затем этот термин прочно вошел в психологический обиход для объяснения причин поведения человека и животных. Среди отечественных психологов начала XX века, поднимавших вопросы о мотивации поведения человека, которые не утратили актуальности и в настоящее время, следует отметить, прежде всего, А.Ф. Лазурского, другой крупный отечественный психолог Н.Н. Ланге (1914) также рассуждал в своих работах о влечениях, желаниях и "хотениях" человека, в связи с вопросами о воле и волевых актах. В 20-х годах и позже вопросы мотивации поведения рассматривал В.М. Боровский (1927), Н.Ю. Войтонис (1929, 1935), стоявший на биологизаторских позициях. Нельзя оставить без внимания работы Л.С. Выготского, в которых он рассматривает проблему соотношения влечений и интересов, которая является ключом к пониманию психического развития подростка, и уделяет большое внимание вопросу о "борьбе мотивов".

В теории мотивации А. Маслоу отмечается стремление индивида к непрерывному развитию как ведущий мотив. Мотивы определяются потребностями, которые имеют несколько уровней: от биологических потребностей до потребностей самоактуализации. [1] С тех времен мотивация каждым годом становится важным аспектом для развития человечества.

### **Обсуждение:**

Мотивация важна не только для жизненной позиции, но и для целей образования. Это означает, что все ученики должны быть заинтересованы в своем обучении и развитии, однако в современном обществе существует множество проблем, связанных со снижением учебной мотивации. Мотивированные ученики с большей вероятностью реализуют свой потенциал и добываются успеха. Мотивация - важный компонент эффективного преподавания и обучения. Она не только приводит к позитивному поведению учеников, но и способствует их благополучию. Понимание того, как мотивировать детей и подростков, имеет решающее значение для обеспечения им наилучшего старта в жизни, в этом играет большую роль учебная мотивация учеников.

В образовании мотивация помогает детям и молодым людям сосредоточить свое внимание на ключевой цели или результате. При этом их не беспокоят возможные отвлекающие факторы, и поэтому они могут сохранять внимание в течение более длительных периодов времени. Мотивированные учащиеся демонстрируют целенаправленное поведение. Они проявляют инициативу, проявляют стойкость, используют свое любопытство, заботятся о своей работе и уважают ее. Они готовы организовать свой собственный путь обучения. [2]

В целом, учебная мотивация – это процесс, который запускает, направляет и поддерживает усилия, направленные на выполнение учебной деятельности. В школьной практике мотивация на учебу чаще всего выступает в форме интереса.

К сожалению, в современное образование сталкивается затруднениями с отсутствием интереса учеников образовательных школ. Проблема учебной мотивации всегда находилась в центре педагогического внимания. Соответственно, что мотивация в учебной деятельности является самым важным аспектом для учеников образовательных учреждений. Участники с высокой мотивационной позицией смогут учиться усердно и эффективно, но, многие современные ученики имеют низкую мотивацию к обучению. Следственно, это может привести образование в худшее положение, в силу того что без интереса к учебе участники образовательных школ могут потерять стремление к учебе и это приведет к интеллектуальной пассивности. Увлечь учеников уроками и заданиями могут талантливые учителя, но мотивировать их стать лучшими учениками и стремиться реализовать свой истинный потенциал может быть очень сложно. Немотивированные ученики часто чувствуют себя подавленными и расстроеными, что может привести к проблемному поведению.

“Савенкова А. А., Марихин С. В. провели исследование особенностей общения среди младшеклассников, они отмечают, что “Для учащихся младшего школьного возраста практически не характерна низкая самооценка”, однако, по мнению авторов дети из неполных семей испытывают трудности при общении, для них типична конфликтность по отношению к окружающим людям, что

может стать причиной низкой самооценки. Из-за низкой самооценки у школьников младших классов может сформироваться страх неудачи, который является камнем преткновения в мотивации к учебной деятельности. Причинами страха неудачи считаются чрезмерное давление со стороны школы, в определенных школах предъявляются завышенные требования к успеваемости учащихся, которые не соответствуют возрасту детей; также давление на младшеклассника по поводу успеваемости может исходить от родителей ученика или от конкретного учителя; учащиеся могут считать себя менее умными, чем их сверстники; у младшеклассников могут быть страхи, связанные с переходом в старшую школу, что также приводит к стагнации и страхе совершив ошибку. С другой стороны, на мотивацию школьников большое влияние оказывает концентрация внимания, поэтому, в случае если учитель не может удержать внимание младших школьников, вызвать интерес на своих уроках, это будет являться большой проблемой в мотивации к обучению. Стоит отметить, что современные дети с ранних лет сталкиваются с влиянием цифровых технологий, которые являются мощным средством по привлечению внимания, что усложняет задачу учителю при работе с такими учениками, поскольку учителю становится сложнее удерживать внимание учеников на обучении. [3]

Современное образование развивается с большими темпами, но современная молодежь теряет интерес к учебе, это происходит потому, что в обществе имеются более интересные занятия чем учеба, но мы не должны допустить необразованность нашего молодого поколения, так как это приведет к многим отрицательным последствиям. Учеников демотивирует структура и распределение вознаграждений и не воспринимают атмосферу в классе как благоприятную. Современные дети хотят более интерактивные занятия, так же более развитый темп преподавания. У учеников есть другие приоритеты, которые конкурируют за их время и внимание. Отдельные учащиеся могут страдать от физических, умственных или других личных проблем, влияющих на мотивацию.

Первый шаг к тому, чтобы узнать, как поддерживать свою мотивацию к учебе, — это узнать, как работает система мотивации нашего мозга.

“Дофамин — это химическое вещество, которое высвобождается в нашем мозге, когда мы делаем определенные вещи. Это необходимое топливо для нашего уровня мотивации. Его часто называют «химическим веществом удовольствия», потому что оно высвобождается, когда мы делаем что-то полезное, и помогает нам испытывать чувство удовольствия и волнения. Таким образом, общение с друзьями, просмотр любимого фильма или вкусная еда вызовет высвобождение небольшого количества дофамина в нашем мозге – и это то, что мотивирует нас想要 повторить это поведение.” [5]. В проявление мотивации активную роль играет наше подсознание и мышление. Мысление позволяет получить знание о таких объектах, свойствах и отношениях окружающего мира, которые не могут быть непосредственно восприняты при помощи первой сигнальной системы. А именно подсознание так же помогает человеку, направляя его деятельность. Через интуицию, сны, ощущения и предчувствия оно подсказывает нам необходимые идеи и решения. Однажды открыв эту удивительную способность, человек больше не будет беспомощным в любой ситуации. Это тоже имеет особое значение для проявления мотивации у человека, как сказано в книге “Подсознание может все!” Джон Кехо “Сознание творит действительность, а вы творите свое сознание” каждый человек уникален по-своему, и мотивация для каждого человека имеет свои проявление и влияние. Признание успеха эффективно работает при формировании новой цели, человек должен принимать каждый успех и неудачу как новый опыт для умственного развития, поскольку с помощью подсознания человек сможет повлиять на свои будущие стремления.

### **Академическое мышление**

“Появляется все больше свидетельств того, что академическое мышление чрезвычайно важно для успеха студентов. Чувство принадлежности учащихся к своей учебной среде, их представления о том, как «такие дети, как они» преуспевают в учебе, а также степень, в которой они верят, что упорный труд и настойчивость окупаются — все это оказывает мощное влияние на мотивацию учащихся.

Например, в исследовании 2011 года первокурсникам отборного колледжа были предоставлены отчеты, якобы составленные на основе опроса старшеклассников в школе. Отчет одной группы показал, что эти старшие студенты изначально беспокоились о том, пойдут ли они в колледж, но со временем эти опасения рассеялись; отчет другой группы не затрагивал проблему социальной принадлежности. Обе группы написали эссе и выступили с речами, описывая, как их собственный опыт в колледже связан с результатами опроса. Афро-американские студенты, которые читали и размышляли о том, что неопределенность в отношении принадлежности является одновременно обычным и времененным явлением, имели значительно более высокие средние баллы в течение трех лет, чем контрольная группа (которые читали опросы и писали эссе на темы, отличные от принадлежности, такие как социально-политические взгляды). ), сократив разрыв в успеваемости между чернокожими и белыми учащимися на 79 процентов.

Хорошой новостью для учителей является то, что образ мышления учащихся не высечен в камне; преподаватели имеют возможность положительно влиять на восприятие учащимися самих себя как учащихся. Результаты исследований, подобные приведенным выше, показывают, что даже относительно простые вмешательства в классе могут иметь большой эффект.” [4]

### **Как сформировать интерес к образованию:**

“Как учитель, вы можете использовать различные методы для повышения мотивации учащихся. Успешный учитель поможет учащимся достичь своих целей, используя правильные стратегии, повышающие мотивацию учащихся. Дать учащимся чувство лидерства и поставить четкие цели, использовать соревнование и вознаграждать всех может быть очень эффективными методами улучшения мотивации учащихся в классе и за его пределами.

➤     Создайте безопасную среду в образовательных учреждениях

Для повышения мотивации в учебной среде крайне важно создать безопасные и гостеприимные условия. Некоторые ученики настолько обеспокоены мыслью о неудаче, что это мешает им сделать еще один шаг к достижению своих целей. Больше всего их мотивирует то, что ученики знают, что трудности с

выполнением задания — это не конец света. Учителя должны поощрять учеников независимо от результата и следить за тем, чтобы они не были слишком перегружены ожиданиями, которые вы установили.

➤ Используйте конкуренцию и вознаграждение

Конкуренция в классе — это не всегда плохо, поскольку, если все сделано правильно, она может вдохновить учащихся сконцентрироваться и достичь своих целей. Поощряйте дружескую атмосферу соперничества в классе и предлагайте учащимся возможности продемонстрировать свои знания и способности. Кроме того, предоставление вашим ученикам возможности зарабатывать призы является отличным мотиватором. Принимая решение о приемлемом вознаграждении для учащихся вашего класса, учитывайте характеры и требования ваших учеников.

➤ Поощряйте учащихся, предоставляя обратную связь

Учащиеся, которые испытывают трудности с учебой, могут впасть в уныние и разочарование, что может снизить мотивацию. В таких случаях учителя должны предоставлять соответствующую обратную связь по обучению, чтобы помочь учащимся понять, где они допустили ошибку и как они могут исправиться в следующий раз. Разработка системы конструктивной обратной связи может помочь учащимся сохранять мотивацию усердно работать и постоянно совершенствоваться.

➤ Мотивационные стратегии для студентов

Учителя, желающие повысить уровень мотивации своих учеников, могут использовать различные методы. Стать учителем-образцом для подражания, создать безопасную и уважительную среду обучения и вырастить сообщество лидеров — это лучшие стратегии мотивации для учащихся, которые доказали свою эффективность практически в любом сценарии. [6]

### **Заключение:**

В действительности, мотивация учащихся — это ключ к успеху в учебной среде. Высокомотивированные ученики быстро достигают своих целей и помогают другим делать то же самое. Однако большинству учащихся может потребоваться поддержка со стороны преподавателей, чтобы сохранить

мотивацию и успешно учиться. Мотивация учащихся - ключевой фактор успеха в учебе и в дальнейшей жизни. Понимание факторов, влияющих на мотивацию и психическое здоровье учащихся, может помочь студентам и преподавателям оптимизировать свой подход к образованию. В настоящее время предпринимаются усилия по повышению академических стандартов, эффективности работы учителей, выявлению и поддержке школ с низкими показателями и улучшению качества знаний в учебных заведениях. Поскольку будущее страны зависит от молодого поколения, сегодняшнюю молодежь необходимо мотивировать и поощрять к учебе.

### **Список литературы:**

1. Проблемы мотивации к учебной деятельности у современных детей\ Глухова Наталья Павловна\ <https://na-journal.ru/1-2019-gumanitarnye-nauki/1524-problemy-motivacii-k-uchebnoy-deyatelnosti-u-sovremennyh-detey>
2. Проблема учебной мотивации младших школьников в современной педагогике\ Арутюнян Г.Н \ <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-uchebnoy-motivatsii-mladshih-shkolnikov-v-sovremennoy-pedagogike#:~:text=Problema%20motivatsii%20mladshih%20shkolnikov%20v%20sovremennoy%20pedagogike>
3. Отсутствие мотивации к учебной деятельности у учеников начальной школы, психолого-педагогическое сопровождение\ Степанова Т.Ю и Марихин С.В <https://na-journal.ru/7-2023-pedagogika/6098-otsutstvie-motivacii-k-uchebnoj-deyatelnosti-u-uchenikov-nachalnoj-shkoly-psihologo-pedagogicheskoe-soprovozhdenie>
4. Использование новых исследований для улучшения мотивации студентов | Фонд Карнеги по развитию преподавания\ 25 сентября 2015 г.\ Сара Маккей <https://www.carnegiefoundation.org/blog/using-new-research-to-improve-student-motivation/>
5. Как мотивировать себя на учебу - The Insight Center\ Доктор Стейси Болл\ <https://www.theinsightcentre.ie/studymotivation/#:~:text=There%20can%20be%20many%20different,in%20what%20you%20are%20learning.>
6. A list of simple ideas to improve students motivation\ Bay Atlantic University\ <https://bau.edu/blog/improve-students-motivation/>

## **KASBIY FAOLIYATDA MANTIQIY FIKRLASH KO’NIKMASINING AHAMIYATI**

***Abdullayev To’lkinali Usmonovich***

*Namangan pedagogika instituti, Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

***To‘ychiyeva Ruxsora Adxamjonovna***

*HI SCHOOL xususiy maktabi olyi toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,*

*“Xalq ta’limi a’lochisi”, erkin tadqiqotchi*

**Anotatsiya:** Bugungi kunga kelib dunyo hamjamiyati globallashuvning cho’qqisida turibdi. Ayniqsa hozirgi davrda axborot bosimining kuchliligi har birimizdan axborotlardan himoyalanishni mantiqiy fikrlash orqali muhim va foydali bo’lgan ma’lumotlarni ajratib olishni talab etadi. Bu esa mantiqiy fikrlash jarayonida kechadi. Ushbu maqolada kasbiy faoliyatda mantiqiy fikrlash ko’nikmasining ahamiyati yoritib berilgan.

Mantiq - nafaqat fikrlash qobiliyati, balki izchil va to’g’ri mulohaza yuritish hamdir. Ya’ni insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida tartibli, aniq, asosli ya’ni mantiqiy o’ylay olishi tushuniladi.

Inson tafakkuri mantiq qonunlaridan qat’iy nazar o’zi mantiqiy qonunlarga bo’ysungan ravishda mavjud bo’ladi. Ko’pchilik imlo qoidalarini bilmagan holda to’g’ri gapirganlari kabi mantiq qonunlarini bilmay ham to’g’ri fikrlaydilar. Lekin bundan mantiqning amaliy ahamiyati yo’q degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu kabi qarash tarafдорлари Gegelning "Har kim fiziologiya qonunlarini bilmay ham ovqatni to’g’ri hazm qilganidek, mantiq qonunlarini bilmay to’g’ri fikrlashlari mumkinligi to’g’risidagi fikrini keltirishadi.

Fikrlash - shaxs bilish faoliyati jarayoni bo’lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o’zida mujassamlashtiradi. Fikrlash insonga haqiqat hodisalari o’rtasidagi aloqalarni topish imkonini beradi, lekin aniqlangan bog’liqlik haqiqatdan vaziyatning to’liq holatini aks ettirishi uchun u ob’ektiv, to’g’ri

yoki boshqacha aytganda, mantiqqa tayangan, mantiq qonunlariga mos bo’lishi kerak.

Mantiqiy fikrlash - fikrlashning oliy pog'onalaridan biri bo'lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog'lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o'zida aks ettiradi.

Demak, mantiqiy fikrlash - inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglab olingan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatadi.

Mantiqiylig - tafakkurning yozma va og'zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir. Bu jarayonda ayniyat, ziddiyat, inkorni inkor hamda yetarli asos qonunlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari:

- \* Tafakkurning mustaqilligi;
- \* O'quv materialini o'zlashtirishning tezligi va mustahkamligi;
- \* Standart bo'lмаган vazifalarni hal qilishda zehn (fikrlashning) tezligi;
- \* O'rganib chiqilayotgan huquqiy vaziyat mazmuniga chuqur kirib borish (muhim bo'лган nazariyani muhim bo'lмаган nazariyadan ajrata bilish);
- \* Fikrlashdagi tanqidiylik.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar:

- \* Mantiqiy fikrlashga nisbatan motivatsiyani qaror topganligi;
- \* Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining shakllanganligi;
- \* Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi;
- \* Amaliy mantiqiy fikrlash jarayonini tashkil etish;
- \* Ixtisoslashgan (pedagogik) mantiqiy fikrlashning rivojlanganligi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan har bir samaradorlik darajasining xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi mezonlar ajratib ko'rsatilmoqda:

yuqori daraja - mantiqiy fikrlashga yo'nalganlik, moslashuvchanlik, fikrlashning ravonligi, ratsionalizatorlik ko'nikmasining mavjudligi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanganlik sifatlarining shakllanganligi, sifat masalalarini echish malakasining shakllanganligi;

o'rta daraja - mantiqiy fikrlashga nisbatan ongli munosabatning tarkib topganligi, mantiqiy fikrlashga oid nazariy bilimlarning o'zlashtirilganligi, aktivlik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik ko'nikmalarining shakllanganligi;

past daraja - fikrlashga moyillikning yo'qligi, passiv ishtirokning mavjudligi, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqning pastligi.

Mantiqiy fikrlashning asosiy talablari:

Birgina inson tafakkuri butun insoniyat tafakkurining rivojlanishi bilan vositachilik qiladi. Fikrlash - bu "koinotning inson olamidagi kichik bir ko'rinishi"dir. U o'ziga xos bir muhitda shakllanadi, bu erda boshqalarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish hamda ular bilan doimiy aloqada bo'lish talab etiladi.

Umumlashtirish orqali atrofimizdagi olam, uning muhim xususiyatlari, narsa va hodisalar, shuningdek ular o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi umumiylarga ega bo'lib boramiz. Obyektni bitta xususiyati (eng oddiy umumlashtirish) yoki ko'plab xususiyatlari (umumlashtirish) asosida umumlashtirish mumkin. Masalan, "kitob" tushunchasini uning sahifasi, muqovasi, rangi, nomi kabi bir qator belgi va xususiyatlariga tayangan holda umumlashtirish amalga oshiriladi.

Mantiqiy fikrlash har doim muammoni hal qilish bilan bog'liq va u inson tomonidan ma'lum bir ixtiyoriy harakatlar bilan birga keladi. Muammoli vaziyatning yo'qligi fikrlash jarayonini stereotipga asoslangan xatti-harakatlarga yaqinlashtiradi. Fikrlash har doim maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, siz magistraturada o'qishni davom ettirimoqchisiz. Buning uchun mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda ingliz tilini yaxshi o'zlashtirishingiz talab etiladi. Ya'ni, aqliy echim topiladi. Mana shu jarayonda irodangizga tayanib, bu ishni mukammal darajada amalga oshirishingiz kerak. Chunki irodasiz qilingan harakatlar, juda kamdan-kam hollardagina maqsadga olib keladi. Fikrlash - bu harakat qilish demakdir.

Eslab qoling! Mantiqiy fikrlash harakat bilan chambarchas bog'liq. U orqali inson haqiqatni anglaydi, unga amal qiladi, dunyonи tushunadi, uni o'zgartiradi. Harakat fikrlashning asosiy shaklidir.

Har bir inson kichik yoshidan boshlab mantiqiy fikrlashni rivojlantira boshlaydi. Insonning psixofiziologik xususiyatlari turli xil bo'lganligi bois, bu jarayon har bir insonda bir xil kechmaydi. Biroq, mantiqiy fikrlash rivojlantirish

yo'llari va usullari yuzasidan foydali bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari - mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, masalalar va boshqotirmalarni echish va bajarish, shaxmat o'ynash, kitob o'qish, tanqidiy fikrlashni o'rganish, munozaralarda ishtirok etish, fikrlash jarayonini tasavvur qilish, vaziyatlarni simulyatsiya qilish, kundalik yuritish va b. Bu jarayonda har bir elementga jiddiy e'tibor qaratish, turli xil predmetlar o'rtasidagi bog'liq bo'limgan yoki mavhum bo'lgan jihatlarni qidirib topish, yangi faktlarni aniqlash va taqqoslash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkin.

O'quv jarayonida esa, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish ko'p hollarda loyihamar metod, tadqiqot metod, dasturlashtirish va muammoli o'qitish metodlaridan foydalanishni ham taqozo etadi.

Mantiqiy fikrlashni aniqlashning bir necha usullari mavjud:

Birinchisi, bu tafakkur orqali dunyoni o'zlashtirib borishga qaratilgan murakkab bilim jarayoni;

Ikkinchisi, doimiy ravishda yangi narsalarni, yangiliklarni qidirish va kashf etish.

Fikrlash muammoli vaziyat vujudga kelgan vaqtidan boshlanadi.

Xulosa shuki, inson vaziyatni muammo sifatida tushunadi va uning echimi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. O'sha paytdan boshlab aqliy faoliyatga safarbar qilinadi va muammoni hal qilish uchun o'z harakatlarini muayyan ketma-ketlikda amalga oshiradi. Bu ketma-ketlik quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- \* Muammoni bayon qilish va qidiruv zonasini cheklash;
- \* Gipoteza qurish va uni tekshirish;
- \* Gipotezani sinab ko'rishdan keyingi harakatlar va natijalarni aks ettirish.

Kun davomida turli xil hayotiy, kasbiy yoki psixologik muammolarni hal qilishimizga to'g'ri keladi. Jumladan, insonlar bilan aloqa o'rnatish, hamsuhbatimizning xatti-harakatlarini oldindan bilishga intilish, o'z qobiliyatimizni to'g'ri baholay olish kabi. Misol uchun, televizorda yangiliklarni tomosha qilish yoki kitob o'qish jarayonida yangi ma'lumotlar va faktlarga ega bo'lib boramiz. Nimani o'tkazib yuborganingizni o'ylab ko'ring! Atrofingizda

bo’layotgan vaziyatlarni tahlil qiling. Nima uchun sodir bo’ldi, vaziyatlar o’rtasida qanday bog’liqlik mavjud. Muammoni hal qilish yo’llarini qidirib toping. Yechim topilmayotgan bo’lsa, xatolaringiz ustida ishlang. Harakatlaringiz xaritasini tuzib oling.

Mantiqiy fikrlashni o’rganish jarayonida kelajakda ularni yanada samarali hal etishga muvaffaq bo’lasiz.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishi bilan quyidagi ko’nikmalarga ega bo’ladi:

- \* Kasbiy muammolarni aniqlash va aniqlashtirish;
- \* Pedagogik masalalarda tegishli natijalarni olish uchun huquqiy asoslar va tadqiqotlarni qo’llash;
- \* Tanqidiy tahlil bilan shug’ullanish va ular orasidan oqilona tanlovnii amalga oshirish;
- \* Pedagogik masalalarni hal qilishda va zarurat tug’ilganda ijodiy fikr yuritish.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi uchun mantiqiy fikrlash mantiqiy izchil, asoslangan nutqni ijod etish, qonun loyihasini tayyorlash, pedagogic muammolarni aniqlash hamda ularga noodatiy yechim taqdim etish, ta’lim to’g’risidagi yangi g’oyalarni ishlab chiqish, o’qituvchi, o’quvchi, ota-onaning ko’rgazmalaridagi ziddiyatlarni olib tashlash, opponentlarning asoslanmagan fikrlarini rad etish, rasmiy hujjatni izchil va asoslangan tarzda tuzishga yordam beradi. Mazkur ko’nikmani turli xil usul va yondashuvlarini amalda qo’llash orqali siz o’z kasbingizning yetuk mutaxassisiga aylanasiz. [1].

Fikrni mantiqiy ifoda etish usullari juda ko’p. Ular qatoriga turli xil mantiqiy o’yin va masalalar, topishmoqlar va boshqotirmalarni ham kiritish mumkin. Siz bilan bir nechtasini ko’rib chiqamiz.

SCAMPER - pedagoglar uchun guruh bo’lib muammolarga echim izlash usullaridan biri sanaladi.

S = Substitute - o’zgartirish;

C = Combine - kombinatsiyalash;

A = Adapt - moslashtirish;

M = Magnify - kattalashtirish (kengaytirish);

P = Put to Other Uses - boshqa tarzda foydalanish;

E = Eliminate (or Minify) - yo'q qilish (olib tashlash, bartaraf etish yoki minimal ta'sirini kamaytirish);

R = Rearrange (or Reverse) - qayta o'zgartirish (yoki teskari).

Substitute/O'zgartirish. Siz takomillashtirmoqchi bo'lgan mahsulot yoki g'oyani aniqlang. SCAMPERda fikrlashning etti usulidan foydalanish kerak. Bunda hech qanday ketma-ketlik yoki tartib yo'q. Asosiysi, bu holat samaradorlikka olib keladimi yoki yo'q? Misol uchun, avtoulovlarni qulay yoki yanada yoqilg'i kam sarflaydigan qilish uchun turli xil kompozitsiyalardan foydalanayotgan avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlar faoliyatini olishingiz mumkin. Bu sinov va xatolardan saboq chiqarish orqali siz qaysi bir fikr to'g'ri ekanligini ajratib olish imkoniga ega bo'lasiz.

Combine/Kombinatsiyalash. Yangi bir g'oyani yaratish shart emas. Bu jarayonda bir necha g'oya, jarayon va mahsulotlarni bitta samarali natijaga birlashtirishingiz mumkin. Masalan, ikki xil mahsulotning kombinatsiyasi asosida uchta kamerali uyali telefon yaratilganligini olishimiz mumkin.

Adapt/Moslashadirish. Ehtimol aynan o'zingiz muammo echimini topgandirsiz, lekin hozircha bu sizga noma'lum. Ba'zan bitta muammoni hal qilish uchun ishlab chiqilgan g'oya, boshqa bir masalaga echim bo'lishi ham mumkin. E'tiboringizga bir misolni taqdim qilmoqchiman. Yangi vaziyatga muvaffaqiyatli moslashadirish uchun Netfliks kompaniyasi 1999 yilda DVD ijarasi bo'yicha o'z faoliyatini boshlaydi. Ammo Blokbasterdan farqli ravishda ular kelajak onlayn translyatsiyalarga bog'liq ekanligini anglab, o'z biznes rejasini o'zgartiradi. Endilikda Netfliks an'anaviy televizion tarmoqlarning jiddiy raqobatchisiga aylandi. Blokbaster esa, 2013 yilda biznesdagi faoliyatini yakunlagan.

Magnify/Kattalashtirish (kengaytirish). Vaziyat yoki muammoning bir tomoniga o'zgartirish kriting. Bu sizga mahsulot yoki vaziyatning qaysi qismi eng muhimligini aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, mahsulot ishlab chiqarish ko'lамини kengaytirish yoki shu mahsulotga e'tiborini qaratgan tashkilot aspektini kattalashtirish bo'lishi mumkin.

Put to Other Uses/Boshqa tarzda foydalanish. Bu moslashadirishga juda o'xshash. U mavjud g'oya yoki konsepsiyanidan yangi ko'rinishda foydalanishni

nazarda tutadi. Misol uchun, okean chiqindilaridan poyavzal yoki biror bir shunga o'xshash mahsulotni ishlab chiqarishda foydalish tarzida bo'lishi mumkin.

Eliminate (or Minify)/Yo'q qilish (olib tashlash, bartaraf etish yoki minimal ta'sirini kamaytirish). Bunda samarasiz jarayonlarni soddalashtirish orqali yo'q qilish nazarda tutilgan. Masalan, Applening MacBook Airga optik CD/DVD drayverini ularni ingichka va engil qilish uchun qo'shilmaslik to'g'risidagi qarorini keltirish mumkin.

Rearrange (or Reverse)/Qayta o'zgartirish (yoki teskari). Jarayon yoki mahsulotning yo'nalishini o'zgartirish lozim. Buni ishning asl maqsadiga mutlaqozid ravishda amalga oshirish kerak. Ba'zida mahsulotning yo'nalishini yoki jarayonni o'zgartirish sizga unga nisbatan boshqa tomondan qarash imkonini beradi. Bu sizdagi noodatiy, kreativ qarashni yuzaga keltiradi. Misol uchun, qarorlarni qabul qilishda har doim "yuqoridan pastga" prinsipini qo'llagan tashkilot, "pastdan yuqoriga" yondoshish orqali qaror qabul qilish jarayonini yaxshilashi mumkin.

SCAMPER - pedagogik vaziyatlarga echim taqdim etishda g'oyalarni ishlab chiqish uchun ajoyib usullardan biri hisoblanadi. Bu har qanday muammo uchun amal qiladi va tez yuqori sifatli fikr topish imkonini beradi. [3].

Tafakkurning asosiy mantiqiy shakllari - tushuncha, hukm va xulosa chiqarish hisoblanadi. Xulosa chiqarish ma'lum bo'lgan bilim orqali noma'lum bilimni vujudga keltirishdir. Xulosa chiqarish vositali yangi bilim bo'lib, u bizning oldingi bilimlarimizga tayanadi. Xulosa chiqarish orqali obyektiv voqelikdagi buyumlar va ular orasidagi munosabatlarni bilib olamiz.

Xulosa chiqarishning tarkibi ikki muhim qismdan tashkil topadi:

Birinchisi, ma'lum bilimlarni ifodalovchi hukmlar bo'lib, ular yangi bilim uchun asos bo'ladi. Ular xulosa chiqarishning asoslari deb yuritiladi;

Ikkinchisi, ma'lum hukmlar asosida kelib chiqqan yangi bilimni ifodalovchi hukm, xulosa chiqarish natijasi, ya'ni xulosa deb ataladi.

Xulosa chinligining zaruriy sharti:

\* Xulosa asoslari chin bo'lishi;

\* Xulosa chiqarishning hukmlari mantiqiy bog'langanligi.

Induktiv xulosa chiqarishda nisbatan torroq bilimdan nisbatan kengroq bilim keltirib chiqariladi. Umumiyroq xulosalar keltirib chiqarish predmetlarni, hodisalarini birma-bir o'rganishga asoslanadi. Shu tomoni induksiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri. Birma-bir o'rganib, biror xususiyat haqida bilimga ega bo'lamiz. Shunga asoslanib kattaroq bir sinfga mansub bo'lgan predmetlar, hodisalarning hammasi haqida fikr yuritamiz. Agar predmetlarni nisbatan ko'proq o'rganilgan bo'lsa xulosani to'g'rilik, aniqlik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Agar xulosa chiqarish uchun nisbatan kamroq predmetlar o'rganilgan bo'lsa, xulosani aniqligi past bo'ladi, ehtimolligi yuqori bo'ladi. Induktiv xulosa chiqarishda qat'iy hukm ifodalangan bilimlardan ko'pincha ehtimolli xulosalar chiqqani uchun induksiyani ehtimolli bilimlar olish yo'llaridan biri deb ko'rsatiladi. Aniq asoslardan ba'zan noaniq xulosa chiqarish induktiv xulosa chiqarishning ikkinchi muhim xususiyatidir. Induktiv xulosa chiqarish predmetlarni, hodisalarni birma-bir o'rganishga asoslangani uchun ko'pincha kuzatish va tajriba o'tkazish bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatni tufayli induktiv xulosa chiqarishni nazariy bilimlar emas, ko'pincha amaliy bilimlar hosil qilishda ahamiyati katta deb bilihsadi. Induktiv xulosa chiqarish ilmiy induksiya kabi turlariga ega bo'lgani bilan uning xulosasi ilmiy xarakterga ega bo'lishi shart emas. Xulosa chiqarish uchun ba'zan chinligi ilgaridan ma'lum bo'lgan umumiyligini orqali ifodalangan haqiqatlarga tayaniladi.

Induktiv xulosa chiqarishning ikki turi:

- \* To'liq induksiya;
- \* To'liqsiz induksiyadir.

To'liq induksiyada xulosa bir turkum predmet va hodisalarning hammasini birma-bir o'rganish asosida nisbatan yangi bilim hosil qilinadi. Bunday xulosa chiqarish uchun predmet va hodisalarning birorta o'xshash, umumiy xususiyati bo'lishi kerak. Har bir predmetning xususiyati haqidagi fikr asoslarda yakka hukmlar orqali ifodalanadi. Xulosa odatda umumiyligini orqali beriladi, unda biror xususiyatning bir turkum predmetlarning hammasiga xosligi yoki xos emasligi haqidagi fikr ifodalanadi. To'liq induksiyaning shu asoslari va xulosasi aniq, ehtimoldan xoli bo'lgani uchun fikr qat'iy xulosalar orqali beriladi. To'liq induksiya bo'yicha xulosa chiqarish uchun o'rganilayotgan predmetlar va hodisalar nisbatan kamroq bo'lib, ularni birma-bir o'rganish imkoniyati bo'lishi lozim.

To'liqsiz induksiya turlari:

- \* Oddiy sanash orqali (mantiq fani o'rganadi);
- \* Tizimli (faktlarni tanlash orqali);
- \* Ilmiy induksiya o'rganadi (mantiq fani o'rganadi).

Oddiy sanash orqali (ommabop) induksiyada bir turkum predmetlarning bir qanchasida biror xususiyat takrorlanishini o'rganish orqali qolganlari haqida xulosa chiqariladi. Bu yerda xulosa chin bo'lishi uchun xususiyat ko'proq predmetlarga xos bo'lishi, xususiyat predmetlar uchun muhim bo'lishi, umumiyligi holatga zid keladigan hollar bo'lmasligi kerak. Oddiy sanash orqali induksiya xulosalari ilmiy xarakterga ega bo'lmasa ham, takrorlanib turadigan holatlardan xulosa chiqarish uchun ahamiyatlidir. Misol uchun, "Hamma metallar qizdirilganda kengayadi".

Ilmiy induksiyada xulosa chiqarish uchun hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanish asos qilib olinadi. Ilmiy induksiyada xulosa hodisalarning muhim xususiyatlarining takrorlanishini o'rganish natijasida hosil bo'ladi. Sababiy bog'lanish hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarning eng muhimidir. U predmet va hodisalarni asoslab beradigan qonuniyatlarni yechishga imkoniyat yaratadi. [3].

Ilmiy induksiya metodlari:

- \* O'xshashlik metodi;
- \* Tafovut metodi;
- \* Yo'ldosh o'zgarishlar metodi;
- \* Qoldiqlar metodi.

Xulosa shuki, induktiv yo'l bilan chiqarilgan xulosalar deduktiv yo'l bilan xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Deduktiv yo'l bilan chiqarilgan xulosalar esa, ba'zan induktiv yo'l bilan tekshiriladi. Induksiyaning deduksiyadan farq qiladigan bir qancha xususiyatlari mavjud. Eng muhimi, uning xulosasi ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi. Keyingi tekshirishni talab etadi. Deduktiv xulosa chiqarishning asoslari ikkita hukmdan iborat bo'lsa, induksiyaning asoslari esa ikkitadan ko'proq xulosa orqali ifodalananadi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish nisbatan torroq bilimlardan nisbatan torroq bilimlarni keltirib chiqarishdir. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish uchun bir predmetni, bir hodisani o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilimga asoslanib,

boshqa bir predmet xususiyatlari haqida xulosa chiqariladi. Chiqarilgan xulosaning to'g'ri yoki noto'g'riliгини bilish uchun uni amaliyotda tekshirib va sinab ko'rish lozim.

Analogiyaning asosi ham, xulosasi ham deyarli yakka hukm orqali ifodalanadi. Xulosalari ehtimoliy shaklda, boshqa xilda esa qat'iy shaklda bo'ladi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish uchun ikkita predmet yoki ikkita hodisa biror xususiyati jihatidan taqqoslanadi, o'xshatiladi. Analogiyaning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lgani uchun xulosaning aniqlik darajasi o'rganilayotgan, taqqoslanilayotgan xususiyatlarga bog'liq. Analogiyaning xulosasi chin bo'lishi uchun, to'g'ri bo'lishi uchun o'xshatilayotgan predmetning xususiyatlari ular uchun muhim xususiyat bo'lishi kerak.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish uchun ikkita predmet yoki ikkita hodisa biror xususiyati jihatidan taqqoslanadi, o'xshatiladi. Analogiyaning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lgani uchun xulosaning aniqlik darajasi o'rganilayotgan, taqqoslanilayotgan xususiyatlarga bog'liq. Analogiyaning xulosasi chin bo'lishi uchun, to'g'ri bo'lishi uchun o'xshatilayotgan predmetning xususiyatlari ular uchun muhim xususiyat bo'lishi kerak.

Solishtirilayotgan predmetlarning imkoniyati boricha ko'proq xususiyatlari o'rganilishi kerak.

O'xshatilayotgan predmetlarning xususiyati nisbatan kamroq predmetlarga xos bo'lishi kerak.

Analogiyaning ikkita turi:

- \* Xususiyatlar analogiyasi;
- \* Munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikkita predmet yo ikkita hodisa o'rganilib, ularning bitti xususiyati haqida xulosa chiqariladi. Uning xulosasi deyarli hamma vaqt ehtimoliy bo'ladi.

Munosabatlar analogiyasida ikkita predmet yo hodisaning o'xshash xususiyatlari emas, ikkita predmet yo hodisa o'rtasidagi munosabat asos qilib olinadi. Bunda ikkita predmet bir-biriga o'xshamasligi mumkin. Ikkita predmet o'rtasidagi munosabat boshqa ikkita predmet o'rtasidagi munosabatga o'xshashligi asosda xulosa chiqariladi. Uning xulosasi doimo qat'iy, aniq bo'ladi.

Ilmiy bilishning muhim jihatni shundaki, yangi ma'lumotlar mantiqiy tekshirish jarayonidan o'tgandagina chin deb hisoblanadi, konkret fanning empirik va nazariy fundamentiga qo'shiladi va isbot etilgan yoki verifikatsiyalangan deb hisoblanadi.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Ishonch-e'tiqod bu kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat.

Isbotlash ikki xil ma'noni anglatadi:

Mantiqiy yo'l bilan isbotlash (mantiq fani o'r ganadi);

Amalda isbotlash (konkret fanlarning vazifasi).

Mantiqiy isbotlash berilgan fikrning chinligini boshqa fikrlar yordamida ko'rsatish, aniqlash demakdir.

Mantiqiy isbotlash 3 elementdan iborat:

\* Tezis;

\* Asos yoki argument;

\* Isbotlash usuli. [2].

## XULOSA

Munozara ishtirokchisining o'z bayonini o'zi belgilashi lozim bo'lgan holatlarning o'xshash bo'lishi sharti bilan o'xshatish yoki umumlashtirish yo'li bilan qo'llash mumkinligiga rozi bo'lish burchi hisoblanadi.

Yakuniy qoidaga ko'ra, bir xil mulohazani turli ma'nolarga ega bo'lgan turli ishtirokchilar qo'llay olmaydilar. Aks holda muhokama turli narsalar atrofida quriladi. Muhokama mavzusi esa lozim deb belgilanmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Sharipov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma. -G'afur G'ulom: Toshkent, 2004. 5-16, 111-211 b.
2. SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
- 3(5), May, 2023

3. Ломиворотов М.М. Логика для юристов. Учебное пособие в схемах и упражнениях. -Волгоград.: ВолгГТУ, 2006. 11-24 с
4. Oblomurodov, N. (2022). Yangi O'zbekistonda O'zbekiston tarixi fanini o'qitishning ayrim jihatlari haqida. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,2(Special Issue 23), 154-159

## **TASVIRIY SAN'AT UQITUVCHISI FAOLIYATINING MUSTAKILLIK YILLARIDAGI RAVNAKI**

*Dots. **Oripov Bobirjon Badirjonovich***

*NamPI, Amaliy, jismoniy tarbiya va sport*

*fanlarini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

Ma'lumki, mustaqilligimizgacha Respublikamiz mакtablarida tasviriy san'at o'qitilishiga va yoshlarni estetik jixatdan tarbiyalashga e'tibor berilgan bo'lsada, tasviriy san'atni o'qitilishi talablar darajasiga ko'tarila olmadi. Chunki O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi bo'yicha darslik, o'quv-metodik qo'llanmalar yo'qligi, o'quv-didaktik va ko'rgazma materiallarni mutloq ishlab chiqarilmas edi. Yana bu fanni o'qitish uchun yetuk- mutaxassis – tasviriy san'at o'qituvchisini eshitmasligi ochiq – oydin ko'rinish turardi. Hatto, ayrim tumanlarda mutaxassis – tasviriy san'at o'qituvchisi topilmas edi. Bu fanni boshqa fan o'qituvchilari o'qitib kelishardi. Yoki uni o'rniga boshqa fanlar o'qitildi. Shuning uchun mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mакtabdagi boshqa fanlar qatori tasviriy san'atni ham o'qitilishiga jiddiy e'tibor berilib, uni tubdan isloh qilish va dunyoning yetakchi davlatlari misolida takomillashtirib o'qitishga kirishildi. Bu fanni talabi darajasida o'qitish uchun barcha zaruriy o'quv –didaktik materiallar tayyorlash va boshqa shart –sharoitlarni tayyorlashga kirishildi. Yana bu fan bo'yicha ta'lim – tarbiya va o'qitishga konsepsiysi standart va yangi o'quv dasturlari tuzildi. Ular asosida Davlat ta'lim standarti va takomillashtirilgan, to'la maxalliyashtirilgan, na'munaviy o'kuv das milliy dasturlari yaratildi.

1997-yildan O’zbekiston Respublikasida “Ta’lim to’g’risida ” qonunni yangi tahriri yaratildi va “Kadrlar tayyoorlash dasturi” ishlab chikildi. Bu me’yoriy xujjatlar O’zbekistonda mutloq yangi ta’lim tizimini yaratib, uzlucksiz ta’lim tizimiga ham asos soldi va “Yangi pedagogik texnologiya” mazmunida o’qitish imkoniyatlarini ham asoslab berdi. Natijada maktab tasviriy san’atni o’quv fani bo’yicha yangi dasturlar yaratilib, ularda o’quvchilarga berilayotgan bilim-malakalarni ko’nikmalarga aylantirish vazifasi quyiladi. Bunday talab va takliflarni amalga oshiruvchi va bajaruvchi amalga oshiruvchi – tasviriy san’at o’qituvchisi bo’lib, ularni tayyorlash ham o’ta jiddiy va murakkab vazifa bulib qoladi. Shu boisdan mamlakatimizda tasviriy san’at o’qituvchisi tayyorlashga alohila e’tibor berilib Respublikadagi o’qituvchi – pedagoglar tasviriy san’at o’qituvchini tayyorlaydigan barcha Oliy o’quv yurtlarida tasviriy san’at tayyorlaydigan “Badiiy - grafika ” fakul’tetlari tashkil etildi. Bu fakultetda ўысынчалардан bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari “San’at nazariyasi va tarixi”, “Qalamtasvir” , “Rangtasvir”, “Kampositsiya”, “Haykaltaroshlik”, “Amaliy san’at”, “Dizayn” kabi tasviriy san’atning monumentalъ – akademik o’quv fanlari bilan bir qatorda tasviriy san’at va faoliyatining pedagogik psixologik asoalarini va tasviriy san’atni o’qitishning pedagogik texnologiyasi , didaktikasi va metodikasini, hatto ularning innovatsion yo’l uslublaridan ham akademik bilim va ko’nikmalar oladilar. Bir gap bilan aytganda bu fakul’tetni bitirib chiqqan mutaxassis yetuk pedagok rassom, san’atshunos tadqiqotchi, tasviriy san’atning o’rgatish sirlarini biladigan ustoz o’qituvchi , yana san’at va madaniyat targ’ibotchisi, barcha turdagи ta’lim-tarbiya muassasalarini estetik va etik faoliyatlarini boshqaruvchisi va tasviriy faoliyat o’qituvchisi bo’ladi. Maktab tasviriy san’at o’qituvchisi pedagogik faoliyatini zamon va DTS yangi dastur talablari darajasida bo’lishi uchun u maktab ostonasiga qadam qo’yishi bilan mакtabda zamon talabidagi “tasviriy san’at” kabinetini tashkil etishga kirishishi kerak.

Bu kabinetga dastur materiallari asosida o’quv didaktik materialar (estali ishlanmalar, mulyajlar, qushlarning tulumlari, ro’zg’or buyumlari) , zaruriy darsliklar, yana boshqa o’quv fanlari (botanika, mehnat, adabiyot, tarix, geografiya, fizika kabi )ning o’quv qo’llanmalari fo’yiladi. Bular tasviriy san’atning ko’plab darslarida qo’llaniladi. Yana kabinet to’la elektrlashtirilib, texnika vositlaridan

foydalanimishga shart-sharoit yaratadi. Hozir qurilayotgan maktab, littsey va kollej binolarida “tasviriy san’at” fani uchun aloxida 2 xonali, yana labaratoriysi bilan qurilib, uni to’la-tukis jixozlab berilmoqda. Maktab tasviriy san’at darslarini takomillashtirish asosida darslar va ta’lim samaradorligini oshirib borgan holatda o’quvchilarga berilayotgan bilim – malakalarini ko’nikmalarga aylantirish borasida tasviriy san’at o’qituvchisining mexnat ijodi va pedagogik mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, tasviriy san’at o’qituvchisi o’zining ilmi tafakkuri, diqqat e’tibori, ijodiy fantaziyasi, istedodi, maxorati, intizomi, badiiy didi va e’tiqodi, nutq notiqligi, yana shijoati-jasorati bilan har qanday yetuk shaxsdan ustun turadi. Rassom pedagog ko’rgan, bilan, sezgan, anglagan va idrok etgan narsa xodisalarni boshqalar anglatmaydi, kurashmaydi ham, Shuning uchun mактабда borayotgan tasviriy san’at o’qituvchisi o’z oldiga qo’yiladigan vazifalarga ma’sulyatli faoliyatida yaxshigina tayyorgarlik ko’rib olishi ham juda zarur. Chunki, mактабда tasviriy san’atdan dars berishga va butun tasviriy faoliyatini o’z zimmasiga iolib boryotgan o’qituvchi zimmasiga qator ta’limiy va tarbiyaviy vazifalar qo’yiladi.

Ular:

- I. dan O’qituvchilik kasbini barcha kasblar orasida eng yuksak eng nozik ma’sulyatli, murakkab va sharafli kasb ekanini doimo yodda tutish.
- II. –dan Tasviriy san’at o’qituvchisini o’z mamlakati, millati va jamiyatini, ularning tarixiy taraqqiyotini yaxshi bilishi.
- III. –dan Tasviriy san’at o’qituvchisi pedagogik va o’qituvchilik kasbiga yetuk, yuksak iste’dodli bo’lishi.
- IV. –dan Tasviriy san’atni, nazariy, amaliy asoslari tarixini uning ijodkorlarini yaxshi tanishi va san’at asarlarini ilmiy asoada, tartibli taxlil qila olishi.
- V. –dan Tasviriy san’at o’qituvchisi Sinf darssxemasini barcha klassik texnologiyasi, didaktikasini va matadologik asoslaridan xabardor bo’lishi.
- VI. –dan tasviriy san’at o’qituvchisi iste’dodli ijodkor bo’lishi bilan birga yuksak estetik didli va estetika qonuniyatlarini yaxshi tushinishi va unga amal qilishi.
- VII. –dan Tasviriy san’at o’qituvchisi o’zining diqqat e’tibori, xotirasi, hayol fantaziyasi , tafakkur tassavuri, nutq madaniyati, zehn e’tibori va butun faoliyati tartibda ushlashi.

VIII. –dan Tasviriy san’at o’qituvchisi boshlagan har bir faoliyatini shiddat shioat bilan boshlashi va yakunlashi.

IX. –dan Tasviriy san’at o’qituvchisi o’z fanini uni o’qitishish darslar samaradorligini, uni takomillashtirilganini maktab o’quv fanlari san’at ta’limini yangi kontsepsiyasini, davlat ta’lim standarti (DTS), yangi dastur mazmunini tula yegallagan, zamonaviy pedagogik texnologiyalari yuksak maxorat bilan foydalanishi.

X. –dan Maktab tasviriy san’at o’qituvchisining qaddi-qomati, uni fiziologik morfologik tuzilishi uining xatti xarakatlari yuz tuzilishi samimiy yoqimtoy yuzlar shaxdam, jozibali va irodaviylik kabi talablar qo’yiladi

Xulosa, maktab tasviriy san’at o’qituvchisi maktabni eng shiddatli, jasoratlileng ishongan , barchaga yoqimli, o’z fanini va o’ziga yaqin fanlarni ham yaxshi bilishi, ta’lim-tarbiya fidoiy bola tarbiyasiga qiziquvchi, ijodkor xozirgi zamon o’quv texnika vositalarini yaxshi biladigan, yangi ta’lim tarbiya samaradorligi yo’lida izlanuvchi pedagog rassom bo’ladi. Eslatma: Qaysi bir o’qituvchi o’z fanini, uni o’qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasini yaxshi bilgan xolda darsga puxta tayyorlanib darsda barcha o’quv didaktik vositalardan unumli foydalanib darsni yuksak yaxshi kayfiyatda o’tkaza olsa, u albatda oldindan belgilangan ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni, “a’lo” darajada bajargan holda, eng yaxshi va samarali darsni tashkil eta olgan bo’ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B. Oripov. Tasviriy san’at kabineti va sinfdan tashqari ishlar T. 1974 y.
2. B. Oripov. Tasviriy san’at darslarini samaradorligini oshirish omillari. T. 1978 y.
3. R. Xasanov. Tasviriy san’at mashg’ulotlarini takomillashtirish T. 1985 y.
4. B. Oripov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Nam. 2001 y.
5. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san’atni o’qitish metodikasi T. 2004 y.
6. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH  
Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685  
[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)
7. Volume 3 Issue 3, Part 3 March 2023 ISSN 2181-2020 Page 161
8. IJODIY MANZARALAR CHIZISH BO’YICHA AMALIY VA

NAZARIY TAVSIYALAR Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o‘g‘li

9. Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o‘g‘li International Conference on Research Identity, Value and Ethics Rangtasvirda manzara ishlashning amaliy ahamiyati
10. Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o‘g‘li Vol. 2 No. 12 (2022):
11. International Conference on Research Identity, Value and Ethics Hosted from USA, April 30th 2022 10-13 b.
12. Journal of Advanced Research and Stability ISSN: 2181-2608 2022-03-24 58-61.b
13. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2020-yil, oktabr) 216-219 b
14. "Экономика и социум" №3(106) 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
15. Удк 894.375 Badiiy ta’limning dolzarb muammolari, Integratsiya va istiqbol tendensiyalari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami 459-465 b 28-sentyabr 2023-yil Toshkent – 2023 Electron manba.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=hHNdMo4AAAAJ&citation\\_for\\_view=hHNdMo4AAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hHNdMo4AAAAJ&citation_for_view=hHNdMo4AAAAJ:9yKSN-GCB0IC)  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=hHNdMo4AAAAJ&citation\\_for\\_view=hHNdMo4AAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hHNdMo4AAAAJ&citation_for_view=hHNdMo4AAAAJ:u-x6o8ySG0sC)

## GIMNASTIKA MASHG’ULOTLARINI TASHKIL QILISHNING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI

*Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich*

*Namangan davlat universiteti sport faoliyati kafedrasи o’qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqola, umumta’lim maktabi o’quvchilarini ko’p jixatdan kamol topishi, yurtimizda o’tkazilayotgan isloxoatlarning samarasi, gimnastik snaryadlar to’g’risida ma’lumotga ega bo’lishlari, o’sib kelayotgan yosh avlodning salomatligiga bag’ishlangan.

**Kalit so’zlar.** Gimnastika, snaryad, tayanib sakrash, baland – past qo’shpoya, erkin mashqlar, ta’lim-tarbiya, uzluksiz ta’lim tizim.

**Аннотация.** Статья посвящена многогранному совершенствованию учащихся общеобразовательных школ, плодам проводимых в нашей стране реформ, получению знаний о гимнастических снарядах, здоровью подрастающего поколения.

**Ключевые слова.** Гимнастика, снаряд, прыжки с трамплина разновысокие брусья, вольные упражнения, тренировка-тренировка, система непрерывного образования.

**Anotation.** The article is devoted to the fact that students of a comprehensive school will be able to mature a lot, learn about the fruits of the islahs being held in our country, about gymnastic projectiles, about the health of the growing young generation.

**Keywords.** Gymnastics, projectiles, leaning jumps, high – low posture, free exercise, training, continuous education system.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tashkilot tarmoqlarini kengaytirish maqsadida 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan PQ 2707- sonli, PQ 3031- sonli qaroriasosida yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash, ta’lim berish, sport bilan shug’ullanishi uchun ko’plab gimnastika zallari qurilib ishga tushurildi va bu zallarda minglab o’zbek qizlari gimnastikaning nafis turi bilan shug’ullanishiga imkon yaratildi.O’zbekistonda gimnastika qadimdan turli xil mashqlar ko’rinishida rivojlanib kelgan.

Mavjud adabiyotlarni taxlil qilish shuni ko’rsatadiki, mazkur muammoning sport gimnastikasidagi holatining tahliliy natijalari uning ilmiy asoslari yetishmasligidan dalolat beradi. Bugungi kungacha asosiy e’tibor texnik tayyorgarlik masalalariga qaratilgan edi. Asosiy tayyorgarlik davridagi yosh gimnastlarning istiqbolini aniqlovchi mezonlari, o’quv mashg’ulotlar jarayonining mazmuni, gimnastika ko’p kurashlari mashg’ulotlarida moddiy vositalarning taqsimoti, boshlang’ich bolalarning yosh hususiyatlari va harakat tayyorgarlik darajalari to’la o’rganilmagan.

O’rta, katta va keksa yoshdagi kishilar sog’lig’i va jismoniy tayyorgarligiga qarab, gimnastika mashg’ulotlari (va boshqa sport turlari) bilan shug’ullanish uchun ularni uch tibbiy guruhga bo’lish kerak: I-guruh- sog’lom, jismoniy tayyorlangan,

yoshi fiziologik o’zgarisilari jihatdan normal o’tayotgan kishilar; II-guruh-sog’lig’ida ba’zi bir funksional xarakterdagi kamchiligi bo’lgan, mashq yuklamasiga moslasha oladigan, shuningdek, qarilik jarayoniga xos kasalliklarning boshlang’ich davridagi kishilar; III-guruh - sog’lig’ida odatdagи mehnat faoliyatiga zid kelmaydigan kamchiligi boigan, jismoniy mashq yuklamasiga moslashuv darajasi kamaygan kishilar kiradi.

Sog’lig’ida kamchilik ko’proq bo’lgan keksa yoshdagи kishilar davolanish gimnastikasi bilan shug’ullanishlari lozim. Gimnastika mashg’ulotlarini o’tish uchun barcha shugullanuvchilar yoshi hisobga olingan holda guruhlarga ajratiladi. Mashg’ulotlar shaxsiy vaguruh bilan, erkaklar va ayollar uchun alohida o’tkazilishi mumkin. Ayrim hollarda aralash guruhlar tashkil qilinishi mumkin, bunda jismoniy tayyorgarligi va sog’lig’ining ahvoli bir xil boigan shug’ullanuvchi larni kiritish lozim.

Ayollar bilan mashg’ulot o’tganda ularning qiziqishini oshirish va nihini ko’tarish uchun mashqlarni musiqa jo’rligida bajarish foydali. Murakkab harakatlarni, balandlikka, uzoqqa sakrashlarni, keskin sultanishlarni, tez aylanishlarni, engashishlarni va h.k.larni bajarmaslik kerak. Turli xil darslardan tashqari keksa yoshdagи kishilar uchun gigiyenik gimnastika (ertalab, kunduzi, kechqunm), ishlaydiganlar uchun esa ishlab chiqarish gimnastikasi tavsiya qilinadi. Mashg’ulotlar o’rta yoshdagи kishilar uchun 60-90 daqiqa; katta yoshdagilar uchun 45-60 daqiqa; keksa yoshdagilar uchun 30-45 daqiqa davom etadi. Navbatdagi mashg’ulotni shug’llanuvchilardan o’zini qanday his qilayotganlarini so’rashdan va yurak-tomir urishini hisoblashdan boshlash lozim (bu har bir mashg’ulot oxirida tekshiriladi).

Bugungi kunda Bolalar va o’smirlar sport maktabi va Ixtisoslashtirilgan Davlat bolalar va o’smirlar sport maktablarida qo’llanilayotgan o’quv dasturlari gimnastika bilan shug’illanishni boshlayotgan 6-7 yoshdagи bolalarga mo’ljallangan. Bir vaqtning o’zida boshlang’ich tayyorgarlik amaliyotida 6-7 yoshli bolalarning ishtiroki kengaydi, bazi xollarda 4 yoshdan ham. Bolaning biologik rivojlanishida bir-ikki yosh farq juda ham katta farqdir va ko’pgina trenerlar bunga tayyor emasdilar. Bundan esa mashg’ulotlarning

past samarasi va boshlang’ich, ixtisoslashtirilgan guruhlar tarqoqligi katta bo’lib-95% gacha.

O’rganilayotgan muammoning mahsus adabiyotlardagi ko’p yillik muhokamasi va sport gimnastikasining amaliy mashg’ulotlardagi ommaviy rivojlanishi bolalar va o’smirlar sportining nazariy va uslubiy mutahasisslari oldiga:

- jismoniy va mahsus harakat tayyorgarligining har qanday ko’rinishida aniq tizimni shakillantirish;
- umumiy va mahsus jismoniy tayyorgarlik vositalarining eng qulay mutanosibligini aniqlash, normativ ko’rsatkichlarini korrektsiyalash va ularni ko’p yillik tayyorgarlik bosqichlarining funksional sxemasiga kiritish;
- gimnastlarni jismoniy va texnik tayyorlashning ta’lim yo’llaridagi yagona dasturi amaliyatga tatbiq etilishi zarurligi kabi qator vazifalarni qo’ydi.

Yosh gimnastlar bilan ishlashdagi aniqlangan qoloqlik, qulay va ilmiy asoslangan mashg’ulotlar jarayonini Ixtisoslashtirilgan Davlat bolalar va o’smirlar sport mакtablaridagi boshlang’ich gimnastika ta’limiga sportchilarning yosharish hususiyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etilishiga asos bo’lmoqda.

Mazkur muammoning dolzarbliyi bir tomonidan jaxon shoxsupalarida sport gimnastikasi turlari bo'yicha ishtirokchilarning yosharib borayotganligidir. Bu esa o’z-o’zidan katta ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomonidan bola organizmining jismoniy, maxsus harakatlanish va funksional imkoniyatlari tez suratlarda o’sib borishi jarayoni bilan aniqlanmoqda.

Ushbu muammoning muhim xususiyatlari 5-7 yoshdagi bolalarning boshlang’ich gimnastik tayyorgarligida ikki yillik mashg’ulotlar jarayonining eksperimental asoslangan eng qulay tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Ishlab chiqilgan ko’p yillik mashg’ulotlar vositalarini rejalashtirish pedagogik nazorat tizimi yosh gimnastlarning xarakatlanish tayyorgarligini oshirish maqsadida mash-g’ulotlar jarayoniga tatbiq etiladi va gimnastlarning asosiy, boshlang’ich tayyorgarlik darajasiga ijobjiy ta’sirini ko’rsatadi.

Boshlang’ich davrdagi tayyorgarlikning mashg’ulotlar jarayonini nazorat qilish tizimi hamda mashg’ulotlar vositalarining ko’p yillik rejalashtirilishidan samarali foydalanish va ishlab chiqilgan aniq tavsiyalar bunga turtki beradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Abdullayev.A, Xonkeldiyev.SH “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” T-2005
2. Sushko G.K.Gimnastika i metodika yevo prepodavaniya TDPU, 2008 g
6. Shlemin A.M., Brikin A.T. Gimnastika: – Tashkent, o‘qituvchi, 1987 g (na uzb.yaz.).
7. Malinina N.N. Gimnastika i metodika prepodavaniya. Tashkent, 2001 g
8. Yefimenko A.I., Yuldashev Q.Q., Umarov M.N. Gimnastika darsining samaraligini oshirish usullari. Tashkent, 1995 g
9. [www.sport-athlet.com](http://www.sport-athlet.com)
10. [www.gimnastik.ru/athletics](http://www.gimnastik.ru/athletics).

## UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INTEGRATSIYAVIY YONDASHUV

***Jo’raqulova Ozoda Toxir qizi***

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti*

*Pedagogika yo’nalishi talabasi*

*+998-91-595-95-35*

**Annotatsiya:** Maqolaning qisqacha mazmuni shundan iboratki, O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarni qondiruvchi ustuvor soha bo’lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun shart-sharoitlatni yaratishi haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** uzluksiz ta’lim, pedagogik innovatsiya, integratsiya, dunyoqarash, jamiyat, klaster tizimi.

Darhaqiqat, uzlusiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasbhunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy - axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topip boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Ma'lumki, ta’lim-tarbiya insonga borliqni anglash sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta’lim tizimi aniqlab beradi. Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o'z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta’lim:
- Umumiy o'rta, o'rta maxsus ta’lim:
- Professional ta’lim:
- Oliy ta’lim:
- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta’lim;
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash:
- Maktabdan tashqari ta’lim.

O'zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining bunday turlarining har bir bosqichida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni tarixan qisqa davr uchun misli ko'rilmagan rivojlanish sifatida baholash mumkin. Bunday shiddatli rivojlanish bugungi kun uchun yetarlidek ko'rindi. Lekin, har qanday yangilik boshqa yangiliklarning kirib kelishiga turtki bo'ladi.

Respublikamizda 11 yillik umumiy o'rta ta’lim, akademik litsey va texnikumlar shakllanganligi, ularning kadrlar yetishtirib berishdagi o'rni beqiyos. Bundan tashqari ta’lim tizimida uzviylik va uzlusizlik masalalarini yuqori darajada ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarkibiy qismlarning funksiyalari aniq belgilangan va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni tizimli bajarilishini ta'minlashni talab etmoqda. Odatta, davlat talablarni bajarilishini statistik tizim orqali baholanib boriladi. Bunday statistik qarash va baholash o'zining qator ustunliklari

bilan ajralib tursada, dinamik tizimlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlarga e'tibor bilan qarash imkonini bermaydi.

Uzliksiz ta'lim tizimi sifatini ta'minlashda bir qator muammoli masalalar mavjudligini ko'rish mumkin. Jumladan:

- Nima uchun maktabning birinchi sinfiga borgan bola darslarga moslashish va fan dasturida berilgan mavzularni o'zlashtirishda qiynaladi?
- Nega boshlang'ich ta'limda yaxshi baholarga o'qigan bola yuqori sinflarda o'qishi pasayib ketadi?
- Nima uchun o'quvchi kasb tanlashda mustaqil tanlovni amalga oshira olmaydi?
- Nega oliy ta'limni tugatganlar kasbiy faoliyatga tezkor kirishib keta olmaydi? Bu kabi savollarning javobi sifatida uzlusiz ta'lim tizimida uzviylikning ta'minlanmaganligini ko'rsatish mumkin.

Uzlusiz ta'lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta'minlamaganligi ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, ta'lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soatning ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Ta'lim bosqichlar mazmuni tahlilida 10-15 foiz mavzularning takror berilayotganligi, 50-60 foiz mavzularda uzviylik ta'minlamaganligi tahlillarda ko'rindi.

Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari o'z ta'lim obyektlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar tayyorlash jarayonida bir qancha ijobiy natijalarga erishgan bo'lsalarda, ammo uzlusiz ta'lim tizimida uzviylik yetarlicha ta'minlanmay kelmoqda. Oldimizda ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzlusiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriyligining oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviyligini ta'minlangan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

Prezidentimiz “Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro

standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi” hamda “Oliy ta’lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirilishi, ta’lim yo’nalishlari va o’qitiladigan fanlar qayta ko’rib chiqilishi zarurligi hamda mutaxasislikka aloqasi bo’lmagan fanlar sonini 2 barobarga qisqartirish” to’g’risidagi aniq vazifalarni belgilab bergen edi. Ushbu topshiriqlar asosida Prezidentimiz Administratsiyasi tomonidan har bir ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda 2020-yilda ta’lim sohasida islohotlarni jadallahtrish bo’yicha kompleks “Yo’l xaritasi” ishlab chiqilgan. Mazkur “Yo’l xaritasi”ning 3-bandida “Fan dasturlarining mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzbekligini ta’minlash hamda o’quvchi va talabalarda shakllanishi zarur bo’ladigan bilim va ko’nikmalar darajasini aniq belgilash” vazifasi belgilanib, ma’sul ijrochilar sifatida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi, Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirliklari belgilangan. Idoralararo ushbu masala bo’yicha yig’ilish va semenarlar tashkil etilib, ishchi guruqlar shakllantirildi. O’rganish natijasida uzlusiz ta’lim tizimida uzbeklikni ta’minlash borasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

- mavzular takrorlanishi - uzlusiz ta’lim turlariaro bosqichlarida mavzularning aynan yoki mazmunan takrorlanishining mavjudligi;
- ayrim mavzularga soat hajmining ko’pligi – ta’lim bosqichlarida ayrim mavzularga ortiqcha vaqt ajratilganligi. Ayniqsa, nazariy mashg’ulotlarga ko’p vaqt ajratilgan;
- vaqtning besamar sarflanishi – takrorlanish va ortiqcha vaqt evaziga o’qituvchi va o’quvchilarning vaqtি besamar sarflanishi;
- uzbeklikning yo’qligi – uzlusiz ta’lim turlariaro fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda obyekt va subyekt tanlovi va mazmunida nomutanossibliklar mavjud va h.k.

Pedagogik innovatsiya ta’limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagи muammolar va ularni hal qilishda fan va ta’lim bo’g’inlari o’rtasidagi aloqadorlikni ta’minlash uzlusiz pedagogik ta’limni klaster rivojlanish tizimiga o’tkazish zaruratini taqozo etmoqda. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri uzlusiz ta’lim

tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliy bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo’lib, ularning bирgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi darajaga ko’tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o’z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta’lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamонавиу та’lim mutaxassislarni tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Pedagogik ta’lim rivojlanishning klaster tizimi ta’lim berish, o’quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog’liq umumiyo yo’nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bir umumiyo yo’nalishlar ta’limni boshqarish va takomillashtirish, ta’lim turlari va yo’nalishlari o’rtasida uzviylik va integratsiyani ta’minalash, o’qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo’nalishlarda xususiyplashadi.

Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

- talabalar, magistrantlar va doktarantlar pedagogik amaliyot o’taydigan, ta’limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o’quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o’taydigan maktabgacha, umumiyo o’rta, o’rta maxsus, oliy va qo’shimcha ta’lim muassasalari;
- ta’limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo’shimcha ta’lim tizimi muassasalari, bolalar va o’smirlarning maktabgacha, umumiyo o’rta, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;
- hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug’ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;
- pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoa birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiyo maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekti umumiyo maqsaddan

kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlarni bir-birini qo’llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma’naviy va intelektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta’siri hamda ahamiyatini kengaytiradi. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo’naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Pedagogik ta’lim klasteri faoliyatning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- ✓ pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta’minalash va eng yaxshi o’quvchilarni pedagog kasbiga targ’ib qilish;
- ✓ pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amaliyotga tayangan holda va manfaatdor subyektlar bilan samarali aloqasini intensiv ta’milagan holda olib borish;
- ✓ bo’lajak ta’lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo’lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish;
- ✓ talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etishini ta’minalash;
- ✓ pedagogik ta’limda yangi avlod o’quv, o’quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish;
- ✓ ta’lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish va ta’limga tadbiq etish;
- ✓ ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish;
- ✓ pedagogik ta’lim bo’g’inlari o’rtasidagi aloqadorlik, bo’g’liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash.

Zamonaviy intelektual insonni tarbiyalashda integrativ ta’limning barcha jihatiga(aqliy,axloqiy,estetik, gigienik, huquqiy, iqtisodiy, jismoniy)ni qamrab oladi va ularning o’zaro bog’liqligini ta’minalaydi. Integrativ ta’lim jarayonida oquvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlari, tabiat, inson va jamiyatning o’zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimga ega bo’lib kamol topadi. Tabiat go’zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e’zozlash ko’nikmalariga ega bo’ladi. Ta’limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo’llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta’lim muassasalari o’quv

jarayoni uchun tadbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o’quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to’liq o’zlashtirishini ta’minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta’minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga leladi.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida uzluksiz ta’lim tizimini pedagogik ta’lim innovatsion klasteri ta’limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta’minlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to’plangan tajriba erishilgan ilmiy yutuqlarni ta’lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bunda ta’lim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarning o’zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta’minlash, ta’lim jarayonining pirovard mahsuli - har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma’naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki, kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo’jaligi va jamiyatning boshqa sohalari taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Sh.Bekmurodov, Z.Y.Karimov - Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davvom ettirish. Toshkent-2013
2. Azizzxo’jayeva N.N. O’qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T:TDPU, 2000.-52 b.
3. G’oziyev Yo.Yo. “Umumiy psixologiya” 1-2-tom. Toshkent-2002y
4. Maxmudov M. O’quv materiallarini didaktik loyihalash tizimi. “Pedagogik mahorat”, 2002-yil, 3-son, 3-11-betlar.

## **II. MAXSUS PEDAGOGIKA:**

### **MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISH**

***Sharopova Guljaxon Soatali qizi***

*Namahgan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan maxsus mакtabda ta’lim olayotgan o’quvchilarni nuqtini o’stirish yo’llari metod va ayni davrlari ko’rsatilgan. Nutq har bir davrda har bir shaxsning kommunikatsiyaga kirishuvida dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelgan, bu maqolaning maqsadi esa aynan ahu mavzuni nogironligi bor, notiqlikka moil o’quvchilar imkoniyatlarini yoritishdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *BMT hisoboti, nutq buzilishi, dislaliya, funksional dislaliya, davrlar, korreksion ishlar.*

**Annotation:** *This article shows the ways, methods and periods of education of students studying in a special school with limited opportunities. Speech has always been considered one of the most important issues in every person's access to communication, and the purpose of this article is to shed light on the possibilities of students with disabilities and eloquence.*

**Key words:** *UN report, speech disorder, dyslalia, functional dyslalia, periods, correctional works.*

**Аннотация:** *В данной статье показаны пути, методы и сроки обучения учащихся в специальной школе с ограниченными возможностями. Речь всегда считалась одним из важнейших вопросов доступа каждого человека к общению, и цель данной статьи – пролить свет на возможности учащихся с ограниченными возможностями здоровья и красноречие.*

**Ключевые слова:** *доклад ООН, нарушение речи, дислалия, функциональная дислалия, менструация, коррекционные работы.*

Maxsus maktablarda tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish butun dunyo bo'ylab ko'plab siyosatchilarni tashvishga soladigan muammodir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotda, masalan, dunyo bo'ylab kamida har o'ninchi kishi imkoniyati cheklangan kishidir. Turli odamlar o'rtasidagi nutqni shakllantirish jiddiy muammo bo'lib, u boshqa odamlar kabi turli xil ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi. Bundan tashqari, nogironlarning jamiyatdagi turli tadbirlarga integratsiyalashuvi doimo to'siqlarga duch kelgan . Biroq, bugungi texnologik evolyutsiya yordamida bu kabi o'quvchilar asta-sekin ko'plab ijtimoiy hayot faoliyatida faol rol o'ynashlari mumkin. Nutq buzilishi - bu kundalik hayotda turli qiyinchiliklarga duch keladigan nogironlikning bir turi. Masalan, nutqning buzilishi odamlarning o'z fikrlarini aniq ifoda etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, u ta'lim va tijorat korxonalarini kabi hayotning bir qancha sohalarida barcha kommunikativ faoliyatga to'sqinlik qiladi. Shu ma'noda, mualliflarning ta'kidlashicha, nutqida nuqsoni bo'lgan mifik o'quvchilari uchun asosiy ta'lim va muloqot tizimini nutq buzilishidan kelib chiqadigan ko'plab turli muammolarni bartaraf etish usuli sifatida ishlab chiqish kerak. Bunday tizim, masalan, muktabda yoki har qanday o'quv muhitida nutq nuqsonlari bilan bog'liq muammolarni kamaytirishi mumkin.

Maxsus maktablardagi kichik yoshdagagi bolalar orasida nutq buzilishi bilan bog'liq muammolar juda ko'p uchraydi. Bunga esa asosan tashqi omillar yoki ota-onalarning e'tiborsizligi sabab bo'ladi. Dislaliya nutq buzilishining keng tarqalgan turi bo'lib, bu holatda kichik yoshli o'g'il-qizlar ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydi yoki bir tovushni ikkinchisiga almashtirib, ba'zi paytda uni o'tkazib yuboradi. Asosan 3-4 yoshli kichkintoylarda uchraydigan bu nutq buzilishida bola o'z istaklarini to'liq va aniq bayon eta olsa-da, ba'zi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Masalan, "mashina" so'zini "matina", "shirinlik" so'zini esa "tirinlik" deb aytishi mumkin. Dislaliyaning 2 xil – funksional va mexanik turlari bor. Mexanik turiga asosan bola og'zidagi nutq apparatidagi (tishlar joylashuvi, jag'lar shakli) kamchiliklar, tanglayning tartibsiz tuzilishi, qalin lablar sabab bo'ladi. Funksional dislaliyani esa bolaning o'tkir kasalliklarni boshdan kechirganligi, oilada ikki tilda so'zlashish, farzand nutqini noto'g'ri tarbiyalash, u bilan kam suhbatlashish, kichkintoy bilan gaplashganda so'zlarni "bolalarcha" talaffuz qilish va unda

fonemik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi kabi omillar keltirib chiqaradi. Mexanik dislaliya tashxisi qo‘yilgan Bolani ortodont va logoped mutaxassislar birgalikda davolashi lozim. Buning uchun kichkintoyga og‘iz orqali bajariladigan maxsus mashg‘ulotlar tavsiya etiladi. Ayrim vaqtarda esa shifokor ko‘rsatmasi bilan jarrohlik amaliyoti qo‘llaniladi.

Funksional dislaliya 5 yoshgacha davolanmaydi. Agar bola shu davrga qadar ba‘zi so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilayotgan bo‘lsa, u bilan to‘g‘ri va ravon so‘zlashish orqali muammoni bartaraf etish mumkin. Bunda kichkintoyga she‘r yodlatish, qo‘schiq eshittirish yaxshi samara beradi. Biroq bola 5 yoshga to‘lgach ham “quyosh” so‘zini “quyos” deyayotgan bo‘lsa, uni shifokorga ko‘rsatish zarur bo‘ladi. Mazkur holatda logoped jajji bemorga og‘iz mashg‘ulotlarini o‘rgatish va talaffuz qila olmayotgan tovushlarni to‘g‘ri aytishga yordamlashadi. Ya’ni maxsus logopedik yo‘llar bilan bu tovushlarni kichkintoy nutqida mustahkamlaydi.

Nutq rivojlanishida quyidagi bosqichlar o‘ziga xos ega:

1. G‘ing‘illash (1-5 oylikdan boshlab ) xarakteristikaga ko‘ra unli tovushlarga o‘xshash ayrim tovushlarni aytish davri bo‘lib, dastlabki bosqich hisoblanadi, va albatta, bu davrda bola tovushlarni talaffuz qilish orqali nutqning dastlabki bosqichini boshdan kechiradi.
2. Bidillash (6-7 oylikdan 10 oylikkacha) tovushlarni o‘zaro qo‘shib, bo‘g‘inlar ketma-ketligi ko‘rinishida talaffuz qilinadi va o‘ziga yaqin odamlarga nisbatan mazmunga ega so‘zlarni aytishdan iborat bo‘ladi (da-da, bu-vi). 5 oylikdan bola tovushlarni eshitadi, lablar harakatini ko‘radi va ularga taqlid qilishga urinadi. Kattalar aytgan so‘zlarni takrorlashga urinadi.
3. “Modullashgan bidillash” (6-7 oylikda) buyumlar, odamlar, harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli tovushlar birikmasi (nan-na, ash-sha, ma) yasab nutqda foydalananadi, 10-11-oylikdan boshlab esa, dastlabki so‘zlarga munosabat paydo bo‘ladi, 1 yoshda esa bola dastlabki so‘zlarni ayta boshlaydi. Bola hayotining birinchi yilidagi faoliyatining asosiy shakli kattalar bilan emotsional-ijobiy muloqot hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaga kattalar bola tilida emas, balki ularning kattalar tilida muloqot qilib gaplashsa, bola tilidagi nuqsonlar nisbatan bartaraf etiladi.Ilk so‘zlar umumiy ma’noli xarakterga ega, ularning mazmuni asosan holatga bog‘liq, nutq esa imo-ishoralar orqali boshqariladi.

Shuningdek, ontolingvistikating o‘ziga xos muammolari bola nutqidagi fonetik, leksik, psixologik kamchiliklarda kuzatiladi. Ya’ni bola nutqi shakllanishida uning harflarni g‘ug‘ulab aytishidan tortib, nutqda ishlataladigan so‘zlarni to‘liq ayta olishi, atrof muhitga o‘z munosabatini bildirishda nutq asosiy rol o‘ynaydi. Bundan tashqari bola nutqidagi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muammolar ontolingvistika bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan psixologiya va tilshunoslik kabi sohalar juda keng tarmoqlarga aloqador bo‘ladi.

Nutqda nuqsoni bo‘lgan va murakkab muloqotga muhtoj bo‘lgan ko‘plab odamlar ko‘pincha o‘z uylarida, maktablarida va jamiyatda to‘liq ishtirok etishdan chetda qolmaydilar. Nutqning etishmasligi ularning rivojlanishining ko‘p jihatlariga, jumladan kognitiv, ijtimoiy, til va savodxonlik ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, muloqot nogironligining salbiy oqibatlarini chetlab o’tish uchun murakkab muloqot ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarga imkon qadar erta yoshda muloqotning sehr va kuchidan foydalanish imkoniyatini berish zarurligini ta’kidlaydi. Biroq, optimal darajada samarali bo‘lishi uchun har qanday aloqa tizimi yosh bolalarning ehtiyojlarini qondiradigan va yosh bolalarning ko‘nikmalariga mos keladigan tarzda ishlab chiqilishi kerak va bolalarning pragmatik, semantik rivojlanishini qo’llab-quvvatlash uchun samarali dalillarga asoslangan aralashuvni ta’minalash kerak. va kommunikativ kompetentsiyaga erishish uchun zarur bo‘lgan sintaktik ko‘nikmalar .

Maxsus mактаб та’лим muassasalarida olib boriladigan korreksion ishlar bolaning nutqini va bilish jarayonlarini muvafaqqiyatli rivojlantirishga qaratilishi lozim. Bunda olib boriladigan korreksion ishlar bolalar bog‘langan nutqini bilish faoliyatini rivojlantirishga yo’naltirilishi kerak, ya’ni logoped, tarbiyachi, pedagog bilan kompleksli ko‘p qirrali ta’sir amalga oshirilishi lozim. Aynan shu jihat aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning o‘ziga xos amalga oshirilishini ta’minlaydi va sensor nuqsonli bolalarning saqlangan analizatorlarining propriotseptiv sezgirligining, matorika faoliyatini faollashtirishni samarali amalga oshiradi. Bog‘langan monologik mulohazalarni polinsensor rejallashtirishi bo‘yicha ishni 4 davrda olib borish yaxshi samara beradi:

**Tayyorlov davri** - “ramziy” Bir ramz orqali to’liq iboralarni almashtira olishga bolalarni o’rgatish uning vazifasi bo’lib xisoblanadi (masalan: “Kuz keldi”).

Bola ushbu iborani ochib beruvchi mos rasmni tanlashi lozim. Uni oldida quyidagilar turadi: sariq barg, etik, qor parchasi, quyosh, qushcha. Shunday iqlilib, mantiqiy fikrlash shakllantiriladi, hamda bola ramziy belgilar orqali iboralarning ma’nosini aniqlashga o’rganadi).

**Birinchi davr** - kelgusidagi hikoyaning tuzilishi haqidagi ma’lumot. Ushbu davrni amalga oshirishda bolalarning diqqati asos bo’la oladigan his organlariga yo’naltiriladi. Bu quydagilar xisobiga amalga oshiriladi: **a)** qolgan sensor yo’llari qisman izolyatsiya qilishadi (masalan, mevalarni xidini xiddab turib, quloq va ko’zlarni yumish); **b)** kuchli ta’sir etuvchilarni berish (masalan, tasvir shakli oddiy bo’lmasligi yoki tabiiy obyektni ko’rsatish, yorqin xislarni uyg’otuvchi qiziqarli sharoit (nokning sharbatini chiqarish); **v)** birinchi signali ma’lumotlarni so’z bilan ifodalash (masalan: “Ushbu nokning mazasini tatib ko’ramiz” (nok shirin): “Sharbatini siqamiz” (u suvli).

**Ikkinchi davr.** Olingan ma’lumotlarniishlab chiqish tajriba jarayonida idrok etish hajm aniqlanadi, uni siyosini xotirasida ushlab turib uzata olishi, qayta ishlashda: bolaning sensor doirasi ustida korreksion ish olib boriladi. Kelasi xikoyaning sensor rejasi tuziladi.

**Uchinchi davr.** Tajriba ma’lumotlarini anglash va so’zlash tartibida (xarakatlarni ta’riflash va kuzatish, savollar yordamida o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash, lug’atini nutqiy shtamplar orqali to’ldirish va obrazli ifodalash, lug’atini so’z tuzish orqali faollashtirish, so’zlarni o’zgartirish va leksika - Grammatik ish). Lekin mavzularga mos individual albomlar asosida etimologik suratlarni lug’atiga kiritish.

**To’rtinchi davr.** Yakunlangan tajribadagi ma’lumotlarni mustahkamlash jarayonida yaratilgan obrazni verbal vositalar yordamida bosqichma - bosqich qayta ishlash va mustahkamlash:

Maxsus maktab ta’lim muassasalarida pedagog sensor reja asosida hikoya namunasini beradi, tajriba paytida aytildigan aloxida so’z, ibora, so’z birikmalarini aytmaydi. Qoldirib ketilgan joylarini bolalar to’ldiradi, hikoyani tuzish bo‘yicha faol ishtiroki hamda uni to’liq obrazini passiv strukturada xotirasida uzoq vaqt ushlashi

ta’milanadi; butin hikoya obrazlari bir vaqtning o‘zida o‘ng yarim sharda tasvirlanadi, ularning alohida qismlarining verbalizatsiyasi chap yarim shardagi nutqiy bo’limlarga o’tkazilib bog’lanma iboralarga tayyorlaydi.

Bu strategiya mashg’ulotning mustahkamlash bosqichida qo’lanadi. Tavsiya etilayotgan yangi texnologiyalarni mavzudan sinfdagi bolaning individual va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib o’zgartirish, oddalashtirish yoki murakkablashtirish mumkin. Buning uchun esa pedagogdan izlanuvchanlik, sinchkovlik va mahoratlil bo’lish talab etiladi.

Shuningdek ushbu texnologiyalarni mashg’ulotlarda boshqa mavzularni o’tishda takrorlash va mustahkamlash mashg’ulotlarida ham qo’llash maqsadga muvofiqdir.

Til buzilishlari odamning ifodali til, retseptiv til yoki pragmatik tilda qiyinchiliklarga duch kelganida aniqlanadi. Nutqning buzilishi insonning ovozi, ravonligi yoki artikulyatsiyasi so’zlovchiga diqqatni jalg qilganda aniqlanadi, chunki uning nutqi normadan etarlicha farq qiladi. Nutq va til rivojlanishi bolaning umumiy rivojlanishiga mos kelishi kerak va odatiy bosqich belgilari yordamida kuzatilishi mumkin. Differentsial diagnostika, bolaning klinik va ta’lim ehtiyojlari bilan bir qatorda, ota-onalarning maqsadlariga moslashtirilishi kerak bo’lgan tegishli aralashuvni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Erta aniqlash va aralashuv ta’limni rejalashtirishga yordam beradi va ko’pincha yaxshi uzoq muddatli natijalar bilan bog’liq. Har qanday nutq terapiyasi rejasi o’lchanadigan maqsadlar va ushbu maqsadlarga erishishning izchil monitoringi bilan ishlab chiqilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to’g’risidagi” Qonun. Toshkent, 1991-y.
2. ”Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi O’z.Res.Qonuni. – T. 2008.
3. O’z.Res.Vazirlar mahkamasining 2007-yil 23-yanvarda 573-soni qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi.
4. ”Ta’lim hamma uchun “ dasturining milliy rejasi. - T. :”Arnaprint”, 2003.



## **O’SMIRLIK DAVRIDA DEZADAPTATSIYALASHGAN XULQNI KORREKSIYA QILISH MEXANIZMLARI**

**Tojiddinova Dildora Bahodirjon qizi NamDU talabasi,**  
**Ilmiy rahbar: (PhD) Badritdinova Madina Baxromovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan deviant xulqning psixologik xususiyatlari, dezadaptatsiyalashgan xulqni keltirib chiqaradigan asosiy omillar dezadaptatsiyalashgan xulqli o’smirlarga psixologik yondashuvning korreksion usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** muammo, deviant, innovatsiya, ijtimoiy, muammoli vaziyat, agressiya, xulq-atvor, dezadaptatsiya, suitsid.

## **МЕХАНИЗМЫ КОРРЕКЦИИ ДЕЗАДАПТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**Таджиддинова Дилядора Бахадыржон кизи студентка НамГУ,**  
**Научный руководитель: (PhD) Бадритдинова Мадина Бахромовна**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о психологических особенностях девиантного поведения, которые могут возникнуть в подростковом возрасте, основных факторах, провоцирующих дезадаптивное поведение коррекционные методы психологического подхода к подросткам с дезадаптивным поведением.

**Ключевые слова и понятия:** проблема, девиантная, инновационная, социальная, проблемная ситуация, агрессия, поведение, дезадаптация, самоубийство.

## **MECHANISMS FOR THE CORRECTION OF DEADAPTATED BEHAVIOR IN ADOLESCENCE**

**Tojiddinova Dildora Bahodirjan daughter NamDU student,**  
**Scientific leader: (PhD) Badritdinova Madina Bakhromovna**

**Abstract:** This article provides information on the psychological characteristics of deviant behavior that can occur in adolescence, the main factors that cause disadapted behavior are the corrective methods of the psychological approach to adolescents with disadapted behavior.

**Key words and concepts:** problem, deviant, innovation, social, problem situation, aggression, behavior, disadaptation, suicide.

## KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk inson bo’lib ulg’ayishi yo’lida zamonaviy, ilg’or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog’lom, vatanparvar va fidoiy etib tarbiyalash, huquq va manfaatlarini himoya qilishga e’tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo’ladi. Shu bois O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan jamiyatining faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlarga yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch sifatida qaralmoqda.

“Yurtimizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga yetishi bilan bog’liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Bu jumlalar shuni anglatadi-ki, bizning ertangi kunimiz bugungi yoshlar qo’lida”-deydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev [1]. Shu bois ularni barkamol, yetuk bo’lib ulg’ayishlarida ularga kerakli bo’lgan imkoniyatlarni yaratib berishimiz lozim va shu bilan birgalikda, ayni vaqtida o’zini qobiliyatini, salohiyatini, imkoniyatlarini tushunib yetmayotgan ba’zi yoshlарimizga ham yordam qo’lini cho’zishimiz lozim.

Bugungi O’zbekiston yoshlarniki deya baralla aytilayotgan bir zamonda, o’z xulq-atvorini boshqara olmayotgan, turli xil norasmiy guruuhlarga qo’shilib yosh umrini behuda sarflayotgan yoshlарimiz ham yo’q emas. Bunday yoshlarning tobora ko’payib borishi albatta hech kimni bee’tibor qoldirmaydi. O’smirlik davrida yuzaga keladigan deviant xulqli bolalar ustida ishslash bugungi kundagi eng dolzarb mavzulardan biri desak mubolag’a bo’lmaydi. Chunki aynan shu yoshlar yurt kelajagini barpo etishadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI:**

Og’ishgan xulq muammosi ilmiy bilimning turli sohalarida tadqiqotchilarining o’ta qiziqishini uyg’otdi. Ya.I.Gilinskiy ta’kidlaganidek: “Deviant ahloqqa bag’ishlangan minglab tomlar yozib bo’lindi, biroq hanuzgacha uning nimaligi butkul aniq emas” [2].

Djon Uotson axloq to’g’risida “tuxumni mahsuldor qilish lahzarida dunyoga keluvchi va organizmning rivojlanishi darajasi bo'yicha yanada murakkablashib boruvchi faoliyatning uzlusiz oqimi” haqida gapirgan edi [3].

Venger psixologi F.Patakining fikriga ko’ra, deviant xulq-atvor tizimi yoki ko’plab sababiy bog’liqlikka ega bo’lib, uning vujudga kelishi bir emas, balki bir qancha ya’ni tarixiy, makrosotsiologik, ijtimoy-psixologik va individual-shaxsiy omillar roliga bog’liq [4].

Deviant xulq atvorning shakllanishiga ham tashqi, ham ichki omillar ta’sir ko’rsatadi. Birinchi omilga ishsizlik, hayot tarzining pastligi, jamiyatda u yoki u qatlamning yashash darajasi va boshqalar kiradi. Ikkinchi guruh omilga L.M.Zyubinning fikricha quyidagilar kiradi [5]:

- aqliy rivojlanishdagi yetishmovchilik;
- tafakkur mustaqilligining yetishmasligi, yuqori darajada konformlilik, ta’sirlanuvchanlik;
- quyi darajada aqliy faollik, ma’naviy ehtiyojlarning qashshoqligi va beqarorlik.

K.Lorentsnинг fikricha, agressiv xulq-atvor tirik organizmdagi yashash uchun kurash instinki bilan bog’liq. Lorentsning fikricha, agressiv harakat [6]:

- a) to’plangan agressiv quvvatning miqdori;
- b) agressiyani yumshatuvchi ta’sirlarning hamkorlikdagi faoliyati natijaidir.

V.V.Kovalevning “o’smirlardagi patoxarakterologik reaksiyalar psixik faoliyatning muvaqqat o’zgarishlaridir” degan fikrini keyinchalik A.E.Lichko ham ta’kidlaydi. Patoxarakterologik reaksiyalarga odatda harakter xususiyatlari bilan bog’liq o’zgarishlar, reaktiv holatlar, ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiyaga olib keluvchi xulq-atvor o’zgarishlari kiritiladi [7].

F.Patakining fikricha, dispozitsiyalar deviant xulq-atvorning bevosita sabasi emas, balki uning vujudga kelishi uchun sharoit yaratuvchi omildir. Agar

ijtimoiylashuvning ilk bosqichida noo’rin an’analar va intilishlar shunga muvofiq ijtimoiy-madaniy namunalar bilan mos kelsa, u holda deviant xulq-atvor shakllanishining ehtimoli ortadi [8].

E.Dyurkgeymning ta’kidlashicha deviant xulq jamiyatda me’yoriy nazorat susayganda yuzaga kelar ekan [9].

P.Mertonning nazariyasida esa, jamiyatda ma’naviy qadriyatlar inson tomonidan ob’ektib ravishda qabul qilinmay, qadriyatlar tizimi yemirilishni boshlaganda vujudga kelar ekan [10].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI:**

Ushbu maqolada o’smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan deviant xulqning psixologik xususiyatlari, dezadaptatsiyalashgan xulqni keltirib chiqaradigan asosiy omillar dezadaptatsiyalashgan xulqli o’smirlarga psixologik yondashuvning korreksion usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR:**

Deviant (lot, deviato – og’ish) deb, kishining qilgan ishlari, faoliyat turi odatiy va umumiyligi e’tirof etilgan me’yorlardan farq qiladigan yoki u o’zi a’zosi bo’lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me’yorlaridan og’ishida namoyon bo’ladigan axloqqa aytiladi.

O’smirlardagi turli jinoyatchiliklar, suidsitlar, spirthli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishlari kabi holatlari yuzaga kelishining asosiy omillari to’rt bo’lingan.

Bular:

- Oilaviy omillar
- Ijtimoiy omillar
- Shaxsiy omillar
- Fiziologik omillar

**Oilaviy omillar** - oiladagi nohush vaziyatlar, ota-onaning bandligi, ota-onalar bilan nizolar, ota-onalarning axloqsiz turmush tarzi, noto’liq oilalar va pedagogik saviyasiz oilalar.

**Ijtimoiy omillar** - tashqi muhitning ta’siri, ota-onalarning ishsizligi va kamta’milanganligi, tengdoshlari tomonidan mensimaslik, kamsitish, iqtisodiy beqarorlik, kompyuter o’yinlari.

**Shaxsiy omillar** - erkinlik va mustaqillikka intilish, irodasizlik, yolg’izlik, idrok va huquqiy bilim saviyasining pastligi, e’tiborni o’ziga jalb qilish.

**Fiziologik omillar**- bolaning kasalligi, o’qishda orqada qolish, o’zini nzorat qila olmaslik, genetik moyillik.

### **XULOSALAR:**

Yuqorida fikrlarga tayangan holda, xulosa qilib aytadigan bo’lsak, dezadaptsiyalashgan xulqni keltirib chiqaruvchi omillar o’smir xulqini shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o’smirlik davrida ularga iloji boricha to’g’ri muomalada bo’lish va vaziyatni to’liq anglagan holda o’smirlarga to’g’ri yo’l ko’rsatish lozim. Maktablarda o’quvchilarga ko’proq e’tiborli bo’lish, ularni mакtab ichidagi va tashqarisidagi do’stlari haqida ma’lumotlarni bilish lozim. Shu bilan bir qatorda ota-onalar majlislarida o’smirlardagi o’zgarishlar to’g’risida, ularni bandligini ta’minalash, ya’ni ularni darslar va uy yumushlari bilan band qilib qoyishlari, do’stlari bilan vaqt o’tkizayotganda nimalar bilan shug’ullanayotgani haqida ma’lumotlarga ega bo’lishlari, ularga bee’tibor bo’lmasliklari, oilaviy majlislarda ularning ham fikrlarini inobatga olgan holda qaror qabul qilishlari, agar xato fikrlagan yoki xato ish qilgan bo’lsa bosiqlik bilan to’g’ri tushuntirishlari lozimligi to’g’risida ma’lumotlarni berib o’tilishi lozim.

Bundan tashqari har bir pedagog psixologik bilimlarga ega bo’lishi shart. Chunki o’quvchilarni holatini, xissiyotlarini, harakter xususiyatlarini inobatga olgan holda ish yuritishi lozim. Agar pedagogda psixologik bilim yetishmasa o’quvchilar bilan ishlashda turli xil qiyinchiliklarga duch keladi.

Bir so’z bilan aytadigan bo’lsak, deviant xulqli va boshqa yomon odatlari shakllanayotgan yoshlarga biz bee’tibor bo’lmasdan, har bir shaxs shu yurtning kelajagini qurishini anglab yetgan holatda ularga jiddiy yondashish natijasidagina bu millat rivojlanadi, ravnaq topadi. Chunki O’zbekiston – yoshlар mamlakati!

### **Foydalanilgan adabiyotlar / Список литературы / References**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqidan.

2. Xakimova. I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi, Toshkent, 2014.
3. Abduvahobova D. Xulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi, Jizzax, 2013.
4. Qurbonova Z. Xulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi, Namangan shahri, 2013
5. Бадритдинова, М. (2019). КОГНИТИВ УСЛУБ БИЛАН БОФЛИК МЕТАУСЛУБЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Ilmiy axborotnoma.
6. Бадритдинова, М. Б. (2020). Различия между базовой, дидактической и когнитивными структурами личности. Oriental Art and Culture, (II), 158-161.
7. Бадритдинова, М. (2015). ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА НИСБАТАН СИСТЕМАЛИ ЁНДАШУВ. Илмий ахборотнома.
8. Badritdinova, M. B., & Rustamova, T. N. (2021). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Science and Education, 2(2), 331-337.
9. Badritdinova, M. (2015). TA“ LIM JARAYONIDA IDROKGA XOS KOGNITIV USLUB SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. Ilmiy axborotnoma.
10. Badritdinova, M. B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

## **INKLYUZIV TA’LIMDA BOLALAR ADABIYOTI PEDAGOGIK INSTRUMENT SIFATIDA**

***Rahimjanova Mashhura Rustamjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

**Tel:+998939230026 E-mail:@rahimjanovamashhuraxon@gmail.com**

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda ta’lim islohotlari doirasida inklyuziv ta’limni ham inobatga olib kelmoqda. Inklyuziv ta’lim bugungi kunda dolzarb masalalar qatorida ko‘rilmoxda. Inklyuzivlik zamонавиъи педагоголар дунёсининг асосиёт тарқибиёт қисмидир. Inklyuziv ta’limda bolalar adabiёti bolalarni pedagogik, psixologik, ruhiy, jismoniy, aqliy jihatidan rivojlantirishda muhim instrument

hisoblanadi. Ushbu maqolada qanday qilib pedagog samarali inklyuziv ta’lim uchun kitob va o’quv materialini tanlashi va kerak bo’lsa, yaratishi haqida so’z yuritilgan.

**Аннотация:** Инклюзивное образование в рамках образовательной реформы в нашей стране. Инклюзивное образование сегодня считается одной из актуальных проблем. Инклюзия является ключевым компонентом мира современных педагогов. В инклюзивном образовании детская литература является важным инструментом педагогического, психологического, духовного, физического и психического развития детей. В данной статье рассказывается о том, как педагог может выбрать и при необходимости создать книги и учебные материалы для эффективного инклюзивного образования.

**Abstract:** Inclusive education within the framework of educational reforms in our country. Inclusive education is considered among the current issues today. Inclusion is a key component of the world of modern pedagogues. In inclusive education, children's literature is an important instrument for the pedagogical, psychological, spiritual, physical and mental development of children. This article talks about how a pedagogue can choose and, if necessary, create books and teaching materials for effective inclusive education.

**Kalit so`zlar:** inklyuziv ta’lim, inklyuziv ta’limda bolalar adabiyoti, inklyuziv matnlar, hikoya, ertak, rivoylatlarni inklyuziv ta’limda qo’llash.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, детская литература в инклюзивном образовании, инклюзивные тексты, рассказы, сказки, использование нарратива в инклюзивном образовании.

**Key words:** inclusive education, children's literature in inclusive education, inclusive texts, stories, fairy tales, use of narratives in inclusive education.

## KIRISH

O’zbekiston Respublikasida ta’lim taraqqiyoti strategiyasi uchun katta e’tibor berilmoida. Ta’lim tizimida berilayotgan islohotlarning barchasi o’z samarasini ko’rsatib, xalqimizning ertangi kelajagi uchun yangi zamin yaratmoqda. Jumladan, inklyuziv ta’lim ham bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib qoldi.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo’ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagи maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalg etilishi rejalashtirilmoqda. [1] Yangi qonun, farmoyishlarning kuchi esa hali hanuz ahamiyatini yo`qotgan emas. 2020-yil 13 -ktyabrda “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilinadi, shuningdek, 2021-yilda O‘zbekistonda alohida ta’limga muhtoj bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar tasdiqlandi. [2] Bu hujjatlar umumta’lim maktablarida korreksion sinflarni ochishni ham ko’zda tutgan. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida 2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko’rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi: [3]

- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalarini binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minalashga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish;
- inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ta’lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko’tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta’minalash (maxsus o‘qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo‘yicha mutaxassislar);
- alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun mакtab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta’minalash va boshqalar.

UNESCO(Birlashgan Millatlar Ta’lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti) xalqaro tashkilotining ta’rifiga binoan, “ta’limga inklyuziv yondashuv deganda ta’lim jarayonida har bir shaxsning ehtiyojlarini hisobga olish va barcha o‘quvchilar ishtirok etgan holda birgalikda maqsadga erishilish tushuniladi. Bu degani har bir bola ta’lim olish imkoniyatiga ega va har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va o‘rganish ehtiyojlari borligi tan olinishi kerak. [4]

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Har bir bola kitob o‘qish, uni idrok etish qobiliyatiga ega. Kitob bola ongining, tafakkurining mahsuli sifatida qaraladi. Xo‘s, imkoniyati cheklangan bolalar qanday qilib badiiy asarlarni, kitoblarni mutolaa qilishlari mumkin? Ularning ham o‘qishi, bilim olishi uchun imkoniyatlar yaratilganmi? Ha, albatta. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar uchun yaratilayotgan bir qator shart-sharoitlar mavjud. Jumladan:

- Ko‘zi ojizlar uchun yangi kutubxonalarining yaratilishi;
- Audiomateriallarning yanada ko‘paytirilishi;

Eshitishida, gapirishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ham bir qator o‘yinlar orqali pedagogik jihatidan tushuntirish mumkin. To‘g‘ri ular eshitmasligi, ko‘rmasligi, idrok eta olmasligi mumkin, lekin barchasini his qila oladi.Ular uchun qancha ko‘p imkoniyat yaratib bersak, jamoaga shuncha tez qo‘sila oladi. O‘z menini shakllantira oladi.

Inklyuzivlik zamonaviy pedagoglar dunyosining asosiy tarkibiy qismidir. Inklyuziv sinf qanday ko‘rinishini tushunish o‘qituvchilar va ota-onalar uchun ham juda muhim, chunki ular o‘z farzandlari uchun eng yaxshi ta’limni topishga intiladilar. Inklyuziv sinfni yaratish barcha o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Inklyuzivlik - bu turli qiyinchiliklarga va ba’zi iqtidorlarga ega o‘quvchilarga nisbatan dunyoqarash va munosabatlarni o‘zgartirishdir. Inklyuziya deganda har bir bola uning jismoniy holati va qobiliyatlaridan qat’iy nazar yaxshi ta’lim, munosabat va e’tibor olishini tushunish kerak. Inklyuziv ta’lim nafaqat amaliyotlar to‘plami, balki kerakli munosabatdir ham. Bu shuni anglatadiki, maktablar, bog‘chalar, sinfonalar va maktabdan tashqari barcha mashg‘ulotlar uchun eshiklar har bir bola uchun chinakam “ochiq” bo‘lishidir. Bolalar bunday maskanda ma’lum ehtiyojga ega va ega bo‘lmagan qat’iy

nazar tengdoshlari bilan birga bo‘lish va ta’lim olish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishidir.

Inklyuziv bolalar adabiyoti bolalarda inklyuziya tamoyillarini rivojlantirishda muhim instrument hisoblanadi. Inklyuziv bolalar adabiyotiga badiiy adabiyot, hikoyalari, rasmlı kitoblar, grafik romanlar, she’riy romanlar, she’rlar, sarguzashtlar va boshqa janridagi boshqa ko‘plab matnlar kiradi. Unda turli madaniyatlar, turli tuzilmalarga ega oilalar, turli darajadagi ijtimoiyemotsional qobiliyatlarga ega odamlar, iqtisoiy darjasni har xil odamlar namoyon etilishi kerak.

Inklyuziv adabiyotlar “ko‘zgilar” kabi o‘quvchilarga o‘zlarini tasvirlash imkonini beruvchi vositalardir. [5] Inklyuziv bolalar adabiyotining muhim bir samarali tomoni shundaki, uni alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar o‘zlarini yolg‘iz his qilmaydilar. Inklyuziv bolalar adabiyoti ta’lim jarayonining muhim qismidir, unda turli ehtiyoj va chiqishdagi bolalar ishtirok etadilar. Olimlarning ta’kidlashicha, bolalar kitoblari insonni uning shaxsiy xususiyatlari, boshqalardan farq qiladigan jihatlari uchun qabul qilishni va hurmat qilishni o‘rgatadi. [6] Kitoblar orqali bolalar boshqa bolalar bilan o‘xshashlik tomonlarini va turlicha ekanliklarini ko‘ra oladilar va bunga ijobiy munosabat shakllantria oladilar. Woppperernenning ta’kidlashicha bolalar inklyuziv darslik va adabiyotlarda asosiy qahramon yoki boshqa qahrmonlarning maxsus ehtiyojlarga ega ekanliklarini qayta-qayta ko‘rganliklari tufayli ularning ehtiyojlarini chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. [7] Inklyuziv kitoblarning yana bir muhim jihat shundan iboratki, unda turli diniy qarashlarga ega bolalarni ko‘rish mumkin. Bu holat bolalarda qahramonga qaratilgan empatiya orqali tolerantlik hissini shakllantirish imkonini beradi. Inklyuziv kitoblar hilma-xillikni qadrlaydigan va hurmat qiladigan tolerant jamiyatni rivojlantirish uchun zarurdir. Bunda barcha shaxslar, ularning kelib chiqishi yoki kimligidan qat’iy nazar, o‘zlarini adabiyotda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Inklyuziv bolalar adabiyoti quyidagi turlarga ajratilib o‘rganiladi: [8]

- Har xil madaniyat haqidagi kitoblar (masalan, g‘arb, sharq madaniyati, ularning orasidagi farq va o‘xshashliklar).

- Har xil millatlar haqidagi kitoblar (masalan, koreyaliklar haqidagi kitoblar, millatning o’zbeklarga o’xshash tomonlari).
- Har xil oilaviy tizimni namoyon qiladigan kitoblar (masalan ota-onasi ajrashgan oilalarning o’ziga xosliklari).
- Turli jismoniy ehtiyojga ega insonlar haqidagi kitoblar (masalan, ko’zi ojiz boshqa jismoniy ehtiyojligi mavjud bolalar)
- Turli emotsiyonal ehtiyojlarga ega inosnlar haqidagi kitoblar (masalan, autist bolalar, ularning qobiliyatları)
- Turli ijtimoiy-iqtisodiy qatlAMDAGI insonlar haqidagi kitoblar (masalan boy, kambag’al, asbaiy va muloyim qahramonlar).

Bugun inklyuziv ta’lim nafaqat til, din, madaniyat va jismoniy ehtiyojlarni nazarda tutadi, balki jins, mental salomatlik, yosh, ideologiya kabi omillarni o’z ichiga oladi. Bugungi globallashuv jamiyatda biz birga yashashni, bir-birimizni hurmat qilishga va tushunishga o’rganishimiz kerak.

Inklyuziv ta’lim adabiyotida turli nuqtai nazarlar, madaniyatlar, jinslar, qobiliyatlar va tajribalar ifodalandi. Inklyuziv kitob o’qish empatiyani rivojlantiradi. Inklyuziv adabiyotlar o’quvchilarga turli madaniyatlar, an’analar va insonlarni o’rganish va qadrlashga yordam beradi, shu bilan ko’plab bo’shliqlarni bartaraf qiladi va inklyuziv jamiyatni rivojlantiradi. Bu esa o’z navbatida turli xil kelib chiqishi, maxsus ehtiyoji va tajribasi bo’lgan odamlar bilan yaxshiroq munosabatda bo’lish va ularni tushunish imkonini beradi. Inklyuziv jamiyat davr talabidir, buni

ta’lim jarayoni rivojlanayotgan paytda inkor etib bo’lmaydi. Inklyuziv adabiyotlarni o’qish stereotiplar va noto’g’ri qarashlarga qarshi kurashishda hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Pedagogik jarayonda qanday qilib inklyuziv o’qishni tashkil qilish mumkin:

- 1) Kitoblarning turlari darajalari turli hil bo’lishini ta’minlash;
- 2) Matn turli xil texnologiyalar orqali barcha ehtiyojli bolalar uchun yetkazilishini ta’minlash;
- 3) O’quvchilarda o’qiganlarini tushunganliklarini qanday namoyon qilishlarini o’zlari tanlay olish imkonini belgilash;

Inklyuviz kitob tanlaganda pedagogning vazifasi nimadan iborat:

1. Kitobni baholash va qo‘yilgan maqsadga muvofiqligini ko‘rish;
2. Kitob mazmunidan kelib chiqqan holda bolalar bilan bo‘ladigan suhbat mavzularini topish;
3. Kitob orqali qilsa bo‘ladigan faoliyatlarni belgilash va amalda qo’llash;
4. Inklyuziv o‘qish jaryaonini ish rejasi bilan integrasiya qilish.

Bugun O‘zbekistonda inklyuziv bolalar adabiyotlari deyarli mavjud emas. Shuning uchun pedagog bu borada kreativ bo‘lib, matnlar va inklyuziv rasmlarni birlashtirgan holda, yuqorida tamoyillarga asoslangan holda bolalarga qizqarli inklyuziv slaydlar ko‘rinishida taqdim etishlari mumkin.

Inklyuziv ta’lim jaryaonida kitob tanlashda yoki inklyuziv matnlarni shakllantirishda pedagog quyidagi omillarga ahamiyat berishi lozim:

1. Pedagog muntazam ravishda turli madaniyatlar, o‘ziga xosliklar va tajribalar bilan o‘zi tanish bo‘lilshi kerak.
2. Inklyuziv adabiyotlar haqidagi sharhlar, tavsiyalar va maqolalarni o‘qib turishi kerak.
3. Alovida ta’lim ehtiyojlariga ega muallif va illustratorlar adabiyotini izlashi kerak.
4. Kutubxona, kitob do‘konlari va kitob blogerlar sharhlarida inklyuviv kitoblar haqidagi ma’lumotlar muntazam ravishda izlab turishi kerak.
5. Respublikada inklyuziv ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan tanish bo‘lishi kerak.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim tizimi bo‘lmaganda edi, imkoniyati cheklangan bolalar hozir ta’lim olmayotgan bo‘lar edi. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishi uchun ularni qo’llab-quvvatlash zarur. Chunki birgina oddiy salbiy munosabat bolaning ruhiyatiga ta’sir etishi mumkin. Salbiy munosabat maxsus ehtiyojli bolalarning Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim - tarbiya olishlari uchun eng katta to‘siq bo‘lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a’zolari, o‘qituvchilar, tashkilot hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o‘zlaridagi tashkilotlarda ta’lim-tarbiya olishlariga nisbatan qarshiliklari va buni

istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto‘g‘ri fikr, ular to‘g‘risida ma‘lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o‘siganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko‘pincha ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq berkitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko‘rsatmaydilar, ro‘yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to‘g‘risida hech bir ma‘lumot berilmaydi. Natijada ko‘plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo‘ladilar. Ular to‘g‘risida hech bir ma‘lumotni bo‘lmasligi ta’lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi. Zero, imkoniyati cheklangan bolalar, ta’lim olishdan cheklangan emas. Bo‘lajak yetuk kadrlar yetishib chiqayotgan ekan, imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim va tarbiya olish natijasida sog‘lom bo‘lib boraveradi. Taklifim shundan iboratki, aqli zaif, ruhiy jihatdan ortda qolgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o‘rgangan holda, oila bilan hamkorlik ishlari tashkil etilsa, kun kelib inklyuziv ta’lim o‘z samarasini beradi. Faqatgina bolani har qanday holda qo’llab-quvvatlash, uni rag‘batlantirish, o‘zida mavjud bo‘lgan iqtidorini, iste’dodini namoyon eta olish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish darkor. UNESCO tashkilotining mazmunli fikrlarini shu o‘rinda kiritib ketsam mubolag‘a bo‘lmaydi. “Birga o‘qishni o‘rgangan o‘quvchi, ertaga birga yashashni biladi”.

Inklyuziv ta’lim ilg‘or vaadolatli jamiatning asosi bo‘lib, har bir shaxs, o‘z qobiliyati yoki farqlaridan qat’iy nazar, sifatli ta’lim olish huquqiga ega, degan asosiy tamoyilni o‘zida mujassam etadi. Bugungi jadal rivojlanayotgan global landshaftda inklyuzivlik imperativi hech qachon bunchalik muhim hisoblanmagan. Bu nafaqat turli xil o‘quvchilarda tolerantlik va ma’suliyatlilik hissini uyg‘otadi, balki innovatsiyalar va muammolarni hal qilish davri uchun juda muhim bo‘lgan istiqbollar, ko‘nikmalar va hissiyotlarni rivojlantiradi. Inklyuziv ta’lim ko‘proq rahmdil, hamdard va tushunadigan dunyo uchun poydevor yasaydi, bunda odamlar o‘zlarining noyob ehtiyojlari uchun qadrlanadi va hech kim ortda qoldirmaydi. Bugun inklyuziv ta’lim bu shunchaki axloqiy ehtiyoj emas, bugungi kunda u har bir jamiatning strategik zaruratidir. [9]

### Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”.
4. “Sub-Education policy Review Report Inclusive Education”, UNESCO xalqaro tashkiloti, 2021. Web sahifa:  
[https://en.unesco.org/sites/default/files/inclusive\\_education\\_final\\_january\\_2021.pdf](https://en.unesco.org/sites/default/files/inclusive_education_final_january_2021.pdf)
5. Bishop, R. S. Mirrors, windows, and sliding glass doors - scenic regional. Reading is Fundamental. Retrieved April 16, 2022. Web sahifa:  
<https://scenicregional.org/wpcontent/uploads/2017/08/Mirrors-Windows-and-Sliding-Glass-Doors.pdf>.
6. Monoyiou E., & Symeonidou S., The wonderful world of children's books? Negotiating diversity through children's literature. International Journal of Inclusive Education, 20:6, 2016. 588-603, DOI: 10.1080/13603116.2015.1102338)
7. Wopperer, E. Inclusive Literature in the Library and the Classroom. ProQuest. 2011. Web Sahifa  
<https://www.proquest.com/openview/ed3ba48e0015fcfab37ede97df987c96/1>.
8. Lynch E., The Benefits of Using Inclusiv The Benefits of Using Inclusive Liter e Literature in Kinder e in Kindergarten thr ten through Fifth Grade Classrooms, Guidelines for Selecting Inclusive Texts, and Resources to Help Teachers, Librarians, and Community Members use Inclusive Children’s Books, Bowling Green State University, Honors Projects, 2022
9. <http://scientists.uz//uploads/conferences/0014/2.6>

## ERTA BOLALIK AUTIZMINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA KORREKSIYALASH USULLAR

*Ilmiy rahbar: D.D.Oribboeva*

*Ikromova Dilshoda*


*NanDPI maxsus pedagogika yo’nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda keng tarqalib borayotgan kasalliklardan biri bolalik autizmi sindromi to’g’risida. Bu maqolada bolalik aurizmi kasallikning kelib chiqish sabablari, davolash chora tadbirlari olib boriladigan korreksion mashg’ulotlar va bu kasalikning belgilar, alomatlari to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** Bolalik autizmi, kanner sindromi, antipsixotiklar, aqli zaiflik, kasallik sabablari, diagnostika

Autizm , bu nom bugungi kunda butun dunyoda keng tarqalib borayotgan kasalliklardan biriga aylanib ulgurdi. Autizm atamasi 40 yil oldin fanga kirib kelgan. Imiy jurmallardagi ma’lumotlarga ko’ra bugungi kunda olimlar autizm sindromiga chalingan shaxslarni 4 ta guruhga bo’lib o’rganishmoqda. Bular quydagilar;

### Autizm 4 guruhga ajraladi



1-guruh. Ilk yoshdagi bolalar autizmi (2 yoshgach)

2-guruh. Bolalik autizmi (2yoshdan, 11 yoshgach)

3-guruh. O’smirlik autizmi(11 yoshdan, 18 yoshgacha)

4-guruh. Kattalar autizmi

Autizm (grekcha “autos” – “o‘zim” degan so‘z) – bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, bemor atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg‘izlikni yoqtiradi. Atofidagi barcha narsalarga va shaxslarga etiborsiz bo‘ladi, o‘zini yangiliklardan olib qochadi. Autizmda miyaning ko‘plab sohalarida o‘zgarishlar qayd etilgan, ammo ularning qanday rivojlanishi aniq bo‘lmagan sindromdir. Bular orasidan eng ko‘p uchrayotgani bolalik autizmi hisoblanadi. Odatda autizm bir o‘zi namoyon bo‘lmaydi boshqa kasalliklar bilan birga keladi. Bolalik autizmi ham xuddi shunday u doim aqli zaiflik, nutqning buzilishi, daun sindromi va boshqa kasalliklar bilan birga namoyon bo‘ladi.

Bu kasallikni fanga Leo Kanner tomonidan 1943- yilda kirtilgan. Mutaxasislarning fikriga ko‘ra bolalik autizmining kelib chiqishiga sabablar hali toliq organilmagan, ammo ayrim tadqiqotchilarining fikricha atrof muhit ya’ni ekalogiya bundan tashqari ona xomladorlik davrida turli xildagi narkotik va spirtli ichimliklar istemol qilishi, surunkali va virusli kasalliklarga chalinishi, ona organizmida qo’rg’oshin va simobning ortib ketishi bu sindromga sabab bo‘ladi deb taxmin qilishmoqda. Mutaxasislarning ma’lumotlarga ko‘ra bu kasallikning kelib chiqishi va davolash choralarini xali to’liq o‘rganilmagan.

Leo Kannerning ta’rifiga ko‘ra "autizm bosh miya rivojlanishida buzilish paydo bo‘lishi natijasida kelib chiqadigan kasallik" deb aytib o’tgan. Bu kasallikning quydagisi belgilari bor;

1. Bolaning nutqi juda sekin rivojlanadi.
2. Autizm sindromiga chalingan bola hech kim bilan muloqotga kirishishni istamaydi.
3. Bola yangilikdan, atrofidagi o‘zgarishlardan qo’rqadi, bir xillika o’rgangan bo‘ladi.
4. Bola boshqa bolalar bilan tajavuskorona munosabatda bo‘ladi, ular bilan o’ynamaydi va gaplashmaydi ham.
5. Bola juda kam kuladi va suxbatdoshining ko’ziga qaramaydi
6. Muloqotga kam kirishadi.
7. Boshqa kishilar hatto ota –onasiga ham e’tibor bermaydi.
8. Bitta harakatni doim takrorlashga harakat qiladi.
9. Atrofdagi muhit o‘zgarsa jazavaga tushadi.

10. Qiziqishlari cheklangan bo’ladi.

Hozirgi vaqtida erta bolalik aurizmini 4-guruhgaga tasniflab o’rganilmoqda;

Birinchi guruh. Sodir bo’layotgan hodisalarga umuman e’tibor bermasligi bilan boshqa bolalardan ajralib turadi. Muloqot qilganda bola umuna e’tiborsiz boladi, hatto ota-onasiga ham.

Ikkinci guruh. Atrofidagi odamlardan ajralib qolganligi bilan farqlanadi. Bola atrofidigilar bilan munosabatda juda talabchan bo’ladi, faqat ota-onasi va yaqinlari bilan muloqotga kirishadi. Bitta kiyim, bir xil ovqatga bog’lanib qolgan bo’ladi.

uchinchi guruh. Bu guruhgaga kiruvchi bolalar o’z qiziqishlarini boshqalardan yashirishga harakat qilishadi. Bu qiziqishlar bilim olishga bog’liq bo’lmaydi. Ular g’amgin, tajavuskor, jaxildor bo’lishadi.

To’rtinchi guruh. Atrif muhit bilam munosabatga kiriahishi haddan tashqari qiyinligi bilan farqlanadi. Bu guruhgaga mansub bo’lgan bolalar ko’ngli nozikligi va tez arazlashi bilan ajralib turadi.

Ma’lumotlarga ko’ra erta bolallik autizmi qiz bolalarga nisbatan o’g’il bolalarda ko’p uchraydi. Bu kasallikni Kanner sindromi deb ham ataladi. Asosan 3-5 yoshli bolalarda ko’p uchraydi. Leo Kanner o’zining “Аутистические нарушения эмоционального контакта” asarida erta bolalik autizmi to’g’risida ko’plab ma’lumotlar berib o’tilgan.

Tadqiqotchilarning fikricha bu sindromni korreksiyalashning eng samarali usullaridan biri ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish, bolalar harakterini haftalik immersion dasturi shaklida kongnitiv va kasbiy terapiya bilan birashtirgan xolda olib borish kerakligini takidlashmoqda. Bularga quydagi korreksion choralarni kiritib o’tishgan;

- 1.Xulq-atvor terapiyasi dasturlari.
- 2.”Rivojlantirish modellari” dan foydalanish.
- 3.Logoped terapiyasi.
- 4.Ijtimoiy ko’nikmalarni o’rgatish.
- 5.Mexnat terapiyasi.
- 6.Antidepressantlar.
- 7.Antipsixotiklar.
- 8.Talvasaga qarshi preparatlar.

Bu kasallikdan to’la davolanish deyarli mumkin emasligi to’g’risida mutaxassislar aytib o’tishgan bo’lsada bu kasalik bilan kurashish choralari qidirilmoqda. Ushbu sindromga oid nazariyalar juda ko'l, biroq ulardan birontasi ham klinik tastig'ga ega emas. Kasallikni davolash jarayonida bolaning ota-onasi va boshqa oila a’zolari bilan o’zaro munosabatlarini yaxshilashga ham katta e’tibor qarataladi, unga qo’rquvni yengish, aggressiv xurujlarga qarshi kurashish o’rgatiladi.

Bolalik autizmiga chalingan bolalarning ota-onalaridan katta ma’sulyat talab etiladi. Eng muhimi, bu kasallikni daxshatli hukm deya qabul qilmaslikdir.

Shu vaqtgacha autizm kasalligini genetik kasallik deb hisoblangan, ammo bu sindrom bilan tug'ilgan bolalarning ota-onalari sog'lom ekanligi aniqlangan. Lekin so’nggi ma'lumotlarga ko’ra autizm kasalligi atrof-muhitdagi zararli –kimyoviy moddalarning ko’payishidan kelib chiqadi deb taxmin qilinmoqda. Bugungi kunda keng tarqalib borayotgan sindromlardan biri hisoblanadi. Bu sindrom juda murakkabligi va ma'lumotlarning kamligi bilam boshqalaridan ajralib turadi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki bu kasallikni qancha erta aniqlansa shuncha davolash usullari samarali bo’ladi. Dori vositalari bilan davolash bu sindromga chalingan bolalar uchun samarali usul hisoblanmaydi. Ammo bu sindrom bilan birga keluvchi boshqa alomatlarni bartaraf etishi mumkin. Bu kasallikka chalingan bolalarga to’g’ri tashhis qoyish ulardagi nuqsonilarni bartaraf etishning asosi hisoblanadi. Bunday bolalar aloxida etiborga va mexirga muhtoj hisoblanishadi. Ulardagi bu nuqsoning faqatgina salbiy tomonlarini emas balki ijobjiy tomonlarini ham ko’ra olishimiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyot

1. Bolalardagi autizm: sabablari, ilk belgilari va davolash usullari- Xabardor.uz  
<https://xabardor.uz>
2. Nurmatova D.G. “Autist bolalarni ijtimoiy-psixologik moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy – metodologik asoslari”. – 2020.
3. Autizm: Innovatsion yondashuvlar va harakat strategiyasi II Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya to‘plami.

4. Lavrent'eva N.B. Autizmli bolalarining pedagogik diagnostikasi. - va. Defektologiya. - № 2, 2003 yil.
5. Autizm-kasallik belgilari, diagnostika va davolash-Med24.uz <https://med24.uz>
6. Z.T.Nishonov, G.K.Alimova, A.G'.Tueg'unboyeva, M.X.Asranboevva. Bolalar psixologiyasi. Toshkent. 2017
7. Bolalar autizmi diagnostikasi va ijtimoiylashuvdagi muammolar. <https://pmedu.jdpu.uz>
8. Autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash. <https://presedu>
9. Lebedinskaya K.S., Nikolskaya O.S. Erta bolalik autizmining defektologik muammolari. I xabar // Defektologiya. - 1987. - № 2. - S. 10-16.
10. Nurieva L.G. Autizmli bolalarda nutqni rivojlantirish. - M.: Terevinf, 2006 yil.
11. Morozova S.S. Autizm: og'ir va murakkab shakllarda tuzatish ishlari. - M.: VLADOS gumanitar nashriyot markazi, 2007-yil.
12. A.I.Nazarov. autizm kasalligini erta aniqlashda va davolashda davo choralarini ishlab chiqarish va davo samaradorligini oshirish. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 218-1601
13. Autizm kasallikmi yoki ruhiy holat? G'ayritabiiy bolalar haqida faktlar-Kun.uz <https://kun.uz>
14. ILMIY AXBOROTNOMA –Samdu.uz <https://www.samdu.uz>
15. E.G'.G'oziev Ontogenet psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent <<NIF NSH>> 2020.
16. Nurmatova D.G. "Autist bolalarni ijtimoiy-psixologik moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy – metodologik asoslari". – 2020.
17. Autizm: Innovatsion yondashuvlar va harakat strategiyasi II Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya to'plami.
18. Lavrent'eva N.B. Autizmli bolalarining pedagogik diagnostikasi. - va. Defektologiya. - № 2, 2003 yil.



## **INKLYUZIV TA’LIMDA TIFLOPEDAGOG ZAMONAVIY O`QITUVCHI QIYOFASIDA**

***Abdullayeva Mohida Kamoldin qizi***

*Namangan davlat pedagogika insitituti*

*Pedagogika fakulteti Maxsus Pedagogika yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998974920014 Email:@abdullayevamohida17@gmail.com*

**Annotation:** Ushbu maqolada inklyuziv ta’limga jalb etilgan zamonaviy o`qituvchining ommaviy ta’lim muassasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar qatoriga jalb etishning zamonaviy usullari va tiflopedagogning zamonaviy o`qituvchi qiyoysi aks ettirilgan.

**Аннотация:** В данной статье отражены современные методы привлечения современного педагога, занимающегося инклюзивным образованием, в ряды педагогов, работающих в государственном образовательном учреждении, и имидж современного педагога детского педагога.

**Abstract:** In this article, the modern methods of attracting a modern teacher involved in inclusive education to the ranks of pedagogues working in a public educational institution and the image of a modern teacher of a child pedagogue are reflected.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta’lim, tiflopedagogika,tiflopedagog, ko'zida nuqsoni bor bola, o'yin faoliyati,tiflotexnika vositalari, Brayel alifbosi.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, детская педагогика, детский педагог, ребенок с нарушением зрения, игровая деятельность, детское оборудование, алфавит Брайля.

**Key words:** inclusive education, children's pedagogy, children's teacher, child with visual impairment, game activity, children's equipment, Braille alphabet.

### **KIRISH**

Mamlakatimizda ta’lim islohotiga qaratilayotgan bir qator qonun farmoyishlar o`z samarasini ko`rsatib kelmoqda . Mazkur islohotlar bugungi yosh

avlodni har tomonlama yetuk salohiyatli qilib tarbiyalashda katta o`rin tutadi . Ko`zida nuqsoni bo`lgan ,jumladan ko`zi ojiz bolalar uchun yurtimizda berilayotgan imkoniyatlar samarasi o`z natijasini ko`rsatdi .

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo`ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagи maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalg etilishi rejalashtirilmoqda.[1]

Yurtimizda Maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan qator islohotlar ko`rib chiqilmoqda va amaliyatga tatbiq etilmoqda. Shu jumladan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga barcha bolalalarni qamrab olish maqsadida ta’limning yangicha tizimi ishlab chiqildi. Bu – inklyuziv ta’lim tizimidir! Inklyuziv ta’lim tizimi biz uchun nima maqsadda kerak? O‘zbekiston ta’lim tizimida bu ta’lim turining ahamiyati qanday? Inklyuziv ta’lim haqida so’z yuritilganda, uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so’z boradi. „Inklyuziv ta’lim” nima? „Inklyuziv ta’lim” bu ( ingliz tilidan olingan bo’lib, inclusive, inclusion-uyg’unlashmoq, uyg’unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi). Nogiron va sog’lom bolalar o’rtasidagi to’siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko’ra imkoniyati chelangan ) o’smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.[2] Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalalarning huquqiy-normativ asoslari doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Huquq va burchlari doirasida ham qonun , farmon, farmoyishlar ishlab chiqildi .Jumladan, Davlatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida” gi Qonunning II bob, 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo’lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta’lim oladi” deyilgan. [3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-

yil 3-fevraldaggi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori tasdiqlandi.[4] Mana shu qonunlarda nazarda tutgandek, imkoniyati cheklangan bola bilan ishlay olsak, yana bitta yangi zaminni, yangi niholni o’stirib, rivojlantira oladi.

Maktabda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar taklifi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda — hududiy xalq ta’limi boshqarmasi) buyrug‘iga ko‘ra tashkil etiladi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari ham barcha zarur sharoitlar mavjud bo’lgan taqdirda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etishlari mumkin.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish tegishlicha hududiy xalq ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar o‘quvchilarining bino ichida harakatlanishi va ta’lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda tashkil etiladi.

Maktabning inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minalash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

O‘quvchilarini inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida

tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o‘rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo’llanmasi o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga boshqa ma’muriy-hududiy birlikdan kelib o‘qish istagini bildirgan o‘quvchilar o‘quvchini qabul qilayotgan maktab joylashgan hududning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyasi yo’llanmasiga asosan qabul qilinadi. O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o‘quv yili boshlanguncha hamda o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga yo’llangan har bir o‘quvchiga ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig‘majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi. Maktablarda inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar soni bir parallel sinflarda 2 tadan ortiq tashkil etilmaydi. Boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda o‘quvchilar soni amaldagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) sinflaridagi o‘quvchilar soni me’yorlariga muvofiq ravishda belgilanadi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda o‘qitish va tarbiyalash jarayoni o‘quvchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. O‘quvchilarning bilimlari ulardagi nuqsonlarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta’lim standartlariga muvofiq baholanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv rejasi va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi.. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflardagi o‘quvchilarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishga yordam ko‘rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan amalga oshiriladi. Har bir inklyuziv ta’lim sinflari yoki boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktab uchun alohida maxsus pedagog shtat birliklari ajratiladi. [5]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maxsus pedagogikaning bir bo`lagi bo`lmish tiflopedagogika haqida so`z yuritar ekanmiz ,uning mazmun -mohiyati haqida bat afsil tanishib chiqsak.Tiflopedagogika (grekcha typlos so'zidan olingan bo'lib, ko'r va pedagogika ma'nolarini anglatadi) ko'rish jarayoni chuqur buzilgan shaxslami tarbiyalash va o'qitish muammolarini ishlab chiqaruvchi defektologiya bo'limi hisoblanadi.[6]

Ko`zida nuqsoni bo`lgan bolalar uchun tiflopedagog javobgar shaxs sifatida qaraladi.Tiflopedagog zamonaviy o`qituvchi qiyofasida gavdalanan ekan u bola uchun zamonaviy metod, texnologiyalarni integratsiya qilgan holda ta'lim beradi. Eng avvalo inklyuziv ta'limga jalb etilgan tiflopedagog xuddi ommaviy ta'lim muaassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar singari, tashqi kòrinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi lozim. Òqituvchining kiyinsh madaniyati va muomila madiniyati òquvchilarga ibrat bòlishi , bolalarga berayotgan har qanday ta'limida insonparvarlik , samiyimiylik ,xushmomilalik aks etib turishi ,inkyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday pedagog bilan muloqotga kirishgan har bir shaxs (ota-on, bola) da unga nisbatan yana suhbatlashish istagi , dardlashish istagi paydo bòlishi kerak. Tiflopedagog ta'lim jarayonida xushmomilali bòlishi va sabr-toqatni namoyish qilishi , bolalar bilan optimiktik kayfiyatda bòlishi kerak . Tiflopedagog òqituvchining eng asasosiy vazifalaridan biri axloqiy ta'limdir.Bola 1yoshdan 3yoshgacha bòlgan kòrishidan nuqsoni bòlgan bola òz tanasining anotamik xususiyatlarini ota-onasi ,aka-ukasi va yaqinlari bilan taqqoslab kòradi. Odatda kòrish qobiliyatida muommosi bòlgan bolalarda bolalarda axloqiy (jinsiy) tushunchalar bòyicha hech qanday tushunchalar bòlmaydi va bu bolalar ommaviy maktabga borishganda ,òz tengdoshlaridan orqada qolgan bòladi. Kòrish nuqsoni ega bòlgan bolada jinsiy tarbiyani boshlash hech qachon zarar qilmaydi faqatgina bu tarbiya turini òrgatish ozgina murakkab kòrikmalar va tushunchalarni òz ichiga oladi. Tiflopedagog òqituvchining vazifalari sifati yana biz quidagilarni olishimiz mumkun.

1.Kòrishda nuqsoni bòlgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish ; pedagogik va psixologik jihatdan òrganish , nuqsonlar turini aniqlash va jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlantirish;

2. Ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi maqsadi mazmuni vazifalari va metodlarini qayta ishlash;
3. Ko'zi ojiz har tomonlama rivojlanishi uchun maxsus mo'ljallangan ishlarni amalga oshirish;
4. Mehnatga va kasb -hunarga yo'naltirilgan imkoniyatlarni yaratish;
5. Maxsus o'quv rejalar, dasturlar va darsliklarni yaratish;

Bundan tashqari pedagog tevarak atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarni shakllantirish va boyitishda mavjud analizatorlarni safarbar qilishda faol ishtirok etadi hamda ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalardagi og'ishlarni bartaraf etish bo'yicha ham ish olib boradi. Ushbu vazifalarni bajarish ko'zi ojiz bo'lgan yoki zaif ko'rurvchi o'quvchilarni yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi. Kòrish nuqsoniga ega bòlgan bolalar uchun tiflopedagog tomonidan yordam guruhini tashkil etish juda samarali natija beradi. Bu guruhnini shakllantirish uchun avvalo òzaro hurmat va ishonchga tayanadi. Bu guruhlarda mashgulotlar jarayonida pedagogning nutqi hamma vaqt òzbek adabiy tilini aks ettirib turishi kerak. Dars jarayonlarida dars shakliga qarab òquvchilarga tushunarli qilib, bolaning qalbiga kirgan holatda ularni darsga qiziqtira olishi maqsadga muvofiq bòladi. Tiflopedagog tomonidan òquvchilarda atrof

-muhit tögrisidagi tushunchalarni örnatish yangidan yangi metod va dastular ishlab chiqiladi bundan tashqari kòzida nuqsoni bòlgan bolalarda maxsus korreksion mashgulotlar tashkil etiladi. Inkyuziv sinflarda bunday mashgùlotlarni samarali òtkazish uchun ,tiflopedagogning samarali ishlashi uchun kòzi ojiz òquvchilar turli jihoz va materiallar bilan ta'minlangan bòlishi kerak. Brayel yozushi -kòzi ojiz shaxslar tomonidan qòllaniluvchi nutq shakli bòlib , bunda harf,sòz va raqamlar grefil bilan relyefli -nuqtali belgilar kòrinishida maxsus moslama yordamida aks ettirilgan.Ba'zi kòrish qobilyati sust bòlgan òquvchilar bosma brayeldan foydalanadilar . Brayel ishlatilganda shovqinni kamaytirish uchun ostiga kigiz yostigi qøyiladi. Bu jarayon sinfdagi boshqa òquvchilar bilan bir vaqtida bajarilishi kerak . Bunday òquv materiallariga yangi òquv yili uchun mart oyida buyutma beriladi. Kòzi ojizlar bolalar uchun Brayel tizimi bòyicha xilma -xil adabiyotlar yaratilgan.. Brayel tizimi bòyicha yaratilgan hamma darsliklar relfeyfli rasm, chizma,sxemalar bilan tasvirlangan. Bu darsliklardan foydalanib kòzi ojiz

òquvchilarning közlangan darajaga yetishida ,ilmli bòlishida nafaqat tiflopedagog balki, maktab psixolog , tarbiyachi va ota-onalar ham ma’sulyati juda katta hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim ilg‘or va adolatli jamiyatning asosi bo‘lib, har bir shaxs, o‘z qobiliyati yoki farqlaridan qat’iy nazar, sifatli ta’lim olish huquqiga ega, degan asosiy tamoyilni o‘zida mujassam etadi.

Bugungi jadal rivojlanayotgan global landshaftda inklyuzivlik imperativi hech qachon bunchalik muhim hisoblanmagan. Bu nafaqat turli xil o‘quvchilarda tolerantlik va ma’suliyatlilik hissini uyg‘otadi, balki innovatsiyalar va muammolarni hal qilish davri uchun juda muhim bo‘lgan istiqbollar, ko‘nikmalar va hissiyotlarni rivojlantiradi. Inklyuziv ta’lim ko‘proq rahmdil, hamdard va tushunadigan dunyo uchun poydevor yasaydi, bunda odamlar o‘zlarining noyob ehtiyojlari uchun qadrlanadi va hech kim ortda qoldirmaydi. Bugun inklyuziv ta’lim bu shunchaki axloqiy ehtiyoj emas, bugungi kunda u har bir jamiyatning strategik zaruratidir. Inklyuziv ta’limda ish olib borayotgan har bir pedagoglar qahramonlardir. Ular olib borayotgan ishlar , berayotgan ta’lim tarbiya juda mashaqqatli va savobli hisoblanadi. Bu mashaqqatli yo`ldagi insonlar uchun yengilliklar yaratish hozirgi kun dolzarb masalalaridan iboratdir. Bilamizki, hozirgi paytda ko`zi ojiz bolalarga adabiyotlar yetishmovchiligi tufayli ularga ta’lim berayotgan tiflopedagoglar va ko`zida nuqsoni bo‘lgan bolalar birmuncha qiynalishadi . Bu esa albatta, ta’lim sifatiga o‘z ta’sirini ko`rsatmay qolmaydi. Shu sababli ularga audio kitoblar sonini ko`paytirish maqsadga muvofiq bo`ladi.Undan tashqari tiflotexnika vositalarini yanada takomillashtirib ,yangi dasturlar ishlab chiqish bunday dolzrab masalarga bir yechim bo‘la oladi. Tiflopedagoglar ko`zi ojiz bolalar bilan ishlash jarayonida ularda duch keladigan asosiy muommolar [ishonchsizlik, kam harakatchanlik, yuk bo`lish hissi, yolg‘izlik] ni bartaraf etishga harakat qilishlari kerak. O`yin faoliyatida ham ko`zida nuqsoni bo‘lgan bolaning taktil sezgisi bilan o`yin faoliyati olib borishi maqsadga muvofiq .Ma’lumki, ko`rish qobiliyati past bo‘lgan bolalar asosan atrofdagi dunyoni teginish va eshitish orqali bilib oladilar .Ko`rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim beruvchi tiflopedagog

shunday bo`lishi kerakki, ko`rish nuqsoniga ega bo`lgan bola dunyoni tiflopedagog orqali anglasin, his etsin . Hayotda o`z o`rniga ega bo`lgan ko`plab buyuk ko`zida nuqsoni bor shaxslarni bilamiz .Baralla aytaolamizki, ularga ham pedagog tiflopedagoglar ta’lim tarbiya berishgan .Hozirgi kunda ham tiflopedagoglarimiz o`zlarida zamonaviy o`qituvchi qiyofasini yarata olsa, ular tarbiya berayotgan bolardan buyuk shaxslar yetishib chiqadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2022-2025-yillardagi tasdiqlangan Konsepsiya.
- 2.D.S.Qaxxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o`quv uslubiy- qo’llanma. Toshkent.2014 y.3-5-betlar.
3. “Ta’lim to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni.2020-yil 23-sentabr.
- 4.,,Alohida ta’lim ehtiyojlari bølgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tòğrisida” 2020-yil 13-oktabrdagi qaror.
5. 638-сои 12.10.2021. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan ... - LEX.UZ  
<https://lex.uz/uz/docs/-5679836?ONDATE=07.07.2022%2000>
- 6.P.M.Po’latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, a\*,l\_«. Z.N.Mamarajabova , Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova Masxus pedagogika darslik qòllanmasi Toshkent 2014 289-bet

## **NUTQ TO’LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARНИ О’QITISH VA TARBIYALASH**

***Muslima Jahongirova***

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*Maxsus pedagogika yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Nutqi to’liq rivojlanmagan bolalar haqida umumiy ma’lumot. Nutqi to’liq rivojlanmagan Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o’qitish va tarbiyalash haqida ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Nutqi to’liq rivojlanmagan, mutaxassis, patogenez, logoped, xususiyat, muloqat, gospitalizm salbiy, jismoniy, psixik, fiziologik, nasliy.

**Аннотация:** Общие сведения о детях с недоразвитой речью. Освещаются сведения об обучении и воспитании детей дошкольного возраста, у которых речь не полностью развита.

**Ключевые слова:** Недоразвитие речи специалиста патогенез логопед особенность общения госпитализм отрицательный физический психический физиологический генетический

**Abstract:** General information about children with underdeveloped speech. Information about education and upbringing of children of preschool age whose speech is not fully developed is covered.

**Keywords:** Speech underdeveloped specialist pathogenesis speech therapist feature communication hospitalism negative physical mental physiological genetic.

Nutqning to’liq rivojlanmaganligida nutqning kechroq paydo bo’lishi, lug’atning kambag’alligi, agrammatizm, talaffuz kamchiliklari kuzatiladi.” Nutqning to’liq rivojlanmaganligi tushunchasi bola nutqi rivojlanishining aniq holatidan kelib chiqqan holda, o’zining etiologiyasi bo‘yicha nutq rivojlanmaganligining turli xil ko‘rinishlariga yagona pedagogik yondashuv imkoniyati haqidagi ilg‘or nuqtayi nazarga asoslanadi. Nutqning to’liq rivojlanmaganligi termini nutq rivojlanishi buzilishiga g’oyat chuqur yondashuvni ifodalaydi va uni tahlil qilish pedagog zimmasidadir. Bunday yondashuv mutaxassisdan katta umumbiologik va tibbiy m alakani talab qiluvchi, nuqson tuzilishini patogenetik jihatdan tahlil qilishni talab qilmaydi. Biroq pedagog-logoped uchun kim bilan ishlashi, to’liq rivojlanmaganlik qay yo’sinda paydo bo‘lgani, nutq rivojlanishi tempiga qo’shib keluvchi nevrologik buzilishlar, genetik belgilar, psixik faoliyat va bola shaxsining xususiyatlari, dori-darmonli davolanishning bor yoki yo‘qligi va boshqa omillaming qanday ta’sir etishi ma’lum ahamiyatga ega. Bular pedagogning shifokor bilan birgalikdagi ishi jarayonidagina aniqlanishi va tahlil qilinishi mumkin. Nutq ma’lum bir biologik shart-sharoitlar mavjudligida va eng alo markaziy nerv tuzilishning normal rivojlanishi va ishlashida yuzaga keladi. Biroq nutq muhim ijtimoiy funksiya hisoblanadi. Shu sababli uning rivojlanishi uchun biologik shart-

sharoitlarning o‘zigina yetarli emas, u bolaning kattalar bilan muloqotga kirishishi jarayonida yuzaga keladi. Bunda bolaning hissiy jihatdan yaqin kishisi bilan (onasi) muloqoti yetakchi ahamiyatga egadir.

Muloqot ehtiyoji bolaning atrofdagi odamlar bilan aloqaga kirishishi jarayonida shakllanadi. U bola hayotining dastlabki ikki oyida, uning birlamchi organik talablari va yangi taassurotlarga ehtiyoji negizida yuzaga keladi. Muloqot vositalari ichida ekspressiv-mimika, predm etli-harakat va nutqiy vositalar ajratiladi. Bola hayotining birinchi yilini nutqgacha bo‘lgan davr deb nomlaymiz. Bunda kattalar bilan muloqot ekspressiv-mimika va predmetli-harakat vositalari yordamida amalga oshiriladi. Aynan shu davrda bolada jismoniy obyekt tovushlariga qaraganda inson ovozi tovushlarini turg‘un, tanlab ta’sirlanishi shakllanadi. M.l. Lisina bu holatni jajji odamchaning muhim ehtiyojlarini ifodalashi — muloqotdagi ehtiyojlari sifatida baholaydi. Bola nutqining yuzaga kelishi va rivojlanishida muloqotning hal qiluvchi rolini gospitalizm tekshiruvlari isbotlaydi. Rag‘batlantiruvchi insoniy muhit (oila, bolalar guruhi va h.k.) dan bolani ajratib qo‘yish deprivatsion vaziyat sifatida o‘rganiladi. Bu vaziyat bolaning psixik rivojlanishiga sekinlashtiruvchi omil sifatida ta’sir qiladi. Agar bu vaziyat uzoq davom etsa psixik deprivatsiya holati yuzaga keladi. Nutq rivojlanishiga, ayniqsa hissiy deprivatsiya yomon ta’sir ko‘rsatadi. Bunda bola tug‘ilganidan boshlab uning affektiv ehtiyojlari (suyish, erkalash, yaxshi ko‘rish) qondirilmaydi. Bunday vaziyat ko‘pincha ota-onalari spirtli ichimliklar ichuvchi, onasi yo‘q oilalarda, bola tug‘ilishi bilan tarbiyaga sust qaraladigan bolalar uyida tarbiyalanishi oqibatida vujudga keladi. L.S. Vigotskiy tomonidan bolaning psixik va rivojlanishida ta’lim va tarbiyaning yetakchi roli haqidagi fikr ilgari surilgan. Ayni vaqtda neyrofiziologik tadqiqotlar tufayli bu fikr rivojlandi va tasdiqlandi. Bola miyasiga qanchalik ko‘p doimiy va xilma-xil axborotlar oqimi kelsa, markaziy nerv tizimining funksional va anatomik jihatdan yetilishi shunchalik tez sodir bo‘ladi. Alovida funksional tizimlar rivojlanishini tezlashtirish imkoniyati muammozi hali to’liq o‘rganilmagan. Biroq,

kelayotgan axborot oqimi bolaning yoshi, jismoniy va psixik holatiga mos ravishda bo’lishini hisobga olish lozim, chunki har qanday ortiqcha yuklashlar markaziy nerv tizimi holatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Nutqning to’liq rivojlanmaganligi sabablari. Bolaning ona qornida rivojlanishi, tug’ruq (tug’ruq travmasi, asfiksiya) va hayotining dastlabki yillarida ta’sir ko’rsatuvchi turli xil zararli omillar nutqning to’liq rivojlanmaganligiga olib kelishi mumkin. Nutqiy kamchilik tuzilishi va kompensatsiya jarayonlari ko’p hollarda miya zararlanishi qachon ro'y bergenligi bilan aniqlanadi. Bir butun miya rivojlanishi anomaliyasining xarakteri ma'lum miqdorda jarohatlanish muddatiga bogliqligi hozirgi kunda isbotlangan. Turli xil zararli omillar (infeksiya, intoksikatsiya va boshqalar) ta’siri ostida bosh miyaning birmuncha og’ir zararlanishi, odatda erta embriogenez davrida yuzaga keladi. Taxminlarga ko’ra, homiladorlikning 3-4 oylarida bosh miyaning zararlanishi (nerv to’qimalarining eng ko’p ajralish davri), bosh miya tuzilishining birmuncha kengroq o’zgarishlarini yuzaga keltiradi. U yoki bu zararli omilning ta’siri davrida nerv tizimining qaysi bo’limlari birm uncha jadal rivojlanishiga bog’liq ravishda rivojlanmaganlik ko’proq harakat, sensor, nutqiy yoki intellektual funksiyalarga taalluqli bo’ladi. Homiladorlikning kechishi davomidagi doimiy noqulay shart-sharoitlar tufayli, birmuncha yaqqol ifodalangan alohida miya tuzilmalari bilan birga bir butun yaxlit miya rivojlanmaganligi ham kuzatiladi. Bu murakkab nuqsonlarning yuzaga kelishiga (masalan, oligofreniyaning motor alaliya bilan uyg‘unlashuvi) asos bo’lib xizmat qiladi. Miya rivojlanmaganligi yoki zararlanishini keltirib chiqaruvchi sabablar ichida homiladorlik davrida onaning infeksiyalari yoki intoksikatsiyalari, toksikozlar, tug’ruq travmasi, asflksiya, rezus-omil bo'yicha ona va homila qonining mos kelmasligi, markaziy nerv tizimi kasalliklari (neyroinfeksiyalar) va boia hayotining dastlabki yillarida bosh miya travmalari birmuncha ko’p uchraydi.

Homiladorlik davrida alkogol va nikotinni iste’mol qilish ham bolaning jismoniy va nerv psixik rivojlanishida kamchiliklarga olib keladi. Bu

kamchiliklaming ko‘p uchraydigan ko‘rinishlaridan biri nutqning to‘liq rivojlanmaganligi hisoblanadi. Alkogolli sindromda bolalar kam vaznli tug‘iladilar, jismoniy va psixik rivojlanishdan orqada qoladilar. Bundan tashqari turg‘un bo‘y va vazn yetishmovchiligi, ko‘krak qafasi deformatsiyasi, mikrotsefal yoki (kamroq) gidroisefal kalla suyagi, kalta bo‘yin, yuqori va pastki jag‘ rivojlanmaganligi, baland chuqur, tor tanglay, tor va kalta ko‘z yoriqlari va boshqa bir qator belgilar kuzatiladi. Bu belgilar turli xil ko‘ruv, eshituv va hokazo nuqsonlar bilan uyg‘unlashib kelishi mumkin. Bunday bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi harakat qo‘zg‘aluvchanligi, affektiv qo‘zg‘aluvchanlik va haddan tashqari past aqliy ish qobiliyati sindrom lari bilan uyg‘unlashadi. Bunday bolalami erta aniqlash, ularni ichkilikboz ota-onalaridan ajratish tibbiy, tarbiyaviy va logopedik ishni to‘g‘ri tashkil qilish bolalardagi nutqiy va intellektual rivojlanmaganlikni oldini olishda muhim ahamiyatga egadir. Bola miyasining nutq zonalariga zararli omilning nutq shakllanib bo‘lganidan so‘ng ta’sir ko‘rsatishi hollarida afaziya yuzaga kelishi mumkin. Nutq buzilishlari, shu jumladan, nutq to‘liq rivojlanmaganligining yuzaga kelishida nasliy omillar alohida o‘rin tutadi. Bunday hollarda nutqiy nuqson, hatto ahamiyatsiz tuyulgan zararli omillar ta’siri ostida ham yuzaga kelishi mumkin. Berilgan ma’lumotlarga asoslanib, nutq to‘liq rivojlanmaganligini keltirib chiqaruvchi etiologik omillarning murakkabligi va ko‘p shaklliligi haqida umumiy xulosaga kelish mumkin. Nutq to‘liq rivojlanmaganligi etiologiyasi va patogenezi turli—tumandir, ammo klinik nuqtayi nazardan qaraganda markaziy nerv sistemasining erta organik zararlanishi bilan bog‘liq nutq to‘liq rivojlanmaganligi guruhi birmuncha muhim ahamiyatga ega. Jarohatlanish vaqtiga bog‘liq ravishda homiladorlik patologiyasi, tug‘ruq travmasi bilan (miyaning intranatal jarohatlanishi) bog‘liq markaziy nerv tizimi buzilishlari va bola tug‘ilganidan so‘ng infeksiyalar va travmalar ta’siri natijasida yuzaga keluvchi postnatal zararlanishlarga ajratiladi.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar o‘yin faoliyati rivojlanganligining quyi darajasi: syujetning kambag‘alligi, o‘yinning protsessual

xarakteri, nutqiy faoliyatning sustligi alohida e’tiborni o‘ziga jalb etadi (L.G.Solovyeva, 1996). Bunday bolalarning ko‘pchiligi uchun turli nevrologik simptomatika bilan bog‘liq ravishda yuqori qo‘zg‘aluvchanlik xarakterli bo‘lib, shu bois tarbiyachilar tomonidan nazorat etilmagan o‘yinlar ba’zida juda tashkillashtirilmagan tus oladi. Nutqiy nuqsonga ega bolalarda motorika, ko‘rvumotor koordinatsiya kamchiliklari kuzatilib, bu har qanday faoliyatning tashkiliy momentlari bo‘lgan taktil-motor hissiyotlarning yetarlicha rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Fazoviy tasavvurlar va obrazli soha yetarlicha rivojlanmagan. Mazkur kamchiliklar birinchi navbatda bolalarning tasviriy ijodga bo‘lgan qobiliyatiga ta’sir etadi. Alaliyaga ega bolalarda tasvirlangan rasmlar mavzusining torligi va mazkur mavzularning qayta-qayta takrorlanishi, predmet va hodisalarini tasvirlash usullarining mavjud emasligi, yasash va qurish usullarining kambag‘alligi, qaychidan foydalana olmasliklari kuzatiladi (L.S.Svetkova, T.M.Pirsxalayshvili). Elementar texnik usullarni egallagan bolalar ham mashg‘ulotlari davomida yetarlicha sabot, iroda va diqqatni namoyish etmaydilar. O‘zgalar va shaxsiy faoliyatga bo‘lgan tanqidiy munosabat ham pasaygan. O.N.Usanova va OA.Slinkoning ta’kidlashicha, nutqiy nuqsonga ega bolalar uchun o‘quv faoliyatning o‘ziga xosliklari xarakterli. Masalan, duduqlanuvchi bolalar uchun odatiy shart-sharoitlarning o‘zgarishi faoliyat turg‘unligining pasayishiga, diqqatning tarqoqligiga olib keladi. Bir faoliyat turidan ikkinchi bir faoliyat turiga ko‘chish bilan bog‘liq topshiriqlar qiyinchilik tug‘diradi. Aqliy va iroda zo‘riqishini talab etuvchi topshiriqlarni bajarishda topshirilgan ish turidan nisbatan odatiy, avval egallangan ish turiga o‘tish kuzatiladi. Ba’zi bolalarda shaxsiy singari, o‘zgalar faoliyati natijalarini ham mustaqil nazorat eta olmaslik kuzatiladi. Mazkur bolallar mashg‘ulotlar davomida shaxsiy javoblarni fikrlab, tegishli misollarni tayyorlash, do‘srtlari javoblarni tinglash, qiyinchiliklar tug‘ilganda ularga yordam berish, noto‘g‘ri javoblarni to‘rilashda qiyinchiliklarni sezadilar. O‘qish davomida ular o‘z shaxsiy xatolarini, o‘rtoqlarining xatolarinin sezmaydilar, dialoglarni “rollarga” bo‘lingan holda o‘qish davomida “o‘z” so‘zlarini o‘z vaqtida talaffuz etmaydilar, ba’zan har ikki kishi so‘zini bir vaqtda o‘qiydilar. Darslarga tayyorgarlik ko‘rish davomida mazkur bolalar

topshiriqlarni bajarishning mexanik usullariga murojat etib, o‘qilganlarni anglab, tushunib yetishni emas, balki yod olishni ma’qul ko‘radilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki: biz ruhiy va nutqiy faoliyatning asosiy tarkib topuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni atroflicha o‘rganib chiqdik. Bizning tadqiqotimiz predmeti mnestik faoliyat bo‘lgani bois, mazkur faoliyatning nutqiy rivojlanishi normada bo‘lgan va nuqsonga ega bolalarda uning shakllanish o‘ziga xosliklari alohida e’tiborga loyiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ayupova M.Y. Logopediya /Darslik/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta - maxsus ta’lim vazirligi. T.:, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2011 y. - 145b.
2. M.Y.Ayupova. “ Logopediya” 10.08.2007-yil
3. Raxmanova V.S. “ Korreksion pedagogika va logopediya “ 2007-yil
4. M.Y.Ayupova. “Logopediya” O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil
5. “Logopediya” ( L.S. Volkova tahriri ostida ) 1989-yil
6. “Logopediya” ( L. M. Fminova, M. Ayupova) – T

### III. ІЈТИМОИУ РЕДАГОГИКА:

## **ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИ ВАТАНПАРВАР КОМИЛ ИНСОНЛАР ҚИЛИБ ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИК ТАРИХИ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ**

***Кўлматов Норқобил Эшмаматович***

***СДВМЧВУТФ катта ўқитувчи***

*“Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди.*

*У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида  
сақланади ва амалий ишларда намоён бўлади.*

*Миллий тарихни халқимиз, айниқса, ёшларимизга  
миллий руҳда етказиш, уларнинг қалбига,  
шуурига сингдириши керак”*

**III. Мирзиёев**

**Мавзунинг долзарблиги** Юртимиз ёшларини ватанпарвар комил инсонлар қилиб тарбиялашда, ўзбек миллий давлатчилик тарихимиз тараққиёти босқичларини ўрганишда, тарихий хотира ва миллий-маънавий қадриятларимизнинг ўрни ва роли бекиёсдир. Ёшларимизни миллий гоя ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ва ўқитиш, етук ватанпарвар комил инсонлар қилиб камол топтириш бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан бири эканлигини ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Шундай экан биз танлаган “Ўзбекистон ёшларини ватанпарвар комил инсонлар қилиб тарбиялашда ўзбек давлатчилик тарихи тараққиётининг ўрни ва роли” мавзуси бугунги кун учун энг долзарб мавзулардан бири ҳисобланади.

**Муаммони ҳал қилиш йўллари:** Илм-фаннынг ривожланиши асосида республикамиз ўқувчи ёшларига таълим-тарбия беришда, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда, ўзбек миллий давлатчилик тарихимиз тараққиётини ўргатишда, тарихий хотира, моддий ва маънавий мерос, миллий ва умуминсоний қадриятларимизни уларнинг онги ва қалбига сингдиришда

миллий-маънавий ривожланишнинг ўрни ва роли бекиёсдир. Ўқувчи ёшларимизга миллий ғоя асосида, ватанпарварлик руҳида таълим-тарбия бериш, ўқитиши бугунги янги Ўзбекистон жамиятининг ўз олдига қўйган энг асосий ва муҳим вазифаларидан биридир. Ҳеч кимга сир эмаски ҳар бир мустақил ривожланаётган жамиятда “таракқиётнинг тамал тоши ҳам, давлатни кудратли, миллатни буюк қиласиган куч ҳам илм-фан ривожи ва таълим ва тарбиянинг тўғри йўлга қўйилганидадир”.[1]

**Таклиф ва тавсиялар:** Мустабид чор Россияси ва собиқ совет иттифоқи мустамлакачилик хукмронлиги йилларида Ватанимиз тарихининг нохолисано талқин этилиши натижасида пайдо бўлган муаммоларни бугунги кунда ўқувчи ёшларимизга тўғри тушунтириш, уларга холисано баҳо бериш, объектив талқин қилиш заруратини ҳаётнинг ўзи миллий-маънавий ривожланиш тараққиётидаги асосий вазифалардан бири қилиб кун тартибига қўйди. Бу соҳада шахсан Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И.А.Каримовнинг ташабbusлари билан мустақиллик йилларида катта ишлар амалга оширилди. Ватанимиз тарихини ўрганишнинг янги концепцияси яратилди, шу асосда янги дарсликлар, ўқув қўлланмалар ва бир қатор туркум ўқув-услубий, илмий адабиётлар нашр қилинди. Мустақил жамиятимизнинг тараққиёти бевосита унинг миллий-маънавий ва маънавий-ахлоқий негизларининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқдир. Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И.А.Каримов таъкидлаб ўтганларидек, бу негизлар:

- умуминсоний қадриятларга содиклик;
- халқимизнинг маънавий меросини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш;
- инсоннинг ўз имкониятларини эркин намоён қилиши;
- ватанпарварликдан иборатдир. [2]

**Қутилаётган ижтимоий самара:** Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик хисларини тарбиялаш механизмларини такомиллаштириш технологияларидан фойдаланишнинг назарий-педагогик асослари ишлаб чиқиш, унинг шакллари ва самарали усууларини аниqlаш ва таълим-тарбияни такомилаштиришда Ўзбекистон ёшларини ватанпарвар комил инсонлар қилиб тарбиялашда, шахсни камол топтиришда ёрдам беради. XIX –XX асрлар Ватанимиз,

халқимиз тарихида изтиробли давр бўлди. XVII-XVIII асрлардаги миллий турғунлик, миллий парчаланиш фожиалари натижасида Ўрта Осиё Чор Россияси томонидан босиб олинди. 1917 йилдан бошлаб мустабид Совет тузуми ҳамда коммунистик партия мафкураси хукмронлиги ўрнатилди, халқимиз ҳам маънавий, ҳам ижтимоий- иқтисодий жиҳатдан кўз кўриб қулоқ эшитмаган даражада камситилди, хўрланди ва оёқ ости қилинди. “Халқлар доҳийси” В.И.Ленин 1917 йил 22 ноябрда Туркистон мусулмонларига ҳак-хуқуқларингиз ўз қўлингизда, урф-одатларингиз мөънесиз, ўзларингиз ўз ватанингизнинг ҳокимларисизлар, деб мактуб йўллаб, орқадан “қўлдан чиқармаслик” учун телеграмма устига телеграмма, комиссия устига комиссия (Фрунзе, Қуйбишев, Кобазев, Элиава, Рудзутак), қўшин устига қўшин жўнатди. Мана сизга оталарча ленинча ғамхўрлик. Элни озод қилишни Феруз ва Фурқатлар маърифатда қурган бўлса, Пўлатхон, Дукчи Эшон (Мадали эшон) кабилар халқни бевосита жиходга чорладилар. “Ўрта Осиё халқлари йиллар давомида чоризмнинг мустамлакачилик зулмига қарши кураш олиб бордилар. Халқ қўзғолонлари тепасида маҳаллий бойлар, эшонлар, қозию-кузотлар турдилар. Ўрта Осиёда 16 йил давом этган “босмачилик” ҳаракати аслида туб маъно-моҳияти билан миллий озодлик ҳаракати эди”. [3] Бехбудий, Фитрат, Файзула Хўжаев каби миллат ва Ватан фидойилари жоҳиллик ва ижтимоий адолатсизликни маърифат воситаси билан енга олмагач, аввал Чор Россияси босқинчилари, сўнг мустабид совет тузуми билан муроса қилишга мажбур бўлдилар, охир оқибатда нафақат эзгу ниятлари, балки ўзлари ҳам мунофиқлар қўлида ҳалок бўлдилар. Миллий истиқлолчилик ҳаракати, Туркистон Мухторияти мунофиқ чор Россияси ва собиқ совет тузуми томонидан тугатилди. Ўрта Осиё сунъий равишда бир неча майдა-майдага бўлакларга бўлиб ташланди. Зулмга қарши чиқкан халқ ўғлонлари “босмачи” тамғаси остида таҳқирланганини бугунги кунда ким ҳам билмайди, дейсиз.

Туркистон генерал-губернатори Н.А.Куропаткин ўз қундалик дафтарида ерли миллат аҳолисига нисбатан мустамлакачилик сиёсатини қандай амалга оширганлигининг оқибатлари тўғрисида: “Биз 50 йил мобайнида туземецларни тараққиётдан, мактабдан ва рус ҳаётидан четлаб турдик” [4]-деб тан олган эди. Шу боис айтмоқчимизки, мустамлакачи бўлгач, у қайси ном билан аталишидан

қатъий назар, сўзсиз маҳаллий халқ манфаатларига қарши ўз фойдасини кўзлаб реакцион сиёsat олиб боради. Акс ҳолда у мустамлакачи бўлмас эди. Чор Россияси ҳам бундан мустасно эмас. Тарихий далилларга мурожаат қиласидиган бўлсак, чор Россияси Ўрта Осиё халқларига нисбатан камситувчилик сиёsatини олиб борган. Ўлкани бойлиқ орттириш манбаи деб қараган. Чор Россияси Ўрта Осиёни босиб олгач, ўлкадаги халқ оммасининг аҳволи янада оғирлашди. Чунки энди у икки томонлама экспулатация қилинадиган бўлиб қолди. Бир томондан Чор мустамлакачилари, иккинчи томондан, маҳаллий бойлар, руҳонийлар халқнинг қонини зулукдек сўрар эдилар. Совет хукмонлиги шароитида эса сунъий сохта миллий давлатчилик тикиштирилди. Ўзбек халқи ўзининг миллий тақдирини ўзи белгилаш хуқуқига эга, деб “1927 йил 30 мартағи, 1937 йил 14 февралдаги ва 1978 йил 19 апрелдаги сўнгги Ўзбекистон ССРнинг конститутцияларида ифодаланган тарғиботчилик баёнотларига зид ўлароқ, реал ҳаёт ҳақиқий мустақил давлат ташкил этиш имкониятидан маҳрум этилган эди, марказга мустамлака тарзида тобе ҳолатда яшарди”. [5] Миллий маданиятнинг айrim таниқли арбоблари (М.Абдурашидхонов, Чўлпон, А.Фитрат, А.Қодирий, А.Авлоний ва бошқалар) маҳаллий халқлар ёзувини ислоҳ қилиш, пролетар маданиятини маъмурий тарзда сингдирилиши, социализм, реализм методи ва ҳоказоларга қарши ошкора чиқишга журъат қилдилар. Оқибатда улар қатағон қурбонлари бўлдилар. Бундай қатағонлар 1937-1939 йилларда айниқса кучайди. Қатағонлар урушдан кейинги йилларда ҳам янги куч билан давом эттирилди. 1949 йилдаёқ тўқиб чиқарилган буржуа миллатчилиги ва ҳоказоларда айбланиб, ёзувчилардан Мирза Қалон Исмоилий, Саид Аҳмад, Шукрулло, Шухрат, Мақсуд Шайхзода ва бошқа бир қатор ёзувчи адилларимиз узоқ муддатли камоқларга хукм қилинди. Буларнинг хаммаси тарих, фалсафа ва филология фанлари бўйича ўкув дастурларини буюк давлатчилик ва якка партиявийлик нуқтаи назардан қайта қуриб чиқиш, газета-журнал мақолаларининг марказга интилиш йўналишини кучайтириш билан бир қаторда, миллий зиёлилар муайян қисмини миллий ватанпарварлик кайфияти ва ижодий жўшқинлигини сезиларли даражада заифлаштиришга олиб келди, маҳаллий аҳолининг миллий ўз-ўзини англаш жараёнига салбий таъсир қилди. Айrim тарихий ҳодисалар ва шахслар

фаолиятини холисона ёритишга бўлган айрим уринишлар кескин қораланди. Ўша даврда “ягона совет маданияти”, “шаклан миллий, мазмунан социалистик, руҳан байналминал маданият” концепцияси вужудга келди ва кейинги совет ўн йилларидан ўкув юртларининг барча ўкув режалари ва дастурларига маҳаллий материаллар киритилмади, асосий ўрганиладиган фанлар қаторидан қарийиб уч минг йиллик ўзбек миллий давлатчилик тарихи чиқариб ташланди, ўзбек халқининг буюк ўтмиши, Ватан тарихи сохталаштирилган тарзда талқин этилди. Буларнинг хаммаси тарихий хотирага салбий таъсир кўрсатди, тарихий замонлар ва даврлар ўртасидаги боғлиқлик йўқолишга олиб келди. Ўзбек ёшлари ўз миллатининг чинакам тарихидан тобора узоқлаштирилди. Ўзбекистон аҳолиси сабиқ мустамлакачилик йилларида табиий тарихий миграция ҳисобига эмас, балки сунъий миграция ҳисобига ортиб борди. Сунъий миграция ҳисобига қўп миллатлиликни ортиши секин-аста республика туб жой аҳолисининг миллий негизларига ҳақиқатда путур етишига олиб келди, аҳолининг миллий маданияти ва тили заминини ўпириб кетди. 1930 йилларнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ўзбекистонга Узоқ Шарқдан кўплаб корейслар, Шимолий Кавказ, Грузия ва Кримдан қrim татарлари, месхети-турклари ва бошқа миллат вакиллари кўчириб келтирилди. Ўзбекистонга доимо яшаш учун минглаб ишчилар ва мутахассислар кўчирилди. Биргина 1929-1939 йилларнинг ўзида ўлкага 650 минг киши юборилди ва ҳ.к. Сабиқ марказ томонидан 1980-йилларнинг ўрталарида эълон қилинган “қайта қуриш” даврида ҳам маҳаллий аҳолига, биринчи маҳаллий раҳбар ходимларга нисбатан узоқ давом этган ошкоро шовинистик компания, хуқукий-сиёсий ўзбошимчаликка айланиб кетди, “ўзбеклар иши”, “пахта иши” ўйлаб топилди ва кўплаб гуноҳсиз раҳбар ходимлар қамоққа олинди, уларнинг ўрнига Москвадан “кадрлар десанти” юборилди. Агар чор Россияси бизнинг маънавиятимизни турғунликда, қолоқликда тутишга уринган бўлса, большевиклар, мустабид Совет тузуми маҳаллий халқларни ўз миллий маънавиятидан, маданиятидан бегоналаштириш сиёсатини тутдилар. “Шаклан-миллий, мазмунан социалистик” “совет маданияти тўлиқ мунофиқлик

заминига қурилди. Халқнинг кўп минг йиллик эътиқоди рад этилди, халқлар “шахсга сифиниши” балосига учрадилар. “Пахта мустақиллиги” учун кураш, “Оқ олтинни олтин қўллар яратади” каби чақириқлар халқни иқтисодий қарамлик ва ночорлик, ўлка табиатининг вайрон бўлиши, сув, ҳаво ва тупроқнинг заҳарланишига, Орол фожеасига олиб келди. “Халқлар дўстлиги”, “Интернационализм” байроқлари остида миллий ўлкаларда руслаштириш сиёсати қаттиқ қўллик ва изчиллик билан амалга оширилди. Она юртимиз Ўзбекистон ҳам ана шундай балодан четда қолмади. Мустабид совет тузуми даврида Ўзбекистондаги барча ҳал қилувчи мансабларда маҳаллий бўлмаган миллат вакиллари хукмрон эдилар ва Москва қўрсатмаларини бажаар әдилар. Маҳаллий ҳалқ вакиллари эса “хўжа қўрсин”га тайинланар ва улар Москва сиёсатига вафодорлик ва садоқатлик руҳида тарбияланар әдилар. Маънавий-маърифий, тарбиявий ишлар, таълим тизими ҳам коммунистик мафкурага, ёлғон социализм ва коммунизм ғояларига бўйсингандирилган эди.

**Хулоса қилиб айтадиган бўлсак** Ўзбекистон давлат мустақиллигини кўлга киритгандан кейингина ўзбек ҳалқи миллий маънавий ривожланиш йўлига қайтди. Мустақиллик ўлкамизни мустамлака тузумининг оғир кишанларидан озод қилди, миллий маданияти ва анъаналарни қайтариш, ўз тақдирини ўзи белгилаш ҳамда ўз ҳаётини миллий манфаатлар ва қадриятларга мувофиқ равишда қайта қуриш имконини берди. Шу маънода, Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И.А.Каримов озодликка эришган дастлабки кунларимизда “Ўз истиқлол ва тараққиёт йўлимиз-бу гул билан қопланган йўл эмас, бу тоталитар меросидан халос бўлиш ва покланиш, яккамафкуравийлик иллати етказган зиён-захматларни бартараф этишининг қийин, узоқ давом этадиган йўлидир”,[7] деб айтган сўzlари замирида қанчалик чуқур ҳаётий маъно борлигини яна бир бор чуқур теран англаймиз.

## АДАБИЁТЛАР

- Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон ҳалқига мурожаатномаси” –Т: 2020 й. 29 декабрь.
- А.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. “Ўзбекистон”, 1998, 56-бет.
- Шоди Каримов. Қафасдаги қуш орзуси. Ўзбекистон Жумхурияти ФА “Фан” нашриёти. Тошкент-1991 йил. 7-8 бетлар.

4. Шоди Каримов.Қафасдаги қуш орзуси.Ўзбекистон Жумхурияти ФА “Фан” нашриёти.Тошкент-1991 йил. 12-13 бетлар.
5. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, 2023 йил 1 май.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси бўйича видеоселектор йиғилиши” Тошкент, 30.10.2020 йил
7. Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.Тошкент-“Ўзбекистон”-2012 йил, 28 бет

## OILANING FARZANDLAR KAMOLOTIGA KO‘RSATADIGAN TA’SIRI

*Abdubannojeva Sarvinoz Aliyor qizi*

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti, Pedagogika yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila va uning inson taraqqiyotodagi ahamiyati masalasiga ejtabor qaratilgan bo`lib bu borada sharq mutafakkirlarining oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan fikrlari va zamonaviy yondashuvlar shuningdek, oila haqidagi ijtimoiy-psixologik masalalar muhokama qilingan.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется проблеме семьи и ее значения в развитии человека, и в связи с этим обсуждаются мысли восточных мыслителей, направленные на формирование представлений о семье и современные подходы, а также социально-психологические вопросы о семье.

**Abstract:** This article focuses on the issue of family and its importance in human development, and in this regard, the thoughts of eastern thinkers aimed at forming ideas about family and modern approaches, as well as socio-psychological issues about family are discussed.

**Kalit so‘zlar:** oila, qadriyat, oilaga tayyorlash, oila psixologiyasi, nikoh, otalik va onalik.

**Ключевые слова:** семья, ценность, семейная подготовка, семейная психология, брак, отцовство и материнство.

**Key words:** family, value, family preparation, family psychology, marriage, fatherhood and motherhood.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasbhunar egasi bo‘lishiga katta e’tibor berilmoqda. Lekin bularning o‘zi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan psixologik bilim va tushunchalardan keng va yetarlicha ma’lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog‘lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt koriga yaraydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e’tibor qaratishimiz davr talabiga aylanib o‘z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida nmayon etmoqda. Bunday psixologik bilimlar kelajakda oilaning mustahkam bo‘lishiga va ajralishlar sonining kamayishiga olib keladi.

Ma’lumki nikohga va ma’lum qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog‘langan kichik ijtimoiy guruhnı **oila** deyiladi.

**Oila** – ijtimoiy institutning eng qadimgisidir. Oila – jamiyatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo‘lsa.<sup>[1]</sup> Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o‘zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, oila ko‘p muddatga, ya’ni bir necha o‘n yillar va ko‘p yillarga mavjud bo‘ladi;

ikkinchidan, oilada shaxslalaro munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya’ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi.

uchinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya’ni oila a’zolarining kimningdir kimgadir ta’siri oqibatida shaxs yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og’ir, xulqi buzuq odam bo’lib tarbiyalanishi mumkin.<sup>[2]</sup>

**Nikoh** – er-xotin va boshqa yaqin qarindoshlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy institut hisoblanadi.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o’z navbatida murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida yoki ma’naviy va axloqiy rivojlanishda muntazam yangidan-yangi cho’qqilarga erishib boruvchi mavjudoddir. Agar odamni u yoki bu faoliyatga “to’la yetukligi” haqida gap ketadigan bo’lsa, demak bu uning ma’lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun ham odamning nikohga yoki biror-bir faoliyatga yetukligi haqida gapirliganda, “yetuklik” tushunchasi tom ma’noda o’rinli bo’la olmaydi.

Yoshlarni psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash va faoliyatning samarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi:

- Jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi;
- Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yuqori bosqichga ko’tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi;
- Mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog’lom psixologik muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish;
- Farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish, oilaviy mojarro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Mustahkam oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu yoshlar, xususan, qizlarni oila qurish, mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog’lom ruhiy muhitni qaror toptirish, farzandlar tarbiyasini samarali tashkil etish jarayoniga muvaffaqiyatli tayyorlashdir. Mazkur jarayonning mohiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:

birinchidan, yoshlarda nikox hamda oilaviy hayot, shuningdek, ikki jins o’rtasidagi munosabatlar mohiyati borasida to‘g’ri tushunchalar hosil bo’ladi;

ikkinchidan, ularni nikoh hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga ruhiy jihatdan tayyorlaydi;

uchinchidan, yoshlarda nikohga kirishish hamda oilaviy hayotni tashkil etish, oila a’zolari o’rtasida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, ular bilan muloqotni yo’lga qo‘yish, oila xo‘jaligini boshqarish, pazandalik hamda bichish-tikish ishlarini yuritish, biologik qovushish, farzandlar tarbiyasini olib borish va hokazo jarayonlarni tashkil etish borasida amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantiradi.

Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab pedagogik jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartarafligi etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtida esa oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ota-onalarning oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to‘la ma’lumotga ega emasliklari. Milliy etnopsixologik xususiyat, ota-onalarning o’z farzandlari bilan ma’lum masalalarda ochiq oydin muloqotda bo‘la olmasliklari, ichki kechinmalarini atrofdagilarga oshkor qilavermaslik lozimligi, oilani moddiy jihatdan ta’minlash erkak kishining burchlaridan biri ekanligi, farzandlar tarbiyasi uchun mas’ullik keksa avlod zimmasiga yuklangan asosiy vazifalardan biri ekanligi borasidagi qarashlar, shuningdek, kelin va kuyov munosabatlarining mazmunini ularga anglatish vazifasini qizning yanga (kelin oyilari), yigitning oshnalari zimmasiga yuklash an’analaring mavjudligi ota-onalarda oila sharoitida yoshlar, chunonchi, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to‘la tushunmasliklariga sabab bo‘lmoqda.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o‘rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi.

Sharqda oila, oilada bola tarbiyasi, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga juda qadimdan boshlab katta ahamiyat berilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar ushbu masala yuzasidan o‘zlarining

durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hali hanuzgacha o‘zining dolzarbligini aslo yo‘qotmagan.

### **“Avesto”da oilaviy munosabatlar qanday aks etgan?**

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – “Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas’ulligi, farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo‘lishi nimalarga bog‘liq ekanligi haqida esa: “Agar bir inson uy tiklab, oilasiga, xotin va farzandlariga joy ajratib bersa, uyida noz-ne’matlari muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqod va boshqa narsalar mo‘l bo‘lsa, o’sha manzil muhtaramdir”, – deb yozilgan. Bu kitobda ko‘rsatilishicha, bu kitobda oilada ota yetakchi bo‘lgani ma’qul. Shuningdek, kitobda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo‘lgan. Eng ahamiyatli jihat shundaki, unda er-xotin o‘zaro sodiq, g‘amxo‘r, mehribon bo‘lishlari lozimligi va ayolning haq-huquqini himoya qilish o’sha davrda ham qonun darajasiga ko‘tarilganligi ma’lumdir. Umuman olganda, zardushtiylik davridanoq oila masalalariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu esa oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeyini mustahkamlash uchun azal davrlardanoq zamin yaratilganligini kuzatamiz.

### **Bu haqida allomlar nima deydi?**

Abu Nasr Forobiyning ta’limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqalarga nisbatan ga‘yirligi, zulmi yo‘qolsagina bo‘ladi. Oila a’zolarining bir-birlariga nisbatan samimiyligini munosabatlari, mehr-u oqibatlari esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari har bir ota-onaning o‘z farzandlari uchun birinchi ustoz, yo‘l ko‘rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta’lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta’siriga ega ekanli to‘g‘risida aytib o‘tgan.<sup>[3]</sup>

Sharq mutafakkirlaridan yana biri, butun Yevropa xalqlari ham uning qomusiy olim ekanligini tan olgan alloma Abu Ali ibn Sino hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarining turli tomonlarini yoritgan allomma, avvalambor oila boshlig‘i hisoblangan otaning oldiga bir qator talablarni qo‘yadi. U oila boshlig‘ining ham nazariy, ham amaliy jihatdan oiladagi tarbiya masalalarini mustahkam o‘zlashtirishi kerakligini ta’kidlaydi. “Agar oila boshlig‘i tarbiyasiz bo‘lsa, – deydi u, – o‘z oila a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi. Natijada u ijobjiy natijalarga erisha

olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo’shnilariga, qolaversa mahallaga ham salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota onaning jamiyatda tutgan o’rnidan qat’i nazar, ularning birlamchi vazifasidir”. Ibn Sinoning er-xotin munosabatlari haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovordir. “Eng yuksak sevgi bu – insoniy sevgi bo’lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi, uni oqko’ngil va jozibali kishiga aylantiradi”, – deb ta’kidlaydi u.<sup>[4]</sup>

Turmush madaniyati, odob-axloq, savgi-muhabbat borasidagi o’ziga xos takrorlanmas fikrlar sahibi bo’lgan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning bir asariga “Mahbub ul-qulub” yoki “Ko’ngillarning sevgani” deb nom berilishi bejiz emas. Chunki bu asarda Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o’gitlarni bayon etib, ularni turmushdagi, oilaviy hayotdagi turli hodisalar va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yaxshi fazilatlar, ularni yanada rivojlantirish masalalariga diqqatni qaratadi. Risolaning “Uylanish va xotinlar to‘g’risida” deb atalgan bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi. Ushbu bobda asosan insoniyat dunyosida mavjud bo’lgan 3 xil sevgining naqadar go’zal, tabiiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarurligini zikr qiladi. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki xil – jinsning turmushda barkamollik kasb etishi kabi g’oyalarni tarannum etgan bu nodir asar bugungi davrimiz uchun ham g’oyatda qimmatlidir.

Navoiy ayol kishining oiladagi o’rniga quyidagicha to’xtaladi: “Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo’lsa – ko’ngil yozig‘i, xushumomala bo’lsa – jon ozig‘idir. Oqila bo’lsa, ro’zg’orda tartib-intizom bo’ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g’am va kulfatda sirdoshsga, oshkor va pinhoniy dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo’ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding – u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko’makdoshing – u. Ko’nglingga g’am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo Xudo ko’rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasha, o’z uyingda halokatli illat paydo bo’ladi. U beandisha bo’lsa, ko’ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo’lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo’lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo’lmasa,

eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo'r bo'lsa, uy odobi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi".<sup>[5]</sup>

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir o'spirin yoshidagi inson kelajakda oila deb atalmish muqaddas makon, "oila qasri"ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkar, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi. Har bir oilaning o'ziga xos poydevori bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir. Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri no o'rinn bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devoir ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi. Natijada shu imoratning bir kuni kelib qulash, buzilib ketish xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham, unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi. So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 11 oyda 30000 ming oilaning ajrashishi bu millat taqdiri va davlat kelajagiga katta xafv ekanligini har bir sog'lom fikr egasi anglab turibdi. Ajaralgan har bir oilaning 2 nafar farzandi bor deb oladigan bo'lsak, 60000 ming nafar bolalar noto'liq oilada voyaga yetadi. Bu holat bolaning psixikasiga juda yomon ta'sir qilishi tabiiy hol. Bunday holatlar esa, bugungi kunda maktab va jamiyat hayotidagi tarbiyasi og'ir bolalarning sonini keskin kamaytirish borasida qilinayotgan sa'y harakatlarning behuda, samarasiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi fikralardan kelib chiqqan holatda shuni aytib o'tish joizki, har bir oila qurish ostonasida turgan yoshlarga oila va uning ahamiyati, er va xotinning oilada tutgan o'rni haqida, shu bilan birgalikda, oila mustahkamligini asrash to'g'risida aniq, qisa va eng asosiysi foydali bo'lgan ma'lumotlarni berish kerak. Bu ishni amalga oshirishda esa, kerak bo'lsa, psixolog bilan maslahatlashish, undan o'zi uchun kerakli bo'lgan, keyingi hayotda nafi tegadigan jo'yali maslahatlarni olish lozim. Ana shundagina qurilayotgan oila

mustahkam va farovon, bu oilada voyaga yetib, tarbiyalanayotgan yosh avlod esa kelajakda kamchiliksiz, to’kis oilada o’sib-ulg‘ayadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.A.Maxsudova, “Oila psixologiyasi fanidan ma’ruzalar matni”, Namangan – 2022, 11-bet
2. Karimova Vasilisa Mamanosirova, G‘ayibova Nargiza Anorbayevna, “Oila psixologiyasi” (o‘quv qo’llanma), Toshkent – 2022, 12-13-betlar
3. D.Abdullayeva, R.Yarqulov, N.Atabayeva, “Oila psixologiyasi”, “Tafakkur bo‘stoni”, Toshkent – 2015, 8-bet.
4. G‘.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog‘inov, “Oila psixologiyasi”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2015, 21-bet.\
5. M.A.Maxsudova, “Oila psixologiyasi fanidan ma’ruzalar matni”, Namangan – 2022, 15-bet.

### **ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ О ЖАНРАХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ**

**Бобажонова М.Т.-** старший преподаватель кафедры Методики преподавания языков Наманганского государственного педагогического института

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению общих сведений о жанрах художественных произведений. Изучение жанров художественного произведения и их видов через статью. Определение жанра произведения по общим данным, освещение сути содержания и совершенствование знаний. Повторение жанров художественного произведения и обсуждение его места в художественной литературе с помощью примеров.

**Ключевые слова:** эпические, лирические, лироэпические, драматические жанры, пародия, памфлет, роман, послание, ода, драма.



## BADIY ASARLARNING JANRLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

**Bobajonova M.T.** – *Namangan davlat pedagogika instituti tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola badiy asarlarning janrlari haqida umumiy ma'lumotni o'rganishga bag'ishlangan. Maqola orqali badiy asar janrlarini va ularning turlarini o'rganish. Umumiy ma'lumotlarga ko'ra asar janrini aniqlash, tarkibning mohiyatini yoritish va bilimlarni takomillashtirish. Badiy asar janrlarini takrorlash va uning badiy adabiyotdagi o'rnnini misollar orqali muhokama qilish.*

**Kalitso'zlar:** *epik, lirik, liroepik, dramatikjanrlar, parodiya, risola, roman, xabar, oda, drama.*

## AN OVERVIEW OF THE GENRES OF WORKS OF ART

**Bobazhonova M.T.** - senior lecturer of the Department of Language Teaching Methods Namangan State Pedagogical Institute

**Annotation:** *this article is devoted to the study of general information about the genres of fiction. Study the genres of fiction and their types through the article. Identifying the genre of the work according to general information, highlighting the essence of the content and improving knowledge. Repeating fiction genres and discussing its place in fiction through examples.*

**Keywords:** *epic, lyrical, lyrical, dramatic genres, parody, pamphlet, novel, epistle, ode, drama*

Все художественные тексты принято делить на три группы в соответствии с родами литературы: **лирика, эпос, драма**. К этим трем родам относятся разные литературные жанры (иначе их можно называть видами). **Жанр** — базовое понятие в литературоведении. Как они различаются и по каким признакам объединяются в группы? Специалисты рассказали, как

классифицировать произведения и по каким характерным чертам определить их жанровое направление. Что такое литературные жанры? Согласно определению Т. Г. Игнатьевой, это признак текста, указывающий на его типовые параметры. То есть каждое литературное произведение обладает набором особых характеристик, который объединяет его с похожими произведениями. Впервые о литературных жанрах заговорили тысячи лет назад. Античный философ Аристотель в трактате «Поэтика» предложил собственную классификацию. Мыслитель дал перечень жанров, которые объединил в три направления: повествовательное, лирическое и драматическое. Список был закреплен и не подлежал изменениям. Каждому автору следовало определить жанр своего произведения и строго придерживаться предложенных параметров. Классификация долгое время бралась за основу. В XVIII веке подход изменился. Некоторые жанры стали неактуальными и исчезли, другие, наоборот, появлялись и обретали популярность. Это процесс происходит до сих пор: авторы вольны выбирать форму своего произведения и придумывать новые жанры. Из-за этой нестабильности, как пишет Е. Е. Баринова, создать единую четкую классификацию крайне непросто. Сегодня в литературоведении жанры объединены в три больших группы. По форме повествования их делят на три рода: **Эпос**, согласно энциклопедии «Литература и язык», описывает внешние по отношению к автору действия людей и события в окружающем мире. Это в основном прозаические тексты. **Лирика** — преимущественно стихотворные формы. В них акцент смешен на выражение внутренних переживаний и чувств. **Драма** — род жанров, в которых события излагаются через слова и действия героев.

**Эпические жанры.** Основными эпическими жанрами являются эпопея, роман, повесть, рассказ, басня. Эпопея простыми словами - это масштабное литературное произведение, обычно в виде длинной эпической поэмы, часто ориентированное на большие исторические или мифологические события. Когда вы слышите слово "эпопея", вспомните "Илиаду" Гомера или "Аэниду" Вергилия. Это точные примеры эпопей в классической литературе. Роман- это произведение большой эпической формы, охватывающее широкий круг явлений частной и общественной жизни, изображающее в процессе развития многочисленные человеческие характеры в их противоречивых

взаимоотношениях. Повесть относится к литературному жанру с неустойчивым объёмом. Повесть занимает промежуточное положение между рассказом, новеллой и романом. Иногда в основе повести, хроникальное событие. В качестве примера, можно назвать - Один день Ивана Денисовича (Солженицын) или Уездное (Замятин). Рассказ - малая эпическая форма художественной литературы", повествует обычно об одном событии, составляющем отдельный эпизод в жизни человека. Поэтому объем рассказа и количество персонажей невелики. *Басня* — жанр дидактической литературы: короткий рассказ в стихах или прозе с прямо сформулированным моральным выводом, придающим рассказу аллегорический смысл. В конце или в начале басни содержится краткое нравоучительное заключение — так называемая мораль. Примеры басен: Иван Андреевич Крылов. Уж сколько раз твердили миру, Что лесть гнусна, вредна; но только все не впрок, И в сердце льстец всегда отыщет уголок. Вороне где-то бог послал кусочек сыру; На ель Ворона взгромоздясь, Позавтракать было совсем уж собралась, Да позадумалась, а сыр во рту держала. *Пародия* — это «произведение-насмешка» по мотивам уже существующего известного произведения.

**Лирические жанры.** К лирике традиционно относят следующие жанры: ода, стихотворение, элегия, песня, дума, послание, баллада, эпиграмма, поэма. Самым популярным лирическим жанром считается стихотворение. Стихотворение может быть посвящено разным темам и лицам. Это может быть:

дружеское послание (“Во глубине сибирских руд” А. С. Пушкина)  
любовное стихотворение (“Я помню чудное мгновенье” А. С. Пушкина)  
философское стихотворение (“Выхожу один я на дорогу” М. Ю. Лермонтова)  
природное стихотворение (“На севере диком стоит одиноко” М. Ю. Лермонтова).

*Ода* — это лирический жанр литературы, торжественная песнь, воспевающая, восхваляющая того, к кому она обращена. *Элегия* — стихотворное философское размышление о перипетиях жизни. *Эпиграмма* — произведение, призванное высмеять человека или событие. *Послание* — письмо-обращение. *Романс* — небольшое произведение, пробуждающее чувства и фантазию. Кроме

этих, существуют такие жанры, как сонет, гимн, курьезный стих и пр. К лирическим формам также можно отнести: *поэму* — крупное стихотворное произведение с повествовательным характером; *балладу* — произведение, преимущественно затрагивающее важную драматическую тему, в нем есть мотив метаморфоз или фантастические образы. Родоначальником русской баллады был В.А.Жуковский. Однако неправильно утверждать, что *поэма* и *баллада* — исключительно лирические жанры. В зависимости от сюжета и манеры изложения, их можно отнести и к эпосу. Чаще всего к таким жанрам, образованным на стыке двух родов, применяется общая категория «лиро-эпос». Существуют лирические и эпические произведения смешанного жанра, объединяющие особенности **эпоса и лирики**: роман в стихах, поэма, баллада.

**Драматические жанры.** В драматургии традиционно выделяют три основных жанра: трагедию, комедию и драму. *Трагедия*— драматургический жанр, в котором изображается конфликт мировоззрений, острое и непримиримое противоречие, приводящее к катастрофическим последствиям. Трагедия всегда заканчивается гибелью главного героя, а иногда и других действующих лиц. Название «трагедия» происходит от греческих слов *tragos*— «козел» и *oide*— «песнь», то есть буквально переводится как «козлиная песнь». Содержанием трагедии, однако, может стать судьба только такого героя, который ведет самоотверженную борьбу за победу нового, прогрессивного над старым. Таковы, например, многие герои Шекспира. *Комедия* — это художественное произведение с юмористическим сюжетом, противоположность трагедии. Термин «комедия» состоит из двух греческих слов: *komos*, что переводится как «веселое шествие» или «праздник в честь Диониса», и «*ode*» — «песня». Появился этот термин в VI веке до нашей эры в Древней Греции. Первым комедиографом был поэт Сусарион. Комедии стали очень популярны в Афинах в V–IV веках до нашей эры благодаря творчеству Аристофана. Наиболее яркими примерами комедий в русской литературе являются “Горе от ума” А.С.Грибоедова, “Недоросль” Д.Фонвизина, Маяковского. *Драма* - (от греч. *drama* – действие) как жанр драматического рода сформировалась окончательно в XVIII веке. В драме изображается напряженная борьба героев и острый, преимущественно социальный, конфликт. Именно таким конфликтом

в “ Грозе” Островского является столкновение Катерины с “ темным царством” самодурства и невежества, уродующим судьбы людей. Действие драмы часто завершается гибелью героя. Однако конфликт в драме не требует для своего разрешения обязательной трагическойвязки. Знания о литературных жанрах помогут лучше понять замысел автора и оценить его мастерство. Пользуйтесь подсказками, чтобы легко определять, к каким жанрам относятся произведения.

### Литературы

1. <https://www.nur.kz/family/school/1823530-literaturnye-zanry-cto-eto-takoe-i-kak-opredelit/>
2. <https://obrazovaka.ru/chtenie/zhanry-literatury.html> - obrazovaka.ru
3. Dzen.ru [https://dzen.ru/a/ZT\\_Fot5MshSFVm7u](https://dzen.ru/a/ZT_Fot5MshSFVm7u)
4. Справочник Абитуриента Т.Т. Кельдиев Литература “QALDIRG’OCH NASHRIYOTI”, TOSHKENT - 2023
5. ktonanovenko.ru
6. litfest.ru
7. litres.ru
8. Ротанов.А.Н. Литература в самых важных вопросах [ Текст ] / А.Н.Ротанов. – Ташкент: Издательство Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, 2018.-944с.
9. Литература ( Устное народное творчество. Древне-русская литература. Русская литература XVIII-первой половины XIX в.): учебник-хрестоматия для академических лицеев и колледжей/ И.А.Циндиис, Е.В.Маслова. – Ташкент
10. Кельдиев Т.Т Литература: справочник абитуриента/ Издание третье, дополнительное и перераб. – Ташкент: ИПДТ “О’QITUVCHI”, 2014. – 320c.

### KONSTITUTSYANING PAYDO BO‘LISH TARIXI, DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

*Mo‘minova Xosiyatxon nazimjon qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi magistri*

*Tel: +998941718959 E-mail: [bmominova664@gmail.com](mailto:bmominova664@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dastlabki konstitutsiyalar’ uning paydo bo‘lish tarixi, dastlabki konstitutsiyalar va ularning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история ранних конституций, ранние конституции и их роль в жизни государства и общества.

**Abstract:** This article discusses the history of the early constitutions, the early constitutions and their role in the life of the state and society.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiya, davlat, jamiyat, demokratiya, yuridik konstitutsiya, haqiqiy konstitutsiya, doimiy konstitutsiya, muvaqqat konstitutsiya

**Ключевые слова:** конституция, государство, общество, демократия, правовая конституция, реальная конституция, постоянная конституция, временная конституция.

**Key words:** constitution, state, society, democracy, legal constitution, real constitution, permanent constitution, temporary constitution

Konstitutsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotincha constitutio – “tuzilish”, “tuzuk” degan ma’noni anglatib, davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatchilik belgisidir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qonun va tartibga rioya qilish inson tabiatining ajralmas qismi sifattida qaraladi. Shubhasiz, ilk insonlar jamoalari jamiyatni boshqarish uchun jamoaning ma’lum qonun-qoidalarini yozuv paydo bo‘lishidan ancha oldin o‘rnatgan. Eng qadimiy yozma qonun kodekslaridan biri Xammurapi qonunlaridir. Ushbu qonular miloddan avvalgi 1772-yil Mesopotamiya podshohi Xammurapi tomonidan chiqarilgan va har bir shahardagi tosh lavhlarga yozilgan. Xammurapi qonunlari eng qadimgi yozma qonunlar to‘plami bo‘lmasa-da, u eng to‘liq qonunlardan biridir. Bu keyingi qonun kodekslarining rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlar.

Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya – konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi.

Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi.

Aralash turdag'i konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni qisman yozilgan bo'ladi.

O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozining malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash) o'zgartirilishi mumkin.

Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi. G'arb sivilizatsiyasi o'zining ko'plab asosiy institutlari qadimgi Rim jamiyatiga qarzdor deb qaraladi. Rimning eng muhim hissalaridan biri bu Rim huquqi tushunchasidir. Rim huquqi o'n ikki jadval qonuni deb nomlangan hujjat asosida ishlab chiqilgan. O'n ikki jadval qoidalari keyinchalik keng Rim imperiyasidagi barcha fuqarolar uchun qo'llaniladigan murakkab huquqiy tizimga aylandi. Rim huquqiy tizimi har bir kishi tayanishi mumkin bo'lgan huquq va tartib tizimini tashkil etadi. U hozirgi vaqtida huquqiy tizimlar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab muhim tushunchalarni ishlab chiqdi. Ulardan eng kami jurisprudentes tushunchasi, eng yaxshi talqinlarni aniqlash uchun qonunlarni o'rganish uchun yuridik ekspertlardan foydalanish. Rim huquqi asrlar davomida butun G'arbda huquqiy tizimlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.[1]

Qadimgi davrning eng mashhur konstitutsion va demokratik tizimlaridan biri bu Afina demokratiyasidir. Afina demokratiyasi dunyodagi birinchi demokratiya sifatida ma'lum. Aristotel Afina demokratik hukumatni qabul qilgan yagona shahar emasligini ta'kidlagan bo'lsa-da, Afina o'zining rivojlanishi va demokratik institutlarning o'rnatilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan yagona shahar-davlat edi. Afina tarixi tarixchilarga yunon demokratiyasi qanday paydo bo'lganligi va tarqalishi haqida fikr yuritishga yordam bergan. Biz shuni bilamizki, Afina demokratik hukumatni o'rnatishga birinchi urinishidan oldin uni aristokratlar bo'lgan bosh magistratlar va Areopaglar boshqargan. Afinada demokratiya instituti bir necha bosqichda sodir bo'lgan bular: iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar natijasida. Bu jihatlar dastlab qirollar tomonidan boshqarilgan siyosiy tuzum natijasida asta-sekin yomonlashdi. Keyinchalik, shahar oligarxiyaga aylandi, bunda faqat aristokratik oilalardan mansabdor shaxslar saylandi. Manbalar Afina **demokratiyasi** rivojlanishining bir necha bosqichlari bo'lganligi haqida turlicha qarashlar mavjud. Bularidan dastlabkisi Drakont konstitutsiyasi yoki Drakont qonunlari deb yuritiladi. Ushbu qonun Drakont tomonidan miloddan avvalgi 621-yilda joriy qilinadi. Drakont Afinaning Qonun chiqaruvchisi bo'lgan. Uning eng katta qilgan ishlaridan biri sud tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan og'izaki huquqning ko'p yillik shaklini yozma huquqqa o'zgartiradi. Shunga qaramay, ushbu huquqiy kodeks birinchi turdag'i qonunlarning bir qismi edi va u Afina demokratiyasidagi eng birinchi yutuq deb hisoblanadi. Lekin uning davomiyligi ko'p davom etmadidi. Buning asosiy sababi bu qonunlarni buzgan shaxslar faqat o'lim jazosi bilan jazolangan. Solon (miloddan avvalgi 600-561 yillar). Solon davrida Drakont davrida qabul qilingan qonunlarni birmuncha liberallashtirdi va konstitutsiyaga o'zgartirish kiritdi. Konstitutsiyaga kiritilgan eng dolzarb islohotlardan biri, zodagon oilalarda tug'ilgan aristokratlardan tashqari, ma'lum lavozimlarga nomzod bo'lishi mumkin edi.

Buyuk ozodlik xartiyasi (Lotincha Magna Carta ("Buyuk xartiya") yoki Magna Carta Libertatum ("Buyuk ozodlik xartiyasi")) 1215-yil Angliyada imzolangan muhim xujatlardan biri hisoblanadi.[2] Bu ayni paytda dunyo tarixini o'zgartirgan voqelik sifatida ham qabul qilinadi. Buyuk ozodlik xartiyasi qirolning vakolatlarini qisqartirishga qaratilgan eng dastlabki xujatlardan biri sanaladi.

Shu bilan birga xujjatda baron va ruhoniylarga ayrim yengilliklar beriladi. Qirol ruhoniylarning erkin sayloviga aralashmaydi. O‘z vasallaridan keragidan ortiq to‘lov talab qilmaydi va baronlarni o‘zboshimchalik bilan qamay olmaydi. Ritsar va shaharliklar, shuningdek dehqonlarga ham ma’lum yengilliklar beriladi. 63 moddadan iborat bo‘lgan bu xujjatga ko‘ra davlat amaldorlarining dehqonlar haq-huquqlarini himoya qilishi, belgilangan miqdordan ortiqcha xizmat va to‘lov olish ta’qiqlanishi belgilab qo‘yiladi. Ammo xujjatning bu moddasiga deyarli amal qilinmaydi. Nima bo‘lgan taqdirda ham „Buyuk ozodlik xartiyasi” bugungi konstitutsiyaviy tuzumga o‘tishdagi ilk qadamlardan biri sifatida qabul qilinadi.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, konstitutsiya davlatning va jamiyatning asosiy kuchi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Inson har doim o‘zi yoki tabiat tomonidan o‘rnatilgan ma’lum bir qonun-qoidaga amal qilib yashaydi. Shu sababdan tarixning boshlang‘ich davridan boshlab inson hayotida qonun-qoida, tartib-intizomning o‘rni va ahamiyati yuqori bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki hozirgi qiyofadagi odam ya’ni, kramanyon odami tabiatan intizomli va taritibli inson hisoblanadi. Shundan ayonki hozirgi davrda insonning hayotida tartib, qonun-qoidalarga bo‘ysunib yashashi qadimgi davrdan beri mavjud bo‘lgan hodisadir.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yhati:**

1. <https://www.britannica.com/topic/Magna-Carta> 21.02.2024
2. 21.02.2024

<https://staff.tiiame.uz/storage/users/432/books/doaVb0Ht5mXg3RE0ClF05HoJy798tD1gdO2tjOWb.pdf>

## **IJODIY ASAR YARATISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR**

*Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o‘g‘li,*

*Sattarov Farhod Islomovich*

*Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchilari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada manzara janri va uning o‘zig xos jihatlari, ochiq havoda etyut ishlash haqida so‘z boradi. Manzara ishlashning qonuniyatları,

*ishlash bosqichlarining ketma-ketligi taxlil qilingan. Manzara ishslashda rang munosabatlari rassomlar asarlari taxlili, hamda Shundan kelib chiqqan xolda yangi rangtasvir kompozitsiyalari uchun ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so’zlar:** *obraz, motiv, individual, estetik, koloritda, kontrast, tonal, prizmasi, seans, kompozitsiya, perspektiva, plan.*

**Аннотация:** В данной статье говорится о жанре пейзажа и его специфических аспектах, натурных этюдных работах. Анализируются законы ландшафтной работы, последовательность этапов работ. Анализируются цветовые взаимоотношения в пейзажных произведениях художников и на основе этого даются научно-практические рекомендации по созданию новых цветовых композиций.

**Ключевые слова:** *образ, мотив, индивидуальность, эстетика, цвет, контраст, тональ, призма, сеанс, композиция, перспектива, план.*

Manzara janrida ishslashni ko`pincha oddiygina ommabop ish deb hisoblaydilar, rassomdan kuchli malaka talab etmaydigan ish deb noto`g’ri fikrlaydilar. Vaholanki, aslida manzara rangtasvirida chuqur obrazli ko`rinish yaratish bu oson emas, va rassomga u chuqur ijodiy qoniqish xosil qiluvchi hissi yet beruvchi. Manzara kompozitsiyasi ustida ishslash eng qiziqarli e`tibor tortuvchi motiv tanlashdan boshlanadi. Bu ma`noda esa eng avvalo etyudlar bajarishda yoki manzara materiali ustida ishlagandi asosiy vazifalarni belgilab olish ham muhimdir.

So`zsiz etyud yozish manzara kartinasi ustida ishslashga nisbatan albatta yengilroqdir. Biroq etyudga nisbatan ham ancha jiddiy munosabatda bo`lib, tevarak atrof-muhit haqida tasavvurlarini kengaytirish va uni kasbiy mahoratni oshirish mukammallashtirish vositasi sifatida qarash kerak.

Mashhur manzarachi rassomlarning ijodi bizni yangi motivlari bilan o`ziga tortadi. Unda tomoshabin ustuning shaxsini aksini ilg’ab oladi, uning individual (pocherki) chizgisi, bu bilan u o`zini xissiyoti, kayfiyati estetik g’alayonlarning, tabiatning ta`sirida go`zallik ta`sirida.

Mashhur manzarachi rassomlarni barcha jihatlarini o`zlashtirish ularga to`liq bog`lanib qolish, taqlid qilish, begona kompozitsiyalarga suyanib qolish yaramaydi.

Tabiatdagi go`zallikni ko`ra bilish ko`nikmasi, yangilikni idrok etish bizning davrimizga xos xarakterni topish ko`plab rassomlar ijodida ko`rish mumkin.

Ayrim yosh rassomlar kompozitsiyadagi chiziqli yechimni o`rnini to`liq baho bermaydilar, ular asosiy narsa rangtasvirda bu kolorni deb hisoblaydilar. Bu noto`g`ri. Manzara rangtasvirda teppa teng chiziqli yechim, rangtasvir va kompozitsiya zarur hisoblanadi.

Naturadagi eng qiziqarli motiv topib olingandan so`nggina kompozitsion izlanishlar boshlanadi. Etyudni o`lchami formati aniqlanadi.

Odatda tajribali rassomlar tayyorlab olingen formatdagi xolatda ishslash vazifasini qo`yadilar. Bu xolatda chizuvchining atrofida bor bo`lgan tabiat ko`rinishi motivini joylashtirishga to`g`ri keladi.

Boshqa rassomlar esa fikriy g`oyaviy izlanishlar olib boradi, tabiatni kuzatar ekan, ko`rish nuqtasini o`zgartiradi. Bunda ramka-kuzatkichdan foydalaniladi. Undan zaruruy (gorizontal, vertikal yoki yaqin kvadratga) format topishga yordam beruvchidir. Shunga qarab material asos (xolet, qog`oz yoki karton), odatda bu etyudga chiqishdan avval tayyorlab olinadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, yordam vositalarisiz ham, ko`z chamasi bilan zaruriy manzara qismini tanlab olish mumkin.

Etyud ishslash jarayonida tanlangan motivning kompozitsiyasi, uning tonal va kolorit yechimi, naturadan chizilgan tasvir bilan taqqoslaniladi va bu holda ayrim kamchiliklar chiziqli tasvirda, koloritda, kontrast va tongdagi kuchi, qaysiki oxirida manzaraning ifodaviyligi xal qiladi.

Manzara kartina yaratish mo`ljallanar ekan naturadan chizish bilan rangtasvirchining kuzatganlari va ta`surotlari aks etadi. Ko`p manzarachilar shunday ishlaydilar. Ba`zi bir rassomlargina ularga ma`lum bo`lgan xayoliy ta`surotlar bilan rang bilan ishlaydilar.

Naturadan ishslash kartina ustida xiyla og`ir jaryon hisoblanadi, bajarilgan etyud esa kartina uchun yordamchi material bo`lib xizmat qiladi.

Kartina ustida ishslash jarayonida kartinaning chiziqli yechimi, tus va rangdagi eskiz bajariladi. Rassom yana va takror naturaga murojaat etadi, unda qo`shimcha tabiatning obrazliligini boyituvchi xarakterli shtrixlar topadi.

Zamonaviy manzarada esa insonning faoliyatini natijalarini ifodalash mumkin. Qaysiki kompozitsiyaga odam tasvirlarini (figurasini) kiritish bilan manzara kartina kompozitsiyasi ustida ishslash shu darajagacha davom etadiki, qaysiki chiziqli kompozitsiya naturan olingan etyud yoki xomaki rasm asosida tusli va rangli yechimini topgunga qadar. Bu holda tugal holda shunday aniq vazifalar bajariladiki, qaysiki xarholda qisman bo`lsada birinchi kompozitsion eskizlarda echib borilgandagi asoslanib.

Bu bilan faol holda, barcha asosli materiallar kompozitsiyaga va chiziqli rasmga va rangli qurilishiga tuziladi..

Ish jarayonida albatta kontrvallar va yaxlitlik qonunini amal qilinishini hisobga olishga to`g’ri keladi. Alovida unutmaslik kerakki, tus va rang kontrastlari, shakl va o`lcham va boshqa elementlardagi kontrastlarni ham tasviriy motivga kiruvchi.

Kartina ustida ishni tugallash bosqichida rassom alohida vazifalarni bajarishga ya`ni qiziqib ketishi mumkinki, alohida detallarni tus va tonal munosabatlarni berishda bu esa kompozitsiyani ko`pol va quruq bo`lib qolishiga kayfiyatni o`zgarib ketishiga olib keladi.

Shu bois kompozitsiyaga yaxlitlik qonuni prizmasi orqali qarash va kompozitsiyaning bo`laklarga ajralib ketishiga yo`l qo`ymaslik kerak.

Manzara chizish jarayonida manzara ishslash texnikasini egallah biz yoshlardan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan obektlarni katta masofa ajratib turishi, yoruqlik va soya reflekslarining xilma-xilligi va ko`pligi, yoruq-soyalarning tez o`zgaruvchanligi, ob-qavo va fasllarning o`zgarishi bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo`lgan rassom meqnatini qiyinlashtiradi.

Ochiq xavoda rasm chizganda boshlanishida oddiyroq syujetni tanlagan ma`qulroq. Masalan, hovlini bir qismi, uy yonidagi yoki devor oldidagi daraxt, ko`priklari ariqcha, xarakterliroq ko`chani bir qismi, darvoza oldi va hokazo. Ochiq xavoda etyud ishslash bo`yicha bir mo`ljal malaka xosil qilgach, so`ng vazifasini sekin-asta murakkablashtirib borish mumkin.


Odatda manzara ishlashning ikki xil tipi mavjud:



**Birinchisi; davomli ya`ni tugatilgan manzara.**



**Ikkinchisi; qisqa muddatli etyudlar.**



Uzoq muddatli manzaralar ishlashda fazoni ishonchli tasvirlash obu-xavoni xolati, yorug’likning nozik qochirimlari va ob`ektlarni shakli-shamoyili ancha aniqlikda ishlanadi va manabu manzara bunga misol b o’la oladi. Uzoq muddatli davomli etyudlarda naturaning to`liq ifodalash qobiliyati va dastlabki fikrni to`lato`kis rangtasvir asariga aylantira olish tarbiyalanadi. Uzoq muddatli ishlarni bir necha seansda kunning (bir payti) o`sha payti va o`sha vaqtida havoning o`sha payti o`sha vaqtida, o`sha bir xil xolatida yozish kerak.

Yaxlitlikni rivojlantirish va rangtasvirni quruq va kambag’al bo`lib qolishdan qutulish uchun davomli tasvirlardan tashqari qisqa muddatli etyudlar bajarish zarur bo`ladi. Bu etyudlar manzarachi uchun o`ta zaruriy bosqich bo`lib, rassomning o`ziga xos kundalik daftaridir. etyuddagi eng ahamiyatli narsa bu natura haqida jonli nigoh va jonli tasavvurdir.

Ochiq xavoda ishlanar ekan, tabiatning tez o`zgaruvchanligini kuzatish mumkin: bo`ronli bulut va momaqaldiroq, quyoshning chiqishi, bulutlarning hayratli almashinishlari va rangdor yoritilishini kuzatish mumkin. Bunday o`zgarishlar 5-10 minut ichidayoq butunlay o`zgaradi: kun botish butunlay boshqa rangga kiradi, bulutlarni ham shakli buzilib ketadi. Bunday paytda juda tez ishslash talab etiladi, boshlang’ich chizmatasvirni to`liq bajarish ham shart emas yoki umumiy holda kist bilan belgilab olish kifoya qiladi. So`ngra tezda zaruriy tusdagi buyoqlarni tanlab yirik mazeklar bilan ishlash kerak. Qisqa vaqt ichida umumiy rang tusini xolatini hosil qilish ranglar garmoniyasini, planli bog’lanishlarni yuzaga chiqarish zarur bo`ladi.

Bu erda albatta yaxlit ko`rish zarur va asosiy ob`ektlarni taqqoslash matoda asosiy rang munosabatlarni joylashtirib olish: osmon, er, daraxtlar, suv va hokazo. Agarki, umumiy tus ishonchli olinsa, yorug'lik kuchi, rang va uning to`qligi (to`yinganligi) naturaviy nisbatlarga mos bo`lsa, xar xil planlarni munosabati to`g'ri ilg'ab olingan bo`lsa shularni o`zi etyud-qoralama uchun etarlidir. Yaxlit ko`rishni bilish va katta shakl nisbatlarini topa olish ko`nikmasi kelajakda manzara ishslash mahoratini egallash uchun poydevor bo`lib xizmat qiladi.

Davomli etyud ishslash jarayoni haqida to`xtalib o`tamiz.

Manzara ob`ekti tanlab olingach tasvir yuzasida tayyorgarlik chizgilari ishlanadi. Chizmatasvir albatta shubhasiz perspektiv qurilish va turli ob`ektlarni planli va nisbatlarini saqlagan holda chiziladi.

Manzaraning chiziqli tasvirini to`g'riliqi boshidanoq ishning sifatini belgilaydi. Mobodo ranglarning muvaffaqiyatsiz qo`yilsada, chiziqli tasvir etyudning qimmatini saqlab turadi. Titsian o`zining o`quvchilariga takrorlar eidiki: -na soya-yorug'lar, na ranglar emas, balki tasvirni to`g'ri chizilgan shakl va chiziqli tasvir go`zal qiladi”.

Tajribasiz rassomlar ko`pincha boshidanoq qo`pol xatoga yo`l qo`yadilar, osmonni barcha tavsiflari bilan chizib oladilar, so`ng arning tasviriga o`tadilar. Bunday qilish yaramaydi. Manzarada avvalo asosiy ob`ektlarning to`qligi va rangining kuchini tasvirlash: osmon, er, suv va boshqa va so`ngra bosqichma-bosqich etyudni tugallash xolatigacha olib borish zarur.

Buyoqlar bilan ishslashdash avval naturaga ko`zni qisib qarab, naturaning eng yorug' va eng to`q joylarini chamalab olish zarurdir. Aytaylik, eng yorug' – blik joy suvning chekka qirg'og'ida, eng to`q joy esa-daraxtning shohlari deylik. Boshqa barcha to`qliklarni shu ikki bosh nuqtaga nisbatan taqqoslaymiz. Bunday taqqoslashda darhol aniqlash mumkinki, xatto og'ir qora bulutlar ham to`qligi jihatidan albatta erdag'i ob`ektlarga nisbatan engil ekanligini ko`rish mumkin.

Umuman olganda, faqat chuqur fikrlab va predmet va planlarni to`qligi va rangdagi farqlarni aniq tasavvur etib olib, so`ng ishga kirishgan ma`qul.

Ish jarayonida manzaraning umumiy to`qligi va rang holatini hisobga olish zarur. Kunning turli vaqtida va hat-xil ob-havoda yozilgan etyudlar umumiy tusi jihatdan turlicha bo`lishi kerak.

Umuman olganda, yaxshi anglab olishimiz kerakki, predmet va ob`ektlarni ochiq xavoda tasvirlashni asosiy o`quv vazifalari turlicha yorug'lik muhitida, umumiy yoritilganligi turlicha bo`lgan, sutkaning turli vaqtiga, fasliga, ob-xavoning o`zgarishiga bog'liqdir.

Ayniqsa, asosiy yorug'lik manbaiga nisbatan predmet va ob`ektlarning rangli ko`rinishi kuchli ravishda o`zgarib ketadi: ertalab, kunduzi, kechki payt. Masalan, daraxt soyasidagi natura bilan baland devor yonidagi soyadagi naturaning, o`zining soyasining rangiga nisbatan bir xil bo`lmagan rang gammagini tashkil qiladi. Bir xil vaqtda, barchasi yashil soyalanadi, ba`zida osmon ta`sirida ko`kish bo`lishi mumkin.

Oldingi daraxtlarning rangi nafaqat yorqinroq va issiqroq, shu bilan birga uzoqroqdagi daraxtlar tobora xiralashib, sovuq soyalar bo`lib boradi va holanki, yashil-sariq o`rmonzor gorizontda, ko`k rangdagi chiziqqa aylanib boradi. Daraxtlarning bunday o`zgarishi ma`lumki, ko`kish rangga ega bo`lgan havoning bizdan uzoqlashgan sayin quyuqlashib borishi evaziga ro`y beradi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan havo perspektivasining bunday qonuniyatini har qanday manzarani tasvirlashda qo`llanadi deb o`ylashsh to`g'ri emas. Yorug'lik xolatining ob-havoning shunday vaziyatini uchratish mumkinki, anchayin aniqroq va yorqin ranglar tusi va rangi bilan oldingi planda emas, balki o`rta yoki xatto uzoq planlarda bo`lishi mumkin.

Ijodiy manzalarda ba`zan rassomlikning o`zi g`oyaviy mazmunni qiziqarli ifodalash maqsadida tonal (tus) va rang gammagini yuqoridagidek, ancha faol xarakatdagi ranglar jilosi birinchi planda emas balki aytaylik o`rta planlarda bo`lish mumkin.

Naturada bir xil bir tekis rang bo`lmaydi, qaysiki matoda bir xil rang bilan qoplab ham bo`lmaydi. Har qaysi rang rangtasvida o`zining ko`plab rangli jilolarini ko`rsatadi. Osmon bir qarashda to`liq to`q rangda ko`rinadi, lekin, osmonni gorizont bilan bo`lgan qismini boshimiz ustidagi joy bilan taqqoslansa, darhol ranglarning bir xil emasligini payqaymiz. Quyoshning yorug'ida rang anchayin yorqin-jiloli nur tushgan joyda. Ufqa yaqinlashgan sari osmon rangi ochlashadi, issiqlashadi, gorizontni o`zida kuchli tumanda ko`rinadi. Agar yozda yaxshi maysazorga qaralsa, yashil rang turli-tuman tovlanishlarini ko`rish

mumkin. Maysalarni bir xil yashil bilan yozib bo`lmaydi, xuddi osmonni ko`k bo`yoq bilan ishlab bo`lmagan kabi. Biroq, shuni unutmasligik kerakki, manzaraning ranglari qanchalar rang-barang bo`lmasin, yorug'lik nuri, umumiy tus unga ta`sirini o`tkazadi, barcha ob`ektlarda va barcha bo`yoqlar unga bo`ysundiriladi.

Naturadan har kuni etyudlar bajarib borish bilan albatta rassom katta yutuqlarga erishishi va har bir yaratilgan ijodiy asarlar insoniyatni ko`nglidan chuqur joy egallab manaviy yuksalishiga xizmat qilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o'g'li International Conference on Research Identity, Value and Ethics Rangtasvirda manzara ishslashning amaliy ahamiyati
2. Komoldinov.S.J. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.
3. Komoldinov.S.J. Ijodiy manzaralar chizish bo'yicha amaliy va nazariy tavsiyalar International Conference on Research Identity, Value and Ethics April 30th 2022 **10-13 b.**
4. Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li. TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Economy and Innovation ISSN: 2545-0573 Volume: 43 | 2024
5. Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli. HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7607332>
6. Azizbek Khasanboyo'G'li Boltaboev. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONALPEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS. "Экономика и социум" №3(106) 2023
7. Boltaboyev Azizbek Xasanboy O'g'li. O'quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini



rivojlatinirish texnalogiyasi. Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-  
namdu ilmiy Axborotnomasi—2023-yil\_7-son.

## **YOSHLAR ONGIGA MILLIY G‘OYANI SINGDIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI**

***Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich***

*Namangan Davlat universiteti Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi kafedrasи katta  
o‘qtuvchisi:*

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxon o‘g‘li***

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Milliy g‘oya, ma’naviyat  
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi MIG‘-AU-21 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ommaviy axborot vositalari yoshlar ongi va e’tiqodini shakllantirishda, ayniqsa, milliy g‘oyalarni singdirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, gazetalar yoki boshqa aloqa shakllari orqalimi, ommaviy axborot vositalari yoshlarning fikr va qarashlariga ta’sir ko’rsatish va shakllantirish qudratiga ega. Milliy g‘oyalarning yoshlar ongiga ommaviy singishi va bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, milliy g‘oya, OAV, dunyoqarash, tarixiy, televideniye, gazetalar, ijtimoiy media, qadriyat.

**Аннотация:** В данной статье средства массовой информации играют решающую роль в формировании сознания и убеждений молодежи, особенно в привитии национальных идей. Будь то телевидение, социальные сети, газеты или другие формы коммуникации, средства массовой информации имеют возможность влиять и формировать мнения и взгляды молодых людей. Исследуется массовое проникновение национальных идей в сознание молодежи и значение средств массовой информации в этом процессе.

**Ключевые слова:** Молодежь, национальная идея, средства массовой информации, мировоззрение, историческое, телевидение, газеты, социальные сети, ценности.

**Abstract:** In this article, mass media play a decisive role in forming the consciousness and beliefs of young people, especially in inculcating national ideas. Whether through television, social media, newspapers or other forms of communication, mass media have the power to influence and shape the opinions and views of young people. Mass penetration of national ideas into the minds of young people and the importance of mass media in this process are studied.

**Key words:** Youth, national idea, mass media, worldview, historical, television, newspapers, social media, value.

Ommaviy nutqlar, jumladan, ta’lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari va ijtimoiy tarmoq platformalaridagi muhokamalar yoshlarning o‘z milliy qadriyatlari va o‘ziga xosligini qanday qabul qilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shaxslar o‘z milliy merosi, tarixi va madaniy me’yorlari haqida suhbat qursalar, milliy g‘oyaning shakllanishiga hissa qo’shadilar. Ushbu munozaralar milliy o‘ziga xoslikning ijobiy tomonlarini kuchaytirishi yoki salbiy stereotiplar va noto‘g’ri qarashlarni davom ettirishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari yoshlarda milliy rivoyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Televideniye, gazetalar, ijtimoiy media va onlayn platformalar kabi ommaviy axborot vositalarining turli shakllari orqali yoshlar o‘z millati qadriyatlari va o‘ziga xosligining turli xil ifodalariga duchor bo‘ladilar. Media kontenti inklyuzivlik, xilma-xillik va birlikni targ‘ib qilishi yoki bo‘linish va noto‘g’ri qarashlarni davom ettirishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari axborot tarqatish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. U katta auditoriyani qamrab olish qobiliyatiga ega va milliy g‘oyalar, qadriyatlar va rivoyatlarni samarali yetkaza oladi. Ommaviy axborot vositalarining turli shakllari, jumladan, yangiliklar, hujjatli filmlar va ma’rifiy dasturlar orqali yoshlar o‘z millati madaniyati, tarixi va ijtimoiy normalarining turli jihatlari bilan tanishadilar. Bu ta’sir ularning milliy o‘zlikni anglash va idrok etishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Eng avvolo milliy g‘oya tusgunchasiga ta’rif bersak “Milliy g‘oya deganda, ajdoddlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida

e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bolsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o’zimizga tasavvur qiladigan bo’sak, o’ylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmunmohiyatini ifoda qilgan bo’lamiz. Istiqlolimizni qo’lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g’oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqishga harakat qildik. Shu maqsadda ijtimoiy fanlar sohasidagi yetakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziylolar, keng jamoatchiligidan e’tiborini ana shu muhim masalaga qaratdik.”[1] Ijtimoiy media platformalari yoshlarning milliy g’oyalarga nisbatan qarashlarini shakllantirishda tobora kuchayib bormoqda. Instagram, Twitter va TikTok kabi platformalarning keng qo’llanishi bilan yoshlar doimiy ravishda o’z millatlarining o’ziga xosligi haqida turli rivoyatlarga duch kelishadi. Ushbu platformalar ko‘pincha madaniy meros, vatanparvarlik va ijtimoiy muammolar haqida munozaralar uchun maydon bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim muassasalari yoshlarning o’z millati tarixi, madaniyati va qadriyatları haqida tushunchasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktablarda o’qitilayotgan o’quv dasturi o’quvchilarning o’z mamlakati milliy g’oyasi haqidagi tasavvuriga ta’sir qilishi mumkin. Ta’lim muassasalari o’quvchilarga turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishda yordam berish uchun tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish bilan birga millat tarixining to’g’ri va inklyuziv tasvirini taqdim etishlari juda muhimdir. Televideniya yoki onlayn platformalardagi ta’lim dasturlari ham yoshlar ongini milliy g’oyalar bilan shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Tarixiy voqealar yoki madaniy an’analarni o’rganuvchi hujjatli filmlar millatning o’ziga xosligi haqida qimmatli ma’lumotlar berishi mumkin. Xuddi shunday, xilma-xillik, inklyuzivlik va bag’rikenglikni targ’ib qiluvchi ma’rifiy ko’rsatuvsular yosh tomoshabinlarda ijobiy milliy o’ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi. Ayrim ommaviy axborot vositalari yoki nufuzli shaxslar tomonidan davom ettirilishi mumkin bo’lgan milliy g’oya haqidagi noto’g’ri tushunchalarga qarshi kurashishga jamoatchilik mas’uldir. Turli nuqtai nazarlarga nisbatan tanqidiy fikrlash va empatiyani rag’batlantiradigan muloqotni targ’ib qilish orqali shaxslar o’z millatlarining qadriyatlarini yanada nozikroq tushunishga hissa qo’shishlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirishda jamoatchilik, jumladan, ommaviy axborot vositalarining ham o‘rni katta. Inklyuziv ommaviy nutqni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari orqali to‘g‘ri vakillikni targ‘ib qilish, turli nuqtai nazarga ega ta’lim o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘z millatining o‘ziga xosligi haqidagi noto‘g‘ri tushunchalarga qarshi kurashish orqali shaxslar kelajak avlodlar uchun ijobjiy va inklyuziv milliy g‘oyani shakllantirishga hissa qo‘sishi mumkin. Jamiyatning barcha a’zolari yoshlarning o‘z milliy qadriyatlari va o‘ziga xosligini qanday qabul qilishiga ta’sir qilishdagi rolini tan olishlari juda muhimdir. Milliy g‘oyalarning yoshlar ongiga ommaviy singishiga ommaviy axborot vositalarining turli shakllarining o‘rni katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalari ta’lim dasturlari, yangiliklar hisobotlari, ijtimoiy media platformalari, jumladan, hujjatli filmlar orqali millatning o‘ziga xosligi haqidagi ijobjiy rivoyatlarni targ‘ib qilish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bu g‘oyalarni yoshlar o‘rtasida samarali tarqatish uchun noto‘g‘ri ma’lumotlar kabi muammolarni hal qilish kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008 (45-bet)
2. E.Umarov, M.Abdullayev “Ma’naviyat asoslari” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi TOSHKENT - 2005
3. O.M.G‘aybullayev “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” Toshkent–2019
4. Nazarov Q.N. “Qadriyatlar falsafasi” Toshkent UFMJ 2004
5. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov S.A.A’zamxo‘jayeva “Ma’naviyat asoslari” Toshkent 2016
6. Muhammadjon Imomazarov “Milliy ma’naviyat bosqichlari” Toshkent 2010
7. <http://www.my.gov.uz>.
8. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
9. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)



## **GLOBALLASHUV JARAYONIDA JAMIYATIMIZDA MILLIY MA’NAVIYAT VA AXLOQNING O'RNI VA ROLI**

***Jabbarov Asadbek Ibrikim o‘g‘li***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi  
magistri*

*Tel: +998883701511 E-mail: [asadbekjabbarov0709@gmail.com](mailto:asadbekjabbarov0709@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada globallashuv jarayonida jamiyatimizda sodir bo‘layotgan ma’naviy o‘zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlarning omma ongiga ta’siri, “ommaviy madaniyat”ning jamiyatimizga keltirayotgan zarari, uning yosh avlodning ma’naviyatiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan hamda yosh avlodni bunday tahdidlardan saqlashda ajdodlarimizdan meros bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются духовные изменения, происходящие в нашем обществе в процессе глобализации, влияние социальных сетей на общественное сознание, вред, который «массовая культура» приносит нашему обществу, и ее влияние на духовность молодежи. поколения раскрываются с социально-философской точки зрения и обсуждается роль и значение духовных ценностей, унаследованных от наших предков, в защите молодого поколения от подобных угроз.

**Abstract:** *In this article, the moral changes taking place in our society in the process of globalization, the influence of social production on the public mind, the harm it causes to our society, its influence on the spirituality of the young generation, socio-philosophical control was established and the young it talks about the role and importance of spiritual values inherited from our ancestors in protecting the generation from such things.*

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, ma’naviyat, “ommaviy madaniyat”, submadaniyat, mafkura, mafkuraviy poligon, transformatsiya

**Ключевые слова:** глобализация, духовность, «народная культура», субкультура, идеология, идеологический полигон, трансформация

**Key words:** globalization, spirituality, "popular culture", subculture, ideology, ideological polygon, transformation

Globallashuv jarayonida millat va xalqning ma’naviy qiyofasi, sog’lom etiqodini va milliy qadriyatlarni saqlash va transformatsiyalanishini oldini olish hozirgi kunda jamiyatimizda dolzarb masalaga aylangani hech kimga sir emas. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy axloqning o‘rni va ahamiyati yuqori o‘rinda turadi. Zero, insonning axloqiy qiyofasini go‘zallashtirishda ma’naviyatning o‘rni beqiyos.

Ma’naviyat – insonning ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va shu kabilar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istiklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘zida jamlaydi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag‘ishlaydi. Ma’naviyat ma’rifat va madaniyat bilan bog‘liq.

XXI asrning katta muammolaridan biri “mafkuraviy tazyiq”dir. Uning yoshlarga yetkazayotgan ta’sirlari ko’pgina davlatlar qatori mamlakatimizni ham chetlab o’tmadi. Fan va texnika taraqqiy etgan ushbu asrda, ayniqsa, axborot texnologiyalari aql bovar qilmaydigan darajada rivojlanib bormoqda. Shuning bilan birga “Ommaviy madaniyat” zararlari ham kirib kela boshladi. Avvalo madaniyat haqidagi allomalar fikrini ko‘zdan kechirsak. Mashhur o‘zbek matematigi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti bo‘lgan Qori Niyoziy ushbu so‘zning keng qamrovli tushuncha ekanligiga urg‘u berib shunday deydi: “Madaniyat tarixi g‘oyat darajada murakkab bo‘lib, uning hamma tomonlarini o‘z ichiga olgan kitob hech qaysi bir tilda yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas”. Farg‘ona vodiysining yirik jadidlaridan biri bo‘lgan Is’hoqxon Ibrat esa madaniyatni oziqlantirib turuvchi omil yaxshi axloq ekanini ta’kidlab:

*“Madaniyat jahondan osoyish,*

*Xulq husni anga oroyish.*

*Madaniyat xaloyiqqa rohat,  
Ko’rmagay g’amni hech soat” deydi.*

E’tibor bersak, bu tushunchaning negizi ezgulikdan iboratdir. Biroq, bugun tilimizda qo’llanayotgan “ommaviy madaniyat” iborasi bu mazmunni inkor etayotgani rost. Yoshlar ongidagi g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tuban illatlarni o’z ichiga olgan bu “madaniyatlar” ko’plab falokatlarning ibtidosidir. “Ommaviy madaniyat” degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig’dirolmaydigan ko’plab axloqiy buzuqlik g’oyalari mavjud. Xususan, zo’ravonlik, individualizm, egotsentrizm g’oyalalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo’porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni “madaniyat” deb atalishi, yoyinki, ming yillik ma’naviy qadriyat va an’analarni bepisandlik bilan “eskilik sarqiti” deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an’analar bilan almashtirish ongli insonga xos bo’lmagan odatdir.

Taniqli o’zbek adibi Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek shunday degan ekan: “O’zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog’ining boshida bo’lgan.”[3] Bugun yozuvchimiz A.Qodiriyning “O’tgan kunlar” asarida tasvirlagan oila, muhabbat, burch, hayo, iffat, ma’suliyat, e’tiqod, hurmat, mehr-oqibat kabi har bir millatdoshimiz uchun ibrat bo’la oladigan qadriyatlarning hayotdagi aksini to’laqonli uchratishimiz qiyin ekanligiga ko’pchiligidan guvoh bo’lib turibmiz.

Buyuk yozuvchimiz ularni millatdoshlarimizning ongi va qalbiga singdirish, uni ommalashtirish uchun o’z jonini qurban qilgan edi. Uning millatimiz ma’naviyatini saqlab qolish yo’lidagi fidoiyligi hammani qolipga solish, yagona ma’naviyatni shakllantirishni maqsad qilgan, shu yo’l bilan sobiq ittifoqdagi barcha millat va elatlarning ma’naviyati o’rniga o’zga xalq ma’naviyatining hukmronligini ta’minalash yo’lida kamarbasta bo’lgan ma’naviy qashshoq siyosatchilar va shovinistlarni dahshatga solgan edi. Masalan, millatimizda asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onamizni ulug’lash, oila muqaddasligini himoya qilish, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ularning gapiga qulog solish,

qilinadigan katta ishlarni bamaslahat amalga oshirish, aka-ukalar opa va singillar, kelin qaynota, qayinonalar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik, mehr-oqibat, ustoz va shogird hurmati kabi muaqaddas qadriyatlarni qayta tiklash milliy tarbiyamiz oldida turgan eng dolzarb vazifadir.

Milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan g’oyalarning eng asosiysi internet tarmoqlari orqali tarqalmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining internet tarmoqlaridan foydalanish salmog‘i oshib bormoqda. Bunga covid-19 epidemiyasining tarqalishi ham juda katta turtki berdi. 2022-yilda Datareportal.com saytining bergen ma’lumotlariga ko’ra O’zbekiston aholisining qariyb 70 foiz qismi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. Aholining 18,3 foiz qismi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Mamlakatda foydalanuvchilar tomonidan eng ko’p Instagram ijtimoiy tarmog‘idan foydalaniladi. Hozirgi kunda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4,8 milliondan ortiq. Ularning 34,4 foiz qismi ayollar, asosiy qismi yoshlarni (18-35 yosh) tashkil etadi.[4]

Ammo ushbu ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar ma’naviy ongi uchun to’liq ijobiy ma’lumotlar beradi deya olmaymiz. Ayrim yoshlarimiz ushbu ijtimoiy tarmoqlardan o’z yaqinlari bilan uzoqni yaqin qiluvchi vosita sifatida foydalanishsa, ko’pchilik yoshlar zerikish natijasida axloqsizlikni targ’ib qiluvchi pornografik ma’lumotlar olishga, ma’naviy ongi va fikrlash doirasi axloqiy jihatdan past bo’lgan o’rtoqlar izlashga va ular bilan axloq chegaralaridan chetga chiqqan intim mavzularda suhbat qurishga harakat qiladilar. Shuningdek, “ommaviy madaniyat” targ’ibotchilari oilalarga, ayniqsa yosh oilalarga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Ma’lumki, har bir millatning, har bir insonning ma’naviyati va o’ziga xos madaniyati shakllanishida oilaning o’rni beqiyos. Aksincha, oilaning biror muammosi, oilaning ikkinchi yarmini tashkil qilgan ayolsiz yechilmagan va amalga oshirilmagan. Shu ma’noda, ayollarimiz o’zlarining oilada siqilgan, huquqlari cheklangan tarzda his qilmaganlar.

Bundan tashqari global tarmoq imkoniyatlari keng ekani uning bugungi yoshlar orasida juda tez ommalashganidan sezish mumkin. Ma’lumki o’tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan internet tarmog‘i axborot sohasida tub burulish yasaganini ko’rishimiz mumkin. An’anaviy ommaviy axborot vositalarining axborot texnologiyalar asrida o’z mavqeyini saqlab qolishi ko’p

jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchas bog’liq bo‘lib qoldi. Misol tariqasida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyiadgi so‘zlarini keltirish mumkin “...bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida internet va boshqa global axborot tizimlardan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi...”[1, 127].

Hozirgi vaqtida ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. [2, 119].

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki globallashuv jarayonida millatning, xalqning ma’naviy qiyofasini, milliy qadriyatlarini saqlash juda muhim o‘rin tutadi. “Ommaviy madaniyat”, submadaniyat va mafkuraviy poligonda yoshlarni turli xil axloqsizlik ma’naviy buzuqlikdan saqlash, kelgusi avlodning ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda asosan muqaddas islom dinining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlash joiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –485 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch.Toshkent:Ma’naviyat, 2016. – 174 b.
3. Eshmatov R. Javbekova Sh. “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar ongiga ta’siri. // Innovative achievements in science 2022. (conference material) – B. 37
4. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardan foydalanish ko‘rsatkichlari ma’lum bo‘ldi. // <https://daryo.uz/2022/08/10/ozbekistonda-ijtimoiy-tarmoq-va-messenjerlardan-foydalanish-korsatkichlari-malum-boldi> [Murojaat qilingan sana: 25.12.2023]

## **IV. ILG‘OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;**

### **YUQORI TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLI IQTISODIYOT**

**Mamadjanov Muhammadali Xalimboy o‘g‘li**

*Namangan davlat pedagogika Institut pedagogika fakulteti  
texnologik ta’lim yonalishi talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqola hozirgi kundagi raqamli texnologiyalar va ularni iqtisodiyotimizda keng qo’llanilib kelinayotgani, raqimli texnologiya esa iqtisodiyot bir bog‘iniga aylanib ulgurgani haqida keng tushuncha beradi

**Kalit so‘zlar:** Raqamli iqtisodiyot, korrupsiya, internet, veb iqtisodiyot, qora iqtisodiyot, kiber havfsizlik,

**Аннотация:** эта статья дает широкое представление о современных цифровых технологиях и их широком использовании в нашей экономике, а также о том, как цифровые технологии стали неотъемлемой частью экономики.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, коррупция, Интернет, веб-экономика, теневая экономика, кибербезопасность,

**Abstract:** this article provides a broad understanding of today’s digital technologies and their widespread use in our economy, and how digital technology has become an integral part of the economy.

**Keywords:** Digital economy, corruption, internet, web economy, black economy, cyber security,

Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya va

moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, bиргаликда гибрид дуньода барча иқтисодија фаолијат субјектлари – товарлар ва хизматлар юратиш, тақсимлаш, айрбосхлаш ва истемол олиш жарони објект ва субјектларининг толақонли о‘заро алоқа олиш имкониятини та’минловчи инфраструктура очиқлиги түфайли мавjud bo‘lishi mumkin. Толақонли о‘заро алоқа олиш учун барча иқтисодијот објект ва субјектлари сезиларли рақамли таркиби qismlarga ega bo‘lishlari lozim. Масалан, ҳозирги пайдада автомуобилнинг истемол xусусиятлари ва xавфсизлик ко‘рсаткичлари унинг hisobiga сезиларли даражада yaxshilanadigan рақамли таркиби qismlari (дастурий та’минот ва датчилар) автомуобил qiymatining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Келажакда ко‘плаб товар ва хизматлар qiymatining сезилари qismi унинг рақамли таркиби qismi bilan belgilanadi. Bunday товарлар “aqlii” buyumlar deb ataladi. Рақамлаштиришда махсулот yoki хизматлarning асосиј xусусиятлари jiddiy yaxshilanishi (масалан, автомуобил xавфсизлиги o‘shadi va унинг ekspluatatsiyaqiyomi kamayadi) yoki yangi xусусиятлар (ovoz bilan boshqarish, internet yoki mobil telefonlar turib masofadan boshqarish kабilar) paydo bo‘lishi lozim.

Kognitiv texnologiyalar yordamida интеллектуаллаштирилган интернетда ахборот излаб топиш машиналари bir со‘ровга javob tariqasida minglab javoblar beradi. Bu ma‘lumotlar inson idrok олиши учун очиқ, ishonchli va to‘liq bo‘lisga musobaqalashib, to‘plangan ma‘lumotlarni o‘zlari qayta ishlay boshlaydilar va natijada bu dunyonи biz учун “shaffof” qiladi. Bunday dunyoda aldab bo‘lmaydi, chunki yolg‘on darhol fosh bo‘лади, обро‘-е’tibor esa eng muhim kapital hisobланади.

Iste’molchi ishlab chiqaruvchini mustaqil ravishda topadi, avtomatik hujjataylanmansii hisobga olgan holda esa u to‘gridan-to‘g‘ri барча kontragentлари bilan o‘заро алоқа олиши mumkin. Shu tariqa M2C (manufacturer to customer, ishlab chiqaruvchi – iste’molchiga) biznes modeli va bunda ushbu iste’molchi учун zarur (yoki ko‘ngildagi) original xусусиятлarga ega bo‘lgan товарлар ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan C2M (customer to manufacturer) modeli paydo bo‘лади. Bulutli hisoblash platformalari (Cloud Computing) – yangi ахборот texnologiya konsepsiysi bo‘lib, u eng kam espluatatsion xarajatlar talab qiladi yoki u orqali provayderга murojaatlar tezkor taqdim etiladi va kerak bo‘lgan hisoblash resurslari talablarga binoan hamma joyda va qulay tarmoq уланishi bilan ta’minlanishi

ko‘zda tutadi. Ma’lumot uzatish tarmoqlari, serverlar, ma’lumot saqlash qurilmalari, servis dasturlari – birgalikda ham, alohida ham bulutli texnologiyalarning tarmoq resurslariga misol bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, bulutli texnologiyalar (Cloud technologies) –kompyuter resurslarini Internetdan foydalanuvchiga so‘rov bo‘yicha (on demand) onlayn-servis sifatida taqdim eta oladigan ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir. Shuni ham aytish zarurki, bulutli texnologiyalar vujudga kelayotgan raqamli iqtisodiyot poydevoriga ulkan hissa qo‘shtagan va qo’shayapti. Bu hissa faqatgina texnologik tarkibiy qismlar bilan chegaralanmaydi, balki iqtisodiy va g‘oyaviy tarkibiy qismlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Bulutli texnologiyalar rivojlanishi, masalan, talab bo‘yicha ishlab chiqarish (production on-demand), xizmat sifatidagi dasturiy ta’minot (software as a service) kabi kelajak biznes-modellarining aksariyati uchun asosiy g‘oyaga va ko‘plab iqtisodiy o‘zaro aloqalar uchun tamoyilga aylanuvchi tushunchalar paydo bo‘lishiga olib keldi. Buyumlar Interneti (IoT) esa – ko‘plab texnologiyalarni birlashtiruvchi, datchiklar bilan jihozlanganlik va internetga barcha uskunalarning ulanishini ko‘zda tutuvchi konsepsiya bo‘lib, masofadan turib real vaqt rejimida (jumladan, avtomatik rejimda) jarayonlarni monitorig va nazorat qilish, buning asosida ularni boshqarish imkonini beradi. Bugungi kunda bu sohada ikkita yirik yo‘nalish shakllangan: buyumlar Interneti (IoT - Internet of Things) va buyumlar sanoat Interneti (IIoT - Sanoatlashgan Internet of Things). Instrumental jihatdan bu texnologiyalar bir-biriga juda o‘xshash, asosiy farq esa bajarilishi lozim bo‘lgan vazifada: agar buyumlar internetining asosiy vazifasi bu xilma-xil (model va prognozlar tuzishda ustuvor foydalaniluvchi) ma’lumotlar to‘plash bo‘lsa, buyumlar sanoat Internetining bajarishi lozim bo‘lgan vazifasi ishlab chiqarishni avtomatlashirishdan iborat (datchiklar ko‘rsatkichlari bo‘yicha resurslar va quvvatlarni masofadan turib boshqarish).

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida „2020 yil — Ilm- ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili“ deb e’lon qilindi. Shundan keyin fuqarolarda „raqamli iqtisodiyot“ atamasi haqida ko‘plab savollar tug‘ila boshladi. Huquqiy axborot kanali „raqamli iqtisodiyot“ atamasining mazmunini ochib beruvchi maqola e’lon qildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, „Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi“ Raqamli iqtisodiyot — bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo’llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte „raqamli iqtisodiyot“ terminini amaliyatga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar — deyarli barcha qo’llamoqda. 2016 yilda Butun jahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma’ruza e’lon qildi.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va „qora iqtisodiyot“ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to’liq axborot bermaslikning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo’yadi. Ma’lumotlar ko’pligi va tizimliligi yolg’on va qing’ir ishlarga yo’l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. O’zbekistonda raqamli iqtisodiyot qay darajada rivojlangan? Ta’kidlash joizki, bugungi kunda foydalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet do’konlar, elektron to’lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonyaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o’rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o’rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operasiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Asosan bu mavzuni O’zbekistonda qanday rivojlantirish bu biz yoshlar qo’lidadir. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo’lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan. "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intelekt asrida va’da xavf-xatar" (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked

Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida isloh etilgan. Ushbu nashda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarim o’tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog’lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko’rsatiladi, Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan, Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O’zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo’lmaydi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish deyarli barcha iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun juda muhim va barcha mamlakatlar, sohalar va manfaatdor tomonlarni qamrab oladi. Bugungi kunda dunyoda internetga ulanmagan davlatlar bilan raqamlashtirish darjasasi ancha yuqori bo’lgan davlatlar o’rtasida katta farq bor. Masalan, kam rivojlangan mamlakatlarda har beshinchchi kishi internetdan foydalansa, rivojlangan mamlakatlarda har besh kishidan to’rt nafari internetdan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu raqamli bo’linishning bir misolidir Raqamli malumotlar va ilg’or texnologiyalar uchun imkoniyatlar kabi boshqa sohalarda bo’shliq ancha kata.

Raqamli texnologiya va internetdan foydalanar ekanmiz, bu oz ornida shaxsni oshkor etish jarayonini ham o’z ichiga oladi. Ko’rinib turibdiki raqamli texnologiya rivojiga yana bir bo’g’in texnologiya qo’shiladi bu kiber havfsizlik hissoblanadi, chunki bizni o’rab turgan texnologiya qanchalik qulay bolmasin uni havfsizlik qismini ham taminlay olishi lozim. Raqamli iqtisodiyot oz ichiga Bank sohasida ishlaydigan bir qator platformalarni qamrab oladi bular: paynet, zumradpey, oson, peyme, mk-bank, clic kabi ilovalardir. Bu ilovalarda biz chakana savdo chet’el pul otkazmalari kamunal to’lovlar va birqator soliq to’lovlarini amalga oshiramiz. "Raqamli texnologiyalar" tomon burilishga butun jahon internet tarmog’i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo’ldi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda bu tizimdan foydalanuvchilar oziq-ovqat, turli parfyumeriya va zamonaviy kiyim-kechak mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet do’konlar, elektron to’lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonyaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o’rtacha xarid hajmini

oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o'rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi“. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ hisoblanadi. Bundan tashqari Iqtisodiyot, Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o'ziga xos mas'uliyat va vazifalarga ega. Bu haqida kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – trakzaksion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu – transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. <https://www.researchgate.net/publication/336675826>: The activities of banks in Uzbekistan in the modern digital economy
2. "Science and Education" Scientific Journal/ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 Nurbek Ochilidiyev

3. Raqamli iqtisodiyot korrupsiyaga baham beradi 22-fevral 2019 Qobil Tursunov, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zosi
4. Downs, T.; Greenstein, S. (2002). "AQShdagi universal kirish va mahalliy Internet bozorlari". Tadqiqot siyosati.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli\\_Iqtisodiyot](https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_Iqtisodiyot)
6. <https://kompy.info/raqamli-iqtisodiyotning-asosiy-texnologiyasi.html>

## **MILLIY G’OYANI INSONLAR ONGIGA SINGDIRISHDA TA’LIM VA TARBIYANING O’RNI**

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxon o‘g‘li***

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi MIG‘-AU-21 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Milliy g’oyaning inson ongiga singishida ta’lim va tarbiyaning o’rni murakkab va serqirra mavzu bo‘lib, sinchiklab o‘rganishga arziydi. Ta’lim va tarbiya shaxsning e’tiqodi, qadriyatlari va o‘z millatiga va uning ideallariga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu tushunchalarni yoshlar ongiga o‘rgatish va singdirish usullari insonlarning o‘z milliy o‘ziga xosligini va o‘z mamlakati bilan bog‘liqligini qanday idrok etishiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Milliy g’oya, inson, millat, qadriyat, jamiyat, tarbiya, dunyoqarash, millat, bilim, madaniy merosi, maqsad.

**Аннотация:** В данной статье роль образования и воспитания в внедрении Национальной идеи в сознание человека представляет собой сложную и интересную тему, заслуживающую внимательного изучения. Образование и воспитание играют решающую роль в формировании убеждений, ценностей и отношения человека к своему народу и его идеалам. То, как эти концепции преподаются и внедряются в умы молодых людей, может сильно повлиять на то, как люди воспринимают свою национальную идентичность и связь со своей страной.

**Ключевые слова:** Национальная идея, человек, нация, ценности, общество, образование, мировоззрение, нация, знания, культурное наследие, предназначение.

**Abstract:** In this article, the role of education and upbringing in the inculcation of the National idea in the human mind is a complex and interesting topic, which is worth studying carefully. Education and upbringing play a decisive role in the formation of a person's beliefs, values and attitude towards his nation and its ideals. The ways in which these concepts are taught and instilled in the minds of young people can greatly influence how people perceive their national identity and connection to their country.

**Key words:** National idea, man, nation, value, society, education, outlook, nation, knowledge, cultural heritage, purpose.

Millatning umumiy qadriyatlari, tarixi va o‘ziga xosligini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oya tushunchasi xalqlar o‘rtasida hamjihatlik va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalashning ajralmas qismidir. Ushbu jamoaviy milliy ongni shakllantirish va mustahkamlashda ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Ta’limning milliy g‘oyaning shaxs ongiga ta’sir etishi va harakatsizlantirish usullarini o‘rganar ekanmiz, uning millatning kelajak traektoriyasini shakllantirishdagi ahamiyatini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi jamiyat kelajagini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu nafaqat bilim va ko‘nikmalar beradi, balki mas’uliyatli va axloqli fuqarolarni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarni ham singdiradi. Milliy g‘oya — muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g‘oya o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalq, millat takdiriga daxldor bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar va mo‘ljallarni ham aks ettiradi. “Insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyotida turli xil g‘oyalar va mafkuralar mavjud bo‘lib, ba’zi g‘oyalar va mafkuralar jamiyatning taraqqiyotiga yordam bergen bo‘lsa, ba’zi g‘oyalar va mafkuralar g‘oyaviy maqsadlar tufayli har xil salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirgan. Ana shu g‘oyaviy, mafkuraviy maqsad va muddaoning, g‘oya bilan g‘oyaning, fikr bilan fikrning, jaholat va ma’rifatning

fargini bilish uchun milliy g‘oyani, uning tarixi va nazariyasini o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozimdir. Jamiyat hayotida shaxs, inson, ijtimoiy guruh, qatlam, xalq, millatlarning, maqsadi, orzu intilishlari, qarashlari bir-biridan farq qiladi. Lekin milliy g‘oya turli ijtimoiy guruh, qatlam, xalq, millatlarni yagona maqsad atrofida uyushtiradi, birlashtiradi, harakat dasturi bo‘ladi, ularni ma’lum maqsadga yo‘naltiradi. Jamiyat hayotida g‘oya va mafkuralarga ijobjiy va salbiy maqsadlarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganiga ko‘ra buniyodkor va vayronkor g‘oyalar va mafkuralar deb baho beriladi”.<sup>[1]</sup> Ko‘pgina mamlakatlarda milliy g‘oya tarix saboqlari, fuqarolik tarbiyasi, vatanparvarlik ramzları kabi turli vositalar orqali ta’lim tizimiga kiritilgan. Bolalarga o‘z xalqining tarixi, madaniy merosi va qadriyatlari haqida ma’lumot beriladi. Bu yoshlikdan g‘urur va millatga daxldorlik tuyg‘ularini tarbiyalashga yordam beradi. Ta’lim fuqarolar o‘rtasida milliy o‘zlik va g‘ururni singdirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim muassasalari o‘quv materiallari, darsliklar va pedagogik yondashuvlar orqali mamlakat tarixi, madaniy merosi va jamiyat qadriyatlari haqida bilim berishlari mumkin. Ushbu elementlarni ta’lim tizimiga integratsiyalash orqali o‘quvchilar millat bilan aloqalarini mustahkamlaydigan izchil hikoyaga duchor bo‘ladilar.

Oila tarbiyasining ta’sirini ham bu nuqtai nazaridan inkor etib bo‘lmaydi. Ota-onalar ko‘pincha ertaklar, milliy bayramlarni nishonlash, madaniy an’analarni o‘tkazish orqali farzandlarida milliy g‘urur va o‘zlikni singdirishda katta rol o‘ynaydi. Milliy birdamlikni mustahkamlash imkoniyatlariga qaramay, ta’lim milliy g‘oyani samarali harakatga keltirishda ham muammolarga duch kelmoqda. Ko‘p madaniyatli jamiyatlarda yoki tarixiy ziddiyatlarga duchor bo‘lgan jamiyatlarda o‘qituvchilar murakkab hikoyalar va istiqbollar bo‘yicha harakat qilishlari kerak. Turli xil madaniy kelib chiqishlarni tan oladigan va bo‘linadigan emas, balki birlashtiruvchi umumiyligi qadriyatlarni ta’kidlaydigan tarixning inklyuziv tasvirini taqdim etish juda muhimdir. Bundan tashqari, globallashuv va raqamli media kabi tashqi ta’sirlar milliy ongni shakllantirishda an’anaviy ta’lim yondashuvlariga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, o‘qituvchilar o‘zlarining strategiyalarini ushbu rivojlanayotgan dinamika sharoitida kuchli milliy o‘ziga xoslikni saqlash muhimligini samarali etkazish uchun moslashtirishlari kerak.

Turli jamiyatlarda inklyuzivlik va bag’rikenglikni targ‘ib qilish vositasi sifatida ta’limdan qanday foydalanish mumkinligini ko‘rib chiqish muhimdir. Ta’lim o‘quv dasturlarini ishlab chiqish usuli milliy o‘ziga xoslikni targ‘ib qilgan holda, millat ichidagi xilma-xillikni aks ettirishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning milliy g‘oya haqidagi tushunchasini shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni beqiyos. Yoshligidanoq o‘z yurtiga daxldorlik, g‘urur va qadrlash tuyg‘ularini tarbiyalash orqali ta’lim milliy ongi shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Biroq, bu jarayon inklyuziv bo‘lishini ta’minalash va mamlakat ichidagi turli jamoalar o‘rtasida tushunishni ta’minalash juda muhimdir. milliy g‘oyani jamiyatda harakatsizlantirishda ta’lim ajralmas rol o‘ynaydi. Ta’lim shaxslarni o‘z millatining tarixi, madaniyati va qadriyatlari haqida tushunchaga ega bo‘lish orqali fuqarolarda tegishlilik va sadoqat tuyg‘usini rivojlantiradi. Biroq, ta’limning xalqlar ichida birlashtiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilishini ta’minalash uchun o‘qituvchilar turli nuqtai nazarlar va tashqi ta’sirlardan kelib chiqadigan murakkabliklarni bartaraf etishlari shart.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O.M.G‘aybullayev “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” Toshkent–2019 8-bet
2. A.Azizzxo‘jayev. Milliy istiqlol g‘oyasi va targ‘ibot texnologiyasi. “Jamiyat va boshqaruv”, 2000 yil
3. **E.Umarov, M.Abdullayev “Ma’naviyat asoslari” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi TOSHKENT - 2005**
4. Nazarov Q.N. “Qadriyatlар falsafasi” Toshkent UFMJ 2004
5. **Muhammadjon Imomazarov “Milliy ma’naviyat bosqichlari” Toshkent 2010**
6. **O.Bozorov “Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi”. T.: “Ma“naviyat” 2018**
7. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov S.A.A’zamxo‘jayeva “Ma’naviyat asoslari” Toshkent 2016
8. <http://www.my.gov.uz>.
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
10. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)



## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGINING INNOVATSION FAOLIYATI TUZILISHI**

**Egamberdiyeva Durdona**

*Namangan davlat pedagogika inistituti .*

*Ta’lim tarbiya nazaryasi va metodikasi(maktabgacha ta’lim) 1-kurs magistranti*  
[karirovadurdona75@gmail.com](mailto:karimovadurdona75@gmail.com)

**Annotatsiya.** Zamonaviy o’qituvchilarining asosiy maqsadlari o’quv faoliyatini amalga oshirishning yangi usullarini o’rganish, keng qamroqli tendentsiyalarini tushunish, qabul qilingan talablarni tan olish va talabalarning kognitiv ehtiyojlarini tushunishdan iborat. Maktab ta’limidagi innovatsiyalar tajriba va ijodiy nuqtai nazardan shakllangan o’qitish an’alarini keng tadqiq qilishni o’z ichiga oladi. “Qattiq-yadroviy” yondashuvning keng tarqalgan muammosi uslubiy amaliyotlar va shaklning o’ziga xosligini tavsiflovchi keskin ajratilgan. Binobarin, ko’p yillik amaliy tajribaga ega bo’lgan tajribali o’qituvchilar ham pedagogik muassasalarda va maktab tashkilotlarida sezilarli yangiliklarni joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ushbu maqola maktab ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo’yicha tushuncha va mulohazalarni taqdim etadi.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha ta’lim tizimi, bolalar psixologiyasi, rivojlanish, ta’lim, tarbiya, innovatsion texnologiyalar.

**Аннотация.** Основные цели современных учителей – освоить новые способы осуществления учебной деятельности, понять комплексные тенденции, признать принятые требования и понять познавательные потребности учащихся. Инновации в школьном образовании подразумевают широкое исследование экспериментальных и творческих традиций преподавания. Общей проблемой «жесткого» подхода является резкое разделение, характеризующее методологические практики, и специфика формы. Следовательно, даже опытные педагоги с многолетним практическим опытом могут столкнуться с трудностями при внедрении существенных инноваций в педагогических учреждениях и школьных

организациях. В этой статье представлены идеи и соображения по поводу использования инновационных технологий в системе школьного образования.

**Ключевые слова:** система дошкольного образования, детская психология, развитие, образование, воспитание, инновационные технологии

**Abstract.** The main goals of modern teachers are to learn new ways of carrying out educational activities, to understand comprehensive trends, to recognize accepted requirements and to understand the cognitive needs of students. Innovation in schooling involves a broad exploration of experiential and creative teaching traditions. A common problem with the "hard-core" approach is the sharp separation that characterizes methodological practices and the specificity of form. Consequently, even experienced teachers with many years of practical experience may face difficulties in introducing significant innovations in pedagogical institutions and school organizations. This article presents insights and considerations on the use of innovative technologies in the school education system.

**Key words:** preschool education system, child psychology, development, education, upbringing, innovative technologies.

## KIRISH

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligidagi ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha qilinayotgan barcha islohotlardan ko‘zlangan maqsad – barkamol insonni voyaga yetkazish, yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta’limning keyingi bo‘g‘inlari salohiyatni mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar:

“Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.”[1]

Maktabgacha ta’lim mutaxassislari, ta’lim tizimida innovatsion g’oyalarni yaratish va joriy etishning, zamonaviy bolalar bog’chasini rivojlantirishning zaruriy

shartlari haqida fikr bildiradilar. Moliyalashtirish ko'rsatkichlariga asoslangan davlat muassasalari, "Maktabgacha tarbiyachiga pul ketayotganda" innovatsion tashkiliy echimlarning kundalik tartibida kirishining, kunlik tartibga kirishining, va institutning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga olib keladi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan doimiy ravishda qadrlanadi, ular faoliyatni o'zgartirishda tezroq bo'ladilar. Tashabbus pedagogik kompozitsiya, ota-onha jamoatchiligining, bolalar bog'chasini o'quvchilar oilalari bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. [2]

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Zamonaviy ta'limga xos muhim sifatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlangan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan.[3]

Innovatsion faoliyatning umumiy jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.KanKalik, S.I.Kuzmina, V.A.Slastyonin, L.M.Fridman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlari davlat va xorijiy mamlakatlardagi pedagog faoliyatini innovatsion ravishda rivojlantirish, yangi g'oyalalar va usullarni qo'llash, ta'lim jarayonlarini yanada samarali qilish bo'yicha amaliyotlarga bag'ishlanib kelmoqda.

I.Shumpatter va N.Kondratevlar esa innovatsiya tushunchasining ilk vaukan nazariyotchilari hisoblanadilar. K.Angelovskiy, V.A.Slastyonin va V.I.Slobotchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki kerak. Ammo, bu pedagogik texnologiyalarning o'quvchilar o'quv jarayonida qo'llanilishini talab etadi va ular uchun bir nechta qat'iy talablarni o'z ichiga oladi:

Kontseptualizatsiya: O'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.

Tizimga mos texnologiyalar: Texnologiyalar tizimga xos bo'lgan belgilar bilan barcha qoidalarni o'z ichiga olishi kerak, ular o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Ishlov berish: Pedagogik jamoaning maqsadlarini aniqlash, o'quv jarayonini rejalashtirish va ish jarayonida muayyan lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak.

Reprodiksya: O'qituvchi shaxsiy nazaridan qat'i nazar, texnologiyani teng darajada samarali qo'llay olishi kerak.

Maktabgacha yosh: Bu bolaning dunyoni faol o'rganadigan davr. 5-6 yoshdagi bola har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan, turli narsalarni yig'ish, o'rganish va ob'ektning xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. O'quvchilar o'zlarini ilgari motor va vegetativ reaktsiyalarga qo'llashadi, ammo hissiyotlarning tashqi ifodalari cheklangan bo'ladi. O'quvchilar bugungi ishlarni xursand qilishadi va kelajakdagi xavotir, xofiya va qo'rqlarni ta'sirli qilib kelishi mumkin. Ota-onalar uchun, bolaga ijobiy ma'lumotlar kiritish, unga qo'rquv, xavotir va haqorat keltirmasliklari kerak.[4]

Bolalar 6-7 yoshga yetganda, ular o'zini kelajakda namoyon qilish uchun hozirgi paytda amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, bu bosqich bolaning hayoti yuz foizdan ortiqini tashkil etadi, chunki shu yoshlar o'rtasida bolaning o'z olamidan hayotga o'tish jarayonidagi informatsiyani olib boradi. Bu jihatdan, bu bosqichda bolaga podshohdek munosabat kiritish kerak, chunki bu yoshdagi bolalar uchun psixologik tarazli voqealar muhimdir.

Maktabgacha ta'lim, tarbiyalash jarayonining boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'liqni saqlash va rivojlanishini ta'minlaydi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan

maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi bolalarni mактабда о'qishga tayyorlash, sog'liqni saqlash, rivojlanish, mustaqil shaxs bo'lish, qobiliyatlarini rivojlantirish va o'qishga, tizimli ta'limga bo'lган ishtiyoyini tarbiyalashdir.[5]

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayot va sog'ligini saqlash uchun tashkil etilgan tartib va qoidalarga amal qilish, bolalar olib kelish va olib ketish qoidalari, xavfsizlikni ta'minlashga oid talablar, yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lган talablar "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayot va sog'ligini saqlashni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasidagi turli yo'nalishdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi va 2 yoshdan 7 yoshgacha bolalarni tarbiyalaydi.[6]

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tarbiyalash va o'qitish jarayonini tashkil qilish, parvarishlash, sog'lomlashtirish, nazorat qilish va mustaqil shaxs bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan, shuningdek, maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish tartibi, moliya va mablag'lar, o'quv-ta'lim va sog'lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va boshqaruvi haqida to'liq ma'lumotlar "Maxsus davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom"da ko'rsatilgan. Bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bu vazifalarning ichiga kiradi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati uchun sharoitlar yaratilmaganligi tufayli, ularning faoliyati tanqidiy nazar ostida olinmoqda.[7]

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yaqin o'tkan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi, maktabgacha ta'limda to'g'ridan-to'g'ri o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llanilmoqda. O'qituvchilar, kompyuterlar savodxonligini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, o'quvchilar uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin va bu faqat taqdimotlar va o'qitish roliklarini namoyish etish bilan

cheklanmaydi. Mahalliy rivojlanayotgan dasturlarning ulkan tanlov sharoitida ota-onalar yoshga to’liq javob beradigan narsalarni tanlash juda qiyin va ta’lim ehtiyojlari ta’milanadi. Vakolatli fikrni olish bu masala faoliyat uchun maqbul sharoitlarni yaratishga imkon beradi, yoshni rivojlantirish uchun zaruriy narsalarni yaratadilar, ota-onalarning nazarida o’qituvchining nufuzini oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <http://ma'rifat.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 30.09.2020
2. V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost'» - M. 1997
3. <http://arxiv.uz> referatlar Tarbiyachining innovatsion faoliyati 2019 yil
4. Ziyamuhamedov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y
5. "Kitobim-oftobim" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 2008 yil.y
6. Azizzo'jayeva N. N. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.y
7. <http://www.ibe.unesco.org/en/glossary-curriculum-terminology/p/pre-primaryeducation-or-preschool-education>

### **STEAM LOYIHASI ASOSIDA O'QUVCHILARNI QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

***Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna***

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998941521147*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada STEAM loyihasi, o'quvchilardagi qobiliyatni rivojlantirishda loyihaning ahamiyatini bilib olish mumkin.

**Аннотация:** В этой статье вы узнаете о проекте STEAM, о важности проекта для развития способностей учащихся.

**Abstract:** In this article, you can find out the importance of the STEAM project, the project in the development of abilities in readers.

**Kalit so’zlar:** STEAM loyihasi, intellektual qobiliyat, ijodkorlik, fikr, xotira, tasavvur, tasviriy san’at yo‘nalishi.

**Ключевые слова:** Проект STEAM, направление интеллектуальных способностей, творчества, мышления, памяти, воображения, изобразительного искусства.

**Key words:** STEAM project, intellectual ability, creativity, thought, memory, imagination, visual arts direction.

“Yoshlarimizni doimo yangicha fikrlash, o’ylash va yashashga o’rgatishimiz kerak!”

**Shavkat Mirziyoyev**

Yangilangan Konstitutsiyamizda yoshlarga oid alohida normalar bilan to’ldirildi. Ya’ni davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, yurt bilan hamda xalqning boy madaniy va ma’naviy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo’lgan mehr-muhabbat tuyg’usini shakllantirish to‘g’risida g‘amxo‘rlik qiladi, degan norma kiritildi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV-bob, 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag’batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog’lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo’lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.”

Bolalikda ma’lum bo’lganidek, bolaning hayollari juda muhim rol o’ynaydi. Ammo qancha odam bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kerakligini o’ylaydi. Afsuski, ko’pchilik kattalar bolaning hayollarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor bermaydi, bu esa kelajakda bolalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Ijodkorlik har bir inson hayotida juda muhim rol o’ynaydi. Tasavvur va

fantaziya har ikki munosabatlarda ham, ishda ham odamlarga yordam beradi, lekin eng muhimi, ijodiy insonlar har qanday biznesda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan o’zligini namoyon eta oladilar. Shunday qilib, agar bola tasavvurning yetishmasligidan aziyat chekmasa ham, ota-onalar ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor berishlari kerak.

Umumiy qobiliyatlar deganda insonning intellektual qobiliyatlari tushuniladi. Aql-idrok - bu insonning aqliy faoliyatda muvaffaqiyati uchun mas’ul bo’lgan qibiliyatlar. Quyidagi bilim qobiliyatları aqlning umumiy darajasiga bog’liq:

- xotira,
- diqqat,
- fikrlash qobiliyati (taqqoslash, tahlil qilish, asosiyni ikkinchi darajadan farqlash qobiliyati),
- tasavvur,
- vakillik (masalan, chizilgan tekis diagrammada uch o’lchovli raqamni tasvirlash qobiliyati),
- nutqni yaxshi bilish.

Barcha odamlar intellektual qobiliyatlarga ega, ammo ularning rivojlanish darajasi pastdan balandgacha o’zgarib turadi. Aksariyat odamlar ko’proq aniq intellektual qobiliyatlarga ega (masalan, ba’zi odamlar o’zlarini yaxshi ifoda eta oladilar, ular yaxshi xotiraga ega), boshqalari boshqalarga ega (masalan, mavhum-mantiqiy fikrlash, buning natijasida inson matematik muammolarni tez va to’g’ri hal qiladi).


Agar intellektual qobiliyatlar umuman insonning hayotdagi va ayniqsa, aqliy mehnat sohasidagi muvaffaqiyati uchun javobgar bo’lsa, u holda maxsus qobiliyatlar insonning aniq faoliyatdagi muvaffaqiyati uchun javobgardir.

Masalan, maxsus qobiliyatlarga quyidagilar kiradi.

- sport qobiliyati,
- musiqiy (ritm hissi, mukammal balandlik),
- badiiy (tasvirdagi tasvirni tasvirlash va tasvirlash qobiliyati),
- matematik,
- texnik
- va boshqalar.

Har bir inson bir nechta faoliyat turlarini bajarish qobiliyatiga ega. Ammo eng aniq, odatda, bir yoki ikkita sohadagi qobiliyatdir.

Mana shu qobiliyatlarni yanada rivojlantirish uchun xalqaro tajribalar asosida sinovdan o’tgan va bugungi kunda eng ko‘p qo’llanilib kelayotgan STEAM loyihasini tadbiq etish mumkin.



## STEAM

Ushbu qisqartmani to‘liq nomi quyidagicha: **STEAM** bu — S — science, T — technology, E — engineering, A — art va M — math. Ingliz tilida bu shunday bo’ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo’nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo’lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda **STEAM** tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. **STEAM** ta’limi yo’nalishi va amaliy yondashuvni qo’llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

Tasviriy san`atga xos qobiliyatlar psixologiyasida tasviriy qobiliyatning psixologik tahlili berilgan. Tasviriy faoliyatda idrokning xususiyatlarini o’rganish jarayonida V.I.Kirnenko tasviriy san`atda qobiliyat hodisalarini yaxlit va sintetik ko`rinishida idrok etishda namoyon bo`lib, u badiiy talantning asosiy mazmuni haqidagi xulosaga keladi.

Maktablarda o‘quvchilarni qiziqish va intilishlarni hisobga olib, ulardagi qobiliyatlarni aniqlash lozim. Sababi o‘quvchida aynan bir fandan iqtidorli bo‘lishi yoki bo‘lmasligi ham uni qiziqtiradigan sohalar jamlanmasidan undagi

intellektuallikni yuzaga chiqarishda aks etadi. Qobiliyatsiz degan tushuncha mavjud emas aslida. Qobiliyat yashirin yoki rivojlantirilmagan bo’lishi mumkin.

Qobiliyatni rivojlantirishda **STEAM** loyihasini ahamiyati shundaki, bu loyiha tabiiy fanlar yig‘indisi bo‘lib, unda o‘quvchilar bir jamoa bo‘lib ishlay olishi, bir-birini ishini to‘ldirilishidadir. Jamoadagi o‘quvchilardan har biri ma’lum soha bo‘yicha qobiliyatga egadir. Masalan, bir o‘quvchi texnologiya bo‘yicha qobiliyatli bo‘lsa, boshqasi matematik hisob- kitob bo‘yicha tezkor bo‘lishi, yana biri esa san’at ya’ni tasviriy san’at sohasida tasavvur va fantaziyaga boy bo‘lishi mumkin. Buning natijasida jamoaviy ishlash jarayonida har bir o‘quvchining qay darajadagi va yo‘nalish bo‘yicha iqtidorini rivojlantirish uchun asos bo‘lib ham xizmat qildi.

STEAM ta’lim muhitida o‘quvchilar nazariy bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan amalda foydalanishni o‘rganadilar. Ya’ni fan bo‘yicha olgan bilimlarni amalda qo’llay olishlari uchun zamin yaratadi. Shuning uchun, ular o’sib ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda va murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda ushbu loyihaning asosiy maqsadi amaliy qobiliyatga e’tibor berib, talabalar o’zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Unda ko’nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi, ya’ni bu butun ta’lim tizimi nimaga intilishini bildiradi. O‘quvchilarni qobiliyatlarini rivojlantirishda bugungi kunda eng samarali usullardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari loyihadan ko‘zlangan maqsad fanlarni o’zlashtirishda nazariy bilimlarni amalda qo’llashda ko’nikmaga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Dars mashg‘ulotlarini qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. O‘quvchilardagi qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Hikmatli so‘zлari.
2. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.

3. <https://yandex.ru/search/?clid=2485192-19&win=629&from=chromesearch&text=STEAM+loyihasi+nima&lr=21314>
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
5. Internet ma'lumotlari

## **TEMURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIKNING RIVOJLANISHI**

***Yo'ldashev Safoxon A'loxon o'g'li***

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi. Telefon: +998939854995. [safoxonyuldashev@gmail.com](mailto:safoxonyuldashev@gmail.com)*

**Annotatsiya.** O'zbekiston dunyoga mashhur diyor bo'lib, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan zamin hisoblanadi, Shuningdek, bu hududda insoniyat madaniyatining durdonalari hisoblangan ko'plab betakror, mahobatli tarixiy me'moriy obidalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi hududida me'morchilik va binokorlik qadim zamonalardan — miloddan avvalgi III minginchi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, X minginchi yillardan boshlan gan1. Shundan so'ng bu tarixiy diyor asrlar mobaynida turli me'morchilik san'ati obidalari maskaniga aylandi. Jang-u jadallar vaqtida anchasi barbod bo'ldi. XIV asrdan me'morchilik yana rivojana boshlagan. Arxitekturada yangi uslub vujudga kelgan (masalan, Bayonqulixon maqbarasi). O'sha davrning me'morchilik namunalari Shohi Zinda kompleksida saqlangan. Bu davrda me'morchilik rivojlanishiga Amir Temur va uning avlodlari o'zlarining ulk an beqiyos hissalarini qo'shgan. Amir Temur va temuriylar madaniyati nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi barchamizga ma'lum. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi va bu davr me'morchiligi, me'morchilik tarixida ma'lum darajada tahlil etilgan. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «Qudratimizni ko'rmoq istasang -biz qurgan binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmular keng ko'lam kasb etadi.

**Kalit so’zlar:** me’morchilik, qurilish, bino, madaniyat, obida, siyosat, hukmdor, ma’rifat

**Аннотация.** Узбекистан – всемирно известная страна, край, внесший большой вклад в развитие мировой науки и культуры, а также в этом регионе множество уникальных, великолепных исторических архитектурных памятников, считающихся шедеврами человеческой культуры. Архитектура и строительство на территории Республики Узбекистан восходит к глубокой древности - 3 тысячелетию до н.э., по некоторым данным, 10 тысячелетию до н.э. После этого эта историческая земля на протяжении столетий стала местом расположения различных памятников архитектурного искусства. В ходе боев большинство из них развалилось. С 14 века снова начала развиваться архитектура. Возник новый стиль в архитектуре (например, мавзолей Байонкулихон). Архитектурные образцы того периода сохранились в комплексе Шахи-Зинда. В этот период Амир Темур и его потомки внесли свой большой и ни с чем не сравнимый вклад в развитие архитектуры. Все мы знаем, что Амир Темур и культура Тимуридов внесли большой вклад в развитие не только Узбекистана, но и мировой культуры . Мощь тимуридского государства особенно проявилась в архитектуре, и архитектура этого периода в той или иной мере анализируется в истории зодчества. «Если вы хотите увидеть нашу силу, посмотрите на здания, которые мы построили!» надпись также означала политическую функцию государства Тимура. В период Тимура города Мовароуннахра застраивались в больших масштабах с укреплениями, бульварами и архитектурными комплексами.

**Ключевые слова:** архитектура, строительство, здание, культура, памятник, политика, правитель, просвещение.

**Abstract.** *Uzbekistan is a world-famous country, a land that has made a great contribution to the development of world science and culture. Also, in this region there are many unique, magnificent historical architectural monuments, which are considered masterpieces of human culture. Architecture and construction in the territory of the Republic of Uzbekistan dates back to ancient times - the 3rd millennium BC, according to some data, the 10th millennium BC. After that, this*

historical land became a place of various architectural art monuments over the centuries. During the fighting, most of them fell apart. From the 14th century, architecture began to develop again. A new style has emerged in architecture (for example, the Bayonkulikhon mausoleum). Architectural examples of that period are preserved in the Shahi Zinda complex. During this period, Amir Temur and his descendants made their great and incomparable contribution to the development of architecture. We all know that Amir Temur and the culture of the Timurids made a great contribution to the development of not only Uzbekistan, but also the world culture. The power of the Timurid state was especially manifested in architecture, and the architecture of this period has been analyzed to some extent in the history of architecture. "If you want to see our power, look at the buildings we built!" the inscription also meant the political function of Timur's state. During the period of Timur, Mavarounnahr cities were built with fortifications, boulevards, and architectural complexes on a large scale.

**Keywords:** architecture, construction, building, culture, monument, politics, ruler, enlightenment

## KIRISH

Dunyo tarixidan ma'lumki ilm fan taraqqiyoti katta sarmoya va davlat homiyligini talab etadi. Buni ma'rifatli hukmdor Amir Temur teran anglagani bois ulkan sultanatning barcha hududlarida ahli ilm, ahli ijodga homiylikni davlat siyosati darajasiga chiqardi. Zamonaviy terminlar bilan aytganda, ilm fanning turli sohalariga, taniqli olimu ulamolarga "davlat grantlari" ajratilib, ularning ilmiy faoliyati davlat g'aznasidan moliyalashtirildi. Bu siyosat natijasida Islom dunyosining intellektual salohiyati Turon poytaxti Samarqandga va boshqa shaharlarga oqib kela boshladi. Oimlar jamiyatning nufuzli ijtimoiy qatlamiciga aylandi. Ularning yashashi va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratildi.

Amir Temurning ilm fanga homiylik siyosati uning vorislari, xususan, Mirzo Ulug'bek tomonidan ettirildi. Mirzo Ulug'bek garchi uzoq Sultoniyada tavallud topgan bo'lsada, sultanat poytaxti Samarqandda tarbiya topdi, ilk savodini bobosi Amir Temurning sa'y harakatlari bilan butun islom dunyosining nufuzli ilm fan va

ma’rifat markaziga aylangan shu azim shaharda chiqardi. Mirzo Ulug’bek (1409–1449) islam dunyosining yirik ta’lim dargohlariga aylangan madrasalar barpo etish va bu madrasalarda dars berishga o‘z davrining yetuk olimu ulamolarini jalg yetishga katta e’tibor qaratdi. Bu jihatdan Mirzo Ulug’bek temuriy hukmdorlar ichida alohida o‘rin tutadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi bo‘yicha O‘zbekistonda bir muncha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Aksariyat tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta’kidlashicha, boshqa tarixiy davrni o‘rganishda adabiyotlar taqchilligi qiyNASA, bu davr tadqiqotchisiga esa adabiyotlarning ko‘pligi va turli munosabat qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu jihat ham bibliografik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Keyingi yillarda Amir Temur shaxsi va davriga oid birmuncha manbalar tarjimasi, ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar yaratildiki, ularni aniqlash, tizimlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida bajarilgan “Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob” (O‘ljayeva Sh. XX asrning 50–60 yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi (sho‘ro adabiyotlari misolida).: Tarix fan. nom. ... diss. Toshkent: O‘zR FA Tarix instituti, 1999; Абиджанова Д. Мавераннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60 – 90-х годов XX в.: Дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент: Институт истории АН РУз, 2000. 160 с.; Usmonov B. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi (XVII – XX asrlar).: Tarix fan. nom. ... diss. Toshkent: O‘zR FA ShI, 2004. 165-b.; Rahmatullaeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi (1991–2009).: Tarix fan. nom. ... diss. Toshkent: O‘zR FA Tarix instituti, 2010. – 175-b.) mavzuyidagi maqsadli amaliy grant doirasida bajarilgan loyihada O‘zbekiston va jahon miqyosida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab nashr qilingan turli adabiyotlar jamlanib izohlar bilan ta’minlandi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Mirzo Ulug’bek hukmronligi davrida Samarqandda Rasadxona, Buxoroda, G‘ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurildi. Bu davrda birgina Samarqand shahrida 100 dan oshiq olimlar fanning turli sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan.

Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o‘z zamonasining “Aflatuni” deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy, mavlono Ali Qushchi va boshqa taniqli zotlar bor edi. 1410-yilda Samarqandga kelgan va 1420-yilda ish boshlagan Ulug‘bek madrasasida mudarrislik qilgan Qozizoda Rumiy (1360-yil Bursa - 1437-yil Samarqand)ning tashabbusi bilan keyinchalik Samarqandga G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy va boshqa taniqli olimlar taklif etilgan. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasida 60ga yaqin olimlar fanning turli sohalarida faoliyat olib borgan. Zamondoshlari tomonidan “Aflatuni zamon” deya ulug‘langan Qozizoda Rumiy madrasada matematika va astronomiyadan dars berib, G‘iyosiddin Jamshidning vafotidan keyin rasadxona mudirligi vazifasi bajargan. Qozizoda Rumiy Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasi qurilishiga ham rahbarlik qilgan, Ulug‘bekning «Ziji Kurogoniy» asarida yulduzlar jadvalini tuzishda qatnashgan.

Shu tariqa, olimu ulamolar Amir Temur va temuriylar sultanatida katta hurmatga va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylangan ediki, bu Movarounnahr va Xurosonda Ikkinci Islom uyg‘onish davrini yuzaga chiqardi. Samarqand, Kesh, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarning ma’rifat va ilm fan markazlariga aylanishiga olib keldi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab xalqaro savdo va madaniy aloqalar tiklandi, ilm fanning turli sohalaridagi hamkorlik yo‘lga qo‘yildi, qo‘shni va uzoq mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari o‘rnatildi. Bu o‘zgarishlar zamirida Amir Temur asos solgan va ko‘plab temuriy hukmdorlar davom ettirgan ilm fanga, madaniyat va san’atga, maorifga e’tibor, ularga homiylikka yo‘naltirilgan davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bu davrda diniy inshootlar, hukmdor saroylari, aslzodalarning qarorgohlari ko‘plab qurildi. Temur Hindiston yurishidan so‘ng (1399 y). Samarqandda jome masjidi qurdiradi. Uning ro‘parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi. Ulug‘bek Buxoro Jome masjidini kengaytirib, qayta qurish ishlarini boshlagan, biroq u XVI asrda qurib bitkazdi.

Temur davrida Saroy Mulk xonim Go‘ri Amir majmuasida madrasalar qurilgan. Ulug‘bek Samarqand, Buxoro va g‘ijduvonda madrasalar bunyod etirdi. XV asrda madrasa me’morchiligi o‘zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo‘ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo‘yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o‘zaro

nisbatlari va bezaklariga ko‘ra har biri o‘z qiyofasiga ega edi. Temuriylarning ikki san’at durdonasi-Samarqanddagi Ulug‘bek va Hirotdagi Gavharshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo‘yicha qurilganiga qaramay, bir-biridan farq qiladi.

Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari va ruhoniylar qabrini o‘z ichiga oluvchi to‘sinq-xazira, avliyolar qadamjolari, dahma alohida guruhn tashkil qiladi. Samarqandda Temur davrida shayx Burxoniddin Sag‘orjiy xilxonasi – Ruhobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi -Go‘ri Amir. Shuningdek, Shohizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi. Ulug‘bek davrida ijodiy izlanishlar samarasи dahmalarning me’moriy ko‘rinishiga ham ta’sir o’tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha qozizoda Rumiy maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli noma’lum) maqbara quriladi. Ulug‘bek Buxoro, g‘ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va bezaklar bo‘yicha Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontohur majmuasi, bo‘lib, qaldirg‘ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub.

Temur davrida ulkan inshoot-Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara musulmon Sharqining me’moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir. Temur Buxoroda Chashmai Ayub (1380y.) yodgorligini qurdiradi. Shuningdek, Temur Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «hazira»-»Dor us-Siyozat» (1389-1400) xilxonasini qurdirgan. O‘g‘li Jahongir vafot etgach Shahrisabzda maqbara (hazrati Imom) qurdirgan. Unda Xorazm me’morchiligi an’analarini ko‘rish mumkin.

Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi me’moriy san’atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo‘lib, uch qavatlidir.

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi-ma’muriy-siyosiy maqsadda bo‘lib, qal’a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi-shahar tashqarisidagi bog‘larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o’tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo‘lib, toq va ravvoqlari beqiyos bo‘lgan. Temur va Ulug‘bekning asosiy

qarorgohi Samarqanddagi Ko’ksaroy va Bo’stonsaroy deyladi. Shuningdek, shahar tashqarisida Temur o’n ikkita bog‘ va saroylar bunyod ettirgan.

Ulug‘bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandı, «Masjidi Muqatta», 210 gumbazli Ko‘kaldosh jom‘e masjidi qad ko‘tardi. Shohizindada ayrim maqbaralar, Shahrisabzda Ko‘kgumbaz masjidi, «Chilustun» va «Chinnixona» saroylari uning davrida qurildi.

XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xo‘ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari bunyod qilindi.

### **XULOSA**

Amir Temur va Ulug‘bek davrida tasviriy san’at turli yo’nalish bo‘yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig‘inmaslik tasviriy san’atda naqshning ravnaqiga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to‘xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san’at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Xattotlik- qo‘lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniatur- tasviriy san’atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to‘xtab qoldi. Samarqanddagi Temuriylarning saroy-qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo‘lgan. Temur, o‘g‘illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan Ulug‘bek devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, uslubiy jihatdan miniatur- janriga yaqin bo‘lgan. Bu davrda qayta ko‘chirilgan Abdurahmon as-So‘fiyning (X asr) falaqiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi Chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Samarqand rasadxonasida esa to‘qqiz falak ko‘rinishi, yetti gardish, yetti yulduz-yoritqich daraja, vaqt bo‘limlari, Yer yuzining yetti iqlimi tasvirlangan.

Temur darvrida qurilgan Shirinbeka opa, Bibixonim, Tuman opa obidalarida naqqoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka opa maqbarasida tasvir ko‘p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi.

Kattotlik san’ati taraqqiyotiga XV asrda an’anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor-nasta’liq noyob qo‘lyozma

asarlar ko‘chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobotchilikning ravnaqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko‘chirma- homaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo‘lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozisiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg‘unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o‘z o‘rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko‘chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko‘chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompozisiya va serjilo bo‘yoqlarning uyg‘unligi ajralib turadi.

Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so‘ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XIV asrda «Jome’ ut-tavorix», «Tarixi Rashidiy» kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlagan. Bu an’ana Temuriylar davrida ham davom ettirilib, «Zafarnoma» va «Temurnoma» asarlarida jang lavhalari tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina tasviri tushirilgan. Badiiy asarlarning ba’zilarida Muhammad payg‘ambarning (yuzi niqobda) odamlar orasida turgan holati va me’rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. "Xalq so'zi" gazetasi, aprel, 2021.
2. Kamoliddinov F. Amir Temur va Temuriylar davri adabiy muhit va tasviriy san'atning ba'zi jihatlari tarixiy manbalarda. Academic research in educational sciences, volume 2, Issue 9, 2021.
3. Davlatov O. Alisher Navoiy va Amir Temur. «O’zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2013 yil 14-son.
4. Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi. "Ijodiy parvoz" gazetasi, 4 (60)-son, aprel, 2018.

5. Frederik Bopertyui-Bressan. Amir Temur dunyo olimlari va adiblari nigohida. Xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya. Sentyabr, 2021.
6. <https://hozir.org/amir-temur-va-temuriylar-davri-madaniyati.html>

## AVLONIY VA MUSIQA SAN’ATI

### *G’ulomjonova Odina*

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ko’p qirrali faoliyatida yoshlarga ta’lim-tarbiya berish masalasi muhim ahamiyat kasb etgani to`g’risida ko`pgina qiziqarli ma’lumotlar bor. Millatimizning ilg`or kishilar qatori Avloniy Vatanning kelajagi yoshlar tarbiyasiga bog`liq ekani, ularning ma’naviy barkamolligi yangi jamiyatning madaniy darajasini belgilashini chuqur yaratib berilgan.

**Kalit so’zlar :** «Turon» truppassi, drama, o’zbek, rejissyor, aktyor, musiqa, maqola, fikr, davr, jurnal, jadid, teatr, ijodkor, gazeta, kuy, davr.

**Abstract.** This article contains a lot of interesting information about the importance of educating young people in the multifaceted activities of Abdulla Avloni. Avloni, one of the leading people of our nation, has deeply emphasized that the future of the Motherland depends on the education of young people, and that their spiritual perfection determines the cultural level of the new society.

**Keywords:** "Turon" troupe, drama, Uzbek, director, actor, music, article, opinion, era, magazine, modern, theater, creator, newspaper, tune, era.

O’rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim o`rin tutgan jadidchilik harakati, adabiyoti va san’atining yirik namoyondalaridan biri bo`lmish Abdulla Avloniy milliy teatr va musiqa san’ati ravnaqi, xalqimizni ma’naviy qashshoqlikdan qutqarish, umumxalq madaniyatini yuksaltirish yo`lida faol ish olib borgan siymolardandir.

Abdulla Avloniy (1878-1934) o’tgan asrning boshlarida uyg`onish davri arboblari singari shoir, dramaturg, aktyor, tarjimon, musiqa yig`uvchi, jurnalist, Evropa ilg`or fan-texnikasi, madaniyati tarafdori sifatida bo`y ko`rsatdi. Uning

yozma dramaturgiya va teatr san’atiga qo’shgan hissasi ho`qida talaygina ilmiy-ommabop maqola va asarlar e’lon qilingan bo’lsa-da, ammo ijodkorning musika san’atiga munosabati to`g’risida juda kam yozilgan. Holbuki, u barcha jadid ziyolilari kabi bu sohaga ham munosib ulush qo’shgan. Uning ikki jildlik «Tanlangan asarlar»iga kiritilgan she’rlari, maqolalari, pesalari shunday demoqqa asos beradi. Adib asarlari uning badiiy-estetik qarashlari nihoyatda yuksak bo’lganini, xususan, yoshlikdan musiqa san’atiga ixlos qo’yanini va bu ixlos ilk bor teatrchilik harakatiga aralasha boshlagan kezlarida avj olganini, ayniqsa, «Turon» truppasida faoliyat ko`rsatgan davrida kuchayganini ko`rsatadi.

Ma’lumki, XX asrning boshida Turkistonning katta shaharlariga turli millat teatr truppalari, xususan, tatar, arman, ozarbayjon, rus san’atkorlari ijodiy safarga kelishgan (bu o’sha davr matbuotida keng yoritilgan). Ularning ta’sirida Abdulla Avloniy o’zbek teatr san’atining poydevori bo’lgan Evropa tipidagi «Turon» truppasining (1914 yil) rahnamolaridan biriga aylandi. U teatr san’atining xalq ongiga ta’siri haqida «Teatr xususida munozara» maqolasida «Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo`q qilmak uchun, o’zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg`on oyinasidir» - deydi. Avloniy ilg`or turk va ozarbayjon, tatar dramaturgiysi bilan tanishib, eng yaxshi asarlarni, jumladan Jalil Mamadqulizodaning «O’liklar», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Jaholat» dramalarini o’zbekchaga tarjima qildi, rejissyor va aktyor sifatida truppa faoliyatida fidokorona qatnashdi. 1914-1916 yillarda Toshkent va Farg`onada, chiqib turgan gazeta va jurnallarni varaqlab ko`rsangiz, truppa faoliyati, Avloniyning rejissyorlik va aktyorlik mahorati haqida yozilgan maroqli maqolalarni ko`plab uchratasiz.

«Turon» truppasining ilk qadamlarida so`zsiz Avloniyning o`rni katta. Truppa repertuarining shakllanishida, musiqiy bezagida uning qo’li borligi yaqqol seziladi. Teatrning birinchi «qadamlaridan boshlab musiqa san’atiga katta o’rin berilgan. Truppaning matbuotda bosilgan e’lonlari bu fikrni tasdiqlaydi. Hatto e’lonlardan birida tanaffus paytlarida Sultonxon tanburchi (ushbu davrning eng nufuzli tamburchisi.) turli mashqlarni ijro etishi ma’lum qilingani kishini hayratga soladi.

Avloniy ana shu jarayonga qizg`in aralashgani sababli musiqaning inson, jamiyat va teatr san’atidagi o’rni va rolini chuqur anglab etdi. Bu xususiyat uning

Sidqiy Ruhullo (Mashhur Ozarbayjon xonadasi. Turkiston sanatkorlari bilan yaqin aloqada bo’lgan.) bilan hamkorlikda U.Hojibekovning «Layli va Majnun» operasini sahnalashtirishda ham aktyor, ham xormeyster sifatida ishtirok etishi chog`ida yanada taraqqiy etdi. Shuningdek, talaygina hofizu sozandalar bilan uchrashuvlar, suhabatlar chog`ida milliy musiqa janrlari, yo’llarini o’rgandi, ma’naviy xazinasini milliy kuy nomlari va ohanglari bilan boyitdi, Bu bilan kifoyalanmay san’at haqida tanqidiy mushohada yuritishga odatlandi. Musiqa san’atining inson tarbiyasida muhim o`rin tutishini, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda imkoniyati keng ekanligini barcha jadid ziyolilari kabi teran ilg`adi. Uning 1922-yilda «Inqilob» jurnalining birinchi sonida bosilgan «Sanoyi’ nafisa» maqolasi fikrimizni har jihatdan dalillaydi. Avloniy ommabop tarzda fikr yuritib, odamlar qadim zamonalarda "dunyo yuzida inson bolalarining sanoyi’ nafisaga qo’yan birinchi odimlar"ini, «dillaridagi ta’sir va hissiyotni to’xtata olmaganlar va erishilgandan qanoatlanmasdan tinch yotmaganlar, jim turmaganlar», «tabiatning yasagan va o’sdirgan, vujudga chiqargan jonlik va jonsiz narsalarini sinchiklab tekshirib qaray boshlaganlar»ini tushuntiradi.

«Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor,

Har varaqash tabiatni ro`zg`or»,

Ya’ni, daraxtlarning har bir yashil, bargi, xushyor (kishilarining) nazarida bu turfa olamning varaqlaridir deydi. Adib bu bilan musiqa san’atining tug`ilishida tabiatga nisbatan qilingan oddiy taqlid yotishini ta’kidlaydi.

Ma’lumki, odamlar qadim-qadimda hayot va tabiat voqe-a-hodisalarini, atrof muhitda kechayotgan o’zgarishlar hamda jarayonlarni doimo o’zlarining hayotlariga qiyoslashgan. Tabiat go`zalligini asl holicha soddadillik bilan qabul qilishgan. Avloniy ilmiy adabiyotda «taqlidchilik davri», «xalq og`zaki ijodi davri» deb atalgan paytlarni tahlil etishda asosan to`g`ri yondashadi. U taqlid davrini quyidagicha ifodalaydi: «bahor mavsumlarida chechaklarning hajrida mast bo`lib sayragan qushlarning yoqimli tovushlari hushlariga o’tirdida, onlar ham ixtiyorsiz ravishda shul qushlarga tovushlarini o’xshatmoq, go`yo qush kabi sayramoqchi bo`ldilar». SHoir bu misol bilan inson qalbida paydo bo`lgan go`zallikka, musiqaga intilish, ijod qilish, o’ziga xos ohang yaratish mayini va bu mayilni tug`diruvchi musiqa va uning uyg`otuvchisi, fasllar kelinchagi bahor ekanini uqtiradi. Davrga

ta’rif berib: «Ular ham nag`ma, ashula qila boshladilar. Mana shu davrni sanoyi’ nafisaning adabiyot davri deyilur», - deydi.

Avloniy taqlidchilikdan asta-sekin haqiqiy ijod davriga o`tishni to`g`ri ta’kidlab, «avvalgi san’atlariga qaraganda so`nggi san’atlar (avvalgidan) muhimroq va yaxshiroq bo`lib, mutaassir bo`lmoq har kimga nasib bo`lmas edi», -deydi. Binobarin, u haqiqiy san’atkorlik har kimning qo`lidan kelmasligini, buning uchun insonga chin ma’nodagi iste’dod lozimligini aytadi.

Taqliddan og`zaki ijodga, so`ng haqiqiy san’atkorlikka o`tish zamonini, ya’ni adabiyot davri haqida fikr yuritar ekan, har ikki holatda musiqaning vazifasini asosan to`g`pi belgilaydi. U «shodlik kunlarin(i) shodlik qo`sinq bilan tasvir qilsalar, g`amlik kunlarin(i) qayg`ulik ashulalari bilan izhor qilar edilar», -deydi. Ya’ni, musiqaning faqat maishiy tomonini emas, balki falsafiy jihatini ham unutmaydi.

Avloniy inson ovozi - eng birinchi musiqa asbobi ekanligini va kadimgi kishilar «go`zallaridan, mahbubalaridan, borlaridan ajralganliklarin(i) boshqa o`rtoqlariga ham ma’lum qilar edilar», deb qadim zamonlarda ishq-muhabbat, his-tuyg`ular bilan bog`liqligini aytib, lirkus musiqaning paydo bo`lish sabablarini ochadi. Shuningdek u jo`ngina bo`lsa-da, ilk musiqa cholg`u asboblarining yaratilishi haqida ham taxminlar qiladi: «Daraxtlarning shoxlariga ilinib qolgon hayvonlarning ichaklarin havoning ta’siri bilan ko`rib, shamolning ta’siri bilan «ting`ir-ting`ir» qilgan tovushi ko`ngillariga o’turdi, xush keldi. O`zlarining ashula va qo`sinqlariga jo`r-jo`ravozlik qilmoq uchun hayvon ichaklaridan «tor» yasab, musiqiy asboblarin yuzaga chiqardilar», deb musiqa san’ati o`z taraqqiyotida yangi bir bosqichiga o`tganini ta’kidlaydi. «Bu san’atlari avvallariga qaraganda eng nafis, eng muhim, eng ruhlik bir san’at bo`lib chiqdi. Lekin onlar bu san’atlarni tekshiruv va qayg`iruv orqasida chiqordilarda, bizlarga yodgor o`laroq qoldirib, o`zlari ko`zdan nihon o`ldilar» deb, musiqani oddiy taqliddan ijod va chin badiiyot hosilasi darajasiga ko`tarilishini «nafis san’at» deb, uning yaratuvchilari-bastakorlar nom-nishonsiz o`tib ketganlarini uqtirmoqda. U davrni aniq ko`rsatishdan tiyilib, o`rta asrlar nafis san’atiga ishora qilar ekan, milliy musiqa bisotimizdagi o`adimiy «Sayra bulbul, sayra chinorni shoxi sinsun, yor ayrılamani dedi, ayrılib ko`ngli tinsun» deb boshlanuvchi xalq qo`srig`ini tilga oladi. Avloniy musiqa san’atining paydo bo`lishiga oid qisqagina maqolasida ko`pgina qiziqarli kuzatuvlarni keltiradi

va asosan to`g`ri xulosalar chiqaradi. Musiqa ilk bor tabiatga oddiy taqliddan boshlanganligini, musiqa san`atining asosiy janrlarini, ya`ni mavsumiy, maishiy va lirik qo`shiqlarning kelib chiqishini eslatib qo`yadi. Musiqaga yurakdan berilgani bois yozgan «Musiqiy» sarlavhali she`rida musiqaning ta`sir kuch-qudratini bat afsil ifodalaydi.

Nag`ma sozingdir madori jism, qudsiy so`zlarin,  
Ruxbaxshodur sado qilganda, hijron ko`zlarin.

Avloniy musiqani o`lik vujudga jon kirituvchi go`zal qiyofada tasvirlaydi. Musiqa sadosi insonning ruhini bo`ysundirib o`ziga muxlis qiladi, ming jonlarni o`ynatadi. Kimki umrida bir marotaba musiqa sadosini eshitsa, unga abadiy shaydo bo`lib qoladi. San`at inson qalbiga shodlik bag`ishlab, o`ziga asir qilib oladi. Musiqa bulog`idan minglab jonlar ta`sirlangan, maftun bo`lgan, «murda dillar», ya`ni o`lik dillar ham uning ta`siridan darmon oladi va tirladi, harakatga keladi. San`atni anglagan, undan bahramand insonning ruxiyati pok bo`lib, yomonlik tomoniga o`zgarmaydi, buzilmaydi deb hisoblaydi Avloniy. Shu bilan shoир musiqa inson ruhini, ma`naviyatini poklaydigan, tarbiyalaydigan kuchga egaligini ta`kidlab, qadimgi yunon faylasuflarining «poklanish» («katarsis») tushunchasiga hamfikrlik bildiradi.

So`ylagan kimdur dahoningdan azal asrorini,  
Nag`mang ochgay elni afkorik tuzar jontorini.

Ya`ni musiqa ilohiyat bilan bevosita bog`liq bo`lgan mo`jiza. Insonga yaratguchining sirini so`zlagan kim? Albatta, nag`ma. Chunki nag`ma – xalqning tafakkurini ochadi, jonlarning-jamiyatning bemor vujudini davolaydi, jon tomirini tuzatadi. Sababi, nag`masoz (sozanda, bastakor) qudsiy-ilohiy poklik so`zini aytib, inson va jamiyat vujudiga quvvat beradi, chunki, Hijron so`zlari (shoirning taxalluslaridan biri) xasta xalq ruhini davolovchi ohang-sado-kuydir.

Avloniy she`rda musiqaning ilohiyona ta`sir quvvatini ta`riflash bilan kifoyalanmay turli musiqiy atamalarni keltiradi: «some» - tinglovchi, eshituvchi manosini bildiradi; «tarannum» - ohang, kuy; «takallum» - qo`shiq, ashula; «nag`masoz» - kuy yozuvchi, bastakor. Adib musiqani nafaqat san`at, balki falsafa, din, tibbiyot va umuman koinot bilan bog`liq bo`lgan yaxlit bir hodisa sifatida o`zaro mutanosiblikda idrok etadi. Uning musiqa inson ruhiga, ma`naviyatiga

qanchalik kuchli ta’sir ko`rsatishi, ta’lim-tarbiyada muhim rol o`ynashi haqidagi fikr va tushunchalari barcha jadid ziyoililariga xos bo`lib, qadimiy Sharq musiqashunoslarining fikrlariga monand keladi.

Abdulla Avloniyning ko`p qirrali faoliyatida yoshlarga ta’lim-tarbiya berish masalasi muhim ahamiyat kasb etgani to`g`risida ko`pgina qiziqarli ma’lumotlar bor. Millatimizning ilg`or kishilari qatori Avloniy Vatanning kelajagi yoshlar tarbiyasiga bog`liq ekanini, ularning ma’naviy barkamolligi yangi jamiyatning madaniy darajasini belgilashini chuqur anglagan. 1904-yilda u Mirobod mahallasida ko`pgina ma’rifatparvar ziyoililar qatori yangi usuldagи mактаб ochadi. 1916 -yildan boshlab o`z maktabida musiqa darslariga o`rin beradi. Avloniy maktab programmasiga kiritgan «..musiqa darslari o`sha zamonning oxirgi kashfiyoti gramofonsiz o`tmagan» deb eslaydi maktabning sobiq o`quvchisi Yu.Tohiri. O`sha zamon Turkiston bolalari qanday kuy va qo`shiqlarni tinglaganlari va bunday «ko`rgazmali qurol» ularga qanchalik katta ta’sir ko`rsatganligini tasavvur qilish mumkin.

Avloniy musiqa san’atini qanchalik chuqur idrok etganligini o`zining ko`pgina she’rlarini ommabop xalq qo`shiqlariga, maqom yo’llaridagi kuylarga, o`z davrida mashhur bo`lgan ozarbayjon operalaridagi ariyalarning kuylariga moslab yozganligidan bilishimiz mumkin. Masalan uning «Maktabga targ`ib» she’ri «Latifa» kuyi ohangida yozilgan. U ijrochilar qiyalmasligi uchun «Milliy kuylarimizdan biri «Og`ajon latifa, guliston latifa», «Shoxida o`ynang, bargida sayrang, bog` latifa»dur, deb matndan parcha keltiradi va «teatr va adabiyot kechalarinda sahnada yozilmish milliy she’rlardan bir bayt, bir yoki ikki kishi tarafidan o`qilub, so`ngidan ko`b kishilar tarafidan hur, sozlar ila jo`r qilub ikkinchi bayt o`qilur», deb ogohlantiradi hamda naqorat lozimligini uqtiradi.

Shuningdek, «Saodatshundadir» she’ri milliy kuylarimizdan «+oshg`archa», «Anorxon yorima» kuyiga solinub yozilganini eslatib o’tadi. Xullas shoir talaygina she’rlarni tayyor kuylarga solib yozgani haqida ma’lumotlar berib, uning ijro yo’llarini tushuntiradi: «Milliy nag`ma» she’ri «Shoh Abbos» operasindagi sharqiy kuylardan biri - «Tasnif»ga, «Hofizdan» - «Bayoti sheroz» kuyiga, «Jahldan nafrat» - «Dugoh» kuyiga, «Oh, bag`ri qonim» - "Rost" kuyiga, «Munojot» - milliy kuylardan "Segoh" kuyiga, «Oqma ko`z yoshim» - «Usqudor» kuyiga, «Ilma targ`ib» - «Layli va

Majnun» operasindagi kuylardan sharqiy «Ey, bekasu bechora» kuyiga solinub yozildi». «To`y haqinda» she’riga «Reza» kuyi asos qilib olingan bo`lsa, boshqalari xalq kuylaridan «Yor-yor»ga solingan.

Ma’lumki, O`zbekistonning turli viloyatlarida xalqimizning marosim qo’shiqlari orasida «Yor-yor»lar juda keng tarqalgan bo`lib, o`ziga xos usulda ijro etiladi. Aslida to`y marosimi bilan bog`lig` bo`lgan, «Yor-yor» qo’shiqlarining kuyi lirik ohangga ega bo`lib, xalqning kundalik turmushidagi har xil dolzarb mavzularni qiyoslash usulida qamrab oladi. Biz buni hozirgi kunda ham kuzatishimiz mumkin. «Yor-yor» qo’shiqlarining o`ziga xos ijro uslublari mavjud. Avloniy «Yor-yor»ning qiyoslash, taqqoslash usulidan va ohangidan ham ustalik bilan foydalangan. Shu sababli uning bu janrda yozilgan ijtimoiy she’rlari zamondoshlari qalbi va ongiga musiqiy ohanglar vositasida etib borgan. Binobarin o’quvchi va tinglovchini ma’naviy tarbiyalashda muhim tarbiyaviy vazifani bajargan, desak sira mubolag`a bo`lmaydi.

Ijodkor o`zining ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy fikrlarini o’quvchi qalbiga joylashda nomlari yuqorida zikr etilgan milliy kuylar bilan bir qatorda «Na’t», «Munojot» va «Hamd» kabi an’anaviy diniy qo’shiq janrlaridan ham foydalangan. Sharq xalqlari va xususan o’zbek, tojik va fors adabiyotida Olloh va uning so`nggi payg`ambarini sharafovchi «Na’t» va «Hamd» janrlari juda katta o`rin egallagan. Har bir yirik badiiy asarning boshida tangrini madh ztuvchi parchalar (boblar) bo`lishi odat tusiga kirgan. «Na’t» va «Hamd»lar aruz vaznida yoziladigan diniy musiqiy janrlar hisoblanadi. Bu asarlar qasida janriga hamohang bo`lib, to`ylarda va bazmlarda (konsertlarda) ijro etilgan. «Na’t» va «Hamd»larning ohanglari bir tekisda ketib, qo’shiq va deklamatsiya o`rtasidagi usulda tanbur jo`rligida ijro etilgan. Asosiy urg`u so`zning mazmuniga qaratilgan bo`lib, tinglovchining his-tuyg`ulariga ta’sir qiladi. Avloniy bu holatni e’tiborga oglani uchun o`z she’riy to`plamlarida ulardan keng foydalangan. Shu sababli uning «Adabiyot yohud milliy she’rlar» to`plamining har bir ju’zi «Hamd» va «Na’t»lar bilan boshlanadi. Avloniyning bir necha she’rlari «Na’ti Hazrati Rasuli Akram», «Hamd», «Na’ti sarvari olam», «Mustahzod» deb ataladi. Garchi bu she’rlar Olloh taolo va uning oxirgi paygambari Rasuli Akramga bag`ishlangan ta’rif, madhiya va iltijodan iborat bo`lsada, ammo shoir ularga zamonasiga oid ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydi. Shu sababli ijroda xorni ham

nazarda tutadi. Musiqa jo`rligida xor jamoasida kuylash usulining o`ziga xos tarbiyaviy va tibbiy xususiyatlari mavjud: jamoa bo`lib kuylaganda odam musiqani butun vujudi bilan his etadi va o`zi beixtiyor ijodiy jarayonga kirishadi, uning ruhiyati har qanday shartlilikdan xoli bo`lib, ichki ko`tarinkilikka, erkinlikka erishadi. Aynan ijroning shu turi musiqa san’atini o`zlashtirishda, unga bevosita kirib borishda, musiqiy ta’lim sohasida juda foydali va unumli yo`ldir.

Ma’lumki o`sha davrda ko`pgina yangi usuldagи mакtablarda, o`quv kurslarida, musiqa darslari o`qitilgan va teatr badiiy havaskorligi rivojlantirilgan. Bunday muassasalarda Tavallo, Hoji Mu’in va Avloniyning axloq va odob, Vatanga muhabbat haqidagi she’rlari deklamatsiya qilingan hamda ashula sifatida aytilgan. «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 20-iyun sonida bosilgan «Andijonda musulmoncha teatr» maqolasi fikrimizni tasdiqlaydi. Maqolada jumladan shunday deyiladi: «Teatrdan so`ng erli musiqa bilan hamma o`ynovchilar sahnada hur ila Abdulla Avloniyning «O`qisin yoshlarimiz» asarini o`qib, xalqning olqishi va ofarinlariga musahhar bo`ldilar». Shunga o`xshash xabarlarni 1914-1916 yillardagi Toshkent va Farg`ona matbuotida juda ko`p uchratish mumkin. Umuman yangi mazmundagi she’riy asarlarni ma’lum kuylarga solib ijro etish o`sha davr madaniy hayotida keng miqyosda avj olgani kuzatiladi. Jadidchilik g`oyalari bilan sug`orilgan, yangi mazmundagi, ma’rifat, axloq, odob, millatparvarlikka chorlovchi mavzular xalq orasida ommalashgan bo`lib, asosan xalq qo’shiq va laparlari, maqom yo`lidagi uforlar, turkcha marshlar, tatarcha kuylar jo`rligida ijro etilishi odat tusiga kirgan. «Sahnaga chiqqan yoshlar hur ila ham yolg`uz-yolg`uz (yakkaxon usulda-B.M.) bo`lib mashhur shoir Tukoev va Sayd Ramievning eng ma’noli she’rlarini o`qidilar. Orada etti kishidan murakkab milliy musiqa uynab turdi (ya’ni kichik orkestr - B.M.)» deb yozilgan «Sadoi Turkiston» gazetasining 1915-yilning 15-yanvar sonida.

Tariximizning fojeali hodisalaridan biri 1916-yilning yozida rus podshosining Sibirga mardikorlikka olish haqidagi farmonining chiqishi bo`lgan. Ma’lumki bu tadbir o`lkamizning barcha hududlarida xalqning g`azabini, norozilagini qo`zg`ab, qo`zg`olonlarga olib keldi. Xalq orasida sodda va ommabop kuylarga solinib mardikorlikka, oq podshoga qarshi qaratilgan qo’shiqlar keng tarqalib ketdi. Jadid ziylilari mustamlakachilar uyuştirgan beayov qirg`inlarni katta norozilik bilan

qarshi oldilar. A.Avloniy ham «Mardikorlar ashuvlasi» turkumini yaratib, mardikorlik poeziyasiga o`z hissasini qo`shti. To`plamga «Bir mardikorning otasi o`g`liga aytgan so`zlari», «Onasining o`g`liga aytgan so`zlari», «O`g`lining onasiga aytgan so`zlari», «Xotuniga aytgan so`zi» kabi ta`sirli, dardga to`la she`rlari kiritilgan bo`lib, ular ohangdor va ashulabop qilib yozilgan. Muallifning o`zi uni «Bir necha yangi kuylarga solinub yozilmish «Adabiyot» majmuasining 6-juz’i» deb atasada, ammo qaysi yangi kuylar haqida ran borayotganligi haqida xech narsa demaydi. Kitob so`zboshisida undagi she`rlarning 1916-yilgi mardikorlik voqeasi munosabati bilan ezilganligi va «Turon» to`dasi tomonidan aytilganligi ma’lum qilingan, xolos Yangi nashrda esa: «Birinchi to`da mardikorlarni jo`natmoq uchun chiqishda yasalgan namoyishda Toshkentdagi teatrda maxsus «Turon» to`dasi tarafidan turli latif kuylarda o`qulgan edi. Ko`b kishilar iltimos qiluvi sababli ja’m qilinib, nashr qilindi. Va boshqa bir necha shoirlarning yozgan she`rlari o`zlarining ruxsatlari ila ushbu adabiyotga ilova qilindi» deyilgan. Demak, Abdulla Avloniy «Turon» truppassi tashkil topganidan boshlab, unga atab, ma’lum kuylarga moslab ko`pgina she`rlarni yozgan. Ashulalarning hammasiga Avloniyning o`zi kuylar tanlagan. Bu she`rlar o`sha kezlarda xalq orasida yoyilgan «Poezdingni jildirgan», «Nikolay qon jallob», «Mardikorlar voqeasi» kabi xalq qo’shiqlari yo`lida aytilgan bo`lishi mumkin.

Abdulla Avloniy «Adabiyot yohud milliy she’rlar», «Mardikorlar ashuvlasi» to`plamlarida o`zbek she’riyatining an’anaviy janrlarini mazmunan va shaklan boyitdi. Ularga yangi ma’no va aniqrog`i minbar ohanglarini olib kirdi. Bu she’rlar o`zining ochiq ma’nosи, yorqinligi, oddiyligi, ta’sirchanligi, musiqaviyligi bilan ajralib turadi. 1914-yilda yozilgan «Millatga xitob» she’ri "Sharqiy kuylardan «So`yla bir ko`rki arab» kuyiga solinub yozildi" deb izohlangan. Sharqiy kuylar deb Avloniy vaqtida xalqimiz orasida ommabop bo`lgan turkcha marshlar nazarda tutilgan.

Avloniy 1917 -yil fevral inqilobini Turkiston xalqlari uchun erk va ozodlik olib keladi, degan orzular bilan kutib oldi va ko`p marshlar («sharqiyalar») yozdi. Ammo u ko`pchilik ziyorolar qatori xalqining, Vatanining «porloq kelajagiga» ishonchini juda tez yo`qotadi va «hurriyat nomin eshitdim, lek adolat ko`rmadim» deb iztirob chekadi.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hamma obod bo`ldi, bo`lmadi obod Turkiston.

O`z manfaatlarini ko`zlamasdan vatanini dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlar qatorida ko`rish orzusi bilan yashagan shoir madaniyat va san’at orqali har bir odamning yuragiga yo`l topa olish zarurligini tushungan va targ’ib etgan. Avloniy «Madaniyat to`lqinlari» maqolasida shunday yozadi: «Hozir yarim asrdurki madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan-qirga qochurmiz, qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqub hujum qilur, o`ngimizdan bilimsizlik va jaholat kelub jonlarimizni siqur, so`ngimizdan musriflik, faqirlik, bid’atlar chiqub yo`limizni to`sur». Bu holdan qutilish yo`lida «faqat bирgina chorasi bordurki madaniyatni qabul qilmak va haqiqiy madaniyatga kirishmak lozim». Binobarin shoir ana shu madaniyatni barpo qilishda teatr va musiqaning o`rni va roli katta ekanini chuqur anglagan va uni xalq ongiga etkazishga intilgan. Uning san’at, xususan musiqa san’ati xaqidagi fikrlari, qarashlari ana shundan dalolatdir. Avloniy badiiy-estetik qarashlarini, musiqaga munosabatini bir maqola hajmida qamrab olish nihoyatda qiyin. Ammo ushbu muxtasar yondashuvning o`ziyoq adibning milliy ananaviy musiqa bilimdonlaridan hamda xazinabonlaridan biri bo`lgan deyishimizga to`liq asos beradi.

### **Foydanilgan adabiyotlar**

- 1.Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 2 jild. T.: Ma’naviyat,1998 .221-bet
- 2.Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 1-jild. T.: Ma’naviyat, 1998.248-bet
- 3.Toshkent G`ulom Hasan Orifjonov litografiyasi 1917 –yil
- 4.Sadoiy Turkiston gazetasi 1915-yilning 15-yanvar
- 5.Avloniy A. Toshkent tongi. T.: 1979. 10-bet
- 6.1922-yil «Inqilob» jurnal

## **O‘ZBEK TILINI O‘QITISH VA RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O’RNI**

*Habiyaliyeva Madina Xolmurod qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Zamonaviy ta’limiy o’yinlar til o’rganuvchilar o’rtasida sevimli faoliyat turi hisoblanadi. Didaktik o’yinlarni dars jarayonlarida tashkil etish va o’rganish biz uchun qarama-qarshi holat sifatida ko’rinishi mumkin, lekin bu O’zbek tilini o’rganish va o’rgatishning eng oson yo’llidir. Bolalarda o’yinlar o’ynash hech qachon jiddiy qabul qilinmaydi, ammo o’rganish jiddiy, ko’p mashaqqat talab qiladigan holat hisoblanadi. Har bir pedagog bilishi shart bo’lgan narsa shuki, o’yinlar bolalar miyasida, ijobiy taassurot qoldiradi va shu orqali bolada o’rganilishi muhim bo’lgan faoliyatga nisbatan qiziqish uyg’otadi. Ushbu maqolada, barcha tillar qatori jonajon ona tilimizni o’qitish va rivojlanadirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o’rni haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** O’zbek tili, bolalar, nutq, o’rganish, ta’lim texnologiyalari, ta’limiy o’yinlar, rivojlanadirish, o’yin texnologiyasi.

## Kirish

Barchaga ma’lumki, joriy yil yurtimizda davlatimiz rahbari tomonidan “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” deb e’tirof etildi. Buning zamirida barcha sohalarda ildam qadamlar tashlanishi ko’zda tutilganligini bilish va anglash mumkin shubhasiz. Xususan, ona tilimizga bo’lgan e’tibor ham kuchaymoqda, o’zbek tili yo’nalishida ham tizimli ishlar allaqachon boshlab yuborildi desam aslo mubolag’a bo’lmaydi. Yurtimiz bolajon xalq har birimiz bolalik chog’imizdanoq xalq o’yinlari qon-qonimizga singib ulgurgan. Endi biz o’yinlar bolalar rivojlanishi uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini bilamiz va o’yinlar, shu bilan birlgilikda qiziqarli videoroliklar nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham tobora ko’proq ta’sir qilmoqda. O’zbek tili darslarida o’yinlar odatda, dars yakuniga hali bir necha daqiqa qolgan bo’lsa, bo’shliqni to’ldirish uchun ishlataladi. Ammo davlat tilini o’rganish birinchi navbatda, mashg’ulot bo’lib, unda mashq shakli sifatida zamonaviy texnologiyalar katta ahamiyatga ega. O’rganilgan materialni mashq qilish va qo’llash asosiy masalalardan biridir. Ona tilini o’rgatishda gap, faqat o’rganilayotgan tilni bilish emas, balki undan yetarlicha foydalana olishdir. Bu o’z navbatida o’zlikni anlash milliy g’urur tushunchasini o’sib kelayotgan yosh avlodning maktab davridan ong-u shuuriga singdirishdek mas’ulyatli va shu bilan bir qatorda sharafli burchdir.

Gans Aebli aytganidek, "Mashq qilish-takrorlash demakdir". Unutishga qarshi kurashish kerak, o'rganilgan narsalarni mustahkamlash va uni avtomatlashtirish kerak. Agar yozma mashqlar o'quvchi uchun zerikarli bo'lsa, unda xilma-xil amaliy mashqlarni qo'llash zarur. Buning uchun mashqlarning turli va rag'batlantiruvchi shakllaridan foydalanish muhimdir. Ta'limiy o'yinlar bu qatorda muhim qo'shimcha hisoblanadi. Ona tilimizni o'rganishda har bir metod muhim ahamiyatga ega: xotira o'yinlaridan tortib keng ko'lamli obrazli o'yinlargacha. Ushbu o'yinlar va viktorinalarni dars jarayonida qo'llash orqali bolalarda zavqlanish hissini shirish va fanni chuqur o'rgatish mumkin.

Bola o'yinlar orqali o'z shaxsiyatini rivojlantiradi. U o'zining kuchli tomonlari va qobiliyatları haqida bilimga ega bo'ladi, shuningdek u o'zidagi cheklovlar haqida ham mulohaza yuritadi, boshqalar bilan hamkorlik qilish, tinglash va muzokaralar qoidalari kabi ijtimoiy va til qobiliyatları, shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Agar mojarolar yuzaga kelsa, o'yinda turli xil yechim strategiyalarini sinab ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda bolalarning dunyo qarashi kengayadi. Dunyoga boshqacha nazar tashlay boshlaydi. O'yin orqali bola o'zining butun faoliyati uchun diqqatni jamlash, ijodkorlik va mustaqil fikrlash kabi ajoyib hislatlarga ega bo'ladi. Bolalar uyalish, tortinchoqlik va qo'rquv hislatlari asta-sekin yo'qotadi va o'z fikrini bayon etishni boshlaydi. Turli xil ta'limiy o'yinlar tufayli mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Shu qatorda o'quvchini rag'batlantirib turish zarur. Nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar ham o'z bolasini rag'batlantirib turishi kerak.

Dars jarayonlarini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovatsion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. Ona tili fanidan mashg'ulotlarni olib borishda pedagog xodimlarning ixtisosи, bilimi va ko'nikmalari, kasbiy mahorat darajasi, dunyoqarashi, shaxsiy psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy dars berishning asoslarini yaratishdekk ulkan pedagogik g'oyalarga zamin bo'lishi shubhasiz albatta. Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi usullar qo'llanilmoqda: "B+K", "Klaster", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishslash", "Obrazli o'yin", "Press usuli", "Orfografik estafeta", "Yumaloqlangan hor", "Zanjir", "Yozma

bahslar”, “Qarorlar shajarası”, “Baholovchi munozara”, “Oxirgi so’zni menga bering”, “Modelli dars”, “Yakun chiqaruvchi ko’zgu”, “Yelpig’ich”, “Charxpakalak”, “Fikrlovchi qalpoqcha”, “Mendan faxrlanaman” v.h kabi. Ona tili darsida interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo’lgan qiziqishlarini ham orttirishga turtki bo’ladi.

Ona tili darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanib o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikr yuritishni rivojlantirishda innovatsion yondashish o‘quvchi va o‘qituvchining izlanishlariga poydevor sanaladi, hamda ta’lim sifatining natijaviyligini ta’minlaydi. Biroq, ko’pincha aniq maqsad uchun to‘g’ri o‘yinni topish oson emas. Darhaqiqat, mashg’ulotga u yoki bu o‘yin omilini kiritish orqali o‘yinlarni o‘zingiz o‘ylab ko’rish odatda oddiyroq va maqsadga muvofiqdir. Boshlash uchun siz o‘yinni sinfdagi muayyan vaziyatlarga moslashtirish uchun ularni “tayyorga ayyor” o‘yin sifatida ishlatmasdan, shablon sifatida taqdim etilgan o‘yinlardan foydalanishga harakat qilishingiz mumkin. Shunday qilib, siz pedagog sifatida o‘z o‘quvchilaringizni zeriktirmasdan ba’zi zamonaviy metodlardan qayta-qayta foydalanishingiz mumkin.

Xuddi shu o‘yindan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Bularning barchasi bolalarning o‘ziga xos ish sharoitlariga bog‘liq. O‘zbek tili darsi shunchaki o‘yin emas. O‘qituvchi va bolalar o‘rtasidagi ishonch va muloqot qulayligi o‘yin muhitidan kelib chiqadi. O‘yinlar yordamida o‘qituvchi bolalarni jiddiy suhbatlarga chorlaydi, har qanday real vaziyatlarni muhokama qiladi. Zamonaviy metodlar o‘zbek tilini o‘rganishda o‘quvchilarining kognitiv faolligini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa qilib aytganda,** Pedagoglarning kasbiy faoliyati davomida tashkil etishi mumkin bo’lgan fonetik o‘yinlar – o‘quvchilarni begona tovushlarni talaffuz qilishga o‘rgatish, she’rlarni ovoz chiqarib, aniq o‘qishga o‘rgatish, ularni rollarda ijro etish maqsadida o‘rganish. O‘qituvchi tovush hukmron bo’lgan fonetik she’rni o‘qishi. Bolalar buni taxmin qilishlari kerak. Leksik o‘yinlar – o‘quvchilarni tabiiy muhitga yaqin vaziyatlarda imlo lug‘atidan foydalanishga o‘rgatish va bu orqali tinimizning sofligni saqlashga hizmat qilishini singdirish, o‘quvchilarining nutqiy fikrlash faoliyatini faollashtirish, og‘zaki reaksiyani rivojlantirish, o‘quvchilarni so‘z

mosligi bilan tanishtirish. Davlat tilini chuqur o’rgatish samaradorligini oshirish ko’p jihatdan matabning o’quv- bazasiga, o’qituvchining qanday o’quv vositalariga ega ekanligiga va o’quv jarayonida ulardan qanday foydalanishiga bog’liq.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Usmonov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari. “Akademiya”, 2007y.
2. Abdiyev Sh. Ta’lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o’rni. Uslubiy ko’rsatma. Samarqand, 2015y.
3. Raxmanova, D., Zaripova, G., Raxmatov, F., & Abduxalilova, D. Nemis va o’zbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Fan va ta’lim. 2020.
4. Raxmanova, D. NEMIS TILI HAQIDA TUSHUNCHА IFODALOVCHI FRAZEOLOGLAR. Ilmiy taraqqiyot. 2021.

### **SINFDAN TASHQARI MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA TO’GARAK RAHBARINING INNOVATSION FAOLIYATI VA TA’LIM TEXNOLOGIYASI**

**Azizbek Boltaboyev**

*Namangan davlat pedagogika instituti o’qituvchisi.*

*E-mail: [azizbekboltaboyev1994@gmail.com](mailto:azizbekboltaboyev1994@gmail.com) Tel- 943082603*

**Annotatsiya.** Tasviriy san`atda dars mashg’ulotlari jarayonida erishilgan natijalarni yanada yaxshilash uchun sinfdan tashqari ishlar umumiy o’rta ta’lim tizimida muhim o’rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san’at, haykaltaroshlik kabi san’at turlari bo’yicha amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari ishlar, to’garaklardagi mashg’ulotlar, uchrashuvlar, ko’rgazma, tanlov, san’at kechalari kabi qator yo’nalishlarda o’tkaziladi.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, tezaurus, fatsinatsiya, fatsinatsiya, mul’timediya, pedagogik innovatsiya, entsiklopediya.

O’zbekistonda olib borilayotgan ta’lim islohoti bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o’tish jarayoni bilan birga amalga oshirilmoqda. Mazkur

jarayonlar mohiyatan pedagogik ta’lim tizimi kadrlar tayyorlash imkoniyatlarining tubdan yaxshilanishiga, jamiyatni og‘ishmay rivojlantirish negizida umumjahon ta’lim muhitiga mos tarzda uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini yaratishga olib keladi.

Shu sababli ham birinchi navbatda ta’lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim sifatini oshirish g‘oyasi kun tartibiga ko‘ndalang qilib qo‘yilganligini ta’kidlash lozim. Bu mazmunga nafaqat bilim, ko‘nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, tasviriy san’at orqali milliy qadriyatlarga, atrof - muhitga nisbatan munosabatlarni kiritish mumkin.

Shubhasiz eski pedagogik usullar yordamida yangicha, sifatli ta’lim olish mumkin emas. Ta’lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘z-o‘zini safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilar bilish faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollandashuviga olib keladi.

Hayotimizdagи yangi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonida komp`yuter vositalari va axborot texnologiyalardan foydalanishni axborot hajmining ko‘payib ketganligi, kommunikabellik, jamiyatdagи ilmiy-texnik rivojlanish bilan izohlash mumkin. Pedagogik faoliyat bosqichma-bosqichligini nazarda tutadigan innovatsion texnologiya bo‘lajak mutaxassisni hayotiy-o‘quv faoliyatini mustaqil quradigan, unga tuzatishlar kiritadigan faol, ijodkor shaxsni shakllantirishga qaratadigan zamonaviy innovatsiyalarni o‘zlashtirish va ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

**Pedagogik innovatsiya** – ta’lim jarayoni sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni sifat va son jihatdan o‘zgartirishni maqsad qiladi. Zamonaviy ta’limni matn, grafika, video va mul`tiplikatsiya va shu bilan komp`yuterni o‘quv jarayonida qo’llash imkonini oshiradigan mul`timedia texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Taklif qilinayotgan tasvirni ko‘rish bilan birga o‘quvchining obrazli

fikrlashi materialni yaxlit qabul qilishiga yordam beradi. Ularda nazariy va ko‘rgazmali materiallarni o‘zaro mujassamlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ko‘rgazmali axborot ishlatilganda, tasavvur hosil bo‘lishi og‘zaki bayondan ko‘ra o‘rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi. Insonning ko‘rgazmali axborotdan ta`sirlanishi, og‘zaki axborotdan ko‘ra ancha yuqori bo‘ladi. Ko‘rgazmali axborotni qayta takrorlash oson va aniqroqdir. Odamning ko‘rgazmali axborotga ishonchi og‘zaki axborotdan ko‘ra yuqori bo‘ladi. Shuning uchun “**yuz bor eshitgandan ko‘ra, bir bor ko‘rmoq afzalroqdir**”- deb bejiz aytilmagan.

Tasviriy san`at o‘quv jarayonida mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta’lim texnologiyalari (loyiha), interfaol metodlar (aqliy hujum, tushunchalarni aniqlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi) hamda (Klaster, B-B-B chizmasi, “Nima uchun” chizmasi, “Qanday” diagrammasi va toifalash jadvali) kabi grafik organayzerlardan unumli foydalanish mumkin.

Yo‘nalishiga ko‘ra o‘quvchilarning pedagogik intellekt darajasi, kasbiy layoqatini aniqlashga qaratilgan turli nostandard testlardan foydalanish komp`yuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda testli vazifalar faqat so‘zlar ifodasi emas, balki animatsiyali lavhalar ko‘rinishida bo‘ladi. Kompyuter texnologiyalarini qo’llab ishlash juda qiziqarli bo‘lib, ular tomonidan bajonidil qabul qilinadi, o‘quvchilar shaxsiy xislatlari tarbiyalanadigan jiddiy ijodiy faoliyatlarga jalb qilinadi. Tasvirli badiiy bezaklar ijobiliy ruhiy muhitni yaratib, asta-sekin o‘quvchilarda muayyan madaniy-axloqiy xususiyatlar paydo bo‘la boshlaydi, ularning dunyoqarashi kengayadi. Kompyuterdagagi axborot almashish tamoyillari an`anaviy darsni tashkil etishdan uni qayta qurish imkoniyatlarini tug‘diradi.

**Darslar quyidagi larga asoslanganda yanada samarali bo‘ladi:**

- **tezaurus** – tushunchalar tizimi o‘qituvchi va o‘quvchilarni bir xil ma`noli izohlar bilan ta’minlaydi;
- **fatsinatsiya** – namoyish etilayotgan materialning jozibadorligi o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi;
- **mayevtika** – o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikda ijod qilish tamoyili, chuqur bilim olish, tasviriy san`at asarlarini idrok qilish, tasviriy san`at

asarlari yaratilish jarayonini tushunib etish va olingan axborotlarni amalda qo’llay olish qobiliyatlarini shakllantiradi;

- ***mul’timediya*** - mashg’ulotni hikoya, ma’ruza taqdimotlari, yangi materialni reproduktsiyalar ko‘rinishida namoyish qilish kabi chiqishlar bilan o’tkazish;
- auditoriya, kutubxona yoki uydagi shaxsiy kompyuterdan foydalanib mashg’ulotlarga tayyorlanish, uyga vazifani bajarish – ***axborotlar to’plash, matn ustida ishlash, multimedialar yaratish;***
- o‘quvchilarning auditoriyalar, kichik guruhlarda bajaradigan vazifalari va mustaqil ishlarini komp’yuterda bajarishni tashkil etish; bu ta’limga xususiy yondashishni yuqori darajada amalga oshirish imkonini beradi;
- ta’lim jarayonining optimal variantini tanlash, uning samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchilardagi ortiqcha yukni bartaraf etish; bu fanlararo o‘zaro bog’liqlik tasviriy san’at asarlarini qabul qilishning samarali shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tasviriy san’at asarlarini kengroq va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg’ulotlarga ko‘proq diqqat qaratiladi. Kompyuterlar orqali tasviriy san’at asarlarini taxlil qilish, muzeylar bo‘ylab virtual sayyohatlar uyuştirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish tasviriy san’at, adabiyot, musiqa va badiiy ijodkorlik, innovatsion texnologiyalarning o‘zaro bog’liqligini amalda sinash mashg’ulotlarda o‘quvchilarning faoliyatini jonlantirish uchun xizmat qiladi.

Ta’limning o‘zaro bog’liqligi o‘quvchilardagi bilim olish va san’atga qiziqishlarini oshiradi. Material mazmuni hamda yangicha ta’lim usullari ta’sirida o‘quvchida fikrlash, izlanish, yangiliklarni ocha olish, asoslash, tatbiq etish, komp’yuterda bilim olish vositasi sifatida munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari rivojlanadi, mustaqil ijodkorlik tajribasi oshadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug’ullanganda o‘quvchilardagi san’at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi.

Tasviriy san’at mashg’ulotlarida innovatsion texnologiyalarning faol qo’llanilishi o‘quvchilardagi tasviriy san’at asarlarini idrok etish qobiliyatlarini

shakllantirish, kompyuter dasturlari bilan ishslash faoliyatini rivojlantirish, bilim va ko’nikmalarning ma’naviy ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi ta’limning Yangi mazmuni va shaxs rivojlanishiga muvofiq bilimlarni beradigan asosiy vosita hisoblanadi. Bu vosita o’quvchida qiziqish bilan o’qish, axborot manbalarini topish, Yangi bilimlarni o’zlashtirishda mustaqillik va mas’uliyat hissini tarbiyalaydi, intellektual intizomni rivojlantiradi.

Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarining mustahkam nazariy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy mahoratga aylanishini ta’minlash maqsadida o’qitish jarayonida Yangi pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish davr taqozosi bo’lib, ijtimoiy zaruriyat sifatida kun sayin dolzarbliги oshib bormoqda.

Ta’lim jarayoniga bu texnologiyalarni tatbiq etish kadrlar tayyorlashga yo’naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o’zgarishini ta’minlaydi.

Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g’oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmaning bajarilish holatining sifat ko’rsatkichiga ega bo’lishiga turtki bo’ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi barkamol shaxs va malakali mutaxassislar faoliyatlarining rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot tezlashuviga olib keladi. Buni tushunib etgan ko’plab pedagoglar tasviriy san’at mashg’ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo’llashda kompyuter vositalaridan unumli foydalanib kelishmoqda. Ular bu vositalar orqali mavzuga oid mahorat darsi, jahon muzeylariga sayohat, buyuk rassomlar asarlari taxlillaridan iborat video-tasmalar namoyishi, grafik organayzerlar, nostonart testlardan foydalanishadi. Shu jumladan, pedagogning shaxsan o’zi kompozitsiya yaratish jarayonini amalda ko’rsatib, mashg’ulotlarning qiziqarli bo’lishiga erishmoqdalar.

Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi kafedrasida mavjud kompyuter vositalarini amaliyotda qo’llab, uning tasviriy san’at mashg’ulotlarida foydalanish imkoniyatlari haqidagi shunday umumiy xulosaga kelindi:

1. Kompyuter pedagog va o’quvchi muloqotini yaxshilashda ijobiy natijaga erishish uchun qulay hamda keng imkoniyatlarga ega.

2. Ta’limda ko‘rgazmali tushuntirish hamda reproduktiv usullarni qo’llashning yangi va sifatli darajaga ko’tarilishini ta`minlaydi.

3. Mashg‘ulotlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim shakli, o‘quvchilar bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi, diqqatni ja`mlaydi, shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini oshiradi.

4. Pedagog maslahati bilan o‘rgatuvchi dasturlarni mustaqil qo’llash orqali san’at tarixi, nazariyasi, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini samarali o‘zlashtirishlariga imkon yaratadi.

5. Proektorlardan foydalanish matnlar bilan ishslash, o‘rgatuvchi videoroliklar namoyish etishda qulaylik yaratadi, ko‘rgazmalilikni oshiradi, vaqt ni tejaydi.

6. Elektron entsiklopediyalar bilan tanishish, jahon muzey va ko‘rgazma zallari bo‘ylab virtual sayohatlar uyushtirish imkonini beradi.

7. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning internet orqali axborotlar izlash, topish, tanlash va olingan ma’lumotni ja`mlash kabi mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

8. Testlardan foydalanish nafaqat vaqtdan yutish, materiallar sarfini kamaytirish, balki o‘z bilimi va imkoniyatlarini ob’ektiv baholashga imkon beradi.

9. Mashg‘ulotlarda kompyuter texnologiyalarini qo’llash o‘quvchilarning tasviriy san`atga qiziqishlari va ta’lim sifatining oshishiga olib keladi.

10. Tasviriy san`at mashg‘ulotlarida kartinalar, chizmalar, jadvallarni yorqin va qiziqarli shakllarda kuzatish, ob’ektlarni foto va videotasmalar vositasida ko‘rish, u yoki bu mavzudagi materialni aniq idrok etish, tanlangan materialni qiziqarli shaklda tasvirlashga yordam beradi.

Shunday qilib, mashg‘ulotlarda va darsdan tashqari vaqtarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish vaqt ni tejash, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish, psixologik-pedagogik bilimlar asosida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri tashkillashtirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, tasviriy san`at darslarida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini rivojlantiradi va o‘quv jarayonini faollashtiradi;
- qisqa vaqtida katta hajmdagi ishlar bajariladi;
- o‘quvchilar nazariy bilimlarini tekshirish jarayonini tezlashtiradi;
- bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi;
- darsdan tashqari vaqlarda o‘quvchilarni faol ijodiy faoliyatga yo‘naltirishga sabab bo‘ladi.

Tasviriy san’atda dars mashg‘ulotlari jarayonida erishilgan natijalarni yanada yaxshilash uchun sinfdan tashqari ishlar umumiyligi o‘rta ta’lim tizimida muhim o‘rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san`at, haykaltaroshlik kabi san`at turlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari ishlar, to‘garaklardagi mashg‘ulotlar, uchrashuvlar, ko‘rgazma, tanlov, san`at kechalari kabi qator yo‘nalishlarda o‘tkaziladi. Ular o‘quvchilarni badiiy-ijodiy ehtiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va iste’dodni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. O‘quvchilarni etik - estetik fikr doirasini kengaytiradi va badiiy didini rivojlantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1) Tolipov O‘.Q., Inoyatova M.E. Pedagog shaxsini tarkib toptirishning didaktik modellari. // “Pedagogika”, 2014, 3-son. –10-b.
- 2) Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (12 (79)), 10-13.
- 3) Boltaboyev A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – T. 1. – №.
- 4) Boltaboyev, Azizbek. "In pointing natyurmort it's working methods and peculiarities." *The American Journal of Applied sciences* (2021).
- 5) Boltaboyev A. Color Relationships in Paintings //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023.

- 6) Boltaboyev A. O’QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARINI BAJARISHDA TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 7. – C. 553-559.
- 7) Boltaboyev A. Tasviriy san'at darslarida talabalarning o'quv jarayonida qoralamalar bajarish texnikalari //Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations. – 2023.
- 8) Xasanboy o‘g’li B. A. TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 43. – C. 114-117.
- 9) Hasanboy o‘g’li B. A. et al. METHODS OF USING MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 960-963.
- 10) Boltaboev A. HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS //Solution of social problems in management and economy. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 12-17.
- 11) Boltaboyev, A. (2023). O’QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARINI BAJARISHDA TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 553-559.
- 12) Xasanboy o‘g’li, B. A. (2024). TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 114-117.

## **JADIDCHILIK XARAKATI VAKILLARINING TA`LIM MUAMMOLARIGA NISBATAN QARASHLARI VA UNING DOLZARB MASALALARI**

***Nabiyev Sardor Raximali O'g'li***

*Namangan davlat pedagogika instituti 70110103-Ta’lim muassasalarining  
boshqaruvi mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada jadid ma`rifatparvarlarining o`z davrilari uchun mos keluvchi ma`rifiy isloxoxtlarining asosiy xususiyatlari va ularning mazmuni haqida so`z yuritiladi. Bugungi kunda jadid namoyondalarining ma`naviy me`rosining o`z davrigacha bo`lgan ta`lim tizimidan farqli jixatlari yoritiladi.

**Аннотация:** В данной статье говорится об основных характеристиках и содержании образовательных реформ современных просветителей, соответствующих своему времени. Сегодня освещаются различные аспекты духовного наследия современных представителей, чьем образовательная система до их времени.

**Annotation:** This article talks about the main features of the educational reforms of the modern enlighteners, suitable for their time, and their content. Today, different aspects of the spiritual heritage of the modern representatives than the educational system before their time are highlighted.

**Kalit so`zlar:** Jadidchilik, ma`rifat, senzura, yangi usul maktablari, diniy mutaasiblik, ijtimoiy ong ma`naviyat.

**Ключевые слова:** модернизм, просвещение, цензура, новометодные школы, религиозное фанатизм, общественное сознание, духовность.

**Key words:** modernism, enlightenment, censorship, new method schools, religious bigotry, social consciousness, spirituality.

Jadidchilik harakatining namoyon bo`lishi va asosiy faoliyati insoniyat tarixida taraqqiyot va ozodlik ne`matlaridan beanaxra bo`lgan o`z millat va vatanlarini uyg`otish va ularni ma`rifat nuri bilan yanada yuksaltirishga uringan ziyorolar qatlamining ibratli hayot yo`llarida aks etgan. Jadidlar ta`lim tizimining rivoji bilan boshqa taraqqiy etgan millatlar tajribasidan o`rganib borar ekanlar, bunda o`z davrlariga qadar hukm surgan ta`limga doir ijtimoiy normalarga ba`zi jihatlarda amal qilganlar, qarshi chiqqanlar va ba`zan yangiliklar bilan yanada takomillashtirganlar. Ularning ko`plab ma`rifat islohotchilari harbiy yo`l bilan o`lkaga ozodlik va erkinlik qaytarish imkoniyati o`ta mashaqqatli va o`lka hayotining yanada tanazzuliga sabab bo`lishini tushunganlari holda, yosh avlod tarbiyasi va mafkurasini yuksaltirish va mustabid tuzumga qarshi tura olishga

qodir avlodlarni tayyorlashning uzoq istiqbollarini ko`zlagan edilar. Jadidlar bunda ta`limni asosiy kurash vositasi deb ko`rganlari uchun xam ta`limga yangicha yondashuvlar bilan munosabatda bo`lganlar.

Taniqli ma`rifatparvar Ismoil Gasprinskiy tomonidan amalga oshirilgan ta`lim yangiliklari va uning samaralari keying davrda Ishoqxon To`ra Ibrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa yurt qayg`usi bilan yashaydigan ziyyolilar faoliyatida e`tiborga olindi. Jadidlar ta`limga nisbatan ayrim din ulamolari va mutaasib jamiyat vakillarining eskicha o`quv dasturlari va ishslash uslublariga qattiq tirmashib olganlarini tanqid qilganlar. Islom dini har bir inson ayol yoki erkak bo`lsin, har qaysi yoshda bo`lsin ilm o`rganishga harakat qilishi kerakligini uqtirgan va Qur`oni Karimda ham insonlarni tafakkur yuritishga undovchi bir qator oyatlar bo`lib ta`limga yuksak darajada e`tibor qaratgani holda mutaasib diniy rahnamolar ta`lim borasida bir qator kamchiliklarga yo`l qo`yar edilar.

**Avvalambor**, maktablarda va ta`lim dargohlarida qattiqqo`llik va majburlagan holda bolalarni bir sohani egallashga targ`ib qilish natijasida bolalikdan o`qituvchiga nisbatan va ilmga ham bolalarda qiziqish so`nib brogan. Majburlov choralar bilan o`qitilgan bolalar esa, olgan bilimlarini amaliyotda qo`llay olmas edilar. Bolalarga shavqatsiz muomalada bo`linishi va ilmlarni o`rgatishda bolalarga majburiy yodlatish ilmga rag`batni so`ndirishi haqida Ishoqxon To`ra Ibrat ham qarshi bo`lganlar. Ibrat tomonidan ochilgan To`raqo`rg`ondagi mакtabda Ibrat tomonidan yangi ishslash prinsiplari joriy etiladi.[1] Zamnaviy davrda ham bolaning ta`lim va tarbiyasida urish va kaltaklash orqali o`qitilga bolalar o`sha mavzu va fanlarni o`rgana olsalar ham ularning keyingi ruxiy kamolotida salbiy jihatlar namoyon bo`ladi va faqatgina kaltaklash va qattiqqo`llik bilan muomala qilinsagina ularni jamiyat hayotiga moslashtirish mumkin deb hisoblagan.

**Ikkinchidan**, jadidlar yangilikka intilish va zamonga mos tarzda fikrlash hayot talabiga aylanib borayotganini chuqur anglaganlari xolda, qolgan jamiyat a`zolariga ham anglatishga uringanlar. Jadidlar tomonidan qo`llab quvvatlangan o`qitish usuli bo`lmish “Usuli savtiya” metodik yondashuv orqali o`quvchilarning savodini tez chiqishiga va ta`lim samaradorligini oshirishni ko`zda tutgan edi. Biroq bu boradagi ijobiy o`zgarishlar osonlik bilan kechmagan ijtimoiy qarama-

qarshiliklarni yengib o’tishiga to`g`ri kelgan. Diniy mutaassib maktabchilar Turkiston o`lkasi hayotiga kirib kelayotgan yangiliklarni bid`at va ushbu yangiliklarni olib kirayotgan jadidlarni dindan qaytgan deb xisoblar va takfirschilikka berilib ketgan edilar.

Aynan ularning yangilikka qarshi har qanday urinishlarni inkor etishlarini Islom dinida buyurilgan xisoblasalarda, jadid maorifchilarining ko`plab vakillari (Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo`ja Behbudiy, Ishoqxon To`ra Ibrat) diniy ilmlarni yaxshi egallagan va diniy lavozimlarda ham ko`p yillar xizmat qilgan edilar. Abdulla Qodiriy, Fitrat Cho`lpon Abdulla Avloniy kabi vakillari esa, diniy maktablarda ta’lim olgan edilar.[2] Masalaning mohiyatiga e`tibor qaratsak, aslida islom dini insonni tafakkur yuritishga chorlovchi din bo`lgani xolda, ba`zi eski usul maktablari o`z manfaatlari yo`lida buni o`zgacha talqin qildilar. Eski usul maktablari o`z ahamiyatini yo`qotmaslik va raqobatga tayyor emasligi sababidan masalaga noto`gri yondashuv orqali baxo berdi. Yangicha ijtimoiy tafakkur egalari bo`lgan ba`zi diniy rahnamolar dan biri Mahmudxo`ja Behbudiy tomonidan til masalasida berilgan muloxazada esa, Payg`ambar alayhissalomning xorijiy tilni o`rganishga targ`ib etuvchi hadislari misol keltiriladi va gazetani bid`at deb xisoblovchi ba`zi insonlarning fikrlashi xato ekanligini asoslanadi.

**Uchinchidan,** nafaqat ta`limga yondashuvda balki mazmunida ham ko`plab jihatlarda o`zgarishlar nazarda tutilgan edi. G`arb mamlakatlarining dunyoviy fan sohalarida erishgan muvafaqqiyatlari va ularning samaralari orqali ta`lim mazmunini isloh qilish borasida ham ilg`or fikrlar o`rtaga tashlandi. Kimyo, fizika, matematika kabi hayotda zaruriy fanlar yangi usul maktablari faoliyatiga tadbiq etilgan va dars rejasida o`zlashtirilishi lozim bo`lgan kitoblarning emas, fanlarning nomi kiritilgani ahamiyatli bo`ldi. Olam va odam haqida turli falsafiy, diniy tarixiy ma`lumotlar o`rgatilishi eski usul maktablarining e`tirozlariga sabab bo`lgan. Jumladan, abdulhamid Cho`lponning “Kecha va kunduz” romanida bir gurux shaxslar tomonidan hurfikrli jadidlardan birining Akbarali mingboshi bilan mojaroga borib qoliganida mingboshi uning nomini bulg`ash va uning faoliyatiga to`sinqilik qilish maqsadida uning maktabi o`qituvchi bolalarga “yer - mudavvardur” ya`ni “yumaloq” dur va boshqa shunga o`xshash dinga qarshi gaplarni aytib, bolalarni tarbiyasini buzyapti deb ayblaydi va maktabni yopib qo`yadi.

**To`rtinchidan,** jadidlar o`z faoliyatlarida ta`limning faqatgina maktab ta`limidangina iborat emasligini, ommaviy axborot vositalarining o`rni bunda salmoqli o`rin tutishini anglaganlari xolda, gazeta va jurnallar nashr etish, bosmaxonalar tashkil etish kabi ishlarni amalga oshirdilar. Xonliklar davrida avom xalq ijtimoiy tafakkurini rivojlantiruvchi bunday imkoniyatlarda mosuvvolikning ham ta`siri bo`lib, umumbashariy taraqqiyot yo`lidan uзilish bo`lib qolgan edi. Ularning bu faoliyatidan maqsadlari faqatgina shaxsiy daromad orttirish maqsadida bo`lmaganini ulardagи istiqlol mafkurasi va jamiyatning ijtimoiy muammolarini muntazam yoritib borishlarida ham kuzatish mumkin. Siyosiy bosimlar bilan senzuraga zo`r berayotgan mustabid Sovet mutasaddilari noshirlik va kitobxonlik targ`ibotiga qarshi kurashganlari xolda, jadidlar tomonidan tashkillashtirilgan kitobxonalar va nashriyotlarning faoliyatini cheklab borganlar.

**Beshinchidan,** jadidchilik harakati vakillari Yevropa madaniyatining maxalliy xalq hayotini va dunyoqarashini ijobiy o`zgarishlariga sabab bo`luvchi jihatlarini o`zlashtirish kerak degan fikrda edilar. Rus adiblari va keyinchalik Yevropa mamlakatlarining yozuvchi va shoirlari asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilish orqali ham bu maqsadni ko`zlagan edilar. Behbudiylar turli mamlakatlarga qilgan safarlari natijasida dramatik asarlardan ilxomlanadi va o`zbek dramaturgiyasini boshlab bergan “Padarkush” dramasini yozadi. Garchi Behbudiyning asari badiiy jixatdan o`ziga tortuvchi darajada bo`lmasada, o`sha davrda o`zbek darmaturgiya maktablari bo`lmagani xolda ijod qilingan kashshof asardir. Shuningdek, “Padarkush” dramasi o`z qamrab olgan mavzusining ahamiyati jihatdan o`lka hayotining tanazzuli bo`lmish ilm-u ma`rifatdan uzoqlashish, g`arbdan kirib kelayotgan yengil-yelpi hayot tarzini tasvirlab o`lka hayotini isloh qilishda ma`rifiy vosita bo`lgan edi. Jadidlar mahalliy yerli xalq vakillarining faqatgina ichkilikbozlik, ishratbozlik va vaqt ni behuda sarflanishiga sabab bo`luvchi mashg`ulotlarga berilib ketgan yoshlarni tanqid qiladilar va millatning o`ziga to`q vakillarini yoshlar ma`naviy kamoloti yo`lida mablag` sarf etib, millatni uyg`onishga undamoqchi bo`ladilar.

**Oltinchidan,** ma`rifatparvar bobolarimiz yoshlar tarbiyasida islom dini va uning ma`naviy ahamiyatini beqiyos sanaganlar va insonlarning dunyo va oxirat hayotida saodatga erishuvlarida uning ahamiyatini juda yaxshi anglaganlar.

Ularning islomga qarshi va undan insonlarni uzoqlatishni ko`zlagan degan muloxazalar o`zini oqlamaydi. Sovet mafkurasi sharoitida ziyoli insonlarni qatag`on qiluvchi tizim adabiyot va madaniyatda shunday to`siqlar va majburlashlar yo`li bilan ularni bosim ostida ushlab turgani ularning shunday mazmundagi asarlar yozib turishiga sabab bo`lgan va shunday murasaoz asarlar dunyoga kelgan edi. Sobiq Ittifoqda hukmron bo`lgan ateizm siyosati natijasida ular tomonidan yozilgan ushbu asarlardan foydalanib ularning xalq orasidagi mavqeyini tushirish ko`zlangan edi.[3] Zero, ba`zi jadidlar majburlikdan shunday yo`l tutib turgan bo`lsalarda, ular diniy ta`limni yaxshi egallagan va umrining oxirigacha ta`qib va tazyiqlar ostida yashagan bo`lsalarda xalqimizning dini, tili va milliy xususiyatlarining e`tirof etiladigan kun bo`lmish mustqaillik orzusida yashadilar va hayotlarini baxshida etdilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Jadidlar. Is`hoqxon to`ra Ibrat: risola.\U. Dolimov. - Toshkent: Yoshlar matbuot uyi, 2022.
2. Qosimov B. Abdulla Avlomiy. - Toshkent, 1979.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi: prof. H. Boltaboyev). 5 jildlik. - Toshkent: Ma`naviyat, 2000-2008-yillar.

### **RISHTON KULOLCHILIGINING XALQ BADIY HUNARMANDCHILIKDAGI AHAMIYATI HAMDA MILLIY QADRIYATLARIMIZGA TA’SIRI**

*Maxsutaliyev Jahongir*

*Namangan davlat universiteti talabasi*

*Ubaydullayeva Shahnoza*

*Andijon davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq badiiy hunarmandchiligi haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida Rishton kulolchiligi maktablarini yanada rivojlantirishni, ustoz-shogird an'analarini davom ettirishni rivojlantirish omillari

va milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish uning tarixini o‘rganish mashg‘ulotlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘z:** Badiiy kulolchilik, loy, ferauz rang, mis, ganjkorlik, texnika, arxeologiya, usul, usta-shogird.

**Аннотация:** В данной статье на основе теоретических и практических сведений о народном декоративно-прикладном искусстве, дальнейшем развитии риштонских гончарных школ, факторах развития продолжения традиции мастера-подмастерья и развитии наших национальных ценностей, о изучение его истории з продолжается.

**Ключевые слова:** Художественная керамика, глина, бирюзовый цвет, медь, горное дело, техника, археология, метод, мастер-подмастерье.

**Abstract:** In this article, on the basis of theoretical and practical information about folk arts and crafts, the further development of Rishton pottery schools, the development factors of the continuation of the master-apprentice tradition, and the development of our national values, about the study of its history z is maintained.

**Key words:** Artistic pottery, clay, turquoise color, copper, mining, technique, archeology, method, master-apprentice.

Bizga tarixdan ma‘lumki o‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati o‘zining qadimiyligi, madaniyatining beba ho hamda serqirraligi bilan butun dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelmoqda. Buni albatta hozirgi kungacha o‘z me‘moriy obidalarini saqlanib qolgan qadimiy shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san‘ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, beba ho san‘at asarlari bo‘lib, jahon madaniyati durdonalari qatorida o‘z o‘rniga ega. Jumladan ko‘p asrlar mobaynida orttirilgan moddiy, madaniy va ma‘naviy boyligimiz, xususan, o‘zbek xalq amaliy bezak san‘atining eng ko‘p rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik kabi turlari saqlanib qolganligini guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamizning ko‘hna qal’alari, qo‘rg‘on va xarobaga aylangan tepaliklardan A.A.Asqarov va uning yo‘ldoshlari kovlab topgan ibridoiv ov qurollari, ishlab chiqarish, ro‘zg‘or buyumlari qadimiy Farg‘onada qadim davridan boshlangan

hunarmandchilik madaniyat izlari hunarmandchilik tarixining naqadar uzoq o’tmishtga borib taqalishini isbotlagan. Ma’lumki insonlar ishlab chiqarish faoliyatini mehnat taqsimoti: ovchilik, chorvachilik, dexqonchilik, hunarmandchilikdan boshlaganlar[1]. Natijada ovchilik uchun kamon, pichoq, nayza, dexqonchilik uchun o’roq, bolta, bel-kurak, bug’doy-don yanchish uchun tegirmon (xoroz) hunarmandchilik uchun nina bigiz, po’stin – telpak uchun xayvon terisi, osh tuzi kabilar asta-sekin takomillasha borganligi sababli ularni jamoa tarzida ishlab chiqarish ustaxonalari oddiy bo’lsa ham boshlang’ich fabrikalar kasbhunarmandlar uyushmasi-markazlari hosil bo’lgan. Shu tariqa Yevropa va Osiyo mamlakatlarida shamol tegirmonlari, suv tegirmonlari, qo’l tegirmonlari, ot, eshak, tuya bilan xarakatlantiriladigan tegirmonxorozlarda don yanchilgan-un hosil qilingan yoki juvoz yog’i ishlab chiqarilgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida daryo, dengiz okean bo‘yi mamlakatlarida qayiq, kemalar yasalgan va qo’shni yerkarni o’zlashtirish, bosib olish (XVII-XIX) asrlarda paydo bo‘lib-kapitalistik tuzum paydo bo’lgan. O’rta Osiyo xususan O’zbekiston, Farg’ona zabit qilinganidan so’ng ming yillardan buyon davom etib kelayotgan sopol hunarmandchiligi uy-shaharsozlik, kiyim-kechak, zargarlik, chetga sotish biroz kasod topsa ham yo‘q bo‘lib ketmagan. XX asrning 20-30 yillarida Farg’ona, Quva, Marg’ilon kabi shahar va tumanlarda hunarmand artellari ochilgan va ustoz-shogird usuli bilan Chust do’ppi va pichoqsozligi, Marg’ilon ipak va atlaschilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik, sangarlik (marmarga naqsh o‘yish) uyushmalari ochilgan[2].

San’at juda qadim zamonalarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo’ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go’zallik hissi ortdi, voqelikdagi go’zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi[3].

San’at faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, kishilarning ma’naviy ongi rivojlanishiga bog’liq. Bu kulolchilik san’atini puxta o’rganish uchun insonda, avvalo, iste’dod bo’lishi kerak, - deydi usta kulol. – Mana shu hunar sir-asrorlarini qunt bilan, erinmay o’rgatgan ustozim, rahmatli usta kulol Umar Jo’raqulovdan bir umr minnatdorman[4]. Albatta, ushbu san’atni o’rganish mumkin, ammo o’z yo‘li, uslubiga ega bo‘lish juda murakkab jarayon. Xalq xunarmandchiligi va amaliy san’atining tur va shakllari haqida ham ayrim ma’lumotlarga ega bo‘lish biz uchun zaruratdir.

Bizning davrimizga kelib katta-katta shaharlardagi aholining ko’pchilik qismini hunarmandlar tashkil etmokda. “Hunar-hunardan unar” qabilida yoshlarimiz uchun maxsus san’at maktablari va boshka turdagi o’quv yurtlarining tashkillanishi ham asosiy omillardan biriga aylanib kelmoqda. Bu masalada davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy-maishiy turmush tarzimizni yuksaltrishga qaratilgan ishlarning mohiyatini baholash ancha quvonarli holdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. S.Bulanov. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati. T., 1991 yil.
2. M.Rahimov. O’zbekiston badiiy keramikasi. T., 1961 y.
3. A.Turg’unov.O’zbek kulolchilgi san’atining hududiy xususiyatlari.T. 2001.
4. Q.Usmonov., M.Sodiqov., S.Burxonova. O’zbekiston tarixi.-Toshkent: Sharq, 2005.-49 b
5. N.A.Dmitriyeva, L.I.Akimova. Qadimgi dunyo madaniyati. - M.: Bolalar kutubxonasi, 1998-25 b
6. N.Abdullayev. Madaniyatlar tarixi.-Toshkent: O’qituvchi, 1986.-118 b



## **V. TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKA**

### **TIMSS XALQARO BAHOLASH TIZIMI**

**Ahmadjonova Ozoda Alisher qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti talim -tarbiya nazariyasi  
va metodikasi yo‘nalishi 1 kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada TIMMS xalqaro baholash tizimi hamda uning O‘zbekistondagi ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Innovatsiya, TIMSS, ta’lim, matematika, tabiiy fanlar, o‘quvchilar, samaradorlik, baholash tizimi.

Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizning yangilanishi hayotimiz taraqqiyoti zamon talablariga mos keladigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro me’zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo’lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darjasini va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘sishimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni,

o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarining oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko‘rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan.

Matematika va tabiiy fanlarni baholash bo‘yicha TIMSS tadqiqoti ta’lim samaradorligini monitoring qilishda qimmatli manba hisoblanadi, chunki, odatda, STEM deb nomlanadigan tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika o‘quv dasturining asosiy yo‘nalishlaridir. Shubhasiz, hatto bugungi kunda ham ko‘pgina ish o‘rnlari uchun matematika va tabiiy fanlardan asosiy tushunchalarga ega bo‘lish talab qilinadi va bu kelajakda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. STEM kasblarida ishlaydiganlar ochlikka qarshi kurash va yashash joylarining yo‘qolishi kabi dunyo muammolariga yechim topish, shuningdek, global iqtisodiyotda o’sish va barqarorlikni qo’llab quvvatlashga mas’uldirlar. Shuningdek, matematika va tabiiy fanlar kundalik hayotning asosi hisoblanadi. Tabiiy fanlar - bu tabiat, jumladan, bizning ob-havo, yer va suv, oziq-ovqat va yoqilg‘i manbalarimiz. Matematika bizga kundalik vazifalarni bajarishga yordam beradi va biz tayanadigan kompyuter, smartfon, televizor kabi texnologiyalarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash ayni vaqtda muhim hodisa. Agar:

- Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash samarali tashkil etilsa;
- Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash usul va vositalari faollashtirilsa;

• O`qituvchi ta`lim jarayonida ijodiy ishlab, matematika va tabiatshunoslik darslarida hayotiy misollar, mantiqiy tushunchalardan o`rinli foydalanilsa, o`quvchilarining o`quv-bilim faoliyat samarali bo`ladi. 60 dan ortiq mamlakatlar o`quvchilarining bilim, ko`nikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahoning eng ilg`or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o`quvchilarining ta`limiy yutuqlari: bilish, qo`llash, mulohaza yuritish baholanadi. O`zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O`zbekiston ta`lim tizimida qo`llash, o`z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo`ladi. 2023-yilda IEA va TIMSS & PIRLS xalqaro o`quv markazi to`rtinchi va sakkizinchisinfarda TIMSS (Xalqaro matematika va fanlarni o`rganish tendentsiyalari) sakkizinchisiklini o`tkazib, o`quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo`yicha yutuqlari bo`yicha qariyb 30 yillik trend ma`lumotlarini taqdim etadi. TIMSS 2023 ning TIMSS 2019 bilan boshlangan raqamli baholashga o`tishini yakunlaydi, bu texnologiya maktablar va jamiyatda keng qo`llanilishini aks ettiradi. TIMSS 2023 baholashlari o`quvchilarni rag`batlantiradigan va raqamli muhitdan foydalanadigan yangi va jozibador element formatlari, interfaol xususiyatlar hamda ssenariy asosidagi muammolarni hal qilish va so`rov vazifalarini o`z ichiga oladi.

TIMSS tadqiqotida o`zlashtirish dinamikalarini muntazam baholashga, mazmun sohasi va ta`lim olish uchun kontekstlarda paydo bo`ladigan muammolarga e’tibor qaratiladi hamda samarali usul va faoliyat ishtirokchi mamlakatlarda ta`limga oid qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TIMSS tadqiqotida o`zlashtirish to’g’risida olingan ma’lumotlar bilan kontekstli so’rovnomalar shkalalari birgalikda quyidagi maqsadlarda qo’llanilishi mumkin:

- tizim darjasidagi o`zlashtirish dinamikalarini global kontekstda monitoring qilish;
- TIMSS tadqiqotlari natijalaridan ta`lim siyosatini yurituvchilarini xabardor qilish va yangi yoki qayta ko’rib chiqilgan siyosatning samaradorligini monitoring qilishda foydalanish;

- Past natija ko’rsatayotgan har qanday hududlarni aniqlash va o’quv dasturlarini isloh qilishni rag’batlantirish;
- o’tgan davriylikdagi to’rtinchi sinf kogortasi keyingi davriylikda sakkizinchisinfda qanday ishlashini kuzatish;
- uy va mакtabda ta’lim olish va ta’lim berish sharoitlariga bog’liq holda o’quvchilarning matematika va tabiiy fanlarni o’zlashtirishlari haqidagi muhim ma’lumotlarni olish.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O’zbekiston ta’lim tizimida qo’llash, o’z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo’ladi.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar.**

1. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi matbuot xizmati.
2. " Xalq so’zi " gazetasi
3. <http://timssandpirls.bc.edu> sayti-TIMSS&PIRLS International Study Center
- 4.<https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-xalqaro-timss-tadqiqtida-rasman-qatnashishga-kirishdi>
5. Xamedova N.A, Ibragimova Z, Tasetov T. Matematika. Darslik. T.: Turon-iqbol, 2007. 363b.
6. Хамедова Н.А., Садыкова А.В., Лактаева И.Ш.. MareMarnKa. Учебное пособие. Т.: Жахон-принт, 2007. 140 с.

## **QALAMTASVIR MASHG’ULOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

***Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o’g’li***

*Namangan davlat pedagogika instituti o’qituvchisi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada qalamtasvir mashg’ulotlari samaradorligi oshirish, amaliy mashg’ulot jarayonida yo’l qo’yilgan xato kamchiliklarni bartaraf etish va yutuqlarga erishish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalana olish

va amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish xususida ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** modeli, informasion, festivallari, Ko’rish mexanizmi, chizish texnikasini, individuallashtirish, texnologiya, tekstura, siluet.

**Аннотация:** В данной статье даны научно-практические рекомендации, позволяющие повысить эффективность обучения рисованию карандашом, исключить ошибки, допущенные во время практических занятий, и добиться достижений, уметь использовать современные образовательные технологии и организовать практические занятия.

**Ключевые слова:** модель, информация, фестивали, механизм Vision, техника рисования, индивидуализация, технология, фактура, силуэт.

Tasviriy va amaliy san’at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to’la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo’shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo’nalishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda mamlakatimizda tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida yurtboshimiz bir qator vaziyfalar va topshiriqlar belgilab berdilar.Bu esa shu soxa egalariga yana bir karra masuliyat yuklaydi va keng imkoniyatlardan eshiklarini ochadi desam mubolag’a bo’lmaydi.Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, soxa rivojiga xissa qo’shish va yutuqlarni namoyish etish har birimizning oldmizda turgan ulkan vazifa hisoblanadi.

Tasviriy san’atni o’rganish yoshlarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ranglar, buyumlarning nisbatlari, ularning konstruktiv tuzilishi, perspektiva (qisqarish) qonunlarini nazariy jihatdan o’rgatadi va ularning estetik didlarini o’stirishga xizmat qiladi. Yoshlarga yuqori darajada ta’lim-tarbiya berish – bo’lajak rassom-pedagogdan tasviriy san’at sohasida amaliy malakalarini yuqori darajada egallagan bo’lishdan tashqari, psixologiya sohasida ham yetarli ma’lumotga ega bo’lishni taqozo etadi.

Qalamtasvir o‘quv fani ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda o‘zining keng imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu fan san’atkorning dunyosini,

borliqni, uning go‘zalligini tasvirlar hamda ranglar orqali ko‘rish va tasavvur etish, haqiqiy san’at asarini qadrlashni o‘rgatadi. Bu fanning bosh maqsadi – insonlarda badiiy madaniyat va badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish hamda ijodiy faoliyatni tarbiyalashdan iboratdir

Qalamtasvir darslari samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ushbu fan o‘qituvchisining tasvirlash qonun-qoidaliri to‘g’risidagi bilimlarni va rasm chizish texnikasini mukammal o‘zlashtirishi, amalda talabalarga ko‘rsatib berish ko‘nikma va malakalariga egaligi shu bilan birqalikda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalana olishni taqozo etadi.

An’anaviy ta’lim – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish va uni yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modeli bo‘lib, undan ko‘p modullar qatori qalamtasvir fanlarini o‘qitishda ham qo’llanilib kelinmoqda.

Bugungi kungacha qalamtasvir fani o‘qituvchilar tomonidan an’anaviy ta’lim tizimiga asoslangan ya’ni bir tomonlama tashabbus bilan amalga oshirib kelingan mashg’ulotlar o‘z samarasini bermaganligini kuzatish mumkin. Endilikda esa zamonaviy ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarini olib kirish va mashg’ulotlarni o‘qituvchi talabalar bilan hamkorlikda amalga oshirishini talab qilmoqda.

Zamonaviy ta’limda esa nafaqat o‘qituvchi, balki talabaning faolligi, o‘z ustida ishlashi, izlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida bugungi kun talabi bilan bevosita bog‘liq jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, informasion texnologiyalar asri sanalgan bir vaqtda ana’anaviy maktabni o‘zi bilan cheklanib qolish aslo to‘g‘ri kelmaydi.

Noan’anaviy ta’lim jarayonida talabalar va o‘qituvchi munosabavtining o‘ziga xos jihatni talabalar mustaqilligi va o‘quv faoliyati boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil qilish, ta’lim olishda majburlash emas, talabalarni ishontirish, biron-bir faoliyatni amalga oshirishda buyruq orqali emas, aksincha shu faoliyatni samarali tashkil qilish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqi berilishi uni asosiy jihatni sanaladi. Shuning uchun ham zamonaviy ta’lim tizimida aynan uni amalga oshirish zarur.

Qalamtasvir mashg’ulotlarini o’zlashtirishda “oddiydan murakkabga” tamoyiliga asoslanadi, bu har qanday yoshda chizishni o’rganish imkonini beradi. Qalamtasvir mashg’ulotlari sizga klassik qonunlarga muvofiq narsalarni, hayvonlarni, odamlarni tasvirlashni o’rgatadi.

Qalamtasvir sir asrorlarini o’zlashtirganingiz sari badiiy savodxonlikni ham o’rganasiz. Natijada sizning qobiliyatingiz rivojlanadi. Siz rejalashtirgan hamma narsani qog’ozda ishonch bilan aks ettirishga muvofiq bo’lasiz. Mashg’ulotlar sinfda, ustoz rahbarligida o’zlashtirish juda muhimdir.

Qalamtasvir mashg’ulotlari davomida siz:qalamtasvir qonunlari,qog’oz varag’ida ob’ektlarni tartibga solish ko’nikmalari,nisbatlarni to’g’ri aks ettirish qobiliyati, yorug’lik va soyani tartibga solish va narsalarning teksturasini yetkazish san’ati kabi qobilyatlarni puxta egalaysiz.

Birinchi o’rganish jarayonlarida siz uch o’lchamli figuralarni - kub, silindr, sharni tasvirlashni o’rganasiz. Shu bilan birga, siz tasvirlash texnikasini o’zlashtirasiz. Yorug’lik qanday tushadi, eng chuqur soya qayerda, soyani qanday to’g’ri qo’llash kerak - bu ko’nikmalarni o’zlashtirish obyektlarni eng real tarzda tasvirlashga yordam beradi. Bugungi kunda ishlab chiqilgan o’qitish usullari tufayli siz qisqa vaqt ichida kerakli bilimlarni olishingiz mumkin.

Vaholanki, fanni o’z kuchingiz bilan emas, ustoz rahbarligida o’zlashtirganingiz talab etiladi. U tushuntiradi, ko’rsatadi va xatolardan qochishga yordam beradi. Mashg’ulotlarda ko’roq qatnashish,o’z ustida ko’proq ishlash kerak, aks holda ko’zlangan maqsadga erisholmasligingiz mumkin. Asosiy tamoyillarni tushunishingiz uchun bir necha mashg’ulotlar kerak bo’ladi. Keyinchalik takomillashtirish uchun qancha vaqt va kuch sarflashingiz faqat sizga bog’liq bo’ladi Ko’nikmalarni qanchalik muvaffaqiyatli va tez o’zlashtirsangiz, qiziqarli ijodiy jarayonga tezroq o’tishingiz mumkin.

**Qalamtasvir mashg’ulotlari ustida ishlashda yo’l qo’yilgan xatolar**

Qalamtasvir mashg’ulotlari ustida ishlashda yo’l qo’yilgan xatolar masshtab, nisbatlar, yorug’lik va soya va teksturaning noto’g’ri tanlanishi yoki inson anatomiyasidagi xatolar bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

Qattiqligi yoki yumshoqligi to’g’ri tanlanmagan qalamdan foydalanish ishlaniyotgan har qanday asarning xira yoki juda qorong’i ko’rinishiga olib kelishi

mumkin. Rasm chizishni o'rganishda fotosuratlardan foydalanib chizish ham yaxshi natiyja bermaydi. Gap shundaki, fotosuratlar obyektlarning siluetlarini buzadi va yorug'lik va soya munosabatlarini soddalashtiradi - bu chizilgan tekis ko'rinishiga, yorug'lik ishonchsiz bo'lishiga va chiziqlar egri va haqiqiy bo'lмаган bo'lib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Bular chizma ustida ishslashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolardir. Biroq, amaliyot va mashg'ulotlar bilan ko'roq shug'ullanish natiyjasida bu xatolar bartaraf etilishi mumkin va rassom sifatli asarlar yaratishiga xizmat qiladi.

Qalamtasvir mashg'ulotlari samaradorligini oshirish usullaridan biri ko'rik – tanlovlар, o'tkazish ilmiy konferensiyalar tashkil qilish hisoblanadi. Ushbu tanlovlarda ishtirok etgan talabalar ijodiy ishlarini ko'p soxa egalari hamda mutaxasislar muhokamasidan o'tkazib oladilar va bir-birlari bilan ijodiy muloqotga kirishishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Ana shunday o'ziga xos ta'lim jarayoni hisoblangan ko'rgazmalar o'z navbatida talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni mustaqil ravishda bartaraf qilish imkonini beradi.

Ta'limning o'ziga xos ushbu an'anaviy jihatni Respublika bo'yicha o'tkazib kelinayotgan "Tasviriy san'at" festivallari yildan-yilga ko'lami kengayib qiziqishlar hamda ishtirokchilar soni tobora ortib bormoqda.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroq hisoblanadi. Ko'rish mexanizmi, ya'ni ko'zning ma'lumotlarni o'tkazish qobiliyati eshitishnikiga nisbatana ancha yuqori. Bu o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlatilganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi.

Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" - deb bejiz aytilmagan.

O'rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samaradorligini oshirga xizmat qiladi. Ko'rgazmalarni tashkil etish va o'tkazish o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Qalamtasvir mashg’ulotlari samaradorligini oshirish usullaridan yana biri esa bir dona qog’oz yuzasiga tasvirlanayotgan ob’yektni bir necha ko’rinishini yonma-yon ishlash hisoblanadi. Misol uchun, talabadan “harkat holatidagi qiyofachi tasvirini ishlash” talab qilinganida, odatda bitta qog’oz yuzasida qiyofachini bir xil ko’rinishining tasvirini ishlash bilan cheklanib qoladi. Qiyofachini boshqa tomondan ko’rinishining esa deyarli tasviri ishlamaydi. Bizningcha bitta qog’oz yuzasiga qiyofachini bir necha tomondan ko’rinishini ishlasa, naturani har tomonlama ko’rish va taxlil qilish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa chizish texnikasini chuqurroq o’rganib taxlil qilishga undaydi. Shu orqali, talaba qiyofachining ikkita tasvirini bir-biridan farqini o’zi nazorat qilib, muqaddam yo’l qo’ygan kamchiligini mustaqil bartaraf qilib boradi.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda Badiiy ijod bilan shug’ullanish nafaqat moddiy qadriyatlarni yaratadi, balki insonni estetik jihatdan yuksaltiradi, axloqiy jihatdan go’zal xulqli qiladi. San’at esa bunga hissa qo’shadi. Ijodkorlarning ijodiy jarayonlari orqali insonlarining chuqur vatanparvarlik tuyg’ularini, ularning erkin va mustaqil vatanga, uning ijodi bilan o’zgartirilgan tabiatga bo’lgan muhabbatini ochib beradi. Asar jamiyat a’zolari o’rtasidagi yangi munosabatlarning mohiyatini ochib beradi.

Tasviriy san’atning har qaysi yo’nalishida ijod qilishdan qattiy nazar insoniyatni manaviy yuksaltirishga, hayotga, tabiiatga bo’lgan muxabbatni oshirishga xizmat qilishi va yaxshilikka, vatanparvarlikka chorlamog’i lozim.

Xozirgi globallashuv zamonda, texnika asrida tasviriy san’at o’z mavqeyiga ega bo’lib turgan yo’nalish. Buning sababi san’at xech qachon vaqt va zamon tanlamaydi. Ijodkorning g’oyaviy maxsuli bo’lgan badiiy asarlar doimo insonlarni o’ziga jalb qilib kelgan va rivojlanayotgan Yangi O’zbekistoning barcha tarmoqlari bilan uzviy bog’liqlikda rivojlanishiga xissa qo’shadi.

### **Adabiyotlar**

1. Komoldinov.S.J. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCHInnovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.
2. Komoldinov.S.J. Ijodiy manzaralar chizish bo‘yicha amaliy va nazariy tavsiyalar International Conference on Research Identity, Value and Ethics April 30th 2022 **10-13 b.**

3. Boltaboyev Azizbek Xasanboy o‘g‘li. TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Economy and Innovation ISSN: 2545-0573 Volume: 43 | 2024
4. Boltaboev Azizbek Hasanboy ugli. HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7607332>
5. Azizbek Khasanboyo‘G’li Boltaboev. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONALPEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS BY MAKING PENCIL DRAWINGS AND DRAFTS. "Экономика и социум" №3(106) 2023
6. Boltaboyev Azizbek Xasanboy O’g‘li. O’quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatnirish texnologiyasi. Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-namdu ilmiy Axborotnomasi–2023-yil\_7-soni.

## ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSİYALAR QO`LLASHNING MUAMMOLI XUSUSİYATLARI

*Karimov Islomjon Isroiljon o`g`li*

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

*Gmail: [islomjonkarimov2775@gmail.com](mailto:islomjonkarimov2775@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimining innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning bir qator murakkab jihatlari va ularning yechimlari taxlil qilinadi. Zamonaviy ta`limdagi innovatsiyalarning bugungi axamiyati o`rganiladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется ряд сложных аспектов использования инновационных технологий современной системы образования

и их решения. Изучено сегодняшнее значение инноваций в современном образовании.

**Abstract:** This article analyzes a number of complex aspects of the use of innovative technologies of the modern education system and their solutions. Today's importance of innovations in modern education is studied.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim metodlari, taqdimotlar, innovatsion yondashuv, an`anaviy ta`lim metodlari, oliv ta`lim, dunyoqarash.

**Ключевые слова:** Методы обучения, презентации, инновационный подход, традиционные методы обучения, высшее образование, мировоззрение.

**Key words:** Educational methods, presentations, innovative approach, traditional educational methods, higher education, worldview.

Har bir sohada yangilik kiritib, samaradorlikni maqsad qilgan holda ishlash prinsiplari olib borilishi taraqqiyot uchun muxim. Qisman yoki butkul yangi ishlash prinsiplarini hayotga tadbiq etish, xalqaro tajribalarni o'zlashtirish mustaqillik yillarida ta'lim tizimiga ham joriy etildi. Ta'lim mafkurasi va vazifalari qayta ko'rib chiqilishi barobarida ilg'or dars o'tish metodlari ham joriy etib borildi. “Bugungi kunda mamlakatimizni yangilanishida hamda modernizatsiya qilinishida, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o`z oldimizga qo`ygan ko`p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas`uliyatni o`z zimmasiga olishga qodir bo`lgan, g`ayrat shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz.[1] Innovatsiyalar axborot vositalaridan foydalananishning sezilarli darajada oshgani va ta'lim tizimiga yangiliklar kiritib borilishi bilan turli o'zgarishlarga duch kelib ayrim jihatlarda samarali tarzda ta'sir qildi. Har bir innovatsion yangilik ma'lum bir davrgacha yetakchi metod yoki uslub sifatida qo'llanilishi ko`plab omillarga bog`liq holda amaliyotga tadbiq etiladi. Innovatsiya - bu yangi tovar yoki xizmatlarni joriy etish yoki tovarlar yoki xizmatlarni taklif qilishni yaxshilashga olib keladigan g'oyalarni amaliy amalga oshirish.[2]

Qaysidir metod bir hududda yaxshi ta`sir ko`rsatsa, boshqa hudud yoki tizimda bunchalik samarali bo`lmasligi ham mumkin. Ta`lim tizimizdagи “9+3

dasturi” misolida ko`radigan bo`lsak, O`zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov davrida amal qilgan bu loyixada 9 yillik mакtab ta`limi va 3 yillik o`rta mahsus ta`limni majburiy o`ргanish bilan o`quvchilar ta`lim olar edilar. Biroq ushbu loyiha amaliyotda mahsuldorlikka olib kelmadi. Akademik litsey va kollej bitiruvchilarining kasb-hunar o`ргanishlari ularga ma`lum bir faoliyatga yo`naltirsada ularning ishga joylashishlarida muammolar ortib bordi. Natijada maktablar qaytadan 11 yillik ta`lim tizimiga o`tkazildi. O`qitish tizimida ta`lim tizimi rivojlangan davlatlardan tajribalar o`zlashtirila bordi. Zamonaviy ta`lim tizimida ta`lim samaradorligiga erishishda, zamonaviy ta`lim muhitini shakllantirish va muntazam moslab borishda innovatsiyalarning paydo bo`lishi bilan nafaqat maktablarda, balki oliy va professional ta`limda qo`llanib borishga sabab bo`lmoqda.

Ta`lim metodlariga kiritiladigan yangiliklar samaradorligi istiqbollari ko`plab ta`lim tizimi mutaxassislari tomonidan ta`kidlansada, uning bir qator muammoli masalalari ham mavjud. Dars o`tish metodlarida va axborot kommunikatsion vositalarida ham muntazam o`zgarishlar sodir bo`layotgan hozirgi davrda muammoli masalalarga ham ahamiyat qaratish va sabablarini o`rgangan holda muammoning yechimini aniqlash muhim vazifalardandir.

**Avvalambor**, ba`zi zamonaviy innovatsiyalar talaba va o`quvchilarda fan va ilmiy manbalarni o`rganishda ta`limning mufassal o`rganilishiga ta`sir ko`rsatadi. Taqdimotlar (slaydlar) yordamida dars o`tishni keng qo`llovchi o`qituvchilar darsning qiziqarli tarzda o`tib o`quvchilarni jalb etishga xarakat qiladilar. Taqdimotlar odatda ko`rgazmalar, kirish, ma'ruza yoki ma'lumot berish, ishontirish, ilhomlantirish, rag'batlantirish, xayrixohlik yaratish yoki yangi g'oya/mahsulotni taqdim etish uchun mo'ljallangan nutqdir.[3] Darsning barcha o`quvchilarni jalb etishi maqsadida mavzuning eng qiziqarli va asosiy ma'lumotlariga to`xtalib o`tiladi va taqdimotda namoyish etiladi. Ayni mavzu yoki fan dasturida berilgan ahamiyatli lekin qiziqarli bo`lmagan qismlariga e`tibor kamroq qaratiladi yoki umuman tushurib qoldiriladi. Buning natijasida talabalarga kerakli bo`lgan mavzu qismlari o`rganilmasligi mumkin.

Insonlarning dunyoqarashi va qaysidir fanga nisbatan tajribalari farqlangani uchun ham an`anaviy ta`lim metodlarining qo`llanishi bir qator ustunliklarga ega.

Slayd taqdimotlar orqali dars o`tilganda esa, ushbu jihatlar barchaga bir xilda tuzilgani uchun o`qituvchi faqatgina taqdimot bo`yicha ma`lumot beradi. Bunda darsni mutaxassislik fani sifatida o`tmayotgan talabalarning o`qituvchi bilan aloqasi darsning asosiy qismi leksiya ko`rinishida bo`lgani uchun muammoli masala bo`ladi. Ko`rgazmali qurollar yordamida dars o`tilganda esa, rasm yoki biror moddiy ashyoni o`rganilganda yoki hujjatli film tomosha qilinganda darslik va o`quv rejada berilmagan ma`lumotlarni ham o`rganishga to`g`ri keladi. Noan`anaviy dars metodlarini qo`llanganda keraksiz bo`lganva yoki ahamiyati yuqori bo`lmagan jihatlarga keng o`rin berilishi innovatsiyalar va noan`anaviy dars metodlarining asosiy kamchiliklaridan biridir.

**Ikkinchidan,** Ikkinchidan ta`lim tizimida qo`llaniladigan ayrim dars metodlari fanlarni o`zlashtirishda qiziqishning so'nishiga olib keladi. An`anaviy dars shaklida o`qituvchi faollik bilan dars mashg`ulotlarida nazoratchilik funksiyasin bajaradi. O`quvchi va yoki talabalar passivlik holatida bo`ladi. Darsni o`rganishda o`qituvchilar internet yoki boshqa manbalardagi tayyor materiallardan foydalanib dars o'tishni odat qilib olganidan so'ng, darsni o`rgatish va tushuntirishda darsga tayyorlanib chiqmay tayyor o`quv materiallaridan foydalananadilar va innovatsion dasturdagi mavzulardan boshqa bilimlarni o`rganmaydilar. O`quvchilar ham faqatgina chegaralangan dars mashg'ulot rejalar yuzasidangina o`rganishga harakat qiladilar.

Ayrim hollarda internetdan yuklab olingan tayyor manbalar fan mavzusini yaxshi yoritmaydi yoki qisman dars rejalariga mos kelmaydi. Talaba va o`quvchilar esa, imtixon va nazorat ishlari uchun qo`shimcha yuklamalarni olishlariga va ikkilanishlarga duch kelishlari mumkin. Darsga yondashuvlarning o`zgarishi astasekinlik bilan fanlarning o`rganilishiga ham munosabatni o`zgartirib boradi.

**Uchinchidan,** ta`lim innovatsiyalari qo`llanishi va unga o`rganilishida moslashuv turli tarzda kechadi. Yurtimizda qo`llanilayotgan va amalga tadbiq etilishi kutilayotgan ta`lim innovatsiyalari samaradorligi qanchalik bizning jamiyatimizda namoyon bo`lishi va bunga qancha vaqt talab qilinishi muammolidir. Ayrim ta`lim yangiliklari bir yillik tajriba davriga ham yetib bormaganini kuzatishimiz mumkin. O`zbekistonda oliy ta`lim muassasalariga o`qishga kirish imtixonlari asosan test ko`rinishida bo`lgani uchun ta`lim tizimi o`quvchilarni

yodlash ko`nikmalarini rivojlantirishga ixtisoslashgan. G`arb davlatlarida mavjud ta`lim tizimlarida esa, mustaqil fikrlash va boshqa ko`nikmlar ham muhim ahamiyatga ega. bolalar va boshlang`ich sinf o`quvchilarida qo`llaniladigan harakatli o`yinlar bilan dars o`tishda o`quvchilar yaxshi jalb qilinsada, bunday o`yin metodlariga ko`nikib qolgan o`quvchilar an`anaviy dars metodlarida ishlashga qiynaladilar. Chunki darsni faqatgina o`yinlar uchungina o`rganishga intilish kuchayadi.

Darslarni o`tishda chet davlatlarda amalda bo`lgan samarador ta`lim metodlaridan foydalangan holda olib borish o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatishi barobarida ushbu ta`lim metodlariga moslashib olgunicha o`rganuvchilar o`tish davrida bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
5. Schumpeter, Joseph A., 1883–1950 (1983). *The theory of economic development: an inquiry into profits, capital, credit, interest, and the business cycle*. Opie, Redvers,, Elliott, John E. New Brunswick, New Jersey. [ISBN 0-87855-698-2](#). [OCLC 8493721](#)
6. Swathi, T.V.S.S (June 2015). ["The importance of effective presentation for organizational success"](#). IUP Journal of Soft Skills. **9** (2). [SSRN 2686971](#). Retrieved 12 April 2021.

### **TASVIRIY SAN’AT TO’GARAK RAHBARINING MUSTAQIL IJODIY ISHLARI VA TASHKILOTCHILIK QOBILIYATI**

*Azizbek Boltaboyev*

*Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.*

*E-mail: [azizbekboltaboyev1994@gmail.com](mailto:azizbekboltaboyev1994@gmail.com) Tel- 943082603*

**Annotatsiya.** Tasviriy san’atda dars mashg’ulotlari jarayonida erishilgan natijalarni yanada yaxshilash uchun sinfdan tashqari ishlari umumiy o’rta ta`lim tizimida muhim o’rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san’at, haykaltaroshlik

kabi san’at turlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari ishlar, to‘garaklardagi mashg‘ulotlar, uchrashuvlar, ko‘rgazma, tanlov, san’at kechalari kabi qator yo‘nalishlarda o‘tkaziladi.

**Kalit so’zlar:** diaproektor, epidiaskop, filmoskop, (lagan, choynak, piyola, guldon, kapgir, bidon, qumg’on, patnis, sabzi taxta.

Tasviriy san’atto‘garak rahbari to‘garak a’zolariga shaxsiy ijod namunasi bilan o‘rnak bo‘lishi lozim. Tashabuskorligi, tashkilotchilik qobiliyati bilan ham o‘quvchilarga shaxsiy namuna ko‘rsatishi kerak. Bularni barchasi birinchi navbatda ustozning ijodkorligida namoyon bo‘ladi. To‘garak rahbari o‘zi amalda biror narsani chizib ko‘rsatmas ekan, o‘quvchilarini ortidan ergashtira olmaydi. Shuning uchun ham tadqiqot ishimizda to‘garak rahbarining ijodkorligiga alohida e’tiborni qaratdik.

V.A.Slastenin yuksak barkamollikka, mutaxassisning ijodiy faoliyatining davomiyligiga olib keladigan sub`ektiv va ob`ektiv omillarini asoslab bergan. Ob`ektiv omillarga olingan ta’limning sifati, sub`ektiv omillari esa insonning iste`dodi va qobiliyati, ishlab chiqarishdagi vazifalarni samarali hal qilaolish mas’uliyati, mutaxassislikka yondashuvini kiritadi .

Yuksak kasbiy barkamollikka erishishning omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- iste’dod nishonalar;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste’dod;
- oilaviy muhit;
- ta’lim muassasasi;
- shaxsiy xatti-harakati.

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual-ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi, intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan hushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv,
- yaratuvchilikka vujudan kurashuvchanlik qobiliyati;

- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayriodatiylik va yangilikka bo‘lgan his-tuyg‘u, kasbiy barkamollik, bilimga bo‘lgan chanqoqlik .

V.A.Slastenin shaxsiy ijodkorlikni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalari deb quyidagilarni belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli me’yorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi orqali shaxsiy rivojlanishni ta’minalash .

Tasviriylar san’ato‘qituvchisi, to‘garak rahbarining ijodkorligi avvalo, ijodiy ishlaridan boshlanadi va ular ikki xil yo‘nalishda bo‘lishi mumkin:

1. Ilmiy - uslubiy ishlar.
2. Tasviriylar - ijodiy ishlar.

***Ilmiy – uslubiy ishlar***, ilg‘or tasviriylar san’ato‘qituvchilarining ish tajribalarini o‘rganish, metodist olimlar bilan hamkorlikda tajriba-sinov ishlarini olib borishni nazarda tutadi. Natijada to‘garak rahbari maktab, tuman, shahar, viloyat, respublika, xalqaro anjuman va kengashlarda tadqiqot natijalari asosida ma‘ruzalar o‘qiydi, matbuotda, ilmiy to‘plamlarda maqolalar e`lon qiladi. O‘rgangan ilg‘or tajribalardan o‘z faoliyatida samarali foydalanadi. Ilg‘or tajribalarni o‘rganib tasviriylar san’ato‘quv fani mazmuniga Yangi kiritilgan mavzularda ilmiy izlanishlar olib boradi. Ayniqsa, tabiiy materiallar; barg, shox-shabba, bug’doy poyasi, ildizlar, meva va sabzavotlarning urug‘lari, parandalarning patlari, rangli toshlar hamda sintetik buyumlar va shirin ichimliklarning idishlari, dori-darmondan chiqqan idishlari, gazmol parchalari, folga qog‘ozlari, sim, g‘altak, kanop, gugurt qutisi va shu kabi boshqa tashlandiq narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va ulardan badiiy qurish-yasash, aplikatsiya, kollaj, dekorativ badiiy - bezash ishlarida foydalanishni yaxshi bilishi talab qilinadi. Ulardan oqilonra va o‘z o‘rnida foydalanish esa mashg‘ulotlar saviyasiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

***Tasviriylar - ijodiy ishlar*** o‘qituvchi, to‘garak rahbarining shaxsiy mahoratini oshirib borishi uchun xizmat qiladi. U o‘qituvchini o‘zi ma‘qul kurgan tasviriylar yoki amaliy san’atning turlaridan birida ijodiy ishlar bajarishini taqozo etadi. Ijodiy

ishni ushbu shakli bo‘yicha to‘garak rahbari olib borgan ishlarining natijalari yuzasidan ko‘rgazma va tanlovlarda qatnashadi.

Ma’lumki, hozirda ta’lim jarayonini texnika vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda texnika vositalarining yangidan-yangi turlari paydo bo‘lmoqda va ular ta’lim sifatini zamon talablari darajasiga olib chiqish uchun xizmat qiladi. Tasviriy san’atta`limining hozirgi ahvoli shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchi, to‘garak rahbari ta’limni tashkil etuvchi davlat va jamoatchilik tashkilotlaridan shart-sharoitlar kutmasdan faoliyatini o‘zi qayta qurishi zarur. Hozir va bundan buyon ham ta’lim jarayonlarida texnika vositalari muhim o‘rinni egallaydi hamda dars samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan to‘garak rahbari ham bu borada bir qator ishlarni amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

1. Foto apparat bilan ishlash va undan ta’lim jarayonida foydalanish. Ayniqsa, u san’atasarlarining slaydalarini tayyorlashda nihoyatda qo‘l keladi.

2. Audiovizual (magnitli yozuvlar, video) vositalarni ishlash tartibini o‘rganish va ularni badiiy ta’lim va tarbiya sharoitlarida qo’llash.

3. Proektsion apparatlar hisoblangan diaproektor, epidiaskop, filmoskop, kompyuter kabi vositalar bilan ishlashni puxta o‘zlashtirish, ulardan ta’lim jarayonida unumli foydalanish.

#### ***Tasviriy san’atxonasini tashkil etish va jihozlash.***

1. Tasviriy san’atni o‘qitishda maxsus xonani bo‘lishining zaruriyati.
2. Tasviriy san’at xonasida saklanadigan jihozlar va o‘quv qurollari.
3. Tasviriy san’at xonasida olib boriladigan ishlar mazmuni.
4. O‘qituvchilarning tasviriy san’at xonasida olib boradigan ishlaridagi kamchiliklar.
5. Tasviriy san’at xonasiga bo‘lgan talablar.
6. Tasviriy san’at xonasi uchun ko‘rgazmali qurollar to‘plash.
7. Tasviriy san’at xonasining badiiy bezagi.
8. Tasviriy san’at xonasining ish rejasi.

Tasviriy san’at darslarini davlat ta’lim standartlari talablari darajasida o‘gkazish uchun uning moddiy texnikaviy bazasini yaratish zarur. Chunki, tasviriy san’at darslarida texnika vositalari, ko‘rgazmali va metodik materiallar shunchalik

ko‘p ishlataladiki, ularni maxsus xonasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tasviriy san`atdan olib boriladigan ishlarning hajmi va turlari ham xilma xildir. Maxsus xonaning zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi.

- tasviriy san`atdarlarini yuksak uslubiy saviyada olib borish;
- tasviriy va amaliy san`atdan to‘garak ishlarini o‘tkazish;
- tasviriy va amaliy san`atdan sinfdan tashqari ishlarni (uchrashuv, tanlov, ko‘rgazma, suhbat, munozara, kecha v.b.) tashkil etish;
- o‘quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlarini o‘tkazish;
- jamoa bo‘lib televide niye orqali beriladigan maxsus ko‘rsatuvlarni tomosha va munozara qilish va shu kabilar.

Ayniqsa, san`at asarlarini perspektiva, rangshunoslik, yorug’ - soya qonun-qoidalarini, rassomlar hayoti va ijodini o‘rganishda tasviriy san`at xonasining ahamiyati bekiyosdir. Tasviriy san`atdan ko‘rgazmali qurollar hisoblangan gips geometrik shakllar, gips rozetkalar, uy-ro‘zg’or buyumlari (lagan, choynak, piyola, guldon, kapgir, bidon, qumg’on, patnis, sabzi taxta v.b.), musiqa asboblari (rubob, dutor, nay, childirma, surnay, skripka, v.b.), sabzavot va mevalar (olma, nok, bexi, qovun, tarvuz, qovoq, sabzi, piyoz, baqlajon, uzum, anor, v.b.)ning modellari, qush va hayvonlarning (quyon, chumchuq, qaldirg’och, kabutar, qarg‘a, bulbul, to‘ti, tipratikon, laylak, turna v.b.) tulumlarini saqlash va ulardan foydalanish uchun maxsus xona talab etiladi.

Tasviriy san`atdan o‘zbek va chet el rassomlari, xalq amaliy san`ati va me’morlik asarlari reproduktsiyalari, rangshunoslik, yorug’-soya va perspektiva qonun-qoidalariga oid chizish va bo‘yash usullarini ko‘rsatuvchi jadvallar borki, ulardan unumli foydalanish ko‘p jihatdan maxsus xonaga bog’liqdir.

Tasviriy san`at asarlarining reproduktsiyalari haqida ham ana shunday fikrlarni bildirish mumkin. Ma’lumki, ko‘plab jurnallarda tasviriy san`atga oid rangli reproduktsiyalar beriladi. Ularni yig‘ishga o‘quvchilar kuchidan dars va darsdan tashqari vaqtarda foydalanish mumkin. San`at asarlari reproduktsiyalarini yig‘ishga o‘qituvchi jiddiy va maqsadga muvofiq holda yondoshgandagina yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Bunday namunalarni ma’lum mavzu asosida yig‘ish va albomga yopishtirish, unga baho qo‘yish, olib borilayotgan tadbirning samarali bo‘lishiga olib keladi.

### Foydalanimanadabiyotlar.

1. Tolipov O.Q., Inoyatova M.E. Pedagog shaxsini tarkib toptirishning didaktik modellari. // “Pedagogika”, 2014, 3-son. –10-b.
2. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (12 (79)), 10-13.
3. Boltaboyev A. BO’LAJAK O’QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – T. 1. – №.
4. Boltaboyev, Azizbek. "In pointing natyurmort it's working methods and peculiarities." *The American Journal of Applied sciences* (2021).
5. Boltaboyev A. Color Relationships in Paintings //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023.
6. Boltaboyev A. O’QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARNI BAJARISHDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 7. – C. 553-559.
7. Boltaboyev A. Tasviriy san'at darslarida talabalarning o'quv jarayonida qoralamalar bajarish texnikalari //Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations. – 2023.
8. Xasanboy o'g'li B. A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 43. – C. 114-117.
9. Hasanboy o'g'li B. A. et al. METHODS OF USING MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 960-963.
10. Boltaboev A. HEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPATIAL PERSPECTIVE IMAGERY IN THE PERFORMANCE OF PENCIL AND

DRAFT IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATIONAL PROCESS //Solution of social problems in management and economy. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 12-17.

11. Boltaboyev, A. (2023). O’QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARINI BAJARISHDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 553-559.
12. Xasanboy o‘g‘li, B. A. (2024). TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 114-117.

## KIMYOVIY BOG‘LANISHLAR, KOVOLEN BOG‘LANISH

**Rahmonov Murodjon Ikromovich**

*Namangan davlat universiteti talabasi*

*nuridiyda05@gmail.com*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fanning ajralmas bo’laglaridan biri bo’lmish kimyoviy bog’lanishlar: kovolen bog’lanish mavzusiga oid maktab va oliy talim muassasalari darsliklaridan foydalanib yozilgan maqolani guvohi bo’lasiz

**Kalit so’zlar:** Kimyoviy bog’lanish, elektroman- fiylik, kovalent bog’lanish, qutbli va qutbsiz kovalent bog’lanish, donor-akseptor bog’lanish, vodorod bog’lanish, ion bog’lanish, metall bog’lanish, valentlik, oksidlanish darajasi.

**Аннотация:** В этой статье вы станете свидетелем написанной с использованием учебников школ и вузов статьи на тему химических связей: ковалентных связей, которые являются одной из неотъемлемых частей химии.

**Ключевые слова:** Химическая связь, электроотрицательность, ковалентная связь, полярная и неполярная ковалентная связь, донорно-акцепторная связь, водородная связь, ионная связь, металлическая связь, валентность, степень окисления

**Annotation:** In this article, you will witness an article written using the textbooks of schools and higher education institutions on the topic of chemical bonds: covalent bonds, which is one of the integral parts of chemistry.

**Keywords:** Chemical bond, electronegativity, covalent bond, polar and non-polar covalent bond, donor-acceptor bond, hydrogen bond, ionic bond, metallic bond, valency, oxidation state

Hozirda fanga millionlab kimyoviy moddalar ma'lum. Har qanday kimyoviy modda - atomlar va ularning birikishidan hosil bo'lgan kristallar, molekulalar va ionlardan tashkil topgan materiyadir. Bularda atomlar bir-biri bilan ma'lum turdag'i bog'lanishlar (kuchlar) vositasi- da birikadi. Bu bog'lanishlar yuzaga kelish mexanizmi, tabiatiga ularda ishtirok etuvchi zarrachalarning turlariga ko'ra bir necha xil bo'ladi.

Kimyoviy bog'lanishlarga va ularning hosil bo'lishiga atomlarning elektron tuzilishi nuqtai nazaridan qarash lozim. Chunki kimyoviy bog'lanishlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi asosiy vosita - elektronlar va elektron bulutlaridir. Umuman har qanday kimyoviy bog'lanish o'zaro birikuvchi atomlar tashqi (va tashqidan oldingi) elektron qavatdag'i bir yoki bir necha elektron bulutlarining yadrolar o'rtasida qayta taqsimlanishi (bir-birini o'zaro qoplanishi) natijasida hosil bo'luvchi ko'p yadroli va ko'p elektronli sistemadir. Shu nuqtai nazardan kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limotlarni o'rganish hozirgi zamon kimyosining asosiy masalalaridan biridir. Bu ta'limotni bilmay turib kimyoviy birikmalarining turlitumanligi sabablarini, ularning hosil bo'lish mexanizmini, tuzilishini va reaksiyaga kirisha olish xususiyatini to'la tushunib bo'lmaydi. Molekulada atommuni tutib turadigan kuchlarning yig'indisiga kimyoviy bog'lanish deyiladi.

Hozirgi vaqtida molekulalarda element atomlarning qanday bog'langanligi quyidagicha tushuntiriladi: kimyoviy bog'lanish pay tida element atomlarning tashqi va tashqidan oldingi energetik pog'onachalaridagi elektronlar ishtirok etadi va qayta taqsimlanadi.

Kimyoviy bog'lanishda ishtirok etuvchi bu elektronlar valent elektronlar deyiladi. Bosh guruhcha elementlari tashqi qavat elektronlari bilan yonaki guruhcha elementlari tashqi va tashqidan oldingi ikkinchi qavat elektronlari bilan

kimyoviy bog’lanishda ishtirok etishi mumkin. Ularning maksimal sonini elementning davriy sistemadagi joylashgan o’midan, ya’ni guruh raqamidan bilish mumkin (ayrim elementlar bundan mustasno). Element atomlari tashqi energetik pog’onalalarini tugallashga inti- ladi. Buning uchun ayni atom boshqa atomlardan elektron olishi yoki valent elektronlarini birgalikda juftlashtirishi yoxud boshqa atomga elektron berishi mumkin. Element atomlari orasida qanday bog’lanish vujudga kelishi elementlarning elektromanfiyligiga bog’liq. Elektromanfiylik - molekuladagi atomlarning o’ziga elektron tortib turish qobiliyatidir. Ayni elementning taqribiy elektromanfiyligi (EM) uning elektron- ga moyilligi E bilan ionlanish energiyasi (1) yig‘indisiga (yoki uning yarmiga) teng:

Gazsimon fazada bo’lgan normal holatdagi atomdan bir elektron- ni batamom chiqarib yuborish uchun zarur bo’lgan minimal energi- ya miqdori ionlanish energiyasi deyiladi. Element atomi bir elektron biriktirib olganda ajralib chiqadigan energiya miqdori ayni elementning elektronga moyilligi deb ataladi.

Kimyoviy bog’lanish va uning turlari: 1916 yilda amerika olimi J.Lyuis kimyoviy bog’lanish bir vaqtning o’zida ikkala atomga tegishli bo’ladigan elektron juftlarining ho- sil bo‘lishi hisobiga vujudga keladi, degan fikrni bildirdi. Bu g’oya

Hozirgi zamon kovalent bog’lanish nazariyasiga asos bo’ldi. Shu yilning o’zida nemis olimi V. Kossel quyidagi fikrlarni bildirdi:

o’zaro ta’sir etuvchi ikki atomdan biri elektron berib, ikkinchisi elektron biriktirib oladi;

bunda birinchi atom musbat zaryadlangan ionga, ikkinchisi esa manfiy zaryadlangan ionga aylanib qoladi;

hosil bo’lgan qarama-qarshi zaryadli ionlarning o’zaro elektrostatik tortilishi barqaror birikma hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu fikr ion bog’lanish haqidagi hozirgi zamon tasavvurlarini yaratilishiga olib keldi. Elektron nazariya asosida atomlararo ikki xil bog’lanish mavjudligi aniqlandi. Birinchi xil bog’lanishda molekula zaryadlanmagan zarrachalardan iborat bo’ladi. Bu xil bog’lanish kovalent bog’lanish deb yuritiladi. Ikkinci xil bog’lanishda molekula qarama-qarshi elektr bilan zaryadlangan ionlardan iborat bo’lib, bu bog’lanish ion bog’lanish deb ataladi.

Kovalent bog’lanish. Kovalent bog’lanish, asosan, metalmas atomlari orasida vujudga keladi. Atomlarning o’zaro bir yoki bir necha elektron juftlik hosil qilishi

natijasida vujudga keladigan bog’lanish kovalent bog’lanish deyiladi. Kovalent bog’lanish tabiatiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: qutubsiz va qutubli kovalent bog’lanishlar.

Elektromanfiylik qiymati jihatidan o‘zaro teng bo‘lgan element atomlari o‘rtasida vujudga kelgan bog’lanish qutbsiz kovalent bog’la-nish deyiladi. Qutbsiz kovalent bog’lanish asosan bir xil atomlar orasi- da vujudga keladi. Bunda umumlashgan elektron jufti xech qaysi atom tomon siljimagan bo‘ladi, chunki har ikkala atomning o‘ziga elektron- ni tortish qobiliyati, ya’ni elektromanfiyligi bir xil bo‘ladi.

Kovalent bog’lanishning bu turini bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Har birida bittadan elektron bo‘lgan ikki vodorod atomi o‘za-ro yaqinlashganda vodorod molekulasi (H) hosil qiladi. Bu jarayon quyidagicha ifoda qilinadi:

Har qaysi atomning umumi juft uchun beradigan elektroni sxe- mada nuqta bilan tasvirlangan. Vodorod molekulasida bir juft elektron ikki yadro orasida joylashishi natijasida barqaror konfiguratsiya hosil bo‘lishga olib keladi. Bunda atomlar o‘rtasida hosil bo‘lgan umumlash- gan elektron juftlik har ikkala atom yadrolaridan bir xil uzoqlikda joyla- shadi. Shuningdek, qutbsiz kovalent bog’lanishli moddalarga, vodorod bilan birga O, C, N, singari oddiy moddalarni hamda ayrim murakkab moddalari CH, CS, misol qilib keltirish mumkin.

Elektromanfiylik qiymatlari jihatidan bir-biridan oz farq qiladigan element atomlari orasida vujudga kelgan bog’lanish qutbli kovalent bog’lanish deyiladi. Kovalent bog’lanishning bu turini ham bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Vodorod xlorid molekulasingin hosil bo‘lishi, bog’lanishning bu turiga yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

Bunda atomlar o‘rtasida hosil bo‘lgan umumlashgan elektron juft- lik elektromanfiyligi kuchliroq element ya’ni xlor atomi tomon siljigan bo‘ladi, natijada molekulani bir tomonida musbat qutb, ikkinchi tomonida manfiy qutb (dipol) vujudga keladi. Molekula qutbli bo‘ladi.

Kovalent bog’lanishlar elektrmanfiyligi bir xil yoki bir biridan juda oz miqdorda farq qiladigan atomlar orasida hosil bo‘ladi. Masalan, vodorod atomlarining o‘zaro birikishi natijasida H<sub>2</sub>— vodorod molekulasingin hosil bo‘lishini ko‘rib chiqamiz

Atomlarning umumiy elektron juftlari vositasida bog’lanishi kovalent bog’lanish deyiladi. Elektrmanfiyligi bir xil bo’lgan atomlar orasida umumiy elektron juftlari hosil bo’lishi hisobiga vujudga keladigan kimyoviy bog’lanish qutbsiz kovalent bog’lanish deyiladi. Elektrmanfiyliklari bir-biridan biroz farq qiladigan atomlar orasida hosil bo’lgan kimyoviy bog’lanish qutbli kovalent bog’lanish deyiladi.

Kimyoviy bog’lanish nazariyasi hozirchi zamon kimyosining asosiy muammolaridan biridir ushbu maqolamda maktab va oliy talim muassasalari darsliklaridan foydalaniib ushbu mavzuni birlashtira oldim deb hisoblayman

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kimyoning zamонавоу муаммолари Shu.Akadifova D.S.Rahmonova S.R.Razzoqova J.N.Todjiyev
2. M.T.Abdulayev O.K.Ergashev B.A.Hayitov, kimyo
3. Sh.X.Shomurotova F.A. Djumayeva I.R.Asqarov, N.X.To’xtaboyev, K. G’opirov, kimyo 8-sinf.

## **ВНЕДРЕНИЕ МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС И ЗНАЧЕНИЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**

**Мухитдинов Собиржон Адхамжонович**

*Магистрант Наманганского государственного педагогического института*

*E-mail : [mukhitdinov19@mail.ru](mailto:mukhitdinov19@mail.ru) Тел : +998937880747*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается кредитно-модульная система и дальнейшее повышение качества образования в высших учебных заведениях. Кредитно-модульная система широко используется в системе высшего образования передовых стран мира. Одной из уникальных особенностей этой образовательной системы является то, что основной упор в образовательном процессе делается на самостоятельную работу студентов.

**Ключевые слова:** кредит, модуль, кредитно-модульная система, кредит-час, Болонское соглашение, Болонский процесс, система ECTS, возможность кредитно-модульной системы, значение кредитно-модульной системы.

В настоящее время в нашей стране реализуется множество реформ и работ в различных областях, в том числе в системе высшего образования, с целью заложить прочный фундамент будущего страны и выйти на уровень развитых стран. В систему образования страны внедряются новые образовательные технологии и зарубежный опыт, чтобы будущее поколение стало образованным и компетентным. В частности, присоединение Республики Узбекистан к Болонской декларации, подписанной 29 странами мира в июне 1999 года в Болонье, Италия, которая на данный момент стала участницей 48 стран мира, и начало работы по С введением кредитно-модульной системы в систему образования начался период современных изменений в системе высшего образования страны.

Одной из приоритетных задач нашей нынешней эпохи является совершенствование и повышение качества образования. Опыт развитых стран наглядно доказывает, что реформы в сфере образования будут иметь большой эффект в будущем. Сегодня в нашей стране происходит внедрение новых систем управления в сфере образования, развитие уровня организации образовательного процесса на основе мирового опыта, повышение качества образования, развитие ответственности специалистов. в будущем стали актуальными проблемами. Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», утвержденное ПФ-60 от 28 января 2022 года и в целях обеспечения реализации решений Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 года № 824 «О мерах по совершенствованию системы, связанной с организацией учебного процесса в высших учебных заведениях высшего образования». В образовательном учреждении постепенно внедряется кредитно-модульная система. учреждения. Цифровые технологии и современные методы обучения включены в процессы высшего образования в

«Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан №ПФ- № 5847 от 8 октября 2019 года введение, широкое привлечение молодежи к научной деятельности, борьба с коррупцией, увеличение доли студентов, обучающихся инженерно-техническому образованию, внедрение кредитно-модульной системы, программ обучения, направленных на повышение практических навыков, конкретных задач по повышению определена доля практической подготовки. После этого постановления система высшего образования Республики Узбекистан постепенно переходит на кредитно-модульную систему. На основании решений Президента нашей Республики от 24 декабря 2021 года «О дополнительных мерах по обеспечению академической и организационно-управленческой независимости государственных высших учебных заведений» и «О мерах по обеспечению финансовой независимости государственных высших учебных заведений», начиная с января 2022 года 35 Данная система внедрена в высшем учебном заведении.

Мы знаем, что многие вещи в нашей жизни имеют единицу измерения. Например, единица измерения времени — секунда, веса — килограмм, длины — метр, электрического напряжения — ампер, жидкости — литр. Естественно задаться вопросом, а есть ли единица измерения образования или высшего образования? Можно сказать, что единицами измерения высшего образования являются степени бакалавра, магистра и доктора. Но это не единицы измерения образования, а его этапы. К сожалению, в нашей стране в настоящее время нет понятной каждому единицы измерения, с помощью которой регулярно оценивается успеваемость студентов высшей школы и их становление как специалистов. Прежде всего, кредитно-модульная система привносит в систему высшего образования нашей страны гораздо лучшую, современную, но понятную единицу измерения образования, чем нынешняя. Согласно ему программы высшего образования делятся на различные предметы и модули, нацеленные на конкретные результаты обучения. Каждый предмет или модуль представлен определенным количеством кредитов в зависимости от объема учебной нагрузки по нему. Например, каждый предмет может составлять в среднем 5, 6 или 7,5 кредитов. Установлено, что студенты накапливают

определенное количество кредитов каждый семестр и учебный год и после набора соответствующего количества кредитов им присваивается степень бакалавра или магистра.

Зарубежные исследователи, такие как К.Рико, А.Тров, Б.Селлин, Юлия, в своих научных работах научно обосновали введение системы кредитных модулей, ее достижения и недостатки.

#### Что такое кредитно-модульная система обучения?

«Кредит (зачет) — единица измерения учебной нагрузки, затрачиваемой на изучение и освоение предметов по определенной образовательной области или программе. Кредит – это минимальная мера времени, отведенная обучающимся на аудиторную и самостоятельную учебу, обычно одна неделя, определенная нормативным документом. Зачет выдается студенту после выполнения назначенных заданий по конкретному предмету и успешной сдачи итогового экзамена. Каждый студент должен накопить кредиты, чтобы в будущем получить диплом по выбранной им области и специальности. Накопленный кредит будет служить студенту для повышения своей квалификации или получения дополнительного высшего образования на протяжении всей жизни. Модуль – это часть учебной программы, в рамках которой изучаются несколько предметов и курсов. Это совокупность нескольких предметов (курсов), направленных на приобретение студентами определенных знаний и навыков, аналитическое и логическое наблюдение. Согласно зарубежному опыту, учебный процесс по кредитно-модульной системе состоит из 2-4 модулей в семестр. Предметы, входящие в модуль, формируются от простого к сложному, от теоретико-методологических предметов к прикладным предметам и основаны на принципе логической взаимодополняемости.

В кредитно-модульной системе ECTS 1 кредит эквивалентен в среднем 25-30 академическим часам обучения. То есть, чтобы студент мог получить соответствующие кредиты по конкретному предмету, ему необходимо выполнить определенный объем учебной нагрузки. Нагрузка на чтение – это количество времени, которое требуется учащемуся для выполнения всех систематических упражнений и действий по чтению, направленных на достижение конкретных результатов обучения. Это означает, что учебная нагрузка в 25-30 часов,

$$x_1 = x_0 + \frac{m}{d}t_1, \quad x_2 = x_0 + \frac{m}{d}t_2, \quad m$$
$$\frac{m}{d}t_1 \equiv \frac{m}{d}t_2 \pmod{m}.$$

taking into account that, from the last comparison, we make a comparison according to Theorem (1.2). From this we conclude as follows: we form incomparable solutions modulo m of the form (1.2) when the integer t changes modulo d in the class of complete residues. So, the number of such solutions is exactly d:

$$t_1 \equiv t_2 \pmod{d}$$

$$x = x_0 + \frac{m}{d}t, \quad t = 0, 1, \dots, d - 1.$$

Now we consider a special type of comparison (1.1), that is, a linear comparison. According to Theorem (1.2), it is necessary and sufficient to have a comparable solution. For a given number, the solution of the comparison is called the inverse of the number a modulo m.

$$ax \equiv 1 \pmod{m}$$
$$ax \equiv 1 \pmod{m}$$
$$(m, a) = 1$$
$$a \in Z(m, a) = 1$$
$$ax \equiv 1 \pmod{m}$$

Here is one of the important issues that we will need later. What integers are inverse modulo p for a given number? The answer to this question can be found in the following statement.

$$p \in P$$

**Confirmation 1.1.1.**  $p \in P$  be given. Then it is necessary and sufficient for the number p to be its inverse modulo that either or is positive.

$$a \in Na \equiv 1 \pmod{p}$$
$$a \equiv -1 \pmod{p}$$

Proof: If or holds, then is true. This means that the number a is inverse of itself modulo p.

$$a \equiv 1 \pmod{p}$$
$$a \equiv -1 \pmod{p}$$
$$a^2 \equiv 1 \pmod{p}$$

Now let's assume that the number a is inverse of itself modulo p, that is, . Then, taking into account that the number p is prime, we find that or or. From this

it follows that one of the comparisons is appropriate. $a^2 \equiv 1 \pmod{p}$  $p \mid (a^2 - 1)p$   $(a - 1)p \mid (a + 1)a \equiv 1 \pmod{p}$   $a \equiv -1 \pmod{p}$

### References

1. Хренников А.Ю Неархимедов анализ и его приложения. – М.:Физматлит. 2003
2. Rozikov . U.A What are p-Adik Numbers? What are they used for?. Asia Pacific Math. Newsletter, 2013.V.3, No.4., p.1-7
3. Розиков.У.А. , Ҳакимов О.Н. р-адицеские гиббсовские меры и марковские случайние поля на счетных графах. Теоритическая и математическая физика. 2013,V.175 , No.2.
4. Ganikhodjayev N, The Potts model on  $Z^d$  with countable set of spin values. J.Math.Phys.45(2004) 1121-1127.
5. U.X. Narzullayev., A.S.Soleev., Sonlar nazariyasi asoslaridan masala va mashqlar. Samarqand-2011
6. Alan Adolphson, Steven Sperber, Marvin Tretkoff. p-adic methods in number theory and algebraic geometry. AMS, Founded, 1992.

## ADABIYOTNI O’QUV FANI VA SAN’AT TURI SIFATIDA O’QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Saodat Kambarova*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va  
adabiyoti universiteti O’zbek adabiyoti ta’limi kafedrası  
dotsenti, ped. fan. dok. (PhD)*

*Zeynep Jumatayeva*

*Qozog’iston Respublikasi*

*Nazarbayev universiteti professori,  
pedagogika fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Amaliyotda adabiyot o’qitishdan bosh maqsad ma’naviy yetuk, estetik jihatdan sezgir shaxsni tarbiyalash, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Bunda kitobxonni tarbiyalash maqsadi emas, balki badiiy adabiyot orqali uning

zamiridagi ma’naviy boylikni o’zlashtirish vositasi, yo’li ham muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada shu jihatlar tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar.** Adabiyot, san’at turi, o’quv fani, so‘z san’ati, idrok, adabiy kompetemsiya, badiiy matn, nutq, muloqot.

**Kirish.** Adabiyotning “insonshunoslik” degan ta’rifi ko‘pchilikka ma’lum, biroq uning ma’nosи nafaqat dunyoni va insonni bilish, balki ongini ilg‘or g‘oyalar ta’sirida o‘zgartirish orqali atrof-olamga, hayotga, o‘zlikni anglashga to‘g‘ri yo‘naltirish hamdir. Adabiyotshunos olim D.Quronov ta’kidlaganidek, “Modomiki, badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisadir. Faqat bunda bilishning san’atga xos yo‘lidan boriladi – adabiyot badiiy obraz vositasida fikrlaydi va ifodalaydi. Shunga binoan, adabiyot ikkiyoqlama hodisa, u san’atga ham, ijtimoiy ongga ham birdek aloqadordir”. Tadqiqot ishimizda ahamiyat qaratilgan axloqiy-estetik tarbiyaga xos formulalarni tahlilga tortish turli mamlakatlarda turlicha talqin qilinishini ko‘rsatdi. Masalan, Yevropa va AQSH maktablarida adabiyotni o‘qitish maqsadi san’atning yosh avlodga ta’siri muammosini maxsus o‘rganish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda yoshlarni estetik tarbiyalash, badiiy matn nafosatini his etishning to‘liqligi; bog‘lanishli nutq, obrazli fikrlashni rivojlantirish, aqliy va jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari nazarda tutiladi.

**Asosiy qism.** Ayonki, badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish va faoliyati maqsadlari yetakchilik qiladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya kabi rivojlangan davlatlarda adabiyot kursining asosiy maqsadi ona tilini barcha funksiyalari va uslublarida o‘zlashtirish, faol nutq malakalarini egallash, til orqali badiiy matn olamiga kirib borishdir. Shuning uchun ham adabiyotni o‘rganish jarayonida tarbiya, ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar muammosi muqarrar ravishda yuzaga chiqadi. Mazkur jihatlarni adabiyotni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganish misolida ham ko‘rsatish mumkin.

So‘nggi vaqtarda ayrim metodist va adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘quvchilarning muallif, muallif shaxssi, muallif nuqtayi nazari, muallif strategiyasi,

kitobxon munosabati, ijodkor-kitobxon, asar sujeti va kompozitsiyasi kabi tushuncha va kategoriyalar mazmunini o’zlashtirish, tahlil va talqin uyg‘unligiga doir ilg‘or tajribalarga tayanib, adabiyot o’qitish mazmunini takomillashtirish borasida tavsiyalar berilmoqda. Bu borada pedagogika va psixologiya fanida erishilgan yutuqlarga asoslanilmoqda, muvaffaqiyatli deb tan olingen yondashuvlar taklif qilinmoqda. Xususan, eng yaqin rivojlanish sohasi (L.Vigotskiy), konstruktivizm nazariyasi (Dj.Dyui), bola intellektining rivojlanishi nazariyasi (J.Piaje) shular jumlasidandir.

Amaliyotdan ma’lumki, pedagogik faoliyatda tadqiqotchilar o‘quvchi ma’naviy kamolotining qisqa yo’lini izlaydilar. O‘quvchilar adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini idrok etishi va tushunishlariga erishish uchun katta nazariy umumlashmalar olamiga kirishga harakat qiladilar. Biroq, bu urinishlar yoshga bog‘liq hodisa sifatida o‘quvchining obrazli umumlashtirish qonuniyatları va uni nazariy jihatdan o’zlashtirishi hali yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan izohlanadi. O‘quvchilarda adabiyotga ongli estetik munosabatni shakllantirish jarayonining tipik yosh chegaralarini aniqlashda shaxsning rivojlanish psixologiyasi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishimizga doir belgilangan muammolarni hal qilishda ontogenezning barcha xususiyatlari hisobga olindi. Erta yoshlik davrida insonning dunyoqarashi jadal va chuqur shakllana boshlaydi. Unda axloqiy e’tiqodlar tizimi tarkib topadi, badiiy didi, fan va san’atga moyilligi hamda qiziqishlari aniqlanadi. Qobiliyatlar intensiv holda rivojlanadi. O‘ziga va atrofidagilarga nisbatan tanqidiy munosabati shakllanadi, faol va mas’uliyatli fuqaroga aylana boradi. San’atni idrok etishning yoshga bog‘liq xususiyati o’smirlarda uning kuchli tarbiyaviy ta’siriga alohida sezgirlikni ta’minlaydi. Yuqori sinf o‘quvchilarining san’atga ongli estetik munosabatida vogelikka estetik munosabat aniq va jamlangan holda o‘z in’ikosini topadi. O’smirlar ongida tabiat, ijtimoiy hayot, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar va san’at asarlariga nisbatan e’tibor kuchaya borishi bilan ulg‘ayayotgan shaxsning asl insoniylik ma’nosini anglash jarayoni kechayotgani oydinlashadi. Aynan shu davr o‘quvchining bilim olishi va badiiy idroki rivojiga yordam beradi, ma’lum bir yetuklik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Inson o‘zining amaliy bilish faoliyati jarayonida atrof-muhit bilan o‘zaro

ta’sirlashadi. Buning natijasi o’laroq, ongida tegishli so‘zlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jonli taassurotlar muayyan tasvir yoki tushunchalar shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, kuzatish, o‘rganish, eshitish, kinestetika orqali shaxs va obyekt o‘rtasida qo‘l, ko‘z va xotira aloqasi mustahkamlanadi. Keyinchalik harakatlar avtomatlashib, tafakkurning ta’siriga ehtiyoj orta boshlaydi. Inson ongida hayotiga ta’sir qiladigan narsalarning o‘ziga xos izi bor, ya’ni boshidan kechirgan barcha jarayon muhrlangan va umumlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu esa, unda dunyo haqidagi muayyan tushunchalar, qobiliyat va kuzatishlariga muvofiq keladigan, shuningdek, boshqalarnikidan farqlanadigan shaxsiy tajribalarni hosil qiladi. Professor L.A.Novikov odatda voqelikni idrok etish insonda yashirin (latent) holda mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, zarur hollarda ular jonlanadi, qandaydir signallar, tashqi stimul yoki so‘z – dunyo haqidagi g‘oya va taassurotlar ta’sirida ongning “markazi”ga kiritiladi. Nazarimizda, olam to‘g‘risidagi muayyan qarashlar, taassurotlar kishilarning lingvistik muloqoti, matn yaratish, nutq rivoji va idrok etish uchun poydevor sanaladi. O‘s米尔 yoshlar adabiy asarlarni voqelikning individual hodisalari bilan taqqoslashga jiddiyroq yondashadilar. Bunda ular nafaqat adabiy ta’lim natijalari, balki ancha boy hayotiy tajribalariga ham tayanadilar. O‘s米尔 lar idroki asarning tashqi (real va badiiy dunyo) va ichki aloqalarini (badiiy tuzilish tamoyillari) tushunishlari bilan tavsiflanadi. Shu bois umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitish tizimi metodikaning kengayib borayotgan imkoniyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘quvchilarda adabiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda ular o‘quv dasturlariga muvofiq o‘rganadigan va mustaqil o‘qiydigan asarlar mazmun-mohiyati e’tiborga olinadi. Mumtoz va zamonaviy adabiy namunalarda o‘quvchilar voqelikning xilma-xil bog‘lanishlari aksini ko‘radilar, ya’ni hayotni obrazli takrorlash orqali bilib oladilar. Ular lirk va falsafiy nasr, fuqarolik va muhabbat lirkasi, klassik va zamonaviy dramaturgiyaning turli janrlariga mansub asarlar bo‘lishi mumkin. Bu asarlarda shaxs hayoti tasviri o‘ta murakkabligi, zamon va makon munosabatlari shartli “siljish”lari, voqelik o‘ziga xos ko‘rinishda ochib berilishi, psixologik teranligi, uslubiy shakllarga boyligi yosh kitobxonning adabiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarish uchun muhim materialdir.

Mumtoz adabiyotni o‘qib-o‘rganish, albatta, katta yoshdagagi o‘quvchilar

tafakkuri va nutqining rivojlanishi bilan bog’liq. Og‘zaki va badiiy tasvirda so‘z o‘zining predmetga bog’liqligida namoyon bo’ladi, lekin boshqa mavzu mazmuni bilan kontekstual munosabatlarda keng badiiy umumlashmalarni ifodalaydi. Shu bois badiiy obrazni og‘zaki, chuqur va adekvat idrok etish faqat kitobxon-o‘quvchi nutqining zarur darajasida, so‘z bilan ifodalangan yuqori turdagи umumlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan holda ham mumkindir. O‘quvchi idroki sezgir erta o‘s米尔lik davrida bu jarayonni ilmiy asoslangan holda boshqarish bosqichlarini imkon qadar to‘g‘ri aniqlash maqsadida batafsil va tabaqalashtirilgan o‘rganish talab etiladi. So‘nggi yillarda umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitish ko‘plab gazeta-jurnallar, ko‘rsatuv va eshittirishlarda deyarli doimiy mavzuga aylandi. Munozaralarda yoshlarni mutolaaga qiziqtirish, badiiy asarlarni idrok etish, adabiy ta’lim samaradorligini oshirish, milliy ta’limdagi muammolar muhokamaga tortilmoqda. Jumladan, o‘zbek adabiyotini o‘qitishning xalqaro standartlarga mos holda rivojana olmayotganiga adabiyotshunos olima Z.Mirzayeva tomonidan quyidagi sabablar keltiriladi:

**Birinchidan**, badiiy asarlarni o‘rganishga doir muayyan konseptual yondashuvlarning nazariy asoslari yaratilmayotganligi; **ikkinchidan**, fan va ta’lim integratsiyasi faqat qog‘ozlarda qolib ketayotganligi, metodika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar amaliyotga izchil tatbiq etilmayotganligi, aniqroq qilib aytganda, adabiy ta’lim va pragmatizm o‘rtasidagi aloqaning butkul uzilib qolganligi; **uchinchidan**, yaratilayotgan tadqiqotlar adabiy ta’limning faqat ichki imkoniyatlari doirasida qolayotgani; ...aksariyat hollarda samarasiz o‘qitish usullari qobiqlaridan chiqib keta olmaslik va yana bir qator noma’lum sabablar”.

Bizningcha, so‘nggi sabablar qatoriga ilg‘or o‘qituvchilar tomonidan qo’llanilayotgan badiiy asarlarni tushunishga doir yondashuvlarni ommalashtirish tajribasi oqsayotgani, o‘quvchilar adabiyotni faqat kelgusida o‘qishni nufuzli oliygohda davom ettirish uchungina o‘qiyotganini yoki bugungi kunda ma’lum ma’noda moddiy rag‘bat ilinjida mutolaa qilayotganini ham kiritish mumkin. Aslida o‘quvchiga kitobdan tuyg‘ularini ko‘rkamlashtirish, o‘qiganlaridan ma’naviy-estetik zavq ola bilish, asarda tasvirlangan vogelikdan tegishli xulosa chiqarish orqali katta hayotga o‘zini tayyorlash maqsadida foydalanish muhimligini anglatish bosh maqsad hisoblanadi.

Professor Q.Yoldoshev adabiy ta’limdagi mavjud muammolar ildizlari haqidagi chiqishlarida bu haqda quyidagi xulosalarga keladi: “O‘quvchi muayyan miqdordagi fan haqiqatlarini o‘zlashtirib oladigan obyekt emas, odam-u olamda ro‘y beradigan har qanday voqeа-hodisa va holatga o‘z nuqtayi nazari bilan sog‘lom munosabatda bo‘la oladigan shaxs sifatida shakllantirilishi kerak... Maktab adabiyoti uchun adib yoki asarning mavqeyi yoki mashhurligi emas, balki o‘quvchi ma’naviyatida shakllantirilishi lozim bo‘lgan ezgu axloqiy sifatni yuzaga keltirishga xizmat qilish darajasi muhim”. Darhaqiqat, barcha davrlarda ham san’at hodisasi sifatida badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati va estetik ta’siri dolzarb bo‘lib kelgan. Bugungi globallashuv davrida ham bu masalaga e’tibor susaygani yo‘q, aksincha, adabiy asarlar mohiyatidagi ma’noni uqish, muayyan voqelikni baholash, personajlar hayot yo‘liga munosabat bildirish kompetensiyalarini rivojlantirish; kitobga qiziqtirish orqali qahramonlarga hamdardlik hissini uyg‘otish kifoyaligi haqidagi fikrlar ilgari surilmoqda. Adabiyot o‘qitishga oid bahs-munozaralar jarayonida rasmiyatçilik va mantiqiylikni tanqid qilish bilan bir qatorda, o‘quvchi mustaqilligini ta’minlashga doir metodik fikrning o‘ziga xos yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Ushbu yo‘nalish vakillari metodikada o‘quvchilarining mustaqil fikrlari shakllanishini bilim olish jarayonidan noto‘g‘ri ajratib ko‘rsatishadi.

Badiiy asarni o‘quvchining tayyor bo‘lmagan dastlabki idrokiga asoslangan holda to‘liq tahlil qilish, metodistlar fikriga ko‘ra, bitta vazifaga – xatolarni tuzatish, birinchi o‘qishdan keyin o‘quvchilar tomonidan e’tiborga olinmagan va tushunilmagan jihatlarni to‘ldirishga bo‘ysunadi. Ammo kitobxonlikda ajdodlar tajribalarini o‘zlashtirmasdan, badiiy va ijtimoiy hayotga baho bermasdan turib, o‘quvchilarda haqiqiy fikr erkinligiga erishib bo‘lmaydi. Zero, tafakkur mustaqilli bevosta qalb va ruhiyat tarbiyasi bilan uyg‘unlashgandagina o‘z missiyasini bajaradi. Abu Nasr Forobiyning “Bolada katta imkoniyatlarga ega ko‘ngil bor. U his-tuyg‘uga, tafakkur orqali anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tafakkur bilan jismlar tushuniladi” degan fikrlari bu borada o‘rinlidir.

Abu Ali ibn Sino ta’limotida bilimlar tafakkurning sezgi, ko‘rish va eshitish kabi boshqa bilish jarayonlari bilan ta’sirlashishi o‘larоq chуqurroq o‘zlashtirilishi ta’kidlanadi. Alloma fikrlash doirasi o‘rganilayotgan narsa yoki hodisaning haqiqiy ma’nosini tushunishga yordam beruvchi quvvatligini ajratib ko‘rsatadi. Bolaga

vazifa berishda yoshiga xos xususiyat ham nazarda tutiladiki, bu tafakkurning shakl va turlariga chambarchas bog’liq. Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaga doir qarashlarida insondagi atrof-olam va tabiat hodisalariga nisbatan moyilliklar ham chetlab o’tilmaydi. O’quvchilardagi adabiyot va san’atga bo’lgan chinakam ishtiyoyq o’z-o’zidan, vaqtinchalik urflar ta’sirida emas, balki maqsadli bilim olish jarayonidagina paydo bo’lishi nazarda tutilsa, bu jihat ta’limning doimiy markazida bo’lishi talab etiladi. Umuman, adabiyot va san’at hodisalariga tanqidiy baho bera oladigan, shaxsiy qarashlarini zamonaviylik nuqtayi nazaridan ifodalay biladigan kitobxonning mustaqilligini yuksaltirish jiddiy va tizimli yondashuvlarni talab etadi.

O’quvchilarning nutqi rivojlanishi fonida badiiy nutqni idrok etish va tushunish so’z san’ati namunalarini o’qib-o’rganish ta’sirida mukammalashib boradi. Mazkur jihatni so’zning ko’p ma’noliligi, umumlashgan ma’nosи tarzida baholash mumkin. Badiiy kontekstning ichki semantik aloqalariga urg’u qaratish so’z ma’nolarini his qilish va matnni chuqurroq tushunishga yo’l ochadi. Badiiy tafakkurda psixik harakatlarning individual, shaxsiy xarakteri (majoziy umumlashtirish va aniqlashtirish), emotSIONAL bo’yoqdorligi, o’quvchidagi haqiqatni izlash istagini ro’yobga chiqaradi. Jarayonda ramziy umumlashtirish o’ziga xos aqliy harakat sifatida “o’zi”ga o’tkazish turi bilan tavsiflanadi, ya’ni badiiy asarni bilish jarayoni o’z-o’zini bilish jarayoni bilan birlashtiradi.

Adabiy ta’lim jarayonida ro’y beradigan mikro o’zgarishlar sharti asarni tahlil qilish va baholashda o’quvchilar mustaqilligi, berilgan bilimlar tizimliligi, olingan bilimlarni amalda qo’llash bo’yicha kompleks ko’nikmalarni shakllantirish bilan ta’minlanadi. Kognitiv faoliyatning faollashuvi asar matni ustida mustaqil ishlarni tashkil etishning tabiiy natijasidir. Kognitiv vazifalar turi muayyan pedagogik vaziyat (asarni o’rganish bosqichi), materialni idrok etish tabiat, asar janri va uslubiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Matn ustida ishslashda o’quvchilarni faollashtirish sun’iy “muhokama” muhitini yaratishni talab qilmaydi. Badiiy asar mazmuni o’quvchilarni asarda qo’yilgan muammolarning aniq tarixiy va umuminsoniy mohiyatini mustaqil ravishda anglash yo’lidan olib borish imkonini beradi.

Adabiyot darslarida ta’lim subyektlari bilvosita matn muallifi bilan “muloqotga kirishish” jaryonida badiiy asar mazmunini tushunadi, idrok etadi va munosabat bildiradi. Shu orqali keng qamrovli ma’lumotlarni o’zlashtirishga erishadi. Muloqotga o’quvchining yangi dialogik tajribalarni, kommunikativ ko’nikmalarni o’zlashtirishga qulay shart-sharoit yaratuvchi o’ziga xos ijtimoiymadaniy vosita sifatida qaraladi.

Muloqotga kirishish shaxs rivojlanishining umumiyligi ko’rsatkichlaridan sanaladi. Muloqotga turli xarakter va faollikkagi o’quvchilar kirishadi. Tajribalarimiz davomida har qanday sinfda o’quvchilarning uchta: dialogda rasmiy ishtirok etish (unda ishtirok etishga taqlid qilish); ma’qullash istagi ustun (ularning o’z pozitsiyasini himoya qilish, shu bois dastlab boshqa qarashlarni tanqid qilish); haqiqatda o’zini dialogik tutadigan o’quvchilar (pozitsiyasini boyitish va hatto qayta ko’rib chiqishga intiladigan) guruhini ajratish mumkinligi ma’lum bo’ldi. Shu o’rinda ta’kidlash muhimki, muloqotga kirishish uchun, avvalo, o’quvchida dialogik bo’lish istagini ustunligidir. Shunga ko’ra, asar matni bilan dialogni va muallif bilan suhbatni nomlash zarur bo’ladi.

*Birinchi muloqot turi.* Bu madaniyat va uning ajralmas qismi bo’lgan adabiyot orqali dunyoning rang-barangligini o’rganishni nazarda tutadi.

*Ikkinchi muloqot turi* – badiiy matn bilan suhbat. Bu o’qituvchining yuqori darajadagi filologik mahoratiga egaligi, o’quvchiga matnni chuqur idrok etishiga yo’naltirish qobiliyatini anglatadi.

*Uchinchi muloqot turi* muallif bilan – boshqa dunyoqarashni aniqlash usuli sifatida zarur. O’quvchi nuqtayi nazari o’qituvchi tomonidan aniqlanishi, o’z qarashlarini yozuvchining ijodiy ifodalangan pozitsiyasi bilan qiyoslash, tushunish va boshqalarga taqdim etish usuli sifatida ifodalangan.

*To’rtinchi muloqot turi* – tarbiyalanuvchilarning anglash malakalariga asoslanadi. Boshqa odamlar hayoti va tafakkurining konteksti tashqarisiga chiqadi, ularni birgalikda yaratish darajasiga ko’taradi.

*Beshinchi muloqot turi.* Bu o’quvchining o’z shaxsini rivojlantirish, individual va ijtimoiy imkoniyatlarini oshirish jarayonlarini tavsiflaydi.

San’at va adabiyot bilan muloqot dunyoni bilish usullari, mavjud madaniyat va adabiyotlarning o’zaro bog’liqligi zarurati asosida muhokama qilinishi kerak.

Asar bilan muloqot o‘rnatish jarayonida o‘quvchiga adabiyot va san’atga doir savollar berish, ularning javoblari asosida olam sinoatlari va madaniyatning o‘ziga xosliklarini tadqiq etishga yo‘naltiriladi. Badiiy matn bilan muloqot deganda ma’lum ma’noda adresat – kitobxon va uning bilish faoliyati, tasvirlangan voqelikka munosabati nazarda tutiladi. Bu, shubhasiz, o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ham qiziqarli. Zero, o‘qituvchi maktabga faqat dars berish uchungina emas, balki o‘quvchilar hayot haqiqati va badiiy asar sujeti o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashlari yo‘lidagi “kashfiyot”larini ularish maqsadi bilan kelishi ham muhim sanaladi. Estetik vositalar asosida dunyoning ramziy manzarasini o‘zida mujassam etuvchi badiiy tizim bilan san’at asarlari o‘rtasida mohiyatdan dialog mavjud. Har bir inson oldida o‘zining bu dunyoda mavjudligini ifodalovchi va maqsadi bilan aloqador muayyan mummolar kuzatiladi. Ularning yechimi adabiy ta’lim jarayonida badiiy matnlarni tahlil qilish variantlari orqali hal qilinadi va mustahkamlanadi. Asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini idrok etish borliqning turfa sinoatlari haqidagi bilimlari kengashi, shaxsiy tajribalarini boyitishiga ta’sir ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilganda, muallif bilan xayolan muloqotga kirishish o‘quvchiga odamlar va dunyo haqidagi tasavvurlarini badiiy ifoda eta olgan ijodkor shaxsi bilan chuqurroq tanishish imkonini yaratadi. Bunday muloqot kitobxon-o‘quvchiga o‘zini ijodkor bilan solishtirish, badiiy matnda muallif shaxsiyati va tafakkur tarzi in’ikos topishini aniqlashiga yordam beradi. O‘quvchi yozuvchi mahorati, uslubining individualligini tushunishi uchun o‘qituvchi zimmasiga asarda aks etgan voqelik mohiyati hamda muallif nuqtayi nazarini tushunishga yetaklaydigan vositachi vazifasi yuklanadi. Shu tarzda o‘quvchilar idroki muloqotni rag‘batlantiruvchi omillardan biriga aylanadi, ularning intilishlarini zarur o‘zanga yo‘naltiradi.

### Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati

1. Жонматова Х. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия хақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 32 б.
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi: an’anaviylikdan zamona niylikka. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti, folklor instituti, 2020. – 192 б.
3. Новиков Л.А. Искусство слова. – М.: Педагогика, 1991. – 208 с.

4. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 393 б.
5. Хайруллаев Ф. Форобий руҳий процесслар ва таълим-тарбия тўғрисида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 98 б.
6. Yo’ldosh, Q. Global dunyoda adabiy ta’lim vazifasi // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2023. – № 1. – B. 3–5.
7. Yo’ldosh, Q. Zamonaviy filologik ta’limning yetakchi tamoyillari // “Global ta’lim va miliy metodika taraqqiyoti” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, ToshDO’TAU, 2020. – B. 5-, 7.

## **BOSHQARUV PROFESSIONAL TAYYORGARLIK DAN O’TGAN MUTAXASSISLARNING BIRGALIKDAGI FAOLIYATI**

***Abduxalikova Nafisa Xusanovna***  
***IQT (M) -23/1 magistratura talabasi***

Boshqaruv funktsiyalarining xalqaro, milliy yoki hududiy, tijorat yoki notijorat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida, shuningdek boshqaruvning har qanday o’zaro bo’ysunuvga asoslangan tizimida amalga oshirilishi, ularning mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida qo’llanilishi, aniq funktsiyalarga nisbatan o’zgarmasligi (ya’ni qanday aniq funktsiya amalga oshirilayotgan bo’lishidan qat’iy nazar, asosiy boshqaruv funktsiyalarining tarkibi va mazmuni o’zgarmasligicha qolaveradi), cheklangan resurslar sharoitida belgilangan vaqt oralig’ida boshqaruv maqsadiga erishishni ta’minlashi bunday funktsiyalarning ahamiyatini yuqori darajalarga olib chiqadi.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar boshqaruvning asosiy funktsiyalari tarkibi haqida turli xil fikrlarga ega. An’anaviy tarzda quyidagi funktsiyalar asosiy funktsiyalarga kiritiladi:

*Tashkil qilish (tashkillashtirish)*, ya’ni har qanday turdagи yangi va (yoki) ilgari yaratilib, bugungi kungacha ishlab kelayotgan tizimlarni o’zgaruvchan ichki va tashqi ta’sirlardan kelib chiqib sifat jihatidan takomillashtirishga qaratilgan faoliyat;


*rejalashтирish*, ya’ni turli rejalarни ishlab chiqish orqали boshqaruv ob’ektini maqsadli, dinamik va mutanosib rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan faoliyat;

*motivatsiya*, ya’ni. tashkilot xodimlarini ishlab chiqilgan rejalarga muvofiq samarali ishslashga faollashtiradigan va undaydigan rag’batlantirish tizimini yaratish bo‘yicha faoliyat;

*nazorat*, ya’ni boshqarish ob’ektidagi jarayonlar oqimini kuzatish, boshqariladigan parametr qiymatini berilgan dastur bilan taqqoslash, dasturdan og’ishlarni, ularning sababi, vaqt va joyi, shuningdek tabiatini aniqlashni o‘z ichiga oladigangan faoliyat;

*muvoifiqlashtirish*, ya’ni boshqaruv bilan bog’liq jarayonining izchilligi va uzluksizligini ta’minlashga, tashkilotlar, bo‘limlar va alohida ijrochilar ishidi izchillikka ular o‘rtasida oqilona aloqalarni o‘rnatish orqали erishishga qaratilgan faoliyat.

Boshqaruvning asosiy funktsiyalari bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, boshqaruv ta’siri mexanizmini ifodalovchi yagona jarayonni tashkil etadi.



**1-rasm. Boshqaruv jarayoni**

### **Boshqaruv funktsiya sifatida**

Mehnat taqsimotining rivojlanishi boshqaruv faoliyatining maqsadi va mazmuni bo‘yicha ishlab chiqarish funktsiyasidan tubdan farq qiladigan maxsus funktsiyaga aylanishiga olib keldi.

Boshqaruv faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida boshqaruv funktsiyalari deb ataladigan bir qator boshqaruv harakatlarini amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

### **Boshqaruv jarayon sifatida**

Shubhasizki, har bir boshqaruv funktsiyasini amalga oshirish mustaqil jarayondir. Biroq, boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish menejerning alohida, bir biriga bog’liq bo‘lmagan harakatlar ketma-ketligi emas, balki boshqaruv muammolarini hal qilish uchun barcha faoliyat turlarini birlashtirgan yagona jarayondir. Shunday qilib, boshqaruvni jarayon sifatida qabul qilishda urg’uni, ma’lum bir boshqaruv funktsiyasining bajarilishi boshqa boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish bilan o‘zaro bog’liq bo‘lishi kerakligiga berish kerak. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirishning “mikro jarayonlari” boshqaruvning yagona “makro jarayoni” sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Boshqaruv bo‘yicha mutaxassis - bu ma’lum ma’muriy va xo‘jalik vakolatlariga ega professional tayyorgarlikdan o’tgan boshqaruv mutaxassisidir.

Boshqaruv faoliyati bilan shug‘ullanadigan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari nafaqat menejment sohasidagi bilim, ko‘nikma va kasbiy malakalarni mukammal egallashlari, balki jismoniy tarbiya va sport xizmatlarini eng kichik tafsilotlarigacha professional darajada tushunishlari, pedagogik faoliyatning mohiyati va mazmunini bilishlari, shuningdek, ushbu bilimlarni amalda qo’llay olishlari kerak.

### **Boshqaruv apparat sifatida.**

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqaruv ushbu sohada faoliyat yuritadigan muayyan tashkilot va muassasalarning boshqaruv apparati faoliyatida namoyon bo‘ladi. Bunday apparatsiz tashkilot samarali ishlash u yoqda tursin, bir butun sub’ekt sifatida mavjud bo‘la olmaydi. Bunda nafaqat boshqaruv apparati mavjudligi, balki uning strukturaviy tarkibi, boshqaruv tuzilmasining bo‘g’inlari va elementlari o‘rtasidagi aloqalarning tabiatи, markazlashtirilganlik va



namarkazlashtirilganlik darajasi, apparatda turli lavozimlarni egallagan xodimlarning vakolatlari va majburiyatlari ham muhimdir.

## **ПОНЯТИЕ И ВИДЫ ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ**

***Собиржонова Севинч Акмалжон кизи***

*Наманганский государственный университет*

*Юридический факультет*

*Email: [sevinchsobirjanova05@gmail.com](mailto:sevinchsobirjanova05@gmail.com)*

**Аннотация:** освобождение от уголовной ответственности подразумевает освобождение лица, совершившего общественно опасное деяние, от негативных правовых последствий, связанных с признанием его виновным в установленном законом (судом) порядке. Все государства ведут борьбу с преступностью. При освобождении от ответственности лицо в правовом смысле считается не совершившим преступления, так как отсутствует обвинительный приговор. В статье тщательно раскроется понятие, и предусмотренные действующим законодательством виды освобождение от ответственности.

**Ключевые слова:** борьба с преступностью, наказания, уголовная ответственность, виновный, принципы дифференциации, гуманизм и справедливость, оправдание лица.

**Abstract:** Exemption from criminal liability implies the release of a person who has committed a socially dangerous act from the negative legal consequences associated with finding him guilty in the manner prescribed by law (court). All states are fighting crime. When released from liability, a person in the legal sense is considered to have not committed a crime, since there is no conviction. The article will carefully explain the concept and types of exemption from liability provided for by current legislation.

**Key words:** Fight against crime, punishment, criminal liability, perpetrator, principles of differentiation, humanism and justice, justification of a person.

В процессе расследования преступлений органы следствия и прокуратура, а впоследствии и суд применяют нормы, регламентирующие освобождение от уголовной ответственности как по общим, так и по специальным основаниям. При этом нужно учитывать, что понятие уголовной ответственности шире, чем понятие наказания, ибо уголовная ответственность может применяться без наказания (например, включать принудительные меры воспитательного воздействия), тогда как наказание немыслимо без ответственности. Наказание является одной из форм реализации уголовной ответственности, потому освобождение от уголовной ответственности есть одновременно и освобождение от наказания. Освобождение от уголовной ответственности означает выраженное в акте компетентного государственного органа решение освободить лицо, совершившее уголовно наказуемое деяние, от обязанности подвергнуться судебному осуждению и претерпеть меры государственно-принудительного воздействия уголовно-правового характера. В определенных ситуациях достижение целей борьбы с преступностью возможно без привлечение виновных к уголовной ответственности или же с осуждением, но с освобождением от реального отбывания наказания. В этой связи в уголовном законодательстве Республики Узбекистан регламентируются институты освобождения от ответственности и освобождения от наказания . Глава XXI Общей части УК устанавливает основания освобождения от уголовной ответственности в связи с определенными обстоятельствами. Эти обстоятельства характеризуют такие условия, чтобы всякое лицо, совершившее преступление, потерпело отрицательные последствия своего противоправного поведение. Возможность освобождение лиц, совершивших преступления, от уголовной ответственности следует рассматривать в качестве реального проявления принципов ее дифференциации и индивидуализации, а также принципов гуманизма и справедливости.

Освобождение от уголовной ответственности – это отказ государства в лице органов, осуществляющих борьбу с преступностью, от осуждение лица, совершившего преступление, но впоследствии утратившего свою прежнюю общественную опасность в силу ряда обстоятельств, указанных в УК.

Освобождение от уголовной ответственности осуществляется либо судом без вынесения обвинительного приговора, либо судьей, прокурором, а также следователем с согласия прокурора. Оно оформляется постановлением об отказе в возбуждении уголовного дела либо постановлением определением суда о прекращении уголовного дела.

Для принятия такого решения необходимо наличие указанных в законе условий например, возмещение причиненного преступлением вреда, явка с повинной. Закон, таким образом, допускает возможность освобождения от уголовной ответственности, либо гарантирует освобождение от уголовной ответственности в обмен на выполнение виновным позитивных действий или соблюдение определенных правил. Анализ норм уголовного права позволяет делать вывод, что в ряде случаев освобождение от уголовной ответственности является правом компетентных органов, несмотря на наличие всех необходимых предпосылок для принятия соответствующего решения. Иначе говоря, полномочные органы самостоятельно разрешают вопрос о целесообразности освобождения от уголовной ответственности, учитывая как интересы виновного лица, так и публичные интересы потерпевшего, общества, государства. Необходимо отметить, что, будучи отказом от осуждения лица в форме вынесения обвинительного приговора, освобождение от ответственности все же не означает государственного одобрение преступного поведения. Поэтому важно различать обстоятельства, являющиеся основанием для освобождения лица от уголовной ответственности, от оправдания лица или обстоятельств, исключающих преступность деяний.

Оправдание лица – свидетельствует о том, что отсутствует либо лицо не причастно к совершенному преступлению, что является основанием для вынесения оправдательного приговора в его отношении.

Обстоятельства, исключающие преступность деяния, заключается в том, что, хотя деяние лица внешне и схоже с преступным, но таковым оно не является в силу общественной опасности. Основания для освобождения от уголовной ответственности возникают, когда лицо виновно в совершении конкретного общественно опасного и уголовно наказуемого деяния. А это является объективной основанием освобождения от уголовной ответственности.

Уголовно-правовое основание освобождения от уголовной ответственности это закрепленные в конкретной статье УК различные обстоятельства, влияющие на характер и степень общественной опасности деяния и лица, его совершившего, которые позволяют сделать вывод, что это лицо не нуждается в исправлении с помощью уголовного наказания. Уголовно-правовое основание следует отличать от социальных оснований освобождения от уголовной ответственности. Социальные основания — это причины, мотивы отказа государства от осуществления своего права назначать меры уголовно-правового принуждения лицу, совершившему преступление. Общим социальным основанием освобождения от уголовной ответственности является утрата или снижение общественной опасности лица, совершившего преступление, до такой степени, при которой его уголовное преследование становится нецелесообразным.

Таким образом, наряду с общим основанием существуют также специальные основания освобождения от уголовной ответственности, закрепленные в конкретных статьях УК. Специальные основания это обстоятельства, характеризующие конкретное общественно опасное деяние и личность, которые позволяют сделать вывод о том, что лицо не нуждается в применении к нему уголовного наказания и может быть исправлено без его назначения.

### **Список использованных литератур**

- 1.Гурулев Д.В Прекращение уголовных дел в связи с деятельным раскаянием // Законность – 2014 - № 7. – С. 42 – 45.
2. Бриллиантов А.В. Освобождение от уголовной ответственности: с учетом обобщения судебной практики: научно-практическое пособие/ А.В. Бриллиантов: Росл.кад, правосудия. – М.:Проспект, 2010 – 111с.
3. Уголовный кодекс Республики Узбекистан , “Адолат” – 2021
- 4.Курс уголовного права Республики Узбекистан, М.Х Рустамбаев , Ташкент – 2009
5. <https://lex.uz/docs/111457>
6. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Освобождение\\_от\\_уголовной\\_ответственности](https://ru.wikipedia.org/wiki/Освобождение_от_уголовной_ответственности)
7. <https://be5.biz/pravo/u040/19.html?ysclid=lw7aonm5px817003516>



## MUXTOR AVEZOVNING “KO’KYOL” HIKOYASIDAGI BO’RI OBRAZINING O’RNI

*Ismoilova Madinaxon Yoqubjon qizi*

*NamDU filologiya fakulteti o’zbek tili yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Ashurov Bekzod Shavkatjon o‘g‘li*

*NamDU o’zbek adabiyotshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi*

*E-mail: [bekzod.ashurov.1994@mail.ru](mailto:bekzod.ashurov.1994@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yozuvchi Muxtor Avezovning “Ko’kyol” hikoyasidagi qahramonlar, ularning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, yozuvchi badiiy maqsadini ochishga qay darajada xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi. “Ko’kyol” hikoyasidagi bo’ri obraziga xos xarakterli xususiyatlarni yoritilgan. Bo’ri obrazi Qur mash ismli bolakay obraziga qarshi qo’yilgan holda tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar.** Muxtor Avezov, hikoya, obraz, “Ko’kyol”, bo’ri, Qur mash.

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются персонажи повести «Коёл» писателя Мухтара Аvezова, их идеально-художественные характеристики, а также в какой степени они служат раскрытию художественной цели писателя. Выделены характерные черты характера волка в повести «Коёл». Образ волка анализировался на фоне образа мальчика по имени Курмаш.

**Ключевые слова.** Мухтар Аvezов, рассказ, образ, «Коёл», волк, Курмаш.

**Abstract.** This article discusses the characters in the story "Kokyol" by the writer Mukhtar Avezov, their ideological and artistic characteristics, and to what extent they serve to reveal the writer's artistic goal. Characteristic features of the character of the wolf in the story "Kokyol" are highlighted. The image of the wolf was analyzed against the image of a boy named Qur mash.

**Keywords.** Mukhtar Avezov, story, image, "Kokyol", wolf, Qur mash.

O’zbek xalq hikoyalarida hayvonlar obrazining badiiy talqini juda muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat azal-azaldan hayvonlar olamiga qiziqqa boshlagan.

Hayvonlarga nisbatan turlicha munosabat insonlarning nafaqat turmush-tarzi, urf-odatlari, balki badiiy ijodiga ham ta’sir ko‘rsatgani ma’lum. Ijodkorlar hayvonlar obrazini har doim majoziy ma’noda qo’llab, shu orqali atrofdagilarni o‘yga toldirishga, turli xulosalar chiqarishga undaydilar. Odamlardagi illatlarni yirtqich hayvonlar, yaxshi sifatlarni esa beozor hayvonlar obraziga singdirib, bu obrazlar orqali o‘z maqsadlarini badiiy ifoda etishadi. Hayvonlar haqidagi hikoyalar voqelikni allegorik va simvolik obrazlar yordamida ifodalovchi va odamlarning ko‘rinishlari, xarakter qirralarini kinoya, kesatish, kulgu, g‘azab kabi xususiyatlar vositasida oolib beruvchi epik janr hisoblanadi. Bunday hikoyalar hayotdagi barcha hodisalarning mohiyatini chuqur anglashga, anglaganda ham axloqiy-didaktik saboq va xulosalari, o‘git va nasihatlari bilan insonni poklikka, ezgulikka yetaklashga asoslangandir.

Badiiy adabiyotda xususan, xalq og‘zaki ijodida ham bo‘ri obrazi turlicha tahlil qilinadi. Ayrim manbalarda baxt ramzi deyilsa, qolganlarida qonxo‘rlik, yovuzlik ramzi sifatida uchraydi. Badiiy adabiyotdagi majoziy obrazlar folklor namunalari, hayvonlar haqidagi ertaklarga asoslangan bo‘ladi.

O‘zbek nasrida Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasi diqqatga sazovor asar hisoblanadi. “Qoplon” hikoyasi jamiyatdagi insonlarning nuqsonli hayotini, ayrim illatlarini, zamonning og‘riqli nuqtalarini oolib beradi. Ushbu hikoyada hayvon obrazi misolida munofiq, riyokor, mansabparast, xiyonatchi kimsa obrazi tasvirlanadi. Bu hikoya juda ham keng hayotiy mazmunga ega. Unda insonlardagi laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘lida boshqalarni qurban qilish, insonlarni mansabi, unvoniga qarab xushomad qilish kabi holatlar aks etadi. “ – Bu itni taniyman, dedi Tillayev va nariroqda yangi direktoring charm to‘nini artayotgan Qurbanboyga bir qarab, uyga kirib ketdi” Ushbu hikoyani Muxtor Avezovning “Ko‘kyol” hikoyasiga qiyoslash mumkin. Badiiy adabiyotdagi bunday jihatlar jahon va o‘zbek adabiyotining uzviy aloqada ekanligidan dalolatdir. Jahon adabiyotida yana bir qancha hayvonlar haqidagi hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Masalan, Jek Londonning “Bo‘ri bolasi”, “Izg‘irin bolalari”, “Hayotga muhabbat”, “Bo‘ri o‘g‘li”, Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a”, “Jonivorlar haqida hikoyalar” kabi kitoblari, turk yozuvchisi Aziz Nesinning “Hayvonlar haqida hikoyalar” kabi asarlar shular jumlasidan. Shuningdek, o‘zbek xalq yozuvchisi hisoblangan Shukur Xolmirzayev

ham tabiat va inson munosabatlarini keng ko’lamda tasvirlaydi. Yozuvchining “Ot egasi”, “Podachi” hikoyalarida insonning hayvonga muhabbatni “Ko’kboy” hikoyasida hayvonning insonga sadoqatini ko’rishimiz mumkin. U inson va hayvonlar haqidagi asarlarini bevosita o’zi tug‘ilib o’sgan joyning tabiatini va odamlarining xarakteridan kelib chiqib yozgan.

Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Hikoyada mifologiyaga xos unsurlar bo’lmaydi yoki juda kam uchraydi. Hikoyaning bir turi latifa yo masal kabi hayotdan bittagina epizodni aks ettirsa, boshqa bir turi qahramon hayotidan bir yoki bir-biriga uzviy bog’liq ikki-uch voqeani qalamga oladi.

“Adabiyotshunoslikda “badiiy obraz” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda “badiiy obraz” deganda borliqning san’atkori ko’zi bilan ko’rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi”, deydi adabiyotshunos D. Quronov.

Ma’jозиј (simvolik) obrazlar – predmatlar, o’simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarini umumlashtirib ifodalash demakdir. Ma’jозиј obrazlarda ifodalangan tasvirdan bevosita insonlarning munosabatini, ruhiy olamini anglaymiz.

Mustaqillik davri o’zbek nasri obrazlar tasvirida shaklga emas, ruhiyat tasviriga alohida e’tibor berilmoqda. Badiiy asarda odamga ijobiy yoki salbiy munosabat yozuvchi tomonidan qo’yilgan qolip bilan emas, balki kitobxonning o’ziga havola qilinmoqda. Har bir o’quvchi o’z qahramonini yangicha kashf qila oladi va bu hamma uchun qat’iy fikr yoki xulosa emas. Shu bilan bugungi davr nasri taraqqiy etadi.

*Emaklaydi bo’ri jim-jit,*

*O’ljaga intiq*

(Usmon Azim)

Hech bir asar o’z-o’zidan yaratilmaganidek, undagi badiiy obrazlar ham shunchaki tanlanmaydi. Bu badiiy obrazlarda ma’lum ma’noda hayot haqiqati, hayot bilan bog’liq, inkor qilib bo’lmas tabiat qonunlari ham aks etgan bo’ladi. Nega sirkda dahshatli timsohlar-u bahaybat fillarni, yirtqich arslon-u yo’lbarslarni qo’lga

o‘rgatishadi-yu, bo‘rini o‘rgatishmaydi? Chunki uning qonida doim vahshiylik yashirin bo‘ladi. O‘ljaga tashnalik hissi hamma narsadan g‘olib chiqadi. Gulhayo Mahamadaliyeva o‘z tadqiqotida bo‘rining xususiyati haqida aytib o‘tadi. “Bo‘ri baribir “Bo‘rilibini” qildi-da!!!”. Muxtor Avezovning “Ko‘kyol” hikoyasida esa “Ovuldagilarning “O‘g‘ri, asraganing bilan mol bo‘lmaydi. Nasli yov-ku, uning!” deb keltirilgan jumlasini eslashimiz mumkin. Bu hikoyada bo‘ri obrazi bosh obraz qilib olingan. Asar aka-ukalarining orasida yolg‘iz tirik qolgan bo‘ri bolasini ovuldagি Qur mash ismlи bolakayning boqib olishi bilan boshlanadi. Bolakay unga Ko‘kyol deb nom qo‘yadi. Avvaliga bo‘ri bolasi ovuldagи kuchuklardan-da nimjon, qo‘rqoq bo‘ladi. Lekin kuchuklar uni talashganda ham hech qachon dumini qisib qochmagan. Kuchuklarning tishlari botib, jonidan o‘tib ketsa, tishlarini tovushsiz irjaytirardi, xolos. Oradan vaqtlar o‘tib, Ko‘kyol kap-katta ko‘k chinoq bo‘ri bo‘lib yetishadi. Endi uni olapar ko‘ppaklar ham talay olmaydi. Xuddi shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, hayotda o‘z tengdoshlaridan qo‘rqib, kaltak yeb o‘sgan bolalar kundan kunga boshqalardan zo‘r bo‘lishga harakat qiladi. Bir kun kelib ularga hech kim teng kelolmay qoladi.

Ovuldagilarning “O‘g‘ri, asraganing bilan mol bo‘lmaydi. Nasli yov-ku, uning!” degan so‘zlari ham Qur mashga kor qilmaydi. Ko‘kyol o‘lgunday ochko‘z edi. Agar odam qarab tursa, oldiga qo‘yilgan ovqatga qaramaydi. Bordi-yu, odamning ko‘zi shamg‘alat bo‘ldi deguncha, ovqatni birpasda yo‘q qilib qo‘yardi. Yana qorni och bo‘lsa-yu, ovqat berishmasa, baribir topib yerdi. Qur mash qanchalik tarbiyalamasin, Ko‘kyol o‘g‘irlik bilan halol ovqatning farqiga yeta olmasdi. Bunday yirtqich hayvonlar o‘lja umidida halol nima, harom nima o‘ylab o‘tirmaydi. Hatto o‘z egasini ham ayab o‘tirmaydi, uni ham o‘ja sifatida ko‘radi. Buning isbotini hikoya so‘nggida ko‘rishimiz mumkin. Qur mash esa Ko‘kyolni o‘ziga do‘s’t deb biladi. Asar muallifi o‘zining bu hikoyasida do‘s’t tanlashda adashmaslikka ham chaqiradi desak, adashmagan bo‘lamiz. Zero, bulbul gulga, qarg‘a esa oxir-oqibat go‘ngga olib boradi. Yirtqichlar qonida doimo vahshiylik yashirin bo‘ladi. Ko‘kyol ham bundan ayricha bo‘lmadi. Qarashlari, tusi, boshdan-oyoq bo‘rilar kabi vahshiylashib ketdi. Shuning uchun yaqinlari Qur mashga vaqtida bo‘rini o‘ldirish kerakligi haqida aytishadi. U esa bunga ko‘nmaydi. Ko‘kyol oxir oqibat hammaga tanilgan vahshiy yirtqich bo‘ldi. Kichkina nimjonligi paytidagi ko‘rgan azoblari uchun o‘ch olishni

boshladi. Aynan shu bo‘rining tirik qolishi uchun sabab bo‘lgan Qur mash bir kuni uning bir oddiy o‘ljasiga aylandi. Qur mashning eng katta xatosi ham shu bo‘ri bo‘ldi. “Qilmish qidirmish” deganlaridek hech bir ayb yo‘q-ki, jazosiz qoladigan. Bu yirtqich uchun ham taqdir juda azobli jazoni tayyorlab qo‘ygandi. Uning vahshiyona hayotiga Oqqashqa nomli it yakun yasaydi. U aynan Qur mashning xunini olish uchun bo‘ri bilan qattiq jang qiladi.

